ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

“Самарқанд иқтисодиёт илмий мактаби”

«УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ»

Самарқанд иқтисодиёт илмий мактабининг асосчиси
Исмат Тўхтаевич Абдукаримовнинг
90 йиллик юбилейига
бағишланган халқаро илмий-амалий анжуман
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

(III қисм)
(2022 йил 18-19 февраль кунлари)

САМАРҚАНД – 2022

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

ТАМБОВ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ,

ҚАРШИ МУХАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ,

«ИПАК ЙЎЛИ» ТУРИЗМ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ХАЛҚАРО УНИВЕРСИТЕТИ,

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ САМАРҚАНД ФИЛИАЛИ

Самарқанд иқтисодиёт илмий мактаби асосчиси Исмат Тўхтаевич Абдукаримовнинг 90 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий-амалий анжуман

«УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ»
(III қисм)

2022 йил 18-19 февраль

САМАРҚАНД – 2022

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ,

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ,

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»,

САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

“Самаркандская научная школа экономики”

“ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ И ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ СТАНОВЛЕНИЯ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
международной научно-практической конференции, посвященной 90-летию основателя Самаркандской научной школы экономики И.Т.Абдукаримова
(часть 3)

(18-19 февраля 2022 г.)

САМАРКАНД– 2022

Учинчи ренессансни шакллантириш шароитида хизмат кўрсатиш ва таълим хизматлари соҳаларини ривожлантириш муаммолари. / Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (III қисм). 2022 йил 18-19 февраль кунлари. Самарқанд, СамИСИ, 2022. – 252 бет.

Нашр учун масъул:
М.Қ.Пардаев – иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раҳбари:
М.Э.Пўлатов – иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши аъзолари:
М.М.Мухаммедов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Ж.Р.Зайналов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
И.С.Тухлиев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
О.Муртазаев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Р.Х.Эргашев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
В.И.Абдукаримов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Н.А.Ибрагимов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
К.Б.Уразов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Қ.Ж.Мирзаев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
А.Эштаев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
С.Н.Ташназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор,
А.Н.Холиқулов – иқтисод фанлари номзоди, доцент,
Д.Ҳ.Холмаматов– иқтисод фанлари номзоди, доцент.

Саҳифаловчи: Ҳилола Очилова, Умида Равшанова

Анъанавий илмий-амалий конференция материалларида учинчи ренессансни шакллантириш шароитида хизмат кўрсатиш ва таълим хизматлари соҳаларини ривожлантириш муаммолари ва уларнинг ечимлари, соҳанинг алоҳида тармоқлари самарадорлигини ошириш истиқболларига оид масалалар ёритилган. Унда учинчи ренессансни шакллантириш шароитида иқтисодиётнинг назарий ва методологик муаммолари ва уларни ҳал қилишнинг стратегик йўналишлари, хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги, фаровонлиги, яшаш сифати ва даражасини ошириш масалалари, туризм соҳаси самарадорлигини ошириш механизмлари, ривожлантириш тенденциялари ва истиқболлари, менежмент ва маркетингни, инвестицияларнинг ўрни ва молиявий муносабатларни, бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил, аудит ва статистика фанларини такомиллаштириш масалалари, рақобатбардош кадрларни тайёрлашни такомиллаштириш муаммоларини ҳал қилишга қаратилган илмий-назарий ва амалий тавсияларга бой мақола ва тезислар ўрин олган.

Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари, талабалари, магистрлар, таянч докторантлар, докторантурада таҳсил олувчилар, мустақил изланувчилар ва соҳа мутахассисларига мўлжалланган.

Мақолалар муаллифлар таҳририда босилмоқда. Уларда келтирилган рақамлар, фактлар, хулоса ва тавсияларга муаллифлар масъул. Уларнинг айрим фикрлари ташкилий гуруҳ қарашларига тўғри келмаслиги мумкин.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2022

I ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ”

М.Қ.Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори, “Турон” ФА Академиги
У.Х.Холбоев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ўқитувчиси,

РАҚОБАТ НАЗАРИЯСИ: ТАЪРИФИ ВА ЭВОЛЮЦИЯСИ

Аннотация: ушбу мақолада рақобат тушунчасининг таърифи, моҳияти, ҳамда хўжалик юритувчи субъектларда рақобатнинг шаклланиши ва ривожланиш эволюцияси тўлиқ кўрсатиб берилган.
Калит сўзлар: рақобат, рақобат назарияси, рақобатбардошлик, бозор рақобати, рақобатнинг шаклланиши.
Аннотация: В данной статье дается подробное определение понятия конкуренции, ее сущности, а также становления и развития конкуренции в хозяйствующих субъектах.
Ключевые слова: конкуренция, теория конкуренции, конкурентоспособность, рыночная конкуренция, формирование конкуренции.
Abstract: This article provides a detailed definition of the concept of competition, its essence, as well as the formation and development of competition in business entities.
Keywords: competition, competition theory, competitiveness, market competition, the formation of competition.

Рақобатбардошликни назарий жиҳатдан таҳлил қилишдан олдин «рақобат» атамасининг мазмунини очиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

Аслида рақобат сўзи лотинча – “concurrentia” сўзидан келиб чиққан бўлиб, тўқнашмоқни англатади. Аммо рақобатнинг таърифи ҳақида олимларимиз ҳамон бир фикрга кела олган эмас. Бу борада айрим олимларнинг қарашларига тўхталишни мақсага мувофиқ, деб топдик. Жумладан, А.Н.Азрилиян раҳбарлигидаги муаллифлар жамоаси рақобатга қуйидагича таъриф беради: “Товар ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги капитал, хомашё ва бозорни таъминлаш учун қулай соҳани эгаллашга қаратилган мусобақа”. [1] А.М.Румянцев раҳбарлигидаги муаллифлар жамоаси эса “Товар ишлаб чиқаришга хос, хусусий мулкчиликка асосланган бўлиб, хусусий товар ишлаб чиқарувчилар ўртасида товарни ишлаб чиқариш ва сотишда қулай шароит учун муросасиз кураш

[1] Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики. 1999. – 375 бет.

жараёни.” [1] – деб таъкидлайдилар. Айрим олимлар эса, рақобатни бозордаги кураш тарзида идрок қилади. Хусусан, А.Г.Грязнова раҳбарлигидаги муаллифлар жамоаси рақобатни “Истеъмолчиларнинг чегараланган талабини қондириш учун турли фирмалар ўртасида ўзларига мақбул бўлган бозордаги кураши” [2] – деб кўрсатадилар. Шунга яқин фикрларни яна бир гуруҳ олимлар ҳам таъкидлашадилар. В.И.Видяпин ва Г.П.Журавлёвалар раҳбарлигидаги муаллифлар жамоаси рақобатни “Бозор муносабатлари иштирокчиларининг товарни ишлаб чиқариш ва сотишда қулай шароитга эга бўлиши учун кураш жараёни”[3] – сифатида қарайдилар. Бироқ, айрим олимлар ушбу масалага бошқачароқ ёндашадилар. Масалан, Н.Грегори Монкью “Бозор рақобати – кўп сотувчи ва кўп харидорга эга бўлган бозор бўлиб, уларнинг ҳар бирининг бозор баҳосига маълум миқдорда таъсир этишидир”[4] – деб уқтиради. Мамлакатимиз олимларидан А.Ўлмасов ва А.Вахабовлар “Рақобат – бозор иқтисодиёти иштирокчиларининг ўз манфаатларини юзага чиқариш учун бир-бири билан кураши, уларнинг ўзаро беллашувидир” [5] , деб таъкидлайди. Мамлакатимизнинг назариётчи олимларидан Ш.Ш.Шожмонов ва Б.Э.Мамарахимовлар ҳам рақобатнинг таърифи бўйича ўзларининг фикрларини билдирганлар. Хусусан ушбу олимларнинг фикрича “Рақобат – бозор субъектлари иқтисодий манфаатларининг тўқнашувидан иборат бўлиб, улар ўртасидаги юқори фойда ва кўпроқ нафликка эга бўлиш учун курашни англатади” [6] , дейилган. Худди шундай мамлакатимиз олимларидан Т.Жўраев ҳам ушбу категорияга таъриф берган. Мазкур оилмнинг фикрича: “Рақобат (лотинча conkуррере – қочиш, тўқнашиш) - бозор субъектлари иқтисодий манфаатларининг тўқнашувидан иборат бўлиб, улар ўртасидаги юқори фойда ва кўпроқ нафлик ва омилли даромадга эга бўлиш учун курашни англатади” [7] .Ушбу таъриф Ш.Ш.Шожмонов ва Б.Э.Мамарахимовларнинг таърифига ҳамоҳанг. Самарқанд иқтисодиёт илмий мактабининг бир гуруҳ олимлари томонидан М.М.Муҳаммедов раҳбарлигида тайёрлаган дарсликда ҳам худди шундай фикр айтилган. Унда эътироф этишича “Рақобат – бозор субъектлари иқтисодий манфаатларининг тўқнашувидан иборат бўлиб, улар ўртасидаги юқори фойда ва кўпроқ нафликка эга бўлиш учун курашни англатади”[8]. Яна бир иқтисодчи олимларимизда И.Ибрагимов рақобатга кенгроқ тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлайди: “Рақобат – 1) алоҳида шахслар ўртасида ҳар бири ўзи учун шахсан эришишни мақсад қилган битта

[2] Экономическая энциклопедия. Политическая экономия. М.: СЭ. 1975. – 214-215 бетлар
[2] Микроэкономика. Теория и Российская практика. М.: ИТД КноРус., 1999. – 248 бет.
[3] Общая экономическая теория.Учебник. М.: Промо-Медиа., 1995. – 117 бет.
[4] Принципы экономикс. Санкт-Петербург. Питер., 1999. – 88 бет.
[5] Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. А.Ўлмасов, А.Вахабов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2014. – 202 бет.
[6] Иқтисодиёт назарияси. Маъруза матни. Ш.Ш.Шожмонов, Б.Э.Мамарахимов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2016. – 151 бет.
[7] Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Т.: “Fan va texnologiya”. 2017. – 210 бет.
[8] Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Fan va texnologiya”. 2018. – 125 бет.

йўналишдаги, хусусан тадбиркорлар ўртасида катта фойда олиш, савдо бозори, хомашё манбалари учун кураш; 2) моддий ва маънавий неъмтлар яратиш, сотиш ва истеъмол қилиш жараёнида бозор тизими субъектларининг коммуникацияси, кураши, ўзаро алоқалар иқтисодий жараёни; 3) бозор муносабатларининг тартибга солувчи, ФТТ ва жамоатчилик ишлаб чиқаришнинг самарадорлигини кучайтиришнинг стимулятори”[1] Булардан кўриниб турибдики, хали олимларимиз олдида рақобат тушунчасига назарий ва амалий жихатдан асосланган таърифини ишлаб чиқиш муаммоси долзарблигича қолмоқда.

Буларни инобатга олиб, рақобат категориясига оид ўзимизнинг такомиллашган таърифимизни ишлаб чиқдик. Чунки юқоридаги таърифларда рақобатнинг предмети кўрсатилмаган. Жумладан юқори фойда ва кўпроқ нафликка эга бўлиш қайд этилган, аммо нима эвазига бунга эришилиши қайд этилмаган. Бунда асосан кўпроқ маҳсулот (иш хизмат)ларини ишлаб чиқариб сотиш асосий жараён ҳисобланади. Шуниггдек, рақобатчиларга бир хил шароит бўлиши кераклиги ҳам инобатга олинмаган. Буларни инобатга олиб, бизнинг талқинимиз бўйича: “**Рақобат деганда, хўжалик юритувчи субъектларнинг маҳсулот (иш хизмат)ларини кўпроқ ишлаб чиқариб сотиш, юқори фойда олиш ва нафлиликка эришиш учун иқтисодий манфаатларининг тўхнашишида бир хил иқтисодий эркинликнинг таъминланган ҳолатдаги кураши тушунилади**”[2], дейилган. Шу тариқа рақобатнинг классик талқинига оид таърифи ишлаб чиқилди.

Мазкур саволнинг мазмунини очиб бериш учун эвалюция сўзининг маъносига алоҳида аҳамият бериш лозим, деб ўйлаймиз. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида эволюция сўзи лотинчадан олинган бўлиб, авж олдириш, кучайтириш маъноларини англатиши қайд этилган. Булардан келиб чиқиб, бирорта ҳодиса ёки категорияларнинг эвалюцияси деганда узлуксиз, тадрижий ривожланиш, ўзгариш жараёнлари тушунилади. Буни табиат ва жамият нуқтаи назаридан қаралганда, узлуксиз ва тадрижий ривожланиш натижасида миқдор ўзгаришларидан сифат ўзгаришларига олиб келадиган жараён тушунилади. Худди шундай рақобат назариясининг эволюцияси ҳам ушбу назариянинг тадрижий ривожланишини тавсифловчи, асословчи таълимотдан иборат

Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида ҳар бир хўжалик юритувчи субъект (ХЮС)нинг мулки ҳам, ишлаб чиқарган маҳсулоти ҳам, кимни ишлатиши каби ҳолатларнинг ҳаммаси мустақил ҳал қилинади. Фаолият кўрсатса фойда олади, фаолият кўрсатмаса “ўлади”. Бириор киши фаолиятингни жонлантир демайди ва мос равишда ҳеч ким “тўғоноқ” ҳам солмайди. Бундай эркинлик шароитида рақобат ҳар бир субъектни ишлашга, ишлаганда ҳам фаол ишлашга ундайди. Бундай шароитда рақобатбардошликни таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Иқтисодиётни

[1] Рақобатбардошлик методологияси: Ўқув қўлланма / И.Х.Ибрагимов: СамИСИ, 2018. – 287 бет.
[2] Пардаев М.Қ. Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. – Т.: “Fan va texnologiya”. 2022. - 72 бет.

эркинлаштириш ислоҳотларнинг биринчи босқичида мулкни давлат тасарруфидан чиқариб кўп мулкчиликка асосланган иқтисодиётни шакллантириш бўлса, ундан кейинги босқичларида давлатнинг хусусий тадбиркорлар фаолиятига аралашмаслик масаласи ҳам жорий қилинди. Бугунги кунда эркинлаштириш дегани – бу қўл оёғимизни кишан каби боғлаб турган ҳар қандай тўсиқлардан бутунлай халос бўлиш деганидир, деган ғоя ҳам олға сурилмоқда. Агар хар қандай тўсиқлардан бутунлай халос бўлсак, биз эркин рақобат асосида ривожланадиган иқтисодиётни шакллантирган бўламиз. Айнан шу ривожланиш рақобат назариясининг эволюциясини, яъни узлуксиз, тадрижий ривожланиш жараёнини ташкил қилади. Бу қуйидаги расмда ўз аксини топган (1-расм).



1-расм. ХЮСда рақобатнинг шаклланиши ва ривожланиш эвалюцияси

Расмдан кўриниб турибдики, ХЮСлар мулкни шакллантиришда ҳам, қандай фаолият юритишда ҳам, кимлар эвазига ходимларни ишга қабул қилишида ҳам эркин, мастақил бўлади. Бундай шароитда мувоффақият ҳам мағлубият ҳам ўзиники. Чунки, ҳозирги кунда тадбиркорлар фаолиятига, ХЮС ишларига давлат деярли аралашмайди. Фақат солиқларни ўз вақтида тўланишини назорат қилади, холос. Бу эса, ўз навбатида, рақобат ва рақобатбардошликнинг назарий ва методологик муаммоларини тадқиқ қилишни тақозо қилади.

Хулоса қилиб айтганда рақобатнинг назарий масалаларида ҳали анча қарашлар мавжуд бўлиб, бир тўхтамга келган эмас. Шу туфайли ушбу мавзунинг долзарблиги бугунги эркин рақобат такомиллашаётган шароитда янада ошиб боради. Рақобатнинг шаклланиши ва ривожланиш эвалюцияси ҳам ҳали кам тадқиқ қилинган йўналиш. Ушбу масалада ҳам тегишли фикрларимизни изҳор қилдик. Бизнинг ушбу таклифларимиз ва қарашларимиз амалга ошадиган бўлса, ўйлаймизки, иқтисодиёт таркибидаги рақобат билан боғлиқ назарий ва амалий масалалар анча такомиллашади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики. 1999. – 375 бет.
2. Экономическая энциклопедия. Политическая экономия. М.: СЭ. 1975. – 214-

215 бетлар
3. Микроэкономика. Теория и Российская практика. М.: ИТД КноРус., 1999. – 248 бет.
4. Общая экономическая теория.Учебник. М.: Промо-Медиа., 1995. – 117 бет.
5. Принципы экономикс. Санкт-Петербург. Питер., 1999. – 88 бет.
6. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. А.Ўлмасов, А.Вахабов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2014. – 202 бет.
7. Иқтисодиёт назарияси. Маъруза матни. Ш.Ш.Шодмонов, Б.Э.Мамарахимов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2016. – 151 бет.
8. Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Т.: “Fan va texnologiya”. 2017. – 210 бет.
9. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. М.М.Муҳаммедов, М.Қ.Пардаев, Ж.Р.Зайналов ва бошқалар. Т.: “Fan va texnologiya”. 2018. – 125 бет.
10. Рақобатбардошлик методологияси: Ўқув қўлланма / И.Х.Ибрагимов: СамИСИ, 2018. – 287 бет.
11. Пардаев М.Қ. Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. – Т.: “Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 72 бет.

М.Қ.Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори, “Турон” ФА Академиги
У.Х.Холбоев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ўқитувчиси,
А.Р.Эгамов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти магистранти

РАҚОБАТБАРДОШЛИК ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: ушбу мақолада рақобатбардошлик тушунчасининг таърифи, моҳияти, назарий масалалари, ҳамда рақобатбардошликка берилган таърифнинг афзаллигини назарий жиҳатлари кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: рақобат, рақобатбардошлик, рақобатбардошлик назарияси, рақобатчилик, рақобат майдони.

Аннотация: В данной статье рассмотрены определение, сущность, теоретические вопросы понятия конкурентоспособности, а также теоретические аспекты преимущества определения конкурентоспособности.

Ключевые слова: конкуренция, конкурентоспособность, теория конкурентоспособности, конкуренция, территория конкуренции.

Abstract: This article describes the definition, essence, theoretical issues of the concept of competitiveness, as well as the theoretical aspects of the advantage of the definition of competitiveness.

Keywords: competition, competitiveness, competitiveness theory, competition, competition area.

Хўжалик юритувчи субъектлар рақобатлашган шароитда ҳар бирининг рақобатбардошлигини таъминлаш зарурати келиб чиқади. Шу туфайли рақобатбардошлик масаласига ҳам этиборни қаратишни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Чунки маҳсулотнинг, иш, хизмат, корхона, ҳудуд, давлатнинг ҳам рақобатбардошлиги таъминланган бўлиши лозим. Бу эса,

энг аввало уларнинг иқтисодий ўсиш кўрсаткичида намоён бўлади. Агар ушбу кўрсаткич мунтазам бир меъёрда амалга оширилса, унда мазкур субъектининг барқарорлиги таъминланади. Бу жараён ўз навбатида яна маҳсулотлар (иш, хзматлар) баҳосининг нисбатан пастлигини ва сифатининг юқорилигини таъминлайдиган тадбирлар мажмуасининг мавжудлигини ҳам тақозо қилади. Буларнинг ҳаммаси пировардида, мазкур субъектларнинг бошқаларга нисбатан устунлигини таъминлайди. Айнан шу устунлик уларнинг рақобатбардошлигининг асосини ташкил қилади. Шу жиҳатдан рақобатбардошлик масаласи ҳам ўта мураккаб ва жиддий масалалар сирасига киради.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида "**рақобатбардош**" сўзига "рақобат + бардош", деб ёзиб, "рақобатлаша оладиган, рақобатга чидайдиган" маъноларга эгалигини кўрсатган[1]. Ушбу луғатда ифода этилган мазкур тушунча билан боғлиқ "**рақобатбардошлик**" сўзини "рақобат қила олишлик, рақобатга чидашлик; рақобатга кириша олиш қобилияти" деган нисбатлар билан изоҳлаган[2].

Ушбу ҳолат бўйича навбатдаги "**рақобатлашмоқ**" сўзини "беллаша олмоқ, тенг келмоқ, рақобат қила олмоқ" сўзлари билан изоҳлаган[3]. Мазкур тушунчага янада аниқлик киритиш учун "**рақобатчи**" сўзига берилган изоҳга ҳам бир назар ташланганда, унга 2 та изоҳ берилган бўлиб, биринчисида, "рақобат қилувчи киши ёки томон", дейилган бўлса, иккинчида, "бозор иштирокчилари, товар ишлаб чиқарувчилар ўртасида курашувчи шахс", деб изоҳ берган[4]. Ушбу тушунчага дахлдор яна бир сўзга, яъни "**рақобатчилик**" сўзига ҳам "ўзаро рақобат қилишлик, рақобатбардошлик", деб изоҳ берилади[5]. Демак ўзаги рақобат билан боғлиқ сўзларнинг ҳаммасида бошқа субъектларга нисбатан қиёсланадиган кўрсаткич ва жараёнларда устунлик тушунилар экан.

Ўзбекистон Республикасининг "**Рақобат тўғрисида"ги қонунида** рақобат категорияси билан боғлиқ «рақобатбардошлик» атамасига таъриф берилмаган. Демак хўжалик юритувчи субъектлар рақобатбардошлиги ёки маҳсулотлар (иш, хизматлар) рақобатбардошлиги тушунчаси масаласи ҳамон очиқлигича қолмоқда. Бу эса мазкур атама ва ҳолат билан боғлиқ муносабатларда турли қарама-қаршиликлар ҳамда муаммоларни келтириб чиқариши мумкин.

Мамлакатимиз олимлари рақобатбардошлик атамасига ҳам таъриф берганлар. Жумладан, А.Ўлмасав ва А.Вахабовлар қуйидагича талқин

---

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.

қилганлар: “Рақобатбардошлик – бу рақобатга чидамли бўлиш, унда ғолиб келиш қобилиятига эга бўлишдир”[1]. Ушбу тушунчанинг таърифига 2021 йилда қуйидагича изоҳ берган эканмиз: “Рақобатбардошлик деганда, маҳсулотнинг, иш, хизмат, туристик фирмалар, ҳудуд, давлатнинг рақобатчиларга нисбатан иқтисодий ўсишининг барқарорлигини, баҳосининг нисбатан пастлигини ва сифатининг юқорилигини таъминлайдиган тадбирлар мажмуасининг мавжудлиги ва уларнинг бошқаларга нисбатан устунлиги тушунилади” [2]. Кўп олимларимизнинг асарларида рақобатбардошликнинг таърифи берилмаган.

Шу туфайли рақобатбардошлик атамасининг ишлаб чиқилган таърифини такомиллаштириш бугунги кунда объектив зарурият бўлиб ҳисобланади. Ушбу заруриятдан келиб чиқиб, рақобатбардошлик сўзининг таърифини яна бир бор келтиришни мақсадга мувофиқ, деб топдик ва ушбу атамага қуйидагича таъриф бердик. **Рақобатбардошлик деганда, маҳсулотнинг, иш, хизмат, хўжалик юритувчи субъектлар, ҳудуд, давлатнинг рақобатчиларга нисбатан иқтисодий ўсишининг барқарорлигини, баҳосининг нисбатан пастлигини ва сифатининг юқорилигини таъминлайдиган тадбирлар мажмуасининг мавжудлиги ва уларнинг бошқаларга нисбатан устунлиги тушунилади.**

Рақобатбардошликка берилган ушбу таърифнинг афзаллигини назарий жиҳатдан қуйидагича асослаш мумкин.

Биринчидан, рақобат нафақат маҳсулотни ишлаб чиқарувчилар ўртасида, балки иш бажарувчилар ва хизмат кўрсатувчилар ўртасида ҳам мавжуд. Шу туфайли, унда маҳсулот (товар) билан бирга иш, хизматлар ҳам инобатга олинган.

Иккинчидан, рақобат хўжалик юритувчи субъектлар ва ҳудудлар ўртасида ҳам содир бўлади. Шунинг учун ҳам ушбу таърифда корхона, ҳудуд ҳам ўз аксини топган.

Учинчидан, ҳозирги интеграциялашган шароитда рақобат нафақат битта давлат доирасида, балки давлатлараро даржага ҳам кўтарилган. Шу жиҳатдан рақобатчи субъектлар таркибига давлат ҳам киритилиши зарурлигидан келиб чиқиб, ушбу тушунча ҳам киритилган.

Тўртинчидан, корхона, ҳудуд ва давлатнинг рақобатчиларга нисбатан иқтисодий ўсишининг барқарорлигини таъминлаш масаласи ҳам ўта муҳимдир. Барқарор иқтисодий ўсишга эришмаган бирорта давлат ёки корхона рақобатбардош бўла олмайди. Шу туфайли ушбу масала ҳам таърифда ўз аксини топган.

Бешинчидан, рақобатда ким ютади, қайси субъектнинг товари (иши, хизмати) баҳоси рақобатчиларига нисбатан паст бўлиб, уларнинг сифати юқори бўлса ўшалар ютади. Шу туфайли мазкур таърифда ушбу

[1] Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. А.Ўлмасов, А.Вахабов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2014. – 219 бет.

[2] Пардаев М.Қ., Пардаев О.М., Холиқулов А.Н. Бабаназарова С.А. Рақобатбардошликни мустаҳкамлашда кластер ва синергетик самарадорлик таҳлили. Ўқув қўлланма. – Самарқанд СамИСИ, 2021. – 61 бет.

ҳолатларни таъминлайдиган тадбирлар мажмуасининг мавжудлиги инобатга олинган. Бу тадбирлар барча рақобатчиларда бўлиши мумкин. Фақат улар бошқа рақобатчиларга нисбатан албатта устун бўлиши керак. Шу туфайли таърифда уларнинг бошқаларга нисбатан устунлигини инобатга олиш лозимлиги ҳам кўрсатилган.

Барча субъектлар рақобатбардошлигини белгилашда ушбу такомиллашган таърифга асосланиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Бозор муносабатлари шароитида ҳар бир тадбиркор рақобат майдонида фаолият кўрсатади. **Рақобат майдони** – у ҳалол-покиза яшаш, ғалаба қилиш учун кураш майдонидир. Бу майдонда ҳар бир тадбиркор рақибининг, яъни рақобатчининг шаънига, нуфузига тегмаган ҳолда ўзининг товари (иш, хизмати)ни харидоргир қилиб ўз иқтисодиётини тиклаб, товарининг ҳам, ўзининг ҳам рақобатбардошлигини таъминлашга эришмоғи лозим. Бировнинг маҳсулоти (иш, хизмати)ни пастга урмасдан, ўзиникини мақтаб сотиши – бу ҳалол рақобатдир. Амалиётда шундай ҳоллар ҳам кўп учрайдики, бир корхона ўзининг маҳсулотини бошқаларникидан устун кўрсатиш учун, уларда йўқ нухсонларни тарқатиб, уни касодга олиб келишига уринадилар. Бундай шароит ҳақиқий рақобат ҳам, рақобатбардошлик талабларига ҳам тўғри келмайди. Бундай рақобатлар қонунда кўзда тутилмаган ғирром рақобатлар сирасига киради.

Ҳозирги пайтда хусусий мулкка асосланган хўжалик юритувчи субъектлар фирма шаклида фаолият кўрсатади. Иқтисодиёт фанларнинг муҳим вазифаларидан бири – фаолият кўрсатиб келаётган фирмаларнинг рақобатбардошлигини баҳолаш, таҳлил қилиш ва уни мустаҳкамлаш бўйича тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш йўлларини ишлаб чиқишдан иборатдир. Аммо бу масала иқтисодиётга оид адабиётларда етарли даражада ёритилмаган. Бу соҳа ҳозирги замон талабидан келиб чиққан ҳолда кам тадқиқ қилинган.

Тадқиқотлар кўрсатдики, рақобатбардошликни таҳлил қилганда икки нарсага аҳамият бериш лозим. Биринчидан, хўжалик юритувчи субъектлар, яъни фирмалар фаолиятининг рақобатбардошлиги ва иккинчидан, унинг ишлаб чиқараётган (сотаётган) товари (иш, хизмати) рақобатбардошлигидир. Аммо иқтисодий адабиётларда бу масалалар ҳам иқтисодиётга оид фанларда жараёнларни бошқариш нуқтаи-назаридан алоҳида ўрганилмаган. Шу боис аввало ушбу атамалар мазмуни бўйича ўз қарашимизни баён этишни зарур, деб ўйлаймиз.

Тадбиркор фаолиятининг рақобатбардошлиги деганда, рақобатбардош субъектларга (тадбиркорларга) нисбатан фаолиятининг кенг кўламлилиги ва истиқболлилиги, харажатлардан мақсадли мувофиқ фойдаланиб, кўпроқ фойда олиш қобилиятининг кучлилиги, маҳсулотининг (иш, хизматининг) баҳоси оптималлиги в сифатининг юқорилиги билан ўз устунлигини таъминлай олиш қобилияти тушунилади.

Мазкур таърифни назарий жиҳатдан қуйидагича асослаш мумкин. **Биринчидан**, кўриниб турибдики, ҳар бир тадбиркор кенг кўламда фаолият кўрсата олсагина рақобатбардош бўлади. Энг муҳими, у бошлаган фаолият бугунги кун билан чекланиб қолган бўлмаслиги керак. Албатта, келажак истиқболини кўзда тутган, унга мўлжалланган бўлиши лозим. Масалан, тадбиркор тегирмонга эга. У ўз фаолияти натижасида ун маҳсулоти ишлаб чиқаради ва сотади. Кўлами кенгроқ бўлиши учун тадбиркор, энг аввало, шу тегирмондан ишлаб чиқарадиган ундан нон ишлаб чиқаришни йўлга қўйса ва шу нонни сотиш учун бир қанча худудларда савдо дўконини ташкил қилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Иккинчидан эса, ун ва нон ишлаб чиқариш истиқболли соҳа. Ҳамиша истеъмол қилиниб туриладиган маҳсулотлардир. Аммо бошқа рақобатчиларига нисбатан ўз маҳсулотининг сифатини ошириш ва нархини ҳаддан зиёд кўтариб юбормаслик чораларини кўриши керак. Шундагина у рақобатбардош ва рақобат майдонида инқирозга учрамайдиган бўлади.

Иккинчи йўналиш, бу тадбиркорнинг товари (иши, хизмати) рақобатбардошлигидир. **Тадбиркорларнинг товари (иши, хизмати) рақобатбардошлиги деганда, рақобатдош субъектлар товари (иш, хизмати) сифати ва нархга нисбатан истеъмолчига (харидорга) қулайлиги, унга кетадиган харажатнинг самарадорлиги ва шу товардан оладиган фойданинг кўплигини таъминловчи омиллар тизимининг мавжудлиги тушунилади.**

Таърифлардаги рақобатнинг хусусиятларидан кўриниб турибдики, у бозор муносабатлари шароитида иқтисодиётни ҳаракатга келтирувчи асосий куч сифатида намоён бўлади. Шу туфайли ҳозирги даврда давлатнинг асосий функцияларидан бири мамлакатимизда эркин рақобат муҳитини яратишдан иборатдир.

Хулоса қилиб айтганда, рақобатбардошлик тушунчасининг назарий масалалари ҳали етарли даражада ўрганилмаган. Унинг таърифи бугунги кун талабига мос ҳолда такомиллаштиришни тақозо қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. III. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 361 бет.
2. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. А.Ўлмасов, А.Вахабов. ТДИУ. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”/ 2014. – 456 бет.
3. Пардаев М.Қ., Пардаев О.М., Холиқулов А.Н. Бабаназарова С.А. Рақобатбардошликни мустаҳкамлашда кластер ва синергетик самарадорлик таҳлили. Ўқув қўлланма. – Самарқанд СамИСИ, 2021. – 196 бет.
4. Пардаев М.Қ. Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. – Т.: “Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 202 бет.
4. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И. Хусусий корхоналар фаолияти таҳлилининг назарий ва методологик муаммолари. Монография. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2007. – 164 бет.

А.А. Аббасов– Миллий банк АЖ Самарқанд вилоят филиали бошқарувчи ўринбосари
Л. Ишбекова – МДМ-120 гуруҳ магистранти

ИҚТИСОДИЁТГА ЧЕТ ЭЛ КАПИТАЛИНИ ЖАЛБ ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИ

Аннотация: Ушбу мақолада чет эл капиталини жалб қилиш самарадорлигининг аҳамияти, хорижий инвестицияларни жалб этиш учун бир қатор афзалликлар ёритилган ва чет эл капиталини жалб қилиш қилиш самарадорлигини такомиллаштиришга қаратилган илмий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: инвестиция, хорижий инвестиция, корхона, инвестор, халқаро интеграция, саноат, ишлаб чиқариш, маҳсулот, инвестицион лойиҳаси.

Аннотация: В данной статье освещается важность эффективности привлечения иностранного капитала, ряд преимуществ привлечения иностранных инвестиций, а также разрабатываются научные предложения по повышению эффективности привлечения иностранного капитала.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, предприятие, инвестор, международная интеграция, промышленность, производство, продукт, инвестиционный проект.

Abstract: This article highlights the importance of the effectiveness of attracting foreign capital, a number of advantages for attracting foreign investment, and develops scientific proposals to improve the effectiveness of attracting foreign capital.

Keywords: investment, foreign investment, enterprise, investor, international integration, industry, production, product, investment project.

Сўнгги йилларда ишлаб чиқаришниг технологик омилларига анча кенг кириб бориш зарурияти барча давлатлар, шу жумладан, ривожланаётган давлатлар учун муҳим жараён бўлиб ҳисобланади. Бу билан ривожланаётган давлатларнинг халқаро иқтисодий муносабатлардаги силжишлари, уларнинг шакл ва механизмдаги эволюцияси хўжалик ривожланишининг муҳим бўғинига айланмоқда. Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, бутун дунёда халқаро капитал харакати, аввало, чет эл инвестицияларинг харакати кенгайиб бормоқда. Бозор муносабатлари шароитида саноатлаштиришни янада жадаллаштириш ҳамда саноат корхоналари фаолиятини яхшилашда чет эл капиталини жалб этиш аҳамияти тоборо ошиб бормоқда, натижада саноатнинг етакчи тармоқларидаги корхоналарни замонавий техника билан қайта жихозлаш имконияти пайдо бўлмоқда.

Шунинг учун ҳам замонавий бозор ислоҳотларининг навбатдаги босқичида мамлакатимизга хорижий инвестияларни фаол жалб қилиш мақсадида уларни жалб этишни такомиллаштириш жараёнини ҳал этиш муҳим аҳамиятга эга бўлган устувор вазифалардан бири сифатида қаралиши керак. Шу боисдан ҳам нафақат ички, балки хорижий

инвестицияларни самарали жалб қилишни такомиллаштириш, улар ҳажмини кўпайтириш ҳамда улардан самарали фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш йўналишларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга молик масалалардан биридир.

Маълумки, хорижий инвестицияларнинг мазмун- моҳияти хусусида кўплаб мамлакатимиз иқтисодчи- олимлари илмий изланишлар ва тадқиқотлар олиб боришган бўлсада лекин, инновацион иқтисодиётни шакллантириш борасида хорижий инвестицияларни жалб этилиши масаласи тўлалигича ўрганилмаган[1,2].

Хорижий инвестициялар - бу чет эл инвесторлари томонидан қори даражада даромад олиш, самарага эришиш мақсадида мутлоқ бошқа давлат иқтиодиётининг, тадбиркорлик в бошқа фаолиятларини қўллаб-қувватлашга ва ривожлантиришга сафарбар этадиган барча мулкий, молиявий, интеллектуал бойликлардир[5].

Ўзбекистон хорижий инвестицияларни мамлакатга киритиш учун барча шарт-шароитларга эга. Ўзбекистон хорижий инвестицияларни жалб этиш учун бир қатор афзалликларга ҳам эга.

Мамлакатимизда халқаро интеграцияни ривожлантиришда иқтисодиётимизга чет эл инвестицияларини кенг жалб этиш учун қуллай шароит яратишга жуда катта аҳамият берилаётгани қувончли ҳол. Ўзбекистон чет эл капиталини жалб этиш тадбирларини амалга оширишда бизнингча, қуйидаги тамойилларга (принципларга) асосланмоғи лозим[3,4]:

- чет эл инвестицияларни жалб этишни давлатнинг иқтисодий ва социал сиёсатига ижобий таъсирини таъминлашга эришиш керак. Яъни, давлатнинг экспорт салоҳиятини ошириш, чет эл капиталини жалб қилинган соҳаларда бозорбоб, рақобатбардош товар ишлаб чиқариш ва вақтида сотиш туфайли юқори унумдорликка эришиш ҳамда харажатларни пасайтириш имкониятларига эга бўлиш, шу билан бирга, ишлаб чиқариш рентабеллик даражасини ошириш имконияти яратилиши таъминлаш зарур.

- республика иқтисодиётига бевосита чет эл инвестицияларини жалб этишни таъминлайдиган ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа шарт-шароитларнинг тобора яхшиланишига асосланиш лозим.

- халқаро интеграцияни янада эркинлаштириш соҳасида аниқ мақсадни кўзлаб сиёсат юритишга эътибор берилиши учун зарур шарт-шароитлар яратилиши тақозо этилади.

- чет эл капиталини жалб қилиш халқ фаровонлигини оширишни таъминлашга қаратилган бўлмоғи, чет эл капитални жалб қилинган соҳаларда ишчи-хизматчиларни даромадлилик даражасини юқори бўлишини таъминлашга эришиш талаб этилади.

- чет эл капиталини жалб қилиш борасидаги ишларда ресурслардан тўғри ва оқилона фойдаланишни таъминлашга эришиш даркор. Ўзбекистон ноёб хом-ашё, ер ости ва ер усти бойликларига, улкан минерал хом-ашё заҳиралари, стратегик материаллар ва қишлоқ хўжалик хом-

ашёсининг каттагина заҳираларига эга мамлакат ҳисобланади.

- республикага жаҳон даражасидаги техник-технологияларни етказиб бераётган, халқ хўжалигининг замонавий таркибини вужудга келтиришга кўмаклашаётган чет эл капиталларига нисбатан эшикларни очиб қўйиш сиёсатини изчиллик билан ўтказиш зарур.

- маблағларни республика мустақиллигини таъминлайдиган ва рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган энг муҳим устувор йўналишларда жамлаш талаб этилади.

- чет эл капиталини жалб қилишда давлатнинг хавфсизлигини сақлаш, яъни миллий иқтисодиётни ҳимоя этиш зарурият касб этад. Миллий иқтисодиётни ҳимоя қилиш деганда, чет эл капиталлари ёки инвесторлари улар учун зарарли деган гап эмас. Гап шундаки, тадбиркорларнинг ўзига хос манфаатлари ҳар доим ҳам бир-бирига мос тушавермайди. Чет эл инвесторларнинг асосий қисмини иқтисодиётнинг ўтиш даврида бўлган мамлакатларга қуйиладиган капитал фақатгина дивиденд ва фоизлар кўринишидаги пул ишлаш йўли деб қарамайдилар. Улар бундай капиталларни ўзларининг умумий стратегиясининг бир қисми деб ҳисоблайдилар. Чет эл тадбиркорликларининг асосий мақсади келажаги бўлган бозорда мустаҳкам жойлашиш, молиявий оқимлар устидан назорат ўрнатиш, импорт ва валюта чеклашларни четлаб ўтиб ҳамда баъзан рақобатчи корхоналарни бозордан сиқиб чиқаришдан иборат мақсадларни ўз олдига қўяди. Шу сабабли, чет эл инвесторларга иқтисодиётни кўтаришдаги асосий ҳаракатлантирувчи куч сифатида қараш мумкин эмас. Чет эл капиталидан миллий иқтисодиётни ҳимоя қилиш деганда, бу капиталлар туфайли вужудга келадиган айрим зарарли таъсирларни камайтириш тушунилиши керак. Буларнинг жумласига табиий ресурсларни талон-тарож қилишдан сақлаш, миллий иқтисодиётдан валюта ресурсларини олиб чиқиб кетишнинг олдини олиш, талаб ва таклифнинг кескин ўзгаришидан сақлаш кабиларни киритишимиз мумкин.

Ҳудудларга киритилган тўғридан – тўғри ҳорижий инвестициялар ҳажми, уларнинг самарадорлигига ҳам таъсир кўрсатган. Хусусан, юқорида номлари келтирилган ҳудудларда аҳоли жон бошига ҳисобланган хорижий инвестициялар ҳажми бирмунча баланд.

Инвестиция қабул қилувчи мамлакат ички бозори сиғимининг кат-талиги чет эл инвесторлар учун муҳим аҳамиятга эгадир. Ўзбекистоннинг ички бозори истеъмол товарлари билан ҳали тўлиқ тўйинтирилмаган, шу боис аҳоли ялпи талабиниг сезиларли қисми импорт ҳисобига қондирилади.

Чет эл инвестицияларини жалб қилишга ёрдам берадиган омил хорижий тадбиркорларга инвестициялаш учун қулай муҳитни шакллантиришга кўмаклашадиган рағбатлар тизимини таклиф қилишдир. Республика қонунчилиги томонидан қабул қилинган имтиёзлар инвесторлар фаолиятининг ҳамма жиҳатларини ёритилган.

Мамлакатда юқори технологик маҳсулотларни ишлаб чиқариш

имконини берадиган ривожланган саноат ва илмий-техникавий салоҳиятга эга кўп тармоқли саноат салоҳияти мавжудлиги туфайли илмий тараққиёга асосланган маҳсулот турларини ишлаб чиқариш имкониятига эга давлатларда инвестицион муҳитни мавжудлигидан далотат беради-Ўзбекистонда айнан шундай муҳит мавжуд.

Айтиш жоизки, Республиканинг хорижий инвесторларни жалб этишининг муҳим омилларидан бири бой ресурс базасига эга эканлигидир. Бу эса қисқа муддатда йирик хорижий инвесторлар билан кенг кўламли инвестициялар бўйича шартномалар имзоланишига шарт-шароит яратиб беради.

Ўзбекистонда хорижий инвестиция ва кредитларни иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига кенг жалб қилиш, уни рағбатлантириш учун қонунчилик асослари яратилганлигига қарамасдан, унинг ҳажми нисбатан паст даражада қолмоқда.

1.Иқтисодиётга жалб қилинган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш, мамлакатда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, бозор ва ижтимоий инфратузилмаларини ривожлантиришга катта ҳисса қўшди.

2.Ўзбекистон ҳудудлари аҳолиси ўсиш суръатлари ҳамда уларнинг ижтимоий – иқтисодий ривожланиш даражасини ҳисобга олиб янги ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш соҳаларини жойлаштириш сиёсатини такомиллаштириш ва шу орқали инвестициялар оқимини тартибга солиш ва бошқариш лозим.

3.Ҳаракатлар стратегиясида саноат, ишлаб чиқариш инфратузилмаларини ривожлантириш ва шу каби бошқа йўналишларга йирик тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш ва бунга сармоядорларни қизиқишини орттириш учун мамлакат – ҳудуд – корхона поғоналарида инвестицион жозибадорликни ҳамда давлат бошқарув органлари самарадорлигини ошириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ғозибеков Д. Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: “Молия”, 2003. – Б. 45.;

2.Қўзиева Н.Р. Хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. Иқт. фан. док. илм. дар. олиш учун ёз. дисс. автореф. – Т.: БМА, 2008.

3.Хошимов Қ.Б. Чет эл инвестициялари иштирокидаги корхоналарни солиққа тортиш ва уни такомиллаштириш йўллари. Иқт. фан. ном. илм. дар. ол. уч. ёз. дис. автор. – Т.: БМА, 2004.

4.Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: «Молия», 2010.

5.Инвестиция: Дарслик. Ж.Р.Зайналов, С.С.Алиева, Н.Х.Рузибаева ва бошқалар;- Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. - 480 б.

Z.S. Shoxo‘jaeva– i.f.n. dotsent Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi doktoranti
H.N.Mirjamilova – QarMII tayanch doktoranti

HUDUDLARDA AGROKLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH SIYOSATI VA INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda agroklasterlarni tashkil etish orqali aholini tayyor oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdagi davlatning agrar siyosati va uni institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: agroklasterlar, klaster tizimi, klaster strategiyalari, innovatsion-sanoat klasterlari, klasterli loyihalar

Аннотация: В данной статье предлагаются предложения по совершенствованию аграрной политики государства и его институциональной базы по обеспечению населения готовыми продуктами питания за счет создания агрокластеров в регионах.

Ключевые слова: агрокластеры, кластерная система, кластерные стратегии, инновационно-промышленные кластеры, кластерные проекты

Abstract: This article proposes proposals for improving the agrarian policy of the state and its institutional framework for providing the population with ready-made food products through the creation of agricultural clusters in the regions.

Keywords: agroclusters, cluster system, cluster strategies, innovation-industrial clusters, cluster projects

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi eng ahamiyatli masalalardan biri bu aholining tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish masalasidir. Aholi iste’mol qilayotgan mahsulotlar, jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning yildan-yilga o‘sib borayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti mamlakat valyuta tushumining qariyb 55 % dan ortig‘ini ta’minlaydigan ahamiyatli bo‘g‘inlardan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida klasterning qo‘llab-quvvatlanishi ushbu sohaning jadal rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda jahonda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanishini oshirishning keng yoyilgan usullaridan biri - klaster usulidan keng miqyosda foydalanilib kelinmoqda. Bugungi kunda klaster strategiyasi Yevropa ittifoqi tomonidan qo‘llab-quvvatlanilyapti. Xususan, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ish olib borayotgan 3,0 mingdan ziyod klaster faoliyatini ta’kidlash joiz. Dunyo rivojlangan mamlakatlari Shvetsariya, Avstriya, Italiya, Koreya, Xitoy va Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniya kimyo hamda mashinasozlik sanoatida, Fransiya oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida yuqori texnologiya klaster tizimini o‘zlarining yetakchi yo‘nalishi sifatida belgilab olgan. O‘zbekistonda ham klaster uslubida ish yuritadigan qishloq xo‘jaligi korxonalari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Qishloq

xo‘jaligi sohasida klasterning tadbiq etilishi yerni shudgor qilishdan toki hosilni yetishtirishgacha bo‘lgan ko‘p bosqichli kompleks tizimini yaratdi.

Infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish maqsadida taraqqiy etgan moliyaviy bozorlar, qulay ishbilarmonlik muhiti, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ishlab chiqarish-sotish zanjirlarini rivojlantirishga qaratilgan choralarni ko‘rish talab etilishi. qishloq xo‘jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari (shu jumladan klastyerlar) bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ham o‘z aksini topgan.

Qishloq xo‘jaligidagi klaster mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni yagona bir zanjirga birlashtiradigan, yuqori texnologik innovatsiya-lardan foydalanadigan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish, hududlarda infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish hamda istiqbolda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo‘jalik yuritish subyektlaridan tarkib topishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli farmoniga ko‘ra, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida klasterli yondashuvga alohida ahamiyat berilgani holda, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, hududlarda 35ta g‘allachilik klasterlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, bunda, klasterlarning meva-sabzavot va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini hamda eksportdagi ulushini 2 baravarga va ish o‘rinlarini 3 baravarga oshirish, yuqori hosildorlikni saqlab qolgan paxta, g‘alla, va meva-sabzavot klasterlariga qo‘shimcha 20% subsidiya berish, kabi masalalar alohida o‘rin topgan.

Bizningcha, qishloq xo‘jaligida klaster tizimini rivojlantirishga bo‘lgan keng imkoniyatlar mamlakatimiz iqtisodiyotida sezilarli manfaat olib keladi. Kichik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini birlashtirishning samarali mexanizmlari to‘liq shakllanmaganligi sababli, ularning faoliyati tarqoqligicha qolayotgani, yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishga to‘sqinlik qilayotgani hamda qo‘shilgan qiymat zanjirlariga birlashish imkonini cheklayotgani bilan xarakterlanadi.Bu kabilarga qarshi samarali usullar esa o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari (shu jumladan klasterlar) bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Klasterli tuzilmalarni shakllantirish qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalari yangiliklarini targ‘ib qilish, qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini yuksaltirish kabi yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “klaster strategiyalari” so‘nggi o‘n yil ichida ayniqsa ommalashdi. Klasterlar tadbirkorlik amaliy markazlarida yaratiladi va ular jahon bozorida o‘z kuchi va raqobatbardoshligini ko‘rsata oldi. Davlat mavjud klasterlarga yordam ko‘rsatadi va avval bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan yangilarining yaratilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Klasterlar strategiyasi Yevropa

mamlakatlarida keng qo‘llaniladi.

Masalan, Germaniyada 1995 yildan buyon Bio Regio biotexnologik klasterlarni yaratish dasturi ishlab turibdi. Buyuk Britaniyada hukumat Edinburg, Oksford atrofida va Janubi-Sharqiy Angliyada biotexnologik firmalarni joylashtirish uchun muhim hududlar sifatida joy ajratgan. Norvegiyada hukumat “dengiz xo‘jaligi” klasterida firmalar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi. Finlyandiyada 1995 yilda Advantage Finland-The Future of Finnish Industries nomi bilan keng miqyosli tadqiqot yo‘lga qo‘yildi va unda salohiyatli klasterlarning rivojlanish yo‘nalishlari belgilab olindi va raqobatbardoshlik istiqbollari baholandi. Finlyandiya iqtisodiyotni tadqiq etish instituti (ETLA) tomonidan to‘qqizta asosiy klaster identifikatsiya qilindi: axborot-telekommunikatsiya, metallurgiya, energetika, biznes-xizmatlar, sog‘liqni saqlash, mashinasozlik, oziq-ovqat va qurilish[1]. Mazkur klasterlar tarkibidagi firmalar o‘rtasida bilimlar tarqatish yuzasidan olib borilgan uzviy hamkorliklar ularning asosiy raqobatchilari oldida raqobat ustunligini ta’minlab berdi (Finlyandiya ham tadqiqotchilik, ham texnologik kooperatsiyalar bo‘yicha peshqadamlik qiladi).

Davlat klaster siyosatining maqsadi rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish vositasida agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadga muvofiq davlat agroklaster siyosatining quyidagi vazifalari belgilab berilishi lozim:

-agroklasterlarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatni tartibga soladigan me’yoriy-huquqiy bazani shakllantirish;

-agroklasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va qishloq xo‘jaligi klasterli rivojlanish sohasida monitoringni amalga oshirish;

-agroklasterlarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha mutaxassislar va rahbarlarni professional kasbiy tayyorlash uchun sharoitlar yaratish;

-agroklasterli tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish;

-agrar sohasini rivojlantirishning klasterli modelini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi innovatsion-agrosanoat klasterlarini shakllantirishni davlat tomonidan boshqarish organlari tomonidan yordam ko‘rsatilishini ko‘zda tutishi lozim. Agrar sohasida klasterli tashabbuslarni, shuningdek, klasterli loyihalarni kelgusida amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari shakllantirishni rejalashtirish lozim. Buning uchun iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish sohasida qulay institutsional muhit yaratish zarur.

Agrar sohasining raqobatbardoshlik darajasini oshirish borasida jahon tajribasini hisobga olgan holda rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish bo‘yicha davlat harakatlarini markazlashtirish davlat klaster siyosatining

[1] Дырдонова А.Н. Методические подходы к выявлению и оценке кластеров в экономике региона. –М.: //Региональная экономика: теория и практика. № 28(163), 2010. с. 26.

quyidagi yo‘nalishlarini nazarda tutadi:

-iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish sohasidagi faoliyatni me’yoriy-huquqiy tartibga solish, jumladan, milliy iqtisodiyotning klasterli rivojlanishi ular doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, klasterli loyihalarni amalga oshirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik negizida klasterlar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari doimiy monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish, jumladan, mintaqaviy kesimda ularni rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalishlar belgilash. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik negizida shakllanadigan klasterlarni identifikatsiya qilishni (aniqlashni) tashkil qilish va metodologiya masalalarini aks ettirgan holda iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish ustidan monitoring tashkil qilish va amalga oshirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi;

-klasterli tashabbuslar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda tashkiliy-uslubiy ko‘mak. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va hokimiyatlar qoshida klasterli tashabbuslar va loyihalar amalga oshirilishidan manfaatdor bo‘lgan biznes-hamjamiyati, fan va ta’lim vakillari qatoridan ijtimoiy-maslahat kengashlari va komissiyalar tashkil qilish ko‘zda tutiladi;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning klasterlar shakllantirish bo‘yicha o‘zini-o‘zi tashkil qilishini qo‘llab-quvvatlash, jumladan, kelgusida klasterli loyihalarni amalga oshirgan holda klasterli tashabbuslar ishlab chiqish va ilgari surish.

Xududlarda agroklasterni rivojlantirish markazlarini tuzish va uning faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda olib borish maqsadga muvofiqdir:

-klasterlar qatnashchilariga tashkiliy, axborot va tahliliy xizmatlar ko‘rsatish vositasida klasterli loyihalarga hamrohlik qilish;

-konsalting xizmatlari ko‘rsatish (yuridik, moliyaviy, injiniring va boshqa xizmatlar);

-klasterli loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha manbalar izlab topish;

-biznes-rejalar ishlab chiqish;

-marketing tadqiqotlari;

-klaster qatnashchilarining mahsulotlarini bozorga ilgari surish;

-klaster qatnashchilari uchun konferentsiyalar, seminarlar va boshqa axborot tadbirlari tashkil qilish;

-klaster qatnashchilarining rahbar va mutaxassis kadrlarini o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil qilish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik innovatsion-sanoat klasterlari shakllantirishning asosi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va ularni sotishni tashkil qilish uchun mintaqalarda industrial maydonchalar yaratish va ular faoliyatini tashkil qilish;

-klasterli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari bo‘yicha rahbarlar va mutaxassislarni o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil qilish. Shu munosabat bilan agrar sohani klasterli rivojlantirish sohasida ta’lim xizmatlari taqdim etadigan bazaviy tashkilotlarni aniqlash ko‘zda tutiladi;

-agrar sohani rivojlantirishning klasterli modelidan foydalanish istiqbollari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini tashkil qilish. Buning uchun davlat organlari va biznes-hamjamiyat vakillari uchun iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish masalalari bo‘yicha xorijiy ekspertlar ishtirokida axborot-ta’lim tadbirlarini o‘tkazish, jumladan, muayyan klasterli loyihalar tashabbusi bilan chiqish va ularni amalga oshirish borasida amaliy tajribalarni o‘rganish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Samandarov Mirzoxid Mirjamilovich. Development of entrepreneurship and improvement of organizational and economic bases of its state regulation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021
2. Shokhojaeva Zebo Safoevna. Impact of Labor Efficiency on the Development of Jsc" Dunyo M". Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021
3. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Murodova Nargiza Utkirovna. Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 2021
4. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Temirova Feruza Sagdullaevna. Food provision of the population of the republic of uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 2021

R. I Rashidov – QarMII “BHvaA” kafedrasi katta o‘qituvchisi

QISHLOQ XO‘JALIGINI MODERNIZATSIYALASHDA AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda agroklasterlarning o‘rni va ahamiyati, qishloq xo‘jaligini modenizatsiyalashga berilgan ta’riflarga ilmiy-nazariy yondoshuvlar tahlil qilingan. Klasterlarni tashkil etishning afzalliklari va tashkil etish shakllari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, innovatsiya, iqtisodiyot, raqobat, klaster, agroklaster, kooperatsiya, marketing, menejment.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение агрокластеров в модернизации сельского хозяйства, научно-теоретические подходы к определению модернизации сельского хозяйства. Даны рекомендации по преимуществам и формам организации кластера.

Ключевые слова: модернизация, инновации, экономика, конкуренция, кластер, агрокластер, кооперация, маркетинг, управление.

Abstract. This article analyzes the role and importance of agro-clusters in the modernization of agriculture, scientific and theoretical approaches to the definition of agricultural modernization. Recommendations on the advantages and forms of cluster organization are given.

Keywords: modernization, innovation, economy, competition, cluster, agro-cluster, cooperation, marketing, management.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish, sanoatni xom-ashyo va aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash hamda aholi turmush farovonligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda dunyo miqyosidagi global pandemiya hamda iqlim o‘zgarishlarining kuzatilishi qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, uning sifatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi ustuvot vazifalarni davlat siyosati darajasida belgilanishiga olib keldi. Ushbu ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda agroklasterlarning tashkil etilishi tarmoqni modernizatsiyalashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi.

Meva-sabzavotchilik, g‘allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida, pandemiyaning salbiy ta’siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.”[1]

Aynan ushbu raqamlardan ko‘rinadiki, tarmoqni modernizatsiyalashda agroklasterlarning ahamiyati katta.

Xususan, M.Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi – klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko‘rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydala olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, deb, hisoblaydi[2].

Nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, qishloq xo‘jaligini moderniza-tsiyalash deganda ko‘proq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jaraènlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, yangilash tushuniladi. Ammo, qishloq xojaligini modernizatsiyalash keng qamrovli tushuncha bo‘lib, nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, balki ishlab chiqarish jaryonida sodir bo‘ladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarda va boshqarishda ham yangicha innovatsion uslublarni, masalan kooperatsiya, klaster, menejment, marketingning zamonaviy usullarini keng qo‘llash, shuningdek, ilm-fan yutuqlarini keng joriy etishni ham o‘z ichiga oladi.

Shunday ekan, mamlakat qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda aynan, ichki imkoniyat sifatida agroklasterlarni tashkil etish va faoliyatini maqsadli

[1] https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998.
[2] Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ./Под ред. и с предисловием. В.Д. Щетинина.-М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.

tashkil etish, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Ma’lumki, iqtisodiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasiga juda ko‘plab ta’riflar keltirilgan bo‘lib, aynan ushbu ta’riflar iqtisodiy rivojlanishning klaster nazariyasining asosi hisoblanadi. So‘ngi o‘n yilliklarda samarali “klaster strategiyalari” ommalashib bordi va klasterlar tadbirkorlik amaliy markazlarida yaratilishi va ular jahon bozorida o‘z kuchi va raqobatbardoshligini ko‘rsata olishi o‘z isbotini topdi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida paxtachilik va g‘allachilikda agroklasterlar, meva – sabzabotchilikda kooperatsiya shaklida mehnatni tashkil etish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi. Chunki, tarmoqning har bir yo‘nalishida mehnatni tashkil etishning bu shakllari mehnat sig‘imi, xarajatlar miqdori, xarajatlar va daromadlar oralig‘idagi farqlar, yetishtirilgan mahsulotlarning saqlanish muddatlari kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Har ikkala holatda ham umumiy o‘xshashlik mavjud, ya’ni tizimda mahsulot yetishtiruvchi subyektlar manfaatlari asosiy o‘rinni egallashi zarur. Chunki, u yakuniy tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyo tayyorlovchi va yetkazib beruvchi hisoblanadi.

Zero, innovatsion iqtisodiѐt sharoitida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning chet mamlakatlarda sinovdan o‘tgan yangicha shakllarini, ya’ni paxta va g‘allachilikda agroklaster, meva-sabzavot yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalari o‘rtasida kooperatsiya jarayonlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki, agroklasterning muhim jihati shundaki, bunda mahsulot yetishtirishdan, toki uni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlar uyushgan holda: mahsulot yetishtiruvchi, xaridor, mahsulotni qayta ishlovchi, transportda tashish, marketing va monitoring, eksportga jo‘natish jarayonlari yaxlit ko‘rinishga keltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Agroklasterda manfaatdor subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi tavsifi[1].

[1] Muallif tomonidan tizimlashtirildi.

Tadqiqotlarimiz koʻrsatadiki, mamlakatimiz qishloq xoʻjali tarmogʻida agroklasterlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, birgina Qashqadaryo viloyatini oladigan boʻlsak, viloyatda paxta-toʻqimachilik yoʻnalishida 2018 yilda 5 ta, 2019 yilda 4 ta, 2020 yilda 3 ta, 2021 yilda 7 ta agroklaster tashkil etilgan boʻlib, ularga jami 21252 gektar yer maydoni biriktirilgan.

Tahlillardan koʻrinadiki, milliy iqtisodiyotimizda qishloq xoʻjaligini isloh qilish va modernizatsiyalsh boʻyicha Davlat klaster siyosati yuritilmoqda. Ushbu siyosatning maqsadi, rivojlanishning klasterli modelini qishloq xoʻjaligiga joriy etish orqali tarmoq ishlab chiqaruvchilarini qoʻllab-quvvatlash, yetishtirilayotgan mahsulotlardan raqobatbardosh, sifatli, eksportbop qoʻshimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Ushbu yoʻnalishda kutilgan samaraga erishish uchun davlat agroklaster siyosatining quyidagi vazifalari amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-agroklasterlarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatni tartibga soladigan, xususan, xalqaro standartlar darajasidagi meʼyoriy-huquqiy bazani shakllantirish;

-agroklasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ustuvor yoʻnalishlarni belgilash va doimiy monitoringni amalga oshirish;

-agroklasterlarni rivojlantirish masalalari boʻyicha yuqori malakali mutaxassislar va rahbarlarni tayyorlash uchun sharoitlar yaratish;

-agroklasterli tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish;

-qishloq xoʻjaligini rivojlantirish va modernizatsiyalashda tarmoqda tashkil etilayotgan klasterli modelni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini shakllantirish.

Javohir Elchiyev – QarMII magistranti

KORXONALARDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MEHNATGA HAQ TOʻLASH TIZIMINING OʻRNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada temir yoʻl transport korxonalarida mehnatga haq toʻlash tizimining mehnat samaradorligiga va ishlab chiqarish jarayonning oʻsish suraʼtlariga taʼsiri yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar. Temir yoʻl, ish haqi, transport, mehnat samaradorligi, ishlab chiqarish.

Annotatsiya. V dannoy state osveщayetsya vliyaniye sistemы oplatы truda na predpriyatiyax jeleznodorojnogo transporta na proizvoditelnost truda i tempы rosta proizvodstvennogo protsessa.

Klyuchevыe slova. Jeleznыe dorogi, zarabotnaya plata, perevozki, proizvoditelnost truda, proizvodstvo.

Abstract. This article highlights the impact of the wage system in railway transport enterprises on labor efficiency and growth rates of the production process.

Keywords. Railways, wages, transportation, labor efficiency, manufacturing.

Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ Oʻzbekiston Respublikasining katta salohiyatga ega boʻlgan korxonalaridan biri hisoblanadi.Tizimda zamonaviy texnologiyalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish,malakali kadrlar sonini oshirish

masalalariga jiddiy e’tibor qaratiladi. Zero,hozirgi davrda har bir tarmoq bozor iqtisodiyoti qonunlariga bo‘ysunishga ya’ni kuchli raqobatga ega bo‘lgan bozor sharoitlariga moslashib faoliyat yuritishga majburdir. Bu jarayon esa doimiy ravishda zamonaviylashuvni va rivojlanishni talab etadi. Bunday zamonaviylashuv ish sharoitlarining yomonlashishiga yoki ishchilarning ish haqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.Ya’ni ishchilar malakasi oshganda ularning ish haqlari ham shunga mos ravishda ko‘tarilib borishi va qulay hamda zararsiz ish sharoitlarini yaratish lozimdir. Ma’lumki, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ oldida turgan eng birlamchi vazifa yuk,yo‘lovchi va bagajlar tashuvini tashkil etish hamda bu jarayonni harakat xavfsizligi qoidalariga rioya etgan holda o‘z vaqtida tashkil etish hisoblanadi. Shuningdek, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning o‘ziga xos faoliyat yo‘nalishlari va asosiy e’tibor qaratiladigan sarmoya loyihalari mavjud.

Jamiyatning asosiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardir:

- tarqatish va temir yo‘l orqali yuklarni yetkazib berish;
- temir yo‘l vagonlarini sozlash va texnik xizmat ko‘rsatish;
- yo‘lovchi, sayyohlik tashishlar;
- xizmat ko‘rsatish, lokomotiv va vagon parkini yangilash.

Jamiyat uchun ustuvor yo‘nalish quyidagi sarmoya loyihalarini amalga oshirish hisoblanadi:

- optik tolali liniyalar yordamida aloqa kanallarini mustahkamlash;
- yangi harakatlanuvchi tarkib sotib olish (elektrovoz va vagonlar) hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish;
- yangi temir yo‘l liniyalarini qurish;
- temir yo‘llarni elektrlashtirish;
- yo‘llarni kapital ta’mirlash loyihalarini amalga oshirish, jamiyat zavodlarida yo‘lning ustki qurilmasi elementlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish va h.k.

So‘nggi yillarda bu jarayonlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Tashuvlar jarayoni Xitoy, Ispaniya,Rossiya davlatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy elektrovozlar yordamida amalga oshirilmoqda. Bu orqali respublikamiz hududidagi uzoq masofalarga ham tashuvlar jarayoni bir necha bor qisqardi. Zamonaviy elektrovozlar zamonaviy yo‘llar qurilishini hamda eski yo‘llarni qayta ta’mirlashni talab etardi. Bu vazifa ham qisqa muddatlarda amalga oshirildi. Zero, respub-likamizning Surxondaryo viloyatini boshqa viloyatlar bilan bog‘lashda va transit yuklar tashuvida muhim yo‘nalish sifatida qaralgan tog‘li temir yo‘ uchastkasi hisoblanuvchi Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on uchastkasi yoki deyarli qurilishi imkonsiz deya qaralgan va respublikamizda yagona temir yo‘l tizimini yaratishda eng muhim hisoblangan 19,2 km tunnelga ega bo‘lgan Angren-Pop liniyalari ham to‘liq elektrlashtirildi.

Temir yo‘l transporti korxonalarida mehnat munosbatlarinig shakl-lanishi,ishchi va ish beruvchi munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonuni hamda respublika qonunchiligidagi boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu

tizimda ish jarayoni og‘irligi hamda ish vaqtining 24 soat davom etishini inobatga olgan holda mavjud lavozimlarga ishchilarni tanlash jarayoni bir becha bosqichlarda amalga oshiriladi. Tashish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi xodimlar xususan,lokomotiv mashinistlari, yordamchi mashinistlar, chilangarlar, yo‘l ta’mirlovchi ustalar,dispetcherlar, stansiya dispetcher va navbatchilari kabi lavozimdagi ishchi xodimlarni tanlashda nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki ruhan va jismonan sog‘lomlik, kasb tajribasi hamda qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri (qat’iy) qaror qabul qila olish kabi sifatlar inobatga olinadi.

Temir yo‘l transporti korxonalarida mehnat unumdorligi hamda mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlariga ham keng e’tibor qaratiladi. Ayniqsa,mehnat samaradorligiga erishish masalasi ustuvor sanaladi deyishimiz mumkin. Masalan: Harakatlanuvchi tarkibning asosi sanaluvchi lokomotivlarni boshqaruvchi lokomotiv mashinist va mashinist yordamchilari faoliyatiga to‘htalib o‘tishimiz mumkin. Ushbu lavozim egalarining lokomotiv brigadalari dam olish uylarida hamda o‘z yashash manzillarida ish vaqti va ishdan tashqari vaqt davomidagi faoliyati, kundalik hayotdagi oilaviy va boshqa muammolari doimo lokomotiv brigadalar yo‘riqchilari tomonidan nazoratda saqlanadi. Ularning salomatligi va psixologik holati o‘z xizmat vazifasiga kirishishidan oldin hamda o‘z xizmat vazifasini bajargandan so‘ng tekshirib boriladi. Bunga sabab sifatida ular tomonidan katta miqdordagi yuklar bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazilishi hamda ular zimmasida katta moddiy javobgarlik mavjudligini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Temir yo‘l transporti korxonalarida mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bajarilgan ish hajmini tashish jarayonida bevosita ishtirokchilarining umumiy soniga nisbati orqali aniqlanadi. Mehnat samaradorligi ko‘rsatkichi esa nafaqat mehnat unumdorligiga erishish balki ishchining zararsiz,xavfsiz va qulay sharoitda faoliyat yuritishi kabi qarashlarni ham inobatga oladi. Bunda mehnat samaradorligi kam xarajatlarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etgan holda yuqori samaradorlikka erishish masalasini ham ko‘rsatadi. Hozirgi rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlarni tejagan holda yuqori foydaga erishish masalasi o‘z dolzarbligini oshirib bormoqda.Aynan ana shu jihatni inobatga oladigan bo‘lsak,mehnat samaradorligini ta’minlash masalasi yanada katta e’tibor tortadi.

Temir yo‘l transportida faoliyat yurituvchi xodimlar, xususan biz alohida to‘xtalib o‘tgan lokomotiv mashinistlari va mashinist yordamchilari ishbay-mukofot tizimida ish haqi hisoblanadi. Ya’ni bajarilgan ish hajmi ularning ish haqi va qo‘shimcha to‘lovlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ish haqi — mehnatga pul shaklida to‘lanadigan haq; qiymatning o‘zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi. Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnat bozorida kelishiladi. Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o‘z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo‘lib, uni ishga yollovchilar (korxona, muassasa, tadbirkor) mehnat qiluvchilarga ma’lum vaqt mobaynida ma’lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to‘laydilar.

Yollanma xodim uchun ish haqi asosiy daromadi manbai hisoblanadi.

Ish haqi — yollanma xodim daromadining asosiy manbai, unga tegishli ish qobiliyatiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shakli. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to‘lanadigan haq ishlab chiqarish harajatlarining unsurlaridan biri. Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi.

Demak,ishchi mehnat bozorida o‘z mehnatini sotadi. Biz o‘rganayotgan ishchilar ya’ni machinist va machinist yordamchilari ham o‘z mehnat faoliyatini og‘ir shakllarda amalga oshirishadi. Ushbu lavozim egalariga quyidagi asosiy va qo‘shimcha to‘lovlar to‘lab beriladi:

- bajarilgan ish hajmi uchun to‘lov;
- mukofot puli (bajarilgan ish hajmiga nisbatan);
- lokomotiv ta’mirida ishtirok uchun to‘lov;
- zararli hududlarda ishlaganlik uchun qo‘shimcha to‘lov;
- xizmat safari harajatlari;
- ovqat puli uchun to‘lovlar;
- ish joyiga borib kelish xarajatlari (shuningdek,boshqa hududda qolib ishlaganligi uchun to‘lov);
- yoqilg‘i-energetika resurslarini tejaganlik uchun mukofot;
- ish hajmi oshganligi uchun qo‘shimcha mukofot puli;
- yillik bir martalik mukofot pullari;
- boshqa to‘lovlar.

Bu to‘lovlarni amalga oshirishda bajarilgan ish hajmi, mehnat intizomiga rioya qilish holatlari ham o‘z o‘rniga ega. Ya’ni korxona o‘z faoliyatini kamchiliklarsiz tashkil etsa,ishchilar mehnat intizomiga rioya qilgan holsa o‘z mehnat faoliyatini amalga oshirsa hamda yuk va yo‘lovchilar o‘z manzillariga belgilangan muddatda xavfsiz yetkazilsa,xodimlarning oylik ish haqi fondlari oshib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi-xodimlarning mehnatini rag‘batlantirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holda o‘z oylik daromadidan qanoatlanuvchi ishchilar korxona kelajagi uchun javobgarlik hissi bilan faoliyat yuritadi. Biz aytib o‘tgan tarmoq vakillariga aynan bajargan ish hajmlari uchun ish haqi hisoblanishini inobatga oladigan bo‘lsak,bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari ushbu sohada nechog‘lik ishtirok etishiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki,har bir korxonada bo‘lgani kabi temir yo‘l transporti korxonasida ham ishchilarga oylik ish haqi hisoblash o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshiriladi. Bu jarayonda temir yo‘l transportining turli tarmoqlarida to‘lovlar bir-biridan tubdan farq qilishiga ham guvoh bo‘lamiz. Bu esa jarayonning murakkabligidan daololat beradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki,so‘nggi yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv kengashi tomonidan olib borilayotgan isloxotlar samarasi o‘laroq,tarmoqda oylik ish haqi oshirildi va mehnatga haq to‘lash mexanizmlarni yangilandi. Zamonaviy boshqaruv shakllari va mehnatga haq to‘lashning zamonaviy mexanizmlari esa mehnat jarayonlarining rivojiga hamda ishchi-xodimlarning o‘z kasbiga bo‘lgan mehrining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga ko‘ra, shaxsiy manfaat insonlarni harakat keltiruvchi kuchdir.

II ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА АҲОЛИ БАНДЛИГИ, ФАРОВОНЛИГИ, ЯШАШ СИФАТИ ВА ДАРАЖАСИНИ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

А.Э. Тангиров – СамИСИ доценти, и.ф.н.**,**

СЕРВИС ХИЗМАТИ КЎРСАТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: Мақолада сервис хизмати кўрсатиш тизимининг ҳозирги ҳолати, ривожлантириш йўллари ва замонавий технологияларни чўл-яйлов ҳудудлари хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жорий этиш ҳамда чорвачилик маҳсулотларини саноат асосида қайта ишлашни жойларнинг ўзида ташкил этиш зарурлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: Хизмати кўрсатиш, чўл-яйлов ҳудудлари, деградация, инновация, технология, қайта ишлаш, харажат, даромад.

Аннотация: В статье разъясняется современное состояние системы обслуживания, пути развития и внедрения современных технологий с учетом особенностей пустынных территорий, а также необходимость организации на местах промышленной переработки продукции животноводства.

Ключевые слова: Сервис, пустынные территории, деградация, инновация, технология, переработка, затраты, доход.

Abstract: The article explains the current state of the service system, the ways of development and implementation of modern technologies, taking into account the characteristics of desert territories, as well as the need to organize industrial processing of livestock products on the ground.

Keywords: Service, desert territories, degradation, innovation, technology, processing, costs, income.

Чўл-яйлов ҳудудларида хўжалик юритиш шаклларини такомиллаштириш, ишлаб чиқаришга инновация технологияларни қўллаш орқали жадаллаштириш, қоракўлчилик туманлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши республиканинг бошқа ҳудудларидан пастлигини ҳисобга олиб, уни тезлаштириш кўп жиҳатда ишлаб чиқариш ва бозор инфратузилмаси ташкил этилиши ҳамда фаолият кўрсатиш даражаси билан биргаликда чўл аҳолисига ижтимоий хусусан пуллик, савдо ва маиший хизматлар кўрсатилиш ҳажмига ҳам боғлиқ.

Қоракўлчилик республиканинг жуда катта ер майдонларида тарқоқ, шаҳар ва саноат марказларидан бир неча 100 км. узоқликда жойлашган хўжаликларда ўрчитилиши, қоракўл қўйларининг 56-58 фоизи нисбатан майда деҳқон хўжаликларида парваришланиши ва соҳа етиштираётган маҳсулотларининг асосий қисмини хусусан, қоракўл териларининг 78-80 фоизини ишлаб чиқараётганлигини ва чўл-яйлов чорвачилигининг йил давомида яйловдан-яйловга ўтказилиб боқилишини ва бошқа ўзига хос

хусусиятларни ҳамда бозор иқтисодиёти талабларини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқаришга хизмат кўрсатишни шакллантириш лозим.

Чўй-яйлов чорвачилигида, хусусан қоракўлчиликда ишлаб чиқариш ривожланишини барқарорлаштириш яйловлар деградациясининг олдини олувчи, ҳосилдорлигини кескин оширувчи технологияларни жорий этиш билан биргаликда чўпон уйларини, ишлаб чиқариш биноларини, сув манбаларини ва ишлаб чиқаришга хизмат кўрсатувчи бошқа объектларни модеринизациялаш керак.

Қоракўлчилик соҳасининг ишлаб чиқариш бўлималари(отарлар, чорвачилик комплекслари, деҳқон ва фермер хўжаликлари) ҳажмидан келиб чиққан ҳолда хўжалик юритувчи ёки хусусий тадбиркорлар томонидан хизмат кўрсатиш учун мўлжалланган қуйидаги иншоатларни қуриш:

Қўйларни чўмилтириш иншоати, зарур машина ва жиҳозлар билан таъминланган қўй жуни қирқимини ташкил этиш пункти, сунъий қочириш пункти, зооветеринария тадбирларини ўтказишга мўлжалланган лаборатория, чўпон уйлари, очиқ ва ёпиқ қўтонлар, гараж, озуқа цехи ва озуқа сақлаш омборлари, сувни захира сақлаш учун иншоат, Беккер ер тўласи(1- расм). Шу билан биргаликда чўл-яйлов ўсимликлари уруғларини етиштириб беришга ихтисослашган фермер хўжаликлари, етиштирилган маҳсулотларни дастлабки ишлов бериш ва қайта ишлаш объектларни хусусан қўзиларни сўйиш, қоракўл тери ва жунига бирламчи ишлов бериш ва уларни қайта ишлаш ҳамда сақлаш, қўйларни гўштга сўйиш ва гўштни қайта ишлаш, марри қўйларни соғиш ва сутни қайта ишлаш, қўй ва бошқа моллар териларни қайта ишлаш обеъктларини жойларда бунёд этиш мақсадга мувофиқ. Электр-энергияси, табиий газ ва ичимлик суви таъминотидаги узулишлар ва хизмат кўрсатувчи объектларни кўчма ҳолда ташкил қилиниши уларнинг альтернатив энергия манбаси билан жиҳозланган бўлишини таълаб қилади.

Маълумки, 1 тонна гўнгни қайта ишлаб 100м^3 биогаз олиш, 2500 бош қўйдан йилига 560-570 тонна гўнг тўплаш ҳамда 56000-57000м^3 биогаз ишлаб чиқариш мумкин. Унинг бир қисми газ ёқилғиси сифатида чўпон уйларида, транспорт воситаларига ёнилғи сифатида ишлатилса, иккинчи қисми электр энергияси ишлаб чиқариш учун генераторларни юргизишда фойдаланилиши мумкин. Бу эса ўз навбатида кунлик турмушда чўпон уйлаларига ва бошқа ходимларга қулайлик яратиши билан биргаликда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ва кўрсатилаётган хизматлар нархининг сезиларли даражада арзонлашиши ва иш жараёнларининг бир маромда узликсиз амалга ошириш имкониятини яратади.

Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг ҳозирги ҳолати таҳлили кўрсатмоқдаки, ихтисослашган хўжалиги отарларида боқилаётган қўйларнинг сони 500-600 бошдан кўп эмас. Масалан, “Саҳоба ота” наслчилик хўжалигида ўртача 230 бош қўйлар парваришланаётган отарлар 7 фоиз, 363 бош–15,8, 470 бош– 37 бош, 543 бош– 21, ва 717 бош ўрчитилаётган отарлар– 19 фоиз. Ўртача бир отарда боқилаётган қўйлар 499 бошни

ташкил этмоқда. Фермер хўжаликлари 206 бош– 66, 2 фоиз, 411бош–22,5, 666 бош–5 ва 1200 ва ундан кўп бош парваришлаётганлари 6,3 фоиз.



1-расм. **Хизмат кўрсатувчи объектлар ва уларнинг таркиби**

Деҳқон хўжаликларида ўртача 50 бош қўйга эга бўлганлар 72,3 фоиз, 206 бош– 20,7 ва 400 ва ундан кўп бош қўйларни парваришлаётганлар 7,0 фоиз.

Қоракўл қўйлар парваришланишининг ушбу ва юқорида такидланган хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ҳамда янги, илғор технологияларни

жорий қилиш мақсадида ишлаб чиқаришга хизмат кўрсатувчи соҳа объектларини турғун ва кўчма шакилда ташкил қилиш мақсадга мувофиқ.

Яйловлардан фойдаланишнинг инновация технологиясини жорий қилиш ҳисобига қўйлар сонини 2500-3000 бошга етказган фермер ва деҳқон хўжаликлари ҳамда ихтисослашган хўжаликлар отарлари учун хизмат кўрсатиш объектларини турғун ҳолда қўйларни яйловдан-яйловга ўтказиб боқиш жараёнида кўчма чўпон уйидан фойдаланиш, майда хўжаликлар ва отарлар учун 2500-3000 бошга хизмат кўрсатувчи қўй жунини қирқиш, сунъий қочириш, қўзиларни қоракўл тери учун сўйиш, лаборатория ва қушхоналарни кўчма ҳолда ташкил қилиш иқтисодий нуқтаи назардадан ўзини оқлайди (1-расм).

Чўл ва яримчўл минтақаларида чўл-яйлов чорвачилигини имконият-лари кенг аммо, бошқа тармоқларнинг ривожланиши учун иқтисодий шароитлар деярли мавжуд эмас. Тармоқнинг табиий, технолигик, ташкилий ва иқтисодий хусусиятларини ҳисобга олиб, бу ерда қишлоқ саноатини ривожлантириш ҳам иқтисодий ҳамда ижтимоий жиҳатдан афзал ҳисобланади. Бу минтақаларда омухта-ем ишлаб чиқариш, озуқа, қоракўл ва мол териларни, гўшт, жун ва сутни қайта ишлашни ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари аҳолига ва ишлаб чиқаришга сервис хизмати кўрсатадиган пунктларни шакллантириш лозим. Бир гуруҳ олимлар бундай шаклдаги корхона ва ташкилотларларни корпоратив мулк сифатида, яъни чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликларнинг инвестиция маблағларини жамлаб хўжаликлараро, ташкилотлар барпо этиш ҳамда кичик бизнесни ривожалантириб, хусусий кичик корхоналар тариқасида ташкил этишни таклиф қилишса, иккинчи гуруҳ иқтисодчилар эса қишлоқ хўжалигини бозор иқтисодиёти шароитида фақатгина вертикал коопарация асосида ривожлантиришни тавсия этадилар. Бунда, “қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчи корхоналар нафақат ишлаб чиқарувчилар билан, балики маҳсулотни қайта ишловчи, уни тайёрловчи, савдо, тижорат-воситачи, сервис хизмат кўрсатувчи ташкилотлар билан иқтисодий алоқаларни ўрнатишлари ва улар билан чамбарчас боғлиқликда фаолият кўрсатишлари лозим”(30). Бизнинг фикримизча чўл-яйлов чорвачилиги жойлашган минтақалар барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлаш учун ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сотиш, аҳолига маданий, маиший хизмат ва ишлаб чиқаришга сервис хизматлари кўрсатиш саҳоларини интеграциялаш йўли билан яхлит хўжалик организмини ташкил этиш яъни бир фирма миқёсида жамлаш мақсадга мувофиқ.

Таъкидланганидек, чўл-яйлов чорвачилиги етиштираётган маҳсулотларни қайта ишлаш ва истеъмолчиларга етказиб бериш ўз ечимини тўлиқ топмаган муаммолардан бири ҳисобланади. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг асосий қисмни қайта ишлаш қувватлари етишмаётганлиги, қўй сути, мол териси ва жун каби маҳсулотлардан деярли фойдаланилмаётганлиги ҳамда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини тезлаштириш ва чўл аҳолиси турмуш фаровонлигини

мамлакат шаҳарлари даражасигача тенглаштириш мақсадида хом ашёни жойларнинг ўзида қайта ишлашни ташкил этиш ўзини оқлайдиган ташкилий, иқтисодий, ижтимоий тизим ҳисобланади.

Мол териларини жойларнинг ўзида қайта ишлашни ташкил этиш ҳам қишлоқни саноатлаштиришга олиб келади ва барқорар ривожланишини таъминлаш билан биргаликда инфратузилманинг ривожланиш ва қўшимча иш ўринлари яратилиши ҳисобига қишлоқ аҳолиси фаровонлиги оширади.

Хулоса ва таклифлар. Изланишлар натижасига асосан:

1. Чўл-яйлов чорвачилиги жойлашган минтақалар барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлаш учун ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сотиш, аҳолига маданий, маиший хизмат ва ишлаб чиқаришга сервис хизматлари кўрсатиш саҳоларини интеграциялаш йўли билан яхлит хўжалик организмини ташкил этиш яъни қуйи мажмуа сифатида жамлашни таклиф қиламиз;

2. Тонна гўнгни қайта ишлаб 100м^3 биогаз олиш, 2500 бош қўйдан йилига 560-570 тонна гўнг тўплаш ҳамда 56000-57000м^3 биогаз ишлаб чиқариш мумкин. Биогаз ишлаб чиқаришни ташкил этишни;

3. Янги, илғор технологияларни жорий қилиш мақсадида ишлаб чиқаришга хизмат кўрсатувчи соҳа объектларини турғун ва кўчма шакилда ташкил қилишни;

4. Маҳсулотларни жойларнинг ўзида қайта ишлашни ташкил этиш ҳисобига инфратузилмани ривожлантириш ва қўшимча иш ўринларини яратилишини таклиф қиламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Каюмов Ф.К. и др. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании конъюнктуры рынка. Т. "Узинформагропром". 1993 г.

2.Ибрагимов Ю. Канада чорвачилиги, бугунги ҳолати ва ривожланиш истиқболлари. Зооветеринария, Ж. №2, 2012. 38–43б.

3.Тангиров А.Э. Қоракўлчилик қуйи мажмуаси ва уни модернизациялаш “Стар-Медиа Пресс” нашриёти, Тошкент, 2017.152 б.

G‘.M.Mamasoliev – Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot kafedrasi, katta o‘qituvchisi

AHOLI RO‘YXATI MA’LUMOTLARIDAN FOYDALANIShNING AHOLI BANDLIGINI TA’MINLAShDAGI ROLI

Аннотация: Aholi sonini ro‘yxatga olish jarayonlari mamlakatdagi demografik, ijtimoiy, iqtisodiy, migratsiya, bandlik va ishsizlik kabi holatlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni yig‘ish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: aholi, bandlik, demografiya, tug‘ilish dinamikasi, aholini ro‘yxatga olish.

Аннотация: Процесс переписи предоставляет точные данные о демографической, социальной, экономической ситуации, миграции, занятости и безработице в стране.

Ключевые слова: население, занятость, демография, динамика рождаемости, перепись.

Abstract: The census process provides accurate data on the country's demographic, social, economic, migration, employment and unemployment situation.

Keywords: population, employment, demography, birth dynamics, census.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishda respublikadagi demografik vaziyat hamda mehnat resurslari katta salohiyatga egadir. Shuning uchun respublikada makroiqtisodiy masalalarni hal qilish jarayonida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholining samarali bandligi kabi muammolarga katta e’tibor qaratilishi bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday ta’kidlab o‘tadi: «Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi - «temir daftar» tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta’minlandi».[1]

Xar qanday jamiyatning va davlatning taraqqiy etishi ko‘plab omillar qatorida aholi bandligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Chunki aholining bandligi, eng avvalo samarali bandlik mehnat bozoridagi yalpi talab va yalpi taklifni muvozanatda ushlab turishda, ishchi kuchini takror hosil qilishda, jamiyatdagi demografik vaziyatning yaxshilanishida muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyatdagi demografik vaziyatning yaxshilanishi va ishchi kuchini takror hosil qilish mamlakatdagi tug‘ilish ko‘rsatkichiga ham bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston tug‘ilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan mamlakatlar biri bo‘lib, 2000 yilda 527580 nafar chaqaloq tug‘ilgan bo‘lsa, 2005 yilda 533530 nafar, 2010 yilda 634810 nafar, 2015 yilda 734141 nafar, 2020 yilda esa 841817 nafar chaqaloq tug‘ilgan (1-jadval).[2]

Respublikamizda tug‘ilish ko‘rsatkichi bilan birga tug‘ilish koeffitsienti ham o‘sib bormoqda. Agar tug‘ilish koeffitsienti xar ming kishga nisbatan 2010 yilda 22.0 promilleni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 23.5 promilleni, 2020 yilda esa 24.6 promilleni tashkil etgan.[3]

Tug‘ilishning bu tarzda ortib borishi mamlakatning doimiy aholisi sonining oshib borishiga olib keladi. Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham tug‘ilishning yuqoriligi bois doimiy aholi soni muttasil ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, respublika doimiy aholisi 1926 yilda – 4,6 mln. kishini, 1939 yilda – 6,3 mln. kishini, 1959 yilda – 8,1 mlnni. kishi, 1970 yilda – 11,8 mln. kishini, 1979 yilda – 15,4 mln. kishini, 1989 yilda esa 19,8 mln. kishini tashkil etgan.

2000 yilga kelib davlatimizning doimiy aholisi soni 20 millionlik nuqtadan o‘tgan bo‘lsa, 2014 yilda 30 millionlik marraga etgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra mamlakatimizdagi doimiy aholi soni 34558,9 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yil 1 aprel holatiga ko‘ra 34860170 ming kishini tashkil etmoqda (1-jadval).

Aholining bu tarzda ko‘payib borishi mamlakatda mehnat resurslarining ortib borishiga olib keladi. Mehnat resurslarining ortib borishi jamiyat va davlat oldida zudlik bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator masalalarni yuzaga

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2000-2020 yillarda aholisining soni va tug‘ilish dinamikasi (yil boshiga ming kishi)

Yillar	***Doimiy aholi soni***	***Tug‘ilganlar soni***
2000	24487,7	527580
2005	26021,3	533530
2010	28001,4	634810
2015	31022,5	718036
2020	33905,2	814960
2021	34558,9	841817

chiqaradi. Bunday masalalardan biri aholi bandligi masalasidir.

Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratigan bo‘lsak, mehnat resurslari soni 2000 yilda 12469 ming kishini, aholining bandlik darajasi esa 69.4 foizni tashkil etgan. 2005 yilda mos ravishda 14453,2 kishini va 67.7 foizni, 2010 yilda 12286,6 kishini va 66.9 foizni, 2015 yilda 13058,3 kishini va 68.2 foizni tashkil qilgan. 2020 yilda esa dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra mehnat resurslari soni mehnat resurslari soni 14797,9 kishini, bandlik darajasi 66.1 foizni tashkil etgan. (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2000-2020 yillardagi iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

Yillar	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi[3], foizda	Aholining bandlik darajasi[3], foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	Ish-sizlar			
2000	9018,4	8983,0	35,4	69,7	69,4	0,4
2005	10224,0	10196,3	27,7	67,9	67,7	0,3
2010	12286,6	11628,4	658,2	70,7	66,9	5,4
2015	13767,7	13058,3	709,4	71,9	68,2	5,2
2020[4]	14797,9	13239,6	1558,4	73,9	66,1	10,5

Aholi bandligi deganda jamiyat a’zolarining mavjud qonunlar doirasida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beruvchi ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyati tushuniladi.

Bandlik to‘g‘risidagi tushuncha 10.2020 da qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida» gi Qonunida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, Qonunga ko‘ra - Bandlik fuqarolarning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.[4]

Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 28 aprelda qabul qilingan va 2020 yil 7 avgustda Senat tomonidan ma’qullangan.

«Aholi bandligi to‘g‘risida» gi Qonunning maqsadi 1-bob, 1-moddada ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga

solishdan iboratdir.[5]

Aholining bandligi uning qayta koʻpayishi uchun zaruriy shartlar biri hisoblanib, insonlarning turmush darajasi, farovonligi, mehnat bozorida kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, jamiyat aʼzolarini, ayniqsa ishsizlarni moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab quvvatlash uchun sarf qilinadigan xarajatlar aholi bandligiga bogʻliq boʻladi.

2-jadvaldan koʻrinib turibdiki, mamlakatimizda bandlik koʻrsatkichi yildan yilga oshib borayotgan bir vaqtda aholining bandlik darajasi pasayib bormoqda. Buning bir qancha sabablari mavjud:

1) Doimiy aholi sonining oʻsib borishi;
2) Yangi ish oʻrinlari yaratilishining aholi sonining oʻsib borishiga nisbatan sekin ortishi;
3) Mehnat bozoridagi nomutanosiblik;
4) Aholi soni, mehnat resurslari va bandlar toʻgʻrisidagi, ularning xududlar boʻyicha taqsimoti boʻyicha aniq maʼlumotlarning etishmasligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarining yuzaga kelishiga asosiy sabab deyarli 30 yildan ziyot vaqtdan buyon aholini roʻyxatdan oʻtkazish ishlarining amalga oshirilmaganligidir.

Aholini roʻyxatga olish deganda - maʼlum xududda, mamlakatda yashayotgan aholining soni, sifat koʻrsatkichlari: aholi haqidagi demografik, iqtisodiy, ijtimoiy maʼlumotlarni olish, tahlil qilish, maʼlumotlarni chop etish va kelajak istiqbollarini belgilash uchun tayyorgarlik koʻrish jarayoni tushuniladi.[6]

16.03.2020 da qabul qilingan «Aholini roʻyxatga olish toʻgʻrisida» gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 1-bob, 3-moddasida aholini roʻyxatga olish tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: aholini roʻyxatga olish - Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida oʻtkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir maʼlumotlarni yigʻish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni.[7]

Tarixiy manbalarda koʻrsatilishicha, mamlakatimiz hududida aholini roʻyxatga olish ishlari dastlab 1897 yilda oʻtkazilgan. Oʻzbekiston hududidagi keyingi aholini roʻyxatga olish ishlari 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 yillarda va oxirgisi 1989 yilda tashkil etilgan.

Aholining rivojlanishi uning tarkibiy tuzilishi, xususiyatlari va demografik jarayonlarning uzluksiz ravishda oʻzgarib borishi taʼsirida sodir boʻlib boradi. Shu sababdan aholini tadqiq etish hamda doimiy ravishda kuzatib borish talab etiladi.Shundan kelib chiqib, oʻtgan davrda mamlakatimizda ushbu ishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda huquqiy poydevor yaratildi.

Jumladan, 2019 yil 5 fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini roʻyxatga olishni oʻtkazish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-5655-son Farmoni qabul qilindi.[8] Farmonda keltirilishicha, mustaqillik yillarida Oʻzbekiston Respublikasida aholini roʻyxatga olish oʻtkazilmagan. Aholi soniga, yosh-jins tarkibiga keskin

ta’sir ko‘rsatgan o‘zgarishlar, respublika hududidagi aholi joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy-demografik o‘ziga xosliklar aholining joriy hisobiga oid mavjud ma’lumotlarni qo‘llashni sezilarli darajada cheklamoqda.

2020 yil 16 martda O‘zbekiston Respublikasining 5-bob, 31 moddadan iborat bo‘lgan «Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida» gi Qonuni qabul qilindi.[9]

Qonunda ko‘rsatilishicha aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.[10]

Aholi sonini ro‘yxatga olish ma’lumotlar davlatga band aholining miqdor va sifat jihatdan yangilab borishiga, band bo‘lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash, mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg‘or tarmoqlar va sohalarga jalb qilish, ortiqcha bandlik yuzaga kelgan hududlar, tarmoq va sohalardagi band aholining ma’lum qismini bo‘shatib olish va ularni ishchi kuchi etishmayotgan hududlar, sohalar va tarmoqlarga yo‘naltirish, o‘smirlarni, ko‘p bolalik ayollarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag‘batlantiruvchi ish bilan ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash, insonni ishli bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarish kafolatlari kabi tadbirlarni samarali tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Aholining ish bilan samarali bandligining oshishi mamlakatda aholini farovonlik darajasining ortishiga, turmush darajasining yuksalishi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, davlatning xar tomonlama qudratining ortib borishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2000-2021 yillar).
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2000-2020 yillar).
4. «Aholi bandligi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘RQ-642-son 20.10.2020
5. «Aholi bandligi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1-bob, 1-modda. O‘RQ-642-son 20.10.2020
6. T. Isoqova, X. Xo‘jaqulov. DEMOGRAFIYa STATISTIKASI. O‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2004. 13-bet.
7. «Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1-bob, 3-modda. O‘RQ-611-son 16.03.2020
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5655-son Farmoni. 2019 yil 5 fevral.
9. «Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘RQ-611-son 16.03.2020
10. «Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1-bob, 5-modda. O‘RQ-611-son 16.03.2020
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 710-sonli qarori.2020 yil 11 noyabr.

Yu.T. Qiyomov – Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o‘qituvchi

HUDUDIY UY–JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: ushbu maqoladauy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinish uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar:vazifa, aholi, uy-joy, kommunal xizmatlar, soha, davlat, siyosat, tarmoq, huquq, xonadon.

Аннотация: в данной статье написано Основными задачами, функциями, правами и обязанностями жилищно-коммунального хозяйства в данной статье являются обеспечение населения качественными жилищно-коммунальными услугами, реализация единой государственной политики в сфере жилищно-коммунального хозяйства и осуществление межотраслевой координации.

Ключевые слова: функция, население, жилье, коммунальное хозяйство, промышленность, правительство, политика, сеть, право.

Abstract: in this article functions, rights and responsibilities of housing and communal services in this article are to cover the population with quality housing and communal services, to implement a unified state policy in the field of housing and communal services and to implement intersectoral coordination.

Keywords: function, population, utilities, industry, government, politics, network, law, housing.

Ko‘p xonadonli uylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko‘chmas mulk egalarining xonadonlarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymaslik, ko‘p xonadonli uy-joy fondidan sifatli foydalanish va ta’mirlash-tiklash ishlari o‘tkazilishini ta’minlash uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda aholini zamonaviy va sifatli kommunal xizmatlar bilan ta’minlash darajasini oshirish imkonini beradi.

Hududlarda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tashkil qilindi va unda O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining asosiy vazifalari belgilandi:

- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- ko‘p xonadonli arzon uylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilishini ta’minlash, ko‘p xonadonli arzon uylar, suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti obyektlari qurilishi bo‘yicha buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirish, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkillashtirish;
- ko‘p xonadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish, shu

jumladan, ko‘p xonadonli uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash ishlarini tashkil qilish;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash, ulardan foydalanish va ekspluatatsiya xarajatlarini aniqlash bo‘yicha talablarga, ko‘p xonadonli uylarni texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va normalariga, ko‘p xonadonli uylarga tutash hududlarning sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda saqlanishiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- suv ta’minoti va kanalizatsiya obyektlarini, issiqlik ta’minoti tizimlarini aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog‘lagan holda rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli bajarilishini tashkillashtirish, mazkur soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqaruvini ta’minlash;
- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiyalar hamda uskunalarni tatbiq etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jaligi obyektlarini zamonaviy hisoblash o‘lchov asboblari bilan jihozlash, qurilish-montaj ishlari tannarxining pasayishini ta’minlaydigan mahalliy zamonaviy va sifatli qurilish materiallari hamda buyumlarini keng qo‘llash;
- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini inobatga olgan holda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalari yuklatildi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish uchun jalb etiladigan kreditlar, jumladan, xalqaro moliya institutlari va banklarning imtiyozli kreditlari, ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan solinadigan jarimalardan tushgan mablag‘lar, ichimlik suvi ta’minoti xizmatlari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda belgilaydigan maxsus ustamalar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Jamg‘arma manbalari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchi banklarda suv ta’minoti tashkilotlariga ichimlik suvi ta’minoti xizmatlari tariflariga maxsus ustama mablag‘larini to‘plash uchun maxsus hisobraqam ochishni va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lar yo‘naltirishini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, Farmonda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, viloyatlar hokimliklari uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmalari, Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bosh boshqarmasi huzurida «Ta’mirlash-tiklash xizmati» davlat unitar korxonalari va ularning shahar hamda tuman filiallarini tashkil etish ko‘zda

tutilgan. Tashkil etiladigan ushbu unitar korxonalar zimmasiga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki turar joy va noturarjoy inshootlari mulkdorlari bilan shartnoma asosida koʻp xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlardan foydalanish hamda ularni saqlash boʻyicha tizimli ishlarni samarali tashkil qilish, koʻp xonadonli uy-joy fondini mavsumiy foydalanishga oʻz vaqtida va sifatli tayyorlash, koʻp xonadonli uy-joy fondini kapital va joriy taʼmirlash hamda unga tutash hududlarni obodonlashtirish vazifalari yuklatilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatishningasosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi toʻgʻrisida nizom ishlab chiqilgan.Unda:

- uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- koʻp xonadonli arzon uylar qurish boʻyicha davlat dasturlari amalga oshirilishini taʼminlash, koʻp xonadonli arzon uylar, suv taʼminoti, kanalizatsiya, issiqlik taʼminoti obyektlari qurilishi boʻyicha buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirish, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkil etish;
- koʻp xonadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish, shu jumladan, koʻp xonadonli uy-joy fondini mukammal va joriy taʼmirlash ishlarini tashkil etish;
- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, koʻp xonadonli uy-joy fondini saqlash, ulardan foydalanish va foydalanish xarajatlarini aniqlash boʻyicha talablarga, koʻp xonadonli uylarni texnik jihatdan foydalanish qoidalari va normalariga, koʻp xonadonli uylarga tutash hududlarning sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda saqlanishiga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
- hududlarni obodonlashtirish sohasidagi muammolarni oʻrganish va metodologik taʼminlash;
- uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiyalar hamda uskunalarni tatbiq etish, jumladan, uy-joy kommunal xoʻjaligi obyektlarini zamonaviy hisoblash oʻlchov asboblari bilan jihozlash, qurilish-montaj ishlari tannarxining pasayishini taʼminlaydigan mahalliy zamonaviy va sifatli qurilish materiallari hamda buyumlarini keng qoʻllash;
- uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish boʻyicha takliflar tayyorlash, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribasini inobatga olgan holda uy-joy kommunal xizmat koʻrsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- suv-kanalizatsiya xoʻjaligi va issiqlik taʼminoti korxonalari tomonidan xizmatlar tuziladigan shartnomalarga muvofiq koʻrsatilishini, shuningdek, isteʼmolchilarga ichimlik suvi, issiqlik energiyasi va issiq suv uzluksiz yetkazib berilishini taʼminlash;
- suv-kanalizatsiya xoʻjaligi tashkilotlarining suv taʼminoti va suv chiqarish boʻyicha hamda issiqlik taʼminoti korxonalari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar hajmlari haqidagi hisobot va axborotlar, debitor va kreditor qarzdorlik

to‘g‘risidagi ma’lumotlarning haqqoniyligi, shuningdek, ichimlik suvi, issiqlik energiyasi hamda issiq suvni nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

- suv ta’minoti, suv quvurlari va kanalizatsiya tarmoqlari hamda issiqlik ta’minoti tizimi obyektlarining holati, foydalanilishi va ularga ta’mirlash xizmati ko‘rsatilishi ustidan nazoratni ta’minlash;
- ko‘p xonadonli uy-joy fondini, unga tutash hududlarni saqlash va undan foydalanish qoidalariga rioya etish, ko‘chmas mulk egalarining binolarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik;
- umumiy foydalaniladigan joylar, fasadlar, uylarning ichki muhandislik kommunikatsiyalarini ta’mirlash-tiklash ishlarini tizimli o‘tkazish qoidalariga rioya etish;
- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlari tomonidan tegishli kommunal xizmatlar ko‘rsatishda texnik tartibga solish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar talablariga rioya etish;
- ko‘p xonadonli uylarda ko‘chma mulk egalarining mukammal ta’mirlash ishlarini bajarish uchun ajratiladigan mablag‘laridan maqsadli foydalanish shu va boshqalar to‘g‘risida yozilgan.

Yuqoridagi vazifalarni o‘z vaqtida, sifatli va samarali amalga oshirilsa uy-joy kommunal xizmatining sifatini tubdan oshirish, maqbul narxlarni ta’minlash uchun uy-joy kommunal sohasini davlat tomonidan boshqarishning yagona tizimini shakllantirish maqsadida zarur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Iste’molchilarga sifatli va kafolatli kommunal xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish va muhandislik infratuzilma obyektlarini boshqarish hamda ulardan foydalanish borasida samarali hamkorlik uchun respublika va mahalliy darajadagi barcha boshqaruv bo‘g‘inlarining mas’uliyatini oshirish lozim. Arzon uy-joylar qurish, ko‘p xonadonli uylarni rekonstruksiya qilish, suv ta’minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti obyektlarini barpo etish hamda rekonstruksiya qilish sohasida maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish uchun mablag‘larni maqsadli va ishonchli yo‘naltirishni ta’minlaydigan kompleks tadbirlar ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5017-sonli farmoni2017-yil 18-aprel
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y
3. https://uzsm.uz/
4. https://uz.wikidea.ru/
5. https://www.lex.uz/

P.B.Davronov –SamISI, IK-820 guruh talabasi

AHOLI TURMUSH DARAJASI VA UNING DAROMADLARI KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz aholi turmush darajasi va uning daromadlar manbalari ko‘rsatkichlari holati nazariy, amaliy va statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan

Kalit so‘zlar. Aholi turmush darajasi, daromadlar,umumiy daromadlar, birlamchi daromadlar, ishlab chiqarish daromadlari, mol-mulkdan olinadigan daromadlar, transfertlardan daromadlar, ijtimoiy siyosat

Аннотация. В статье освещено состояние показателей уровня жизни населения нашей страны и источников его доходов на основе теоретических, практических и статистических данных

Ключевые слова. Уровень жизни населения, доходы, общие доходы, первичные доходы, доходы от производства, доходы от имущества, доходы от трансфертов, социальная политика

Abstract. The article highlights the state of indicators of the standard of living of the population of our country and its sources of income on the basis of theoretical, practical and statistical data

Keywords. The standard of living of the population, income, total income, primary income, income from production, income from property, income from transfers, social policy

Hozirgi kunda aholining turmush sifati, daromadlar siyosatining dolzarb nazariy jihatlarini tushunib olish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bosh maqsadi barqarorlikka, iqtisodiyotni yuksaltirishni ijobiy sur’atlariga erishish hisoblanadi.Ta’kidlash joizki, ijtimoiy-mehnat munosabatlarining barcha jihatlari aholining daromadlariga ta’sir qiladi.Aholi farovonligi va turmush darajasini sifatini yaxshilash Prezidentimiz va davlatimizning oliy maqsadidir. Bu maqsadga erishishda aholi daromadlari muhim rol o‘ynaydi.

2022 yil 28 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmoni qabul qilindi. Strategiyning 3 bo‘limi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash deb nomlanadi va o‘z ichiga 21-36 maqsadlarni oladi. Jumladan, 21- maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish. [1]

Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning 2/3 qismini tashkil etadi.

[1] 2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

Agar mamlakatda xususiy mulk ustivor, renta, aholi pul jamg‘armasi ko‘p bo‘lsa, bank to‘laydigan foiz puli salmoqli bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorlikdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (nochorlarga byudjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi. Transfertlar nobozor daromadi, qolganlari bozor daromadi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistondagi aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mulk daromadi kabilar)ning ko‘payib borishi kuzatiladi.

Aholi turmush darajasi juda keng va serqirra iqtisodiy tushunchadir. **Aholi turmush darajasi -** aholining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasidir .[1]

Aholining moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan talabi tabiiy tarixiy milliy va boshqa shart-sharoitlarga qarab turlicha bo‘ladi va tez o‘zgarib turadi. Shunga binoan aholi turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham turlicha bo‘ladi. Insonning turmush darajasi o‘sib boruvchi talablar darajasi bilan uni qondirish imkoniyatlari darajasi o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish va uning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bunda insonning tanlash erkinligining o‘sishi, ya’ni uning nimalarni iste’mol qilishi, qayerda, qanday yashashi, qanday o‘qib bilim olishi kabilarni bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Aholi turmush darajasi qator ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Bularga aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YalM, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iste’mol hajmi va boshqalar. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin.

Mamlakat darajasida hisoblanadigan ko‘rsatkichlardan hududlar bo‘yicha aholi jon bo‘shiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar(1-jadval) va ularning tarkibi (2-jadval) keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari ,ming so‘m (2021 yil dastlabki ma’lumotlar)[2]

Hududlar	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**
O‘zbekiston Respublikasi	**7314,1**	**9128,6**	**10891,3**	**12125,6**	**14769,0**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5233,1	6808,7	8136,2	9437,4	11391,6
Andijon	6777,7	8412,0	9941,5	10765,7	12862,9
Buxoro	8823,0	11270,6	13075,7	14680,8	17847,1
Jizzax	6498,4	8512,9	9723,3	10935,9	13229,7
Qashqadaryo	6442,4	7827,9	9149,6	10203,9	12299,8
Navoiy	11139,6	13921,4	16926,9	19938,7	24156,2
Namangan	5733,3	6887,6	8293,1	9267,5	11329,1

[1] Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. «Iqtisodiyot nazariyasi» (darslik). - T.: «Fan va texnolohiya» nashriyoti, 2005. 666 bet

[2] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Samarqand	6594,1	8087,7	9447,9	10529,1	12874,4
Surxondaryo	5946,5	7622,5	8906,0	9748,4	11884,7
Sirdaryo	6833,5	8353,5	9998,4	10935,4	12675,3
Toshkent	7667,1	9401,6	11296,2	13130,0	16331,7
Farg‘ona	5600,3	7096,8	8111,8	8858,9	10929,8
Xorazm	7218,0	9536,1	11213,4	12276,8	15484,5
Toshkent sh.	14921,1	18432,1	23674,3	25545,3	30232,0

Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar oshib borish tendensiyasiga ega. Agar 2017 yilda u 5233,1 ming so‘m bo‘lsa, 2021 yilda 14769,0 ming so‘mni tashkil etadi, ya’ni 7454,9 ming so‘mga yoki 2,01 baravarga oshgan. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida bo‘lgan. Agar 2017 yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar 14921,1 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilda 30232,0 ming so‘mni tashkil etgan, ya’ni 15310,9 ming so‘mga yoki 2,02 baravarga oshgan.

Bu mamlakatimizda innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan , daromad shakllari o‘zgardi, ya’ni uning an’anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari - tadbirkorlik faoliyatidan, (ko‘chmas) mulkdan, qimmatli qog‘ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo‘shildi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda aholi umumiy daromadlari tarkibi, foizda (2021 yil dastlabki ma’lumotlar)[1]

Tarkibi	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**
Umumiy daromadlar - jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Shu jumladan:					
1.Birlamchi daromadlar	**80,6**	**77,5**	**76,2**	**75,4**	**73,6**
A) Ishlab chiqarish daromadlari (mehnat faoliyati daromadlari, o‘z-o‘zini band qilishdan daromadlar va o‘z iste’moli uchun yaratilgan xizmatlar)	**77,4**	**74,6**	**73,5**	**73,3**	**71,5**
B) Mol-mulkdan olinadigan daromad	**3,1**	**2,9**	**2,7**	**2,1**	**2,2**
2. Transfertlardan daromadlar	**19,4**	**22,5**	**23,8**	**24,6**	**26,4**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oxirgi 5 yilda ya’ni, 2017-2021 yillarda barcha daromadlar tarkibida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Jumladan, birlamchi daromadlar 2017 yilda 80,6 foiz bo‘lgan, 2021 yilda esa 73,6 foiz bo‘lgan, ya’ni 7,0 foizga kamaygan. Mol-mulkdan olinadigan daromadlar bo‘yicha ham xuddi shunday holat yuz bergan. Transfertlardan daromadlar bo‘yicha esa aksincha 2017 yilda 19,4 foiz bo‘lsa, 2021 yilda 26,4 foiz bo‘lgan ya’ni, 7,0 foizga ko‘paygan. Bu mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan siyosatning natijasidir.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarining asosiy ulushini ish haqi tashkil etadi. Daromadning bu turi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

qoladi. Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.

Aholi daromadlari ularning turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilish mumkinki, aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma ’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida e’tirof etish mumkin.

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo‘li bilan shakllantirish va byudjet orqali aholi turli guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo‘nalish - bu narxlaming oshib va pul qadrining tushib ortib borishi munosabati bilan daromadlaming eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.2022-2026 yillarda mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. «Iqtisodiyot nazariyasi» (darslik). - T.: «Fan va texnolohiya» nashriyoti, 2005. 666 bet
3. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

G.T. Samiyeva– QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.,
S.A.Primova – QarMII, “Iqtisodiyot” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

KICHIK BIZNES, XUSUSIY VA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish yo‘nalishlari hamda ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan. Xususiy mulk egalarini ko‘paytirish orqali aholi turmush darajasini oshirish muhim masalalardan biri ekanligi maqolada aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, xususiy mulkdor, turmush darajasi.

Аннотация. Эта статья посвящена развитию малого бизнеса и предпринимательства, стимулам и приоритетам семейного бизнеса. В статье отражается один из важнейших вопросов - повышение уровня жизни населения за счет увеличения числа собственников и частной собственности.

Ключевые слова: малый бизнес, частный бизнес, семейный бизнес, частный собственник, уровень жизни.

Abstract. This article focuses on small business and entrepreneurship development, family business incentives and priorities. The article reflects one of the most important issues - improving the standard of living of the population by increasing the number of owners and private property.

Keywords: small business, private business, family business, private owner, standard of living.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevralda qabul qilgan PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonida O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha belgilangan ustivor vazifalar qatoriga kichik biznes, xususiy va ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish alohida o‘ringa ega ekani ta’kidlab o‘tilgan. Xususan, “…xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob’yektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub’yektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish…” [1] davlat rahbari tomonidan muhim strategik yo‘nalish sifatida belgilandi.

Shu nuqtai nazardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish salohiyatini yanada oshirish yo‘llarini asoslash dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Aholini tadbirkorlikka jalb etish va turmush darajasini yaxshilash borasida qilinayotgan ijobiy ishlardan yana biri – 2019 yil 7 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4231 sonli qarori bo‘ldi. Ushbu qaror “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” bo‘lib, hududlar aholisining muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish orqali daromad manbaini ko‘paytirish maqsadida qabul qilingan[2]. Ayniqsa, bunda oilaviy tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi. “Har bir oila –

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7.02 da qabul qilgan PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonidan

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-sonli Qarori. 2019 yil 07

tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorida “... ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini klasterlar tashkil etish” vazifasi qo‘yilgan[1].

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda iqtisodiyotni isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta’minlashda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning rivojlanish tajribasi shundan dalolat beradiki, oila tadbirkorligiga qaratilgan tashabbus nafaqat bandlikni ta’minlashda, balki daromadlarni tekis taqsimlash, shu bilan bir qatorda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning barqaror omillari sifatini oshirishda tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasiga ko‘ra, bozor munosabatlariga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini har xil shakllaridagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilar huquqi ustunligini hisobga olib, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan teng muhofaza etilishini kafolatlaydi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdan mahrum etilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonunida tadbirkorlikning iqtisodiy-huquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kafolatlar tadbirkorlarning huquq va mas’uliyati aniq belgilangan. Ushbu Qonunda tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solishga taalluqli qoidalar ham yoritib berilgan. Ushbu qonun vositasida fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati tartibga solingan tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlari belgilab berilgan. Qonun mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllarini erkin tanlashga, bu shakllarning teng huquqlilik asosida amal qilishiga, o‘zaro hamkorlik va erkin raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratilishiga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, respublikada mustaqillik yillarida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yer to‘g‘risida”gi, “Mulk to‘g‘risida”gi, “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korxonalar to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi, “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi, “Ijara to‘g‘risida”gi, “Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatlari kafolatlash to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunlari tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy bazasini tashkil etadi.

Yuqoridagi huquqiy asoslardan kelib chiqib, biznes va tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjudligi va rivojlanib borishi, ishlab chiqaruvchilarning biron-bir mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko‘rsatish

---

mart (lex.uz materiallaridan olindi)

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Har bir oila - tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarori, 2018 yil, 07 iyun.

turiga ixtisoslashishining kengayib borishi;

- tovar-pul munosabatlarining rivojlanib borishi;
- bozor iqtisodiyoti zamonaviy modellarining paydo bo‘lishi va rivojlanib borishi;
- bozor, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanib borishi;
- xilma-xil mulk turlari va shakllarining rivojlanib borishi hamda xususiy mulk miqyoslarining kengayib, ustuvorligining ta’minlanishi;
- xo‘jalik sub’yektlarining iqtisodiy jihatdan mustaqilligi va faoliyat erkinligining oshib borishi;
- xo‘jalik sub’yektlarining tanlash erkinligining mavjudligi va ta’minlanganligi;
- jamiyatda kishilar ongida iqtisodiy tafakkurning rivojlanib borishi;
- davlat tomonidan mamlakatda qulay ishbilarmonlik, biznes yuritish uchun maqbul sharoit va muhitining yaratib berilishi, davlatning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashining kuchayib borishi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot taraqqiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2020 yilda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 55,7 %, sanoatdagi 27,9 %, qurilishdagi 72,5 %, bandlikning 74,5 %, eksportdagi ulushi 20,5 %, importdagi ulushi 51,7 % bo‘lganligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli sezilarli darajada oshayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, 2020 yilda yangi ish o‘rinlarining 67 foizidan ortig‘i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 32 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilik kabi turli biznes va tadbirkorlik shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali

- o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi;
- makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi;
- sog‘lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YaIM ning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi;
- ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi;
- aholi turmush darajasining o‘sishiga erishiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya’ni xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanishi uchun ba’zi ma’muriy to‘siqlar bartaraf etilishi, respublikamizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish orqali xalqaro me’yorlarga to‘liq javob berishini ta’minlashda o‘z aksini topadi[1]

[1] Mirziyoyev Sh.Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning

М.М. Турдимуратов – ЖизПИ катта ўқитувчиси

БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШ – ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА

Аннотация: Мақолада барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳоли турмуш сифатини яхшилаш, камбағалликни қисқартиришга комплекс ёндашув амалга оширилган. Барқарор иқтисодий ўсишнинг натижавий белгилари бўйича таркибий қисмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар ва амалий тавсияларилгари сурилган.

Калит сўзлар: иқтисодий ўсиш, аҳоли фаровонлиги, камбағаллик, ижтимоий гуруҳлар, инсон салоҳияти.

Аннотация: В статье представлен комплексный подход к устойчивому экономическому росту и повышению качества жизни населения, сокращению бедности. Выдвинуты предложения и практические рекомендации по совершенствованию составляющих итоговых показателей устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: экономический рост, благосостояние, бедность, социальные группы, человеческий потенциал

Abstract: The article presents a comprehensive approach to sustainable economic growth and improving the quality of life of the population, reducing poverty. Proposals and practical recommendations have been put forward to improve the components of the final indicators of sustainable economic growth

Keywords: economic growth, welfare, poverty, social groups, human potential.

Жаҳонда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашга таъсир этувчи шарт-шароитларни таъминлаш ва минтақаларнинг табиий-иқтисодий салоҳият, имкониятлардан самарали фойдаланиш юзасидан бир қатор ишлар амалга оширилишига қарамасдан макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва иқтисодий ўсишнинг юқори суръатларини сақлаб қолиш янада долзарблашмоқда. Жаҳон Банкининг маълумотларига кўра, Шарқий Европа ва Марказий Осиё мамлакатларида коронавирус тарқалишининг кенгайиши ички талабнинг пасайишини кучайтирди, таъминот узилишларини кучайтирди ва иқтисодий фаолиятнинг катта қисмини тўхтатишга олиб келди[1]. Минтақа иқтисодиётида 4,7% пасайиш кутилмоқда, рецессия деярли барча мамлакатларга таъсир қилади (бу ерда 1,5% ўсиши кутилмоқда). Пандемия таъсирини босқичма-босқич юмшатиш натижасида, 2021 йилда минтақа иқтисодиётининг тикланиши 3,6% ўсиши кутилмоқда. Жаҳон банки 2021 йилда Ўзбекистон тез ўсишга қайтади, деб фикр билдирди. 2021 йилда иқтисодий ўсиш 6.5% даражасида кутилмоқда, бу беш йил ичидаги энг юқори кўрсаткичдир. Хусусий истеъмол 6,1 фоизга, асосий капиталга инвестициялар ҳажми 10,4 фоизга ўсади. Келгуси йилда экспорт ва импортнинг ўсиши 6,7% ва 11,2% га

mustahkam poydevoridir. – T.: “O‘zbekiston”, 2018

[1]Жаҳон Банки маълумотлари. https // invest.gov.uz.

етиши кутилмоқда. Инфляция 14,8% даражасида кутилмоқда.

Ҳозирги вақтда иқтисодий тараққиётнинг ривожланиши ҳудудларнинг табиий-иқтисодий салоҳиятидан ва имкониятларидан унумли фойдаланиш мамлакатда иқтисодий ўсишнинг асосий воситаси эканлиги учун мазкур соҳанинг назарий-иқтисодий мазмуни, унга таъсир этувчи омилларни чуқур тадқиқ этишни талаб этади. Иқтисодий жиҳатдан барқарор ўсиш жамият тараққиёти йўлини, унинг ривожланиш даражасини белгилайди. Иқтисодий ўсиш, биринчи навбатда, товар ва хизматлар миқдорининг ўсиши ва ўзгаришида ўз ифодасини топади. Кенг маънода эса, жамиятда иқтисодий ўсиш натижасида такрор ишлаб чиқариш ортади, ишлаб чиқариш кучлари ривожланади. Энг асосийси, аҳоли турмуш сифати моддий жиҳатдан яхшиланади ва фаровонлиги ортади.

Мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари таъминланмоқда ва уни янада мустаҳкамлаш борасида бир қатор устувор йўналишлар белгиланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Олий Мажлисга Мурожаатномасида [1] "...иқтисодий ислоҳотларнинг пировард мақсади камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини оширишдан иборат бўлади. Ушбу стратегик мақсадларга ҳамма учун тенг имконият яратадиган юқори иқтисодий ўсиш ҳисобига эришилади. Эндиги вазифа – чуқур таркибий ислоҳотлар орқали узоқ муддатли барқарор ўсишнинг пойдеворини яратишдан иборат. Шуларни инобатга олиб, кейинги йилда қуйидаги йўналишларда кенг қамровли ишларни амалга оширамиз. Биринчидан, камбағалликни қисқартириш борасида комплекс ёндашув ва ностандарт усулларни жорий этамиз. Иккинчидан, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга оширишда давлат компанияларини трансформация қилишни жадаллаштириш. Учинчидан, товар ва молия бозорларида эркин рақобат муҳитини шакллантириш ҳамда тадбиркорларга хомашё сотиб олиш учун тенг имкониятлар яратиш зарур. Тўртинчидан, иқтисодий ўсишга, аввало, рақобатдош саноат занжирларини яратиш ҳамда бундай лойиҳаларга инвестицияларни кўпайтириш орқали эришилади. Бешинчидан, макроиқтисодий барқарорлик – иқтисодий ислоҳотларнинг мустаҳкам пойдеворидир".

Иқтисодий ўсиш барқарор ривожланишнинг алоҳида таркибий қисми бўлиб, мамлакатда маълум йиллар давомида (одатда беш йил) ижобий ва ўзаро мутаносиб ўсиш динамикасидан вужудга келадиган иқтисодий ўсишдир. Ҳар бир мамлакат иқтисодий ўсишни таъминлашга интилади. Мамлакат табиий ресурслар миқдори ва сифати, асосий капитал ҳажми, унга киритилаётган инвестициялар ҳажми, технологиялар, тадбиркорлик қобилияти ва бошқа бир қатор воситалар иқтисодий ўсиш, миллий маҳсулот ҳажми ва даромад даржасининг ошиши, натижада аҳолининг фаровонлигига таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи-назардан барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашга таъсир этувчи

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020. 30.12.Lex.uz.

омилларни илмий ва амалий жиҳатдан ўрганиб бориш долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Олиб борилган тадқиқотларнинг кўрсатишича, ҳудудларнинг табиий-иқтисодий салоҳияти ва ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, унинг имкониятларидан самарали фойдаланиш барқарор иқтисодий ўсишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Чунки, ислоҳотлар ҳудудларда ва аҳоли яшаш жойларида амалга оширилиб, барқарор иқтисодий ўсишнинг натижавий белгилари бўйича таркибий қисмларининг ривожланиши қуйидагича гуруҳланди (1-жадвал).

1-жадвал

Барқарор иқтисодий ўсишнинг натижавий белгилари бўйича таркибий қисмлари таснифи[1]

Иқтисодий ўсиш	**Барқарор иқтисодий ўсиш самарадорлиги**
ЯИМ нинг ўсиши	***Аҳоли турмуш сифатининг ўсиши***
Аҳоли жон бошига ЯИМнинг ўсиши	Даромадлар тенгсизлиги камайиши
Реал ЯИМ мутлоқ ҳажми, аҳоли жон боши ва иқтисодий ресурс бирлиги ҳисобига нисбий барқарор ўсиб, таркиби такомиллашиб бориши	Камбағаллик даражасининг камайишига эришиш
	Иқтисодий ўсиш моделларидан энг мақбулларини танлаш орқали ҳудудларда барқарор иқтисодий ўсиш самарадорлиги, унинг барқарорлиги ва сифатини оширишни таъминлаш

Иқтисодий ўсиш қанчалик жадал ривожланган бўлса миллий иқтисодиёт олдида турган вазифаларни ҳал қилиш шунча катта имкониятларга эга бўлади. Олимларнинг таъкидлашича [2] “Иқтисодий ўсиш - аҳоли жон бошига мамлакатда яратилган ЯИМ ҳажмининг олдинги йилга нисбатан ўсиши орқали ифодаланишини таъкидлаб ўтганлар.Уларнинг фикрича, иқтисодий ўсишнинг шартлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин: жорий йилда ишлаб чиқарилган ялпи ички махсулот (ЯИМ) аввалги йилга нисбатан кўпроқ бўлиши, ЯИМнинг ўсиш суръати аҳоли ўсиш суръатидан юқори бўлиши, яъни киши бошига ишлаб чиқарилган ЯИМнинг кўпайиши”.

Аҳоли даромад топишининг тақсимот муносабатларининг икки ёқлама таъсирини кўрсатиб ўтиш лозимки, бу меҳнат билан банд бўлганлар даромадларини доимий ўсиб бориши, ижтимоий самарадорликнинг тақсимланиши натижасида фаровонликка эришишни ва аксинча эса камбағалликнинг ошишини ифодалайди. Аҳолининг камбағал тоифаси тезкор иқтисодий ўсишдан фойда кўриш имкониятидан маҳрум бўлибгина қолмай, жамиятнинг турли соҳаларида иштирок этиш имконияти

[1]Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

[2]Набихужаев А., Шеров Ю., Султонов П. Макроиктисодий барқарорлик кўрсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. // Иқтисод ва Молия. №2 135 б.

чекланганлиги туфайли ривожланишга ҳам ҳисса қўша олмайди.

Аҳоли даромадларни ошириш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, турмуш даражасини яхшиланиши учун қуйидаги тавсияларни илгари сурамиз: тирикчилик воситаларидан маҳрумлик, тенгсизлик, маданий, эксплуатация кўринишидаги ҳамда таркибий камбағалликка қарши курашиш борасида кишиларнинг иқтисодий тафаккури ва иқтисодий тарбиясини ўзгартиришга эришиш, "Ҳар бир оила – тадбиркор" дастурини изчил амалга ошириш натижасида маҳаллий шарт-шароитларни ҳисобга олиб тадбиркорликнинг ҳар қандай турларини ривожлантиришга шарт-шароитлар яратиш.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Жаҳон Банки маълумотлари. https // invest.gov.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020. 30.12.Lex.uz.
3. Набихужаев А., Шеров Ю., Султонов П. Макроиктисодий барқарорлик кўрсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. // Иқтисод ва Молия. №2 , 135 б.
4. Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар марказининг маълумотлари. https://review.uz.

Ф.О.Ўроқов –СамИСИ ассистенти

ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ИСЛОҲОТЛАР САМАРАСИ

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизда аҳоли бандлигини таъминлаш, ишсизлик даражасини камайтириш каби муҳим ислоҳотлар хусусида сўз боради, уларнинг баёнини батафсил ёритишда статистик маълумотлардан ҳам фойдаланилган.

Калит сўзлар: аҳоли бандлиги, ишсизлик, иқтисодий фаол аҳоли, меҳнат муносабатлари, тадбиркорлик, мономарказ, миграция,меҳнат ресурслари.

Аннотация: В этой статье обсуждаются важные реформы в стране, такие как занятость, сокращение безработицы, а для подробного освещения их заявлений использовались статистические данные.

Ключевые слова: занятость, безработица, экономически активное население, трудовые отношения, предпринимательство, моноцентр, миграция, трудовые ресурсы.

Abstract: This article discusses important reforms in the country, such as employment, reducing unemployment, and statistics were used to cover their details.

Keywords: employment, unemployment, economically active population, labor relations, entrepreneurship, monocenter, migration, labor resources.

"**2020 йилда янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳҳоли бандлигини таъминлаш параметрлари тўғрисида**"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори лойиҳаси ишлаб чиқилди. "**Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида**"ги

Президент **Фармони** қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги этиб қайта ташкил этилди.

Республикада жорий йилнинг биринчи ярим йиллиги ҳолатига меҳнат ресурслари сони **19,1 млн.** кишини ташкил этиб, бу кўрсаткич 2019 йилнинг мос даврига нисбатан **0,6 фоизга ош**ди. Ишсизлик даражаси иқтисодий фаол аҳолининг **13,2 фоизни** ташкил этди[1].

2020 йил биринчи ярим йиллигида мамлакат бўйича Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги тизимидаги **аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказларига** иш сўраб мурожаат қилган **273 минг** нафар фуқаронинг **40 фоизи,** шунингдек**, хусусий бандлик агентликлари** томонидан жорий йилнинг январь-апрель ойларида **2890 нафардан** зиёд ишсиз фуқаро ишга жойлаштирилди[2].

Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказлари томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш мақсадида Тошкент шаҳрида "**Кунлик ишчилар маркази**"лари очилди.

"**Камбағал ва ишсиз аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-ҳунарга ўқитишга қаратилган чора- тадбирлар тўғрисида**"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори лойиҳаси ишлаб чиқилди.

Қарор лойиҳасида ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ҳамда тадбиркорликка ўқитишга қаратилган қуйидагиларни назарда тутувчи **умуммиллий тизим** жорий этилади:

- Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳри, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида жойлашган "**Ишга марҳамат**" **мономарказлари**;

- Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар туман (шаҳар)ларида жойлаш ган ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини **касб-ҳунарга ўқитиш марказлари**;

- Тошкент шаҳрининг туманларида Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги ўрта махсус таълим муассасаларида ишсиз ёшлар, хотин-қизлар ҳамда ўз малакасини оширмоқчи бўлган фуқаролар учун ташкил этиладиган **қисқа муддатли касб-ҳунарга ўқитиш курслари**;

- маҳалла гузарларида, маҳалла ҳудудларидаги ўқув муассасалар, корхона ва ташкилотлар, ташаббускор тадбиркорлик субъектлари биноларида, бошқа бўш турган жойларда ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини касб-ҳунарларга ўқитиш марказлари ҳузурида ташкил этилган маҳалла аҳолисини **касб-ҳунарга ўқитиш масканлари** ташкил этилади.

Шу билан бирга, Тошкент шаҳридаги "Ишга марҳамат" мономарказида, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлардаги "Ишга марҳамат" мономарказларида 2020-2021 йилларда иш қидирувчи шахслар, **хорижга меҳнат миграциясига кетмоқчи бўлган фуқаролар,** нодавлат ўқув марказлари битирувчилари ва бошқа аҳоли тоифалари

[1]Давлат статистика қўмитаси маълумотлари
[2] https://strategy.uz/index.php?news=1064

учун **WorldSkills** стандартлари асосида **Ишчи касблар бўйича касбий малакани баҳолаш марказлари** ташкил этилади.

Пандемия шароитига қарамасдан, карантин даврида **131,2 минг** нафар ишсиз фуқаро ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб қилиниб, уларнинг бандлиги таъминланди.

Коронавирус пандемиясининг меҳнат бозорига салбий таъсирини юмашатиш мақсадида меҳнат органлари томонидан **588,2 минг** (30 ёшгача бўлганлар **159,9 минг** ва аёллар **229,4 минг**) нафар ишсиз ва банд бўлмаган аҳолига хизматлар кўрсатилди[1].

Хусусан, **501,1 минг** нафари доимий иш ўринларига ишга жойлаштириш ва жамоат ишларига жалб қилиш орқали бандлиги таъминланди, **15,0 минг** нафар ишсиз фуқаро касб-ҳунарга ўқитилди, **27,0 минг** нафарига Бандликка кўмаклашиш жамғармасидан **10,1 млрд. сўм ишсизлик нафақаси** тўлаб берилди.

Шу билан бирга, карантин даврида шахсий томорқаларни ривожлантириш учун Бандликка кўмаклашиш жамғармасидан субсидиялар бериш дастури орқали деҳқон хўжаликлари ва шахсий томорқаларда банд бўлган фуқаролар сони **201,1 минг нафарга** ортганлиги бевосита ислоҳотлар бесамар кетмаётганлигининг яна бир исботидир.

Г.Т. Самиева– ҚарМИИ доценти, и.ф.ф.д. (PhD)
Ш.У. Рамазонов– ҚарМИИ магистранти

АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШНИНГ ЭНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақола аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, турмуш даражаси ва фаровонлигини ошириш йўналишлари ҳамда аҳоли турмуш даражасини ўрганиш билан боғлиқ масалалар ҳақида баён этилган.

Калит сўзлар: аҳолининг турмуш даражаси, фаровонлик, ижтимоий ҳимоя, истеъмол, камбағаллик.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с изучением социальной защиты, уровня жизни и благосостояния, а также уровня жизни населения.

Ключевые слова: уровень жизни, благосостояние, социальная защита, потребление, бедность.

Abstract. This article discusses issues related to the study of social protection, living standards and well-being, as well as the standard of living of the population.

Keywords: standard of living, welfare, social protection, consumption, poverty.

Республикамизда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, иш ҳақи ва бошқа пул даромадларини босқичма-босқич ошиб боришини таъминлаш учун зарур шарт-шароитлар яратилди. Ўз навбатида, аҳоли пул даромадларининг ўсиши, унинг харид қобилиятини ошириш, ишлаб чиқариш ҳажми-

[1] Давлат статистика қўмитаси маълумотлари

ни кенгайтириш ва мамлакатдаги барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Аҳолининг моддий фаровонлиги, соғлиғи ва хавфсизлигини сақлашнинг юксак даражасига эришиш, уларни амалга ошириш борасида кафолатларни юзага келтириш учун сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий шароитлар яратиш бугунги кунда давлат ижтимоий сиёсатининг асосий йўналишидир. Бу йўналиш ҳар бир инсоннинг муносиб турмуши ва эркин ривожланишини таъминлашга қаратилган тегишли ижтимоий-иқтисодий сиёсат ўтказиш билан амалга оширилади.

Аҳолининг турмуш тарзи билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишга бўлган янгича ёндашувлар корхонадаги (ташкилот, фирма, компания) меҳнат муносабатлари, меҳнатга ҳақ тўлашни тартибга солиш, ходимлар хизматларини баҳолаш, иш ҳақини ва умуман ижтимоий-меҳнат муносабатларини тартибга солиш камбағаллик деб аталмиш тушунчанинг камайтирилишига бевосита таъсир қилади. Даромадлар сиёсатининг назарий масалаларини, уларнинг турли даражаларда ва аҳолининг турли гуруҳлари учун шаклланиш усуллари ва механизмларини билиш билан ҳам аҳолининг кам даромадли қисмини камайтиришга таъсир этиши белгиланган. Аҳолининг турмуш даражаси инсонлар ҳаёти ва фаолиятининг мавжуд ижтимоий-иқтисодий шароитлари мажмуи билан тавсифланувчи мураккаб ва кўп қиррали тушунчадир. Аҳолининг турмуш даражасини тадқиқ этиш жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасидан қатъий назар, барча мамлакатлар учун, хусусан, мамлакатлараро таққослаш учун долзарбдир.

Аҳолининг турмуш даражасини ўрганишнинг энг муҳим жиҳатлари қуйидагилар ҳисобланади:

– иқтисодий фаолият иштирокчиси ҳисобланган инсоннинг асосий сифат хусусиятларини баҳолаш (юксак даражада давом этишига эришиш учун соғлом турмуш тарзини олиб боришга қобилият; таълим олиш имкониятлари, муносиб турмуш учун етарли маблағларга эга бўлиш ва юксак касбий сифатларни эгаллаш);

– номинал ва реал даромадларни баҳолаш;

– аҳолининг уй-жой, узоқ муддатли фойдаланишга мўлжалланган истеъмол неъматлари билан таъминланиш хусусиятини ўрганиш.

Аҳолининг турмуш даражаси – бу аҳоли фаровонлиги, неъматлар ва хизматлар истеъмолининг даражаси, инсонларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини қондириш меъёрини тавсифловчи шароитлар ва кўрсаткичлар мажмуидир. Бошқача қилиб айтганда, турмуш даражаси жамиятда яшовчи инсон эҳтиёжларининг ривожланиши ва қондирилиши даражасидан иборат бўлиб, у турли неъматларнинг истеъмол қилиниши ёки истеъмол учун олинганларининг фойдалилик даражаси билан белгиланади. Турмуш даражаси ва сифатини баҳолашнинг муҳим масалаларидан бири – бу тушунчанинг тузилиши ва мазмунини очиб берувчи кўрсаткичлар рўйхатини аниқлаш ва тузиш ҳисобланади. Турмуш даражаси ва сифатига берилган таърифларнинг ривожланиш тарихини

тавсифловчи “турмуш даражаси”, “аҳоли фаровонлиги”, “турмуш тарзи”, “турмуш сифати” каби тушунчалар аҳоли фаровонлигини тавсифлаш учун қўлланилади Аҳоли фаровонлигини тавсифлаш учун ижтимоий табақаланишни ҳисобга олган ҳолда жон бошига тўғри келадиган даромадлар, истеъмоллар ва уй хўжаликларининг асосий бойликлар билан таъминланганлик, аҳолининг даромадлар ва истеъмол бўйича табақаланиш, тирикчилик минимуми, қашшоқлик даражалари ҳамда ҳаёт стандарти каби қатор тушунчалар қўлланилади.

Аҳолининг турмуш даражаси – мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсати самарадорлигини баҳолашнинг энг муҳим мезони ҳисобланиб, унинг амалга оширилиши жамият ривожланишининг асосий мақсадидир. Аҳоли турмуш даражаси, биринчи навбатда, товарлар ва хизматларга шахсий эҳтиёжларни қондиришнинг асосий манбаи бўлиб хизмат қилади. Даромадлар ва бойликлардаги муқаррар тенгсизлик аҳоли турмуш даражаси ва ижтимоий-мулкий қатламларга ажралиш бўйича тегишли табақаланиш билан бирга кечади. Аҳоли даромадларини тартибга солиш сиёсати аҳолининг барча қатламларининг муносиб турмуш даражасини юзага келтиришга қаратилган.

Турмуш даражаси – турли кўрсаткичлар билан тавсифланадиган мураккаб ижтимоий-иқтисодий категориядир. Турмуш даражаси кўрсаткичлари орасида муҳим ўринни даромадлар, истеъмол ва харажатларни ўз ичига олувчи умумий иқтисодий кўрсаткичлар блоки эгаллайди. Истеъмол ҳар қандай ишлаб чиқаришнинг бош мақсадидир. Инсоннинг мўътадил яшаши ва ривожланиши фақат улар томонидан моддий бойликларнинг узлуксиз истеъмол қилиниши билан белгиланиши мумкин, бундан келиб чиқадики, жамият томонидан моддий бойларнинг ишлаб чиқарилиши ҳам узлуксиз бўлиши керак. Ҳозирги замон ишлаб чиқариши мураккаб тармоқланган ва кенг қамровли организм бўлиб, у аҳолининг ҳаёти ва фаолиятини ҳамда турмуш даражасини белгилаб беради.

Инсонларнинг ишлаб чиқариш фаолияти натижалари жамият иқтисодий бойликларининг мажмуини ҳосил қилади, моддий эҳтиёжларнинг қондирилиши учун унинг меҳнат маҳсулотлари зарур бўлган қисми эса иқтисодий эҳтиёжлар деб аталади. Ўз навбатида, ишлаб чиқариш инсон ва унинг эҳтиёжлари ривожига бевосита таъсир кўрсатади. Моддий бойлик яратилиб, у одамлар эҳтиёжларини қондириш даражасини ва улар томонидан бу бойликларнинг истеъмол қилиниш усулларини белгилайди ва бу билан инсон – истеъмолчининг маълум таркибини шакллантиради. Ишлаб чиқаришнинг техник ва технологик янгиланиши у томонидан яратиладиган моддий бойликларнинг инсон ҳақиқатан яшайдиган предмет дунёсининг кескин сифат ўзгаришига ва янгиланишига, бу билан эса унинг бутун ҳаёт тарзининг ўзгариши ва янгиланишига олиб келадики, бу унда янги эҳтиёжлар юзага келишига сабаб бўлади. Ана шу эҳтиёжларни тўлиқ қондиролмаслик, айниқса асосий моддий эҳтиёжларгагина топганининг 50 %дан юқорисини сарфлаш,

жамғарма бўлмаслиги камбағаллик, қашшоқлик тушунчаларини кўрсатади.

Қашшоқлик, камбағаллик - жамият ҳаётий фаолиятининг натижасидир. Шахсни мулкдан, унинг маҳсулотидан, шарт-шароитларидан бегоналаштириш ўзини англаш ва ҳар томонлама ривожланишдан қолдиради, моддий эҳтиёжларни тўлақонли қондирилмаслигига сабабчи бўлади.

Камбағалликни тугатиб бўлмайди, чунки бу инсон табиати ва бозор иқтисодиёти қонун-қоидаларидан келиб чиқади. Аммо камбағалликни қисқартириб бўлади, унинг учун давлат томонидан ҳам олиб борилаётган иқтисодий-ижтимоий сиёсат, рақобат, мотивацион факторлар ҳал қилувчи ролни ўйнаб, бевосита таъсир қилади.

G.T. Samiyeva– QarMII dotsenti, i.f.f.d.
B.Xaydarov - QarMII magistranti

UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA AHOLI BANDLIGI MASALASINI HAL ETISH VA BUNDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida hal etiladigan muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: aholi bandligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi farovonligini oshirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish.

Аннотация. В данной статье описаны важные социально-экономи-ческие задачи, которые необходимо решить за счет развития малого бизнеса и частного предпринимательства, занятости населения за счет развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: занятость, малый бизнес, частное предпринимательство, благосостояние, формирование имущественного класса.

Abstract. This article describes important socio-economic tasks that need to be solved through the development of small businesses and private entrepreneurship, employment through the development of small businesses and private entrepreneurship.

Key words: employment, small business, private entrepreneurship, welfare, formation of a property class.

O‘zbekistonda samarali va barqaror iqtisodiyotni shakllantirish, 2030 yilgacha tez suratlarda rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy maydondagi o‘rni va nufuzi sezilarli oshib borayotganligi bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati hamda rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi tufaylidir. Zero, “…biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobarga oshiramiz…”[1] –

[1]Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.

deganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev davlatning rivojlanish strategiyasi va maqsadini ifodalagan edi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zamirida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mulkdorlar safini kengaytirish, mehnat resurslari ichidan boshqaruvchi rahbar kadrlarni shakllantirish, fuqarolar uchun barcha jabhalarda qulay imkoniyatlar yaratishdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o‘zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta’minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, aholi farovonligini oshirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali milliy bozorni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish hamda ijtimoiy infratuzilmani kengaytirishda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi salmoqli o‘rin tutadi.

“2020 yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1,2 millionta yangi ish o‘rni tashkil etildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 612 ming kishi ish bilan ta’minlandi”[1].

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik sub’yektlari rolining beqiyosligi, uning bir tomondan aholini ish bilan ta’minlash masalasini hal etish bo‘lsa, boshqa tomondan aholi daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi. Aholi daromadlarining oshishi va farovonligini ta’minlash kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning maqsadi bo‘lsa, ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orqali rivojlantirish bugungi kunning zaruriyatidir. Bunga sabab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida quyidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etiladi:

- eng avvalo, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishning, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning muhim omili va manbai bo‘lib xizmat qilish;
- ikkinchidan, o‘zining harakatchanligi, bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga moslashuvchanligi va kam sarmoya talab qilish hisobiga ishlab chiqarishni tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini yangilash;
- uchinchidan, mulkdorlar o‘rta sinfini shakllantirish asosida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashga erishish.

Yuqoridagilar sabab yurtimizda mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarini yaratish, ular huquqini himoya qilish yuzasidan qonunchilikni mustahkamlash, bozor infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, biznesni ro‘yxatga olish, ixtiyoriy ravishda yopish va tugatish, shuningdek, faoliyatning alohida turlari

---

“O‘zbekiston”, 2016.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisga murojaatnoma. – T., 2021 yil yanvar

bilan shug‘ullanish huquqini beradigan litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonlari soddalashtirilib, tartibga solindi. Belgilangan soliq stavkasi miqdori sezilarli darajada kamaytirildi, ayrim jarima turlari butunlay bekor qilindi.

Biznes sohasiga davlatning aralashuvini cheklashga qaratilgan ishlar davom etmoqda, xususan, davlatimiz rahbarining “Tadbirkorga qarshi chiqqan har kimni menga qarshi chiqqan deb qabul qilaman”[1], - degan g‘oyaviy fikrlari tadbirkorlarni yanada ruhlantirdi. Hatto biznes subyektlariga nisbatan har qanday sanktsiya faqat sud qarori bo‘yicha qo‘llanishi ustidan monitoring olib borilishi ular uchun erkinlikni kafolatlaydi. Moliya, soliq va statistika hisobotlarining barcha shakl hamda muddatlarining keskin qisqartirilishi, soliqqa tortish stavkalari unifikatsiya qilinib, kamaytirilishi tadbirkorlarga avvalo, kichik biznes subyektlariga asosiy, shu jumladan, talab yuqori bo‘lgan moddiy resurslardan keng foydalanish imkonini beradigan barqaror bozor mexanizmining shakllanganini anglatadi.

Jozef Shumpeterning ta’rifiga ko‘ra, tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, uning yangi yo‘llarini belgilovchi va yangi kombinatsiyalarini ishlab chiquvchi shaxsdir. Uning fikricha, tadbirkor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish;
- yangi sotish bozorlarini egallash va avvalgilaridan kengaytirilgan holda foydalanish;
- mavjud sanoat tarmog‘ida ilgari qo‘llanilmagan yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish;
- ishlab chiqarishda xom ashyoning yangi turidan foydalanish;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki avvalgisini sifat jihatdan takomillashtirish[2].

J.Shumpeter tadbirkorlik faoliyatining quyidagi maqsadli motivlarini ko‘rsatib bergan:

1) hukmronlik, hokimiyat va ta’sir doirasiga ega bo‘lish ehtiyoji;
2) g‘alabaga erishish ishtiyoqi, o‘z-o‘zini va raqiblarini yengishga intilish;
3) ijod quvonchi.

Ushbu maqsadli motivlar asosida u innovatsion tadbirkorlikning quyidagi jihatlarini ko‘rsatib bergan:

- iste’molchilarga noma’lum bo‘lgan yangi tovarlarni ishlab chiqarish;
- yangi tovarlarni o‘zlashtirish;
- ishlab chiqarishning davomiyligini, mavjud tovarlarning xaridorligini ta’minlay olish;
- yangi xom ashyolarni ishlatish;
- tarmoqni takomillashtirish[3].

Bizning fikrimizcha, biznes bu foyda yoki naf olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat yuzasidan kishilar o‘rtasida yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdir.

[1]Sh.M.Mirziyoyev. Tadbirkorlikni rivojlantirish – davlatni rivojlantirish demakdir. 2021 yil avgust.
[2]Шумпетер Й. Теория экономического развития.- М.: Прогресс,1982.-С.169-170.
[3]Шумпетер Й. Теория экономического развития.- М.: Прогресс,1982.-С.178-180;

Tadbirkorlik biznesning tarkibiga kiradi hamda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish orqali foyda, daromad olishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Demak, biznes kengroq ma’noga ega bo‘lib, tadbirkorlik uning bir shakli hisoblanadi.



1-rasm. Biznes shakllari

Biznes faoliyat turiga ko‘ra, tadbirkorlikdan tashqari umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish, savdo va turizm, hunarmandchilik, shuningdek, iste’mol biznesi, kasbkorlik biznesi, ya’ni kasb, lavozim imkoniyatlaridan foydalanish asosida foyda va naf olish, boylikdan boylik undirish, tijorat-vositachilik biznesi va boshqa shakllarda ham namoyon bo‘ladi.

Biznes mulkchilik turlariga ko‘ra davlat, xususiy va aralash hamda huquqiy-qonuniylik nuqtai nazaridan oshkora, rasmiy, norasmiy, yashirin (xufyona) shakllarida yuz beradi. Biznes va tadbirkorlik tushunchalari bir-birlariga yaqin, turdosh tushunchalari bo‘lganliklari uchun umumiy xususiyatga egadirlar. Bizning nazarimizda ular quyidagilardan iborat:

- mulk jamg‘arishga va to‘plashga intilib, mulkiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lish;
- foyda, daromad, naflilikni oshirish va ularni maksimallashtirish maqsadida iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish;
- iqtisodiy faoliyat erkinligiga, faoliyat turini va sohasini tanlash erkinligiga ega bo‘lish;
- mulkiy javobgarlikka, mas’uliyatga ega bo‘lish, tavakkalchilikka moyillik;
- tijorat siriga ega bo‘lish va uni saqlash va xavfsizligiga erishish;
- halollik bilan ish yuritish, obro‘ va nufuzga ega bo‘lishga intilish;
- iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, yuritish, boshqarish, unda qo‘llaniladigan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ularni uyg‘unlashtirish asosida yuqori naf, foyda va daromad topishning muqobil yo‘llari, vositalarini topa bilish;
- bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga moslasha olish, boshqa iqtisodiy subyektlar bilan raqobatlasha olish;
- o‘z iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, unda fan -texnika yangiliklarini joriy etish.

N.Rimboyeva – QarMII talabasi

QISHLOQ XO‘JALIGINI SAMARADOR VA RAQOBATBARDOSH QILISH - ISLOHOTLARNING BOSH MEZONI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo`jaligini rivojlantirish bo`yicha fikr mulohazalar bildirilgan, o`z navbatida, qishloq xo`jaligi sohasini rivojlantish to`g`risida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** Qishloq xo`jaligi, denqon xo`jaligi, fermer xo`jaligi, kredit, qishloq xo‘jaligi texnikalari, lizing kompaniyalar, tijorat banklar.

Аннотация. В данной статье излагаются мнения по развитию сельского хозяйства, в свою очередь, разрабатываются предложения и рекомендации по развитию аграрного сектора.

Ключевые слова: сельское хозяйство, крестьянское хозяйство, фермерское хозяйство, кредит, сельско- хозяйственная техника, лизинговые компании, коммерческие банки.

Abstract. This article provides feedback on the development of agriculture, in turn, develops proposals and recommendations for the development of the agricultural sector.

Keywords: Agriculture, denkan, farming, credit, agricultural machinery, leasing companies, commercial banks.

O`zbekiston qishloq xo`jaligi sohasida juda katta salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoveyning doimiy e’tibori tufayli mazkur sohada bugungi kunda tamomila yangicha zamonaviy talablar asosida ish yuritishning yangi tizimi rivojlantirilmoqda. Soha xodimlari davlatimiz jamiyatimiz e`tiborida. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yilning avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo`jaligi Xodimlari kuni deb belgilash to`g`risidagi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi yurtimizda ushbu sana bayram sifatida keng nishollanadigan bo`ldi. Zero Shavkat Mirziyovey aytganidek: “ Dehqon bu hayotning baquvvat ustuni, tiriklikning mustahkam tayanchi desak hech qanday mubolag`a bo`lmaydi.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom Taraqqiyot Banki” va “OPEK Xalqaro Taraqqiyot Jamg‘armasi” ishtirokida "Qishloq Joylarni Barqaror Rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qaroriga muvofiq:

"Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi direktori Zafar Urakov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu hujjatni imzolashning asosiy sabablari va maqsadlari haqida so‘zladi. Xususan, u Qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikasiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish orqali aholining turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadida "Qishloq Joylarni Barqaror Rivojlantirish" loyihasi tasdiqlanganini ta'kidladi.

Loyiha Islom Taraqqiyot Banki (ITB) direktorlar kengashi tomonidan 200

million AQSh dollari va OPEK Xalqaro Hamkorlik Jamg‘armasi direktorlar kengashi tomonidan 75 million AQSh dollari miqdorida kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi loyihani amalga oshirish davrida mas'ul ijro etuvchi organning hamkori sifatida faoliyat ko‘rsatiladi va tashkilot tomonidan loyiha uchun 3,05 mln AQSh dollari miqdorida grant mablag‘i ajratiladi.

Loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining ulushi 59,95 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar tashkil etadi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi loyihani o‘z vaqtida amalga oshirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, ITB va OPEK kreditlaridan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha mas'ul ijro etuvchi organ hisoblanadi.

Loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyat-larining 20 ta tumanidagi 170 ta MFY (40 ta Markaziy, 130 ta yondosh mahalla) larda amalga oshiriladi, va amalga oshirish muddati 5 yilni (2021-2025) tashkil etadi. Loyihaning umumiy byudjeti 338 million AQSh dollarini tashkil etadi.

"Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi direktori o‘rinbosari Zokir Raximov mazkur hujjatning Yo‘l Xaritasida qayd etilgan loyihani amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari nazarda tutilayotganini ta'kidladi.

Xususan, loyihani amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha qishloqlarda 170 Mahalla Fuqarolar Yig‘ini tanlash va ob’ektlarni (subloyihalarni) aniqlash bo‘ycha Birlashgan Millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda faoliyatda olib boriladi; qishloq taraqiyot dasturlarining manzilli ro‘yxatini ishlab chiqish, viloyatlar va tumanlar hokimliklari ishtirokida qishloq aholisining fikrini hisobga olgan holda amalga oshiriladi; mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan, xususan, loyiha doirasida belgilangan ishlarni amalga oshirish jarayonida aholi xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasi ta'minlanadi; aholi punktlarining bosh rejalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladi.

Muloqot va jamoatchilik bilan ishlash maqsadli dasturlarni shakllantirishda ochiqlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi, har bir qishloqda jamoat tashkilotlari ekspertlari guruhi bilan so‘rovlar, uchrashuvlar, seminarlar va treninglar tashkil etilib, shuningdek, loyiha bo‘yicha taqdimotlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom Taraqqiyot Banki va OPEK Xalqaro Taraqqiyot Jamg‘armasi ishtirokida "Qishloq Joylarni Barqaror Rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qarori 18.09.2021 yildan kuchga kirdi.

So‘nggi yillarda respublikamizning agrar sektorini xalqaro standartlarga muvofiq hamda mamlakat hududlarining tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga javob beradigan zamonaviy mahalliy va xorijiy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta'minlash bo‘yicha faol chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, birgina 2018-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga, birinchi navbatda, fermer xo‘jaliklari, paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar va klasterlarga 33,7 mingdan ortiq qishloq xo‘jaligi texnikasi yetkazib berildi. Bu esa 2017 yilgi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaganda 1,5 baravarga ko‘p.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, mavjud qishloq xo‘jaligi texnikalarining 25 foizidan ortig‘i 15 yildan ortiq muddat mobaynida ekspluatatsiya qilinmoqda, shu bois qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini sifatli va arzon texnikalar bilan ta'minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda va davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini sifatli qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ushbu jarayonga tijorat banklarining moliyaviy mablag‘larini jalb etish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko`pgina ishlar amalga oshirildi.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining qishloq xo‘jaligi sohasidagi korxonalarning qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning quyidagi tartibini joriy etish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilindi:

Mahalliy g‘alla o‘rish va paxta terish texnikalarini yetkazib berishni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmagan foiz stavkasi bo‘yicha va qaytarilish muddati xarajatlar qoplanishi muddatiga qarab 7 yildan 10 yilgacha bo‘lgan qarz mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi hamda moliyalashtirish hajmi Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarini shakllantirishda belgilanadi;

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi korxonalarning g‘alla o‘rish va paxta terish texnikasidan tashqari, respublikada ishlab chiqarilgan barcha turdagi traktorlar, g‘alla va paxta seyalkalari, shuningdek, uch yoki undan ortiq omoch korpuslarini xarid qilish uchun kredit va lizing shartnomalari bo‘yicha foiz xarajatlari tijorat banklari va lizing kompaniyalari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 10 foizlik punkti miqdorida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Bunda foiz xarajatlarini qoplashning ushbu miqdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishiga qarab Moliya vazirligi tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go‘sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, hududlardagi ishlarning hozirgi holati mazkur tarmoq korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ozuqa bazasini ko‘paytirish, naslchilikni yaxshilash, shu jumladan, sun’iy urug‘lantirishni rivojlantirish va naslchilik xo‘jaliklarining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash borasida aniq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi tomonidan 2022-2024 yillar davomida yurtimizga ajratilayotgan 37,79 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larning chorvachilik va veterinariya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilishi taklif etilib, bu borada Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar xususida axborot berildi.

Shuningdek, “O‘zbekistonning sutchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish” loyihasi doirasida sutni qayta ishlovchi korxonalarni rivojlantirish hamda sut yig‘ish markazlarini tashkil etish maqsadida jamg‘armaning to‘g‘ridan to‘g‘ri 5 mln AQSh dollarigacha mablag‘ ajratish taklifi ma'qullandi. Bundan tashqari, yurtimizda chorvachilik va veterinariya sohasini yanada rivojlantirish maqsadida qiymati 80 mln AQSh dollariga teng “Chorvachilik qiymat zanjirini ishlab chiqish va sifat nazorati” loyihasini bosqichma-bosqich amalga oshirish taklif etildi.

Eslatib o‘tamiz, prezidentimizning 2021 yil 3 martdagi qaroriga muvofiq Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokidagi “O‘zbekistonning sutchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish” loyihasi Qishloq xo‘jaligi vazirligidan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga o‘tkazilgan edi.

Loyihani samarali amalga oshirish uchun qo‘mita huzurida alohida yuridik shaxs maqomidagi Loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etildi. Ayni paytda “O‘zbekistonning sutchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish” loyihasi doirasida 17,9 mln AQSh dollari yoki Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi qarz mablag‘larining 75 foizi o‘zlashtirildi.

Natijada 418 ta loyihaga kredit taqsimlandi. Jumladan, 229 loyiha dehqon xo‘jaliklariga, 143 loyiha fermer xo‘jaliklariga, 22 loyiha sutni qayta ishlovchi korxonalarga va 24 loyiha xususiy veterinarlar va ozuqa ishlab chiqaruvchi kor-xonalarga ajratildi. Mazkur loyihalarning ishga tushirilishi natijasida veterina-riya va chorvachilik tarmog‘ida 1300 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Qishloq xo`jaligi sohasini rivojlantirishda nafaqat fermer xo`jaliklari shu jumladan dehqon xo`jaliklari ham o`z o`rniga ega. Hozirgi kunda g`alla shu kabi donli mahsulotlar yetarlicha. Lekin chorvachilik sohasida bir muncha kamchiliklar mavjud. Barcha mahsulotlarni aholi talabidan kelib chiqqan holda belgilash va yetishtirish joiz. Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida shu soha rivojlangan davlatlar bilan aloqa o`rnatish, chorva naslini yaxshilash va chorcha mollarga beriladigan ozuqa narxlarini bir muncha kamaytirish maqsadga muvofiq.Bundan tashqari Qishloq xo`jaligi sohasida malakali mutaxasislar, kadrlar tayyorlash, ularni malaka oshirish uchun shu sohalar rivojlarga davlatlar bilan tajriba almashinish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1)O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma’lumotlar.
2)O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi ma`lumotlari.
3) https://lex.uz/ sayti ma’lumotlari
4)https://mineconomy.uz/uz/info/3938

5)https://mineconomy.uz/uz/info/2600
6)https://mineconomy.uz/uz/taxonomy/term/31
А.Азизкулов – СамИСИ доценти
А.Алимов – СамИСИ катта ўқитувчиси

СЕРВИС СОҲАСИДА РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА МАЪНАВИЙ МЕРОСНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Мазкур мақолада бугунги информацион глобаллашув шароитида рақобатбардош кадрларни тайёрлашда маънавий мероснинг тарбиявий аҳамияти баён этилади. Шунингдек, мақолада темурийлар даврининг йирик алломаси Ҳусайн Воиз Кошифийнинг ахлоқий-фалсафий таълимотида хизмат кўрсатиш одоблари ҳақидаги қарашлари фалсафий методологик жиҳатдан таҳлил этилади.
Калит сўзлар: Хизмат кўрсатиш соҳаси, рақобатбардош кадрлар, маънавий мерос, Ҳусайн Воиз Кошифий, касб этикаси, одоб.
Аннотация: В данной статье описывается воспитательное значение духовного наследия в подготовке конкурентоспособных кадров в условиях современной информационной глобализации. В статье также проводится философско-методологический анализ взглядов великого ученого тимуридского периода Хусейна Ваиза Кашифи на этику служения в нравственно-философских учениях.
Ключевые слова: сфера обслуживания, конкурентоспособные кадры, духовное наследие, Хусейн Ваиз Кашифи, профессиональная этика, этикет.
Abstract: This article describes the educational value of spiritual heritage in the training of competitive personnel in today's information globalization. The article also provides a philosophical and methodological analysis of the views of the great scholar of the Timurids period Hussein Waiz Kashifi on the ethics of service in the moral and philosophical teachings.
Keywords: Service sector, competitive personnel, spiritual heritage, Hussein, Waz Kashifi, professional ethics, etiquette.

Бугунги информацион глобаллашув шароитида рақобатбардош мутахассис кадрларни тайёрлаш узлуксиз таълим тизимининг долзарб муаммоси ҳисобланади. Айниқса, ахборотлашган жамият босқичида сервис - хизматлар кўрсатиш соҳасида тайёрланаётган мутахассис кадрлар салоҳияти ва малакасининг даражаси ҳозирги рақобат кучайган бир шароитда муҳим аҳамият касб этади. Сифатсиз сервис хизмати ҳар қандай корхона ёки ташкилотнинг инқирозига сабаб бўлади. Шу боис бугунги кунда хизмат кўрсатиш соҳасида рақобатбардош кадрларни тайёрлашга жиддий эътибор қаратилмоқда. Мазкур соҳада кадрлар тайёрлашда замонавий ёндашув ва технологиялар билан бирга миллий маънавий

меросимиз ва асрлар давомида тўпланган қадриятларимиздан ҳам унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Хизмат кўрсатиш соҳасига оид қарашлар узоқ асрлик тарихга эга бўлиб, бу борада Марказий Осиё халқлари этномаданиятида кўплаб миллий қадриятлар яратилган. Айниқса, темурийлар даврида меҳмонларга хизмат кўрсатиш юқори даражада эканлигини Клавихо кундаликларида эътироф этади [1.154-185]. Меҳмонларга хизмат кўрсатиш Шарқ халқлари этикетида муҳим аҳамият касб этиб, аждодларимиз томонидан мазкур соҳада яхши миллий анъаналар шаклланган. Буюк мутафаккирларимизнинг асарларида ҳам меҳмонларга хизмат кўрсатишга оид назарий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган. Хусусан, темурийлар даврининг етук алломаларидан бири Ҳусайн Воиз Кошифийнинг ахлоқий-фалсафий қарашлари баён этилган асарларда хизмат кўрсатишнинг барча соҳалари, жумладан, меҳмон кутиш одоби батафсил ёритилган.

Ҳусайн Воиз Кошифийнинг фикрича меҳмон кутишнинг муайян одоб-ахлоқ қоидалари бўлиб, ҳар бир мезбон бу талабларга риоя этиши лозимлигини баён этар экан, шундай дейди: “Агар меҳмон кутишнинг одоби ва қоидалари нечта деб сўрасалар, ўн тўртта деб айтгил. Иккитаси шарт, олтитаси асос (аркон), яна олтитаси одобдир” [2.77]. Кошифий меҳмон кутиш одобларини таснифини келтирар экан уларнинг шарти ва асослари ҳамда одобларини ҳар бирини алоҳида изоҳлайди.

Ҳусайн Воиз Кошифий меҳмон кутиш одобини баён этар экан мезбондан ташқари меҳмон ҳам риоя этиши лозим бўлган ахлоқий қоидалар тўғрисида ҳам тўхталиб ўтади. Меҳмоннинг ахлоқий қоидаларини таснифлар экан, уларни: иккита одоб қоидаларига, иккита суннатга ҳамда ўнта адабга ажратади. Даставвал меҳмонга бориш одоб қоидаларини баён этар экан шундай дейди: “Агар меҳмонга бориш одоб-қоидалари қайси, деб сўрасалар, айтгилки, биринчидан, яхши, ҳалол одамлар уйига меҳмон бўлиб бориш, фосиқ кишилар ҳақини ейдиган ҳаромхўрлар уйига қадам қўймаслик керак, улардан ҳазар қилмоқ даркор. Иккинчидан шариатга хилоф ишлар содир бўладиган мажлисларга бормаслик лозим, аммо агар сенинг ҳурматинг учун ғайришаръий ишлар тарк этиладиган бўлса, бориш мумкин” [2.78]. Ҳусайн Воиз Кошифий меҳмоннинг ўнта адабини ҳам тушунтириб ўтади.

Ҳусайн Воиз Кошифий хизмат кўрсатиш соҳасидаги ахлоқий талабларни баён этар экан, меҳмон кутиш одобидан ташқари яна, алоҳида бир фаслда ходимлар (хизматкорлар) одоби ҳақида ҳам маълумот бериб ўтади. Мазкур фаслда ходимларни одоб ахлоқ қоидаларини баён этар экан шундай дейди: “...ходим тўрт ишни яхши билиши ва доим адо этиши лозим. Бунинг бири – супуриб-сидириш, иккинчиси – овқат пишириш, учинчиси- кир ювиш, тўртинчиси - идиш-товоқ ювиш. Ва бу ишларнинг ҳар бири учун амал қилинадиган маълум қоидалар бор” [2.85]. Ҳусайн Воиз Кошифий бу қоидаларни барчасини бирма-бир санаб ўтади. Супуришнинг йигирмата қоидасини тушунтириб беради. Бундан ташқари

ходимларнинг овқат пиширишда ўн олтита, кир ювишда еттита қоидаларга риоя қилишлари лозимлигини батафсил изоҳлаб ўтади. Шунингдек мешкобчилар, касбий ахлоқий талабларини баён этар экан, аввало улар пок бўлиши, хусусан, маънавий жиҳатдан қалби пок бўлиши лозимлигини таъкидлаб, уларниг касбларига тегишли ўнта ахлоқий қоидани тушунтириб беради[2.93].

Ҳусайн Воиз Кошифий марака тузувчилар ҳамда томоша кўрсатув-чиларнинг ахлоқий қоидаларини ҳам тушунтириб беради. Томоша кўрсатувчи ўйин аҳли ҳақида қўғирчоқбозлар, косабозлар (коса, товоқ билан ўйин кўрсатиш) ва соққабозлар (ҳўққабозлар), уларнинг томошаларининг моҳияти ва бу касб эгаларига хос хусусиятлар ҳамда уларнинг ахлоқий қоидалари ҳақида батафсил тўхталиб ўтади. Кошифий томоша кўрсатувчи полвонлар: кураш тушувчилар, тошотарлар, дорбозлар, кучини намойиш қилувчилар(зўргарлар) ҳақида ҳам уларнинг ахлоқ-одоб қоидалари хусусида ўз фикрларини баён этади.

Ҳусайн Воиз Кошифий хизмат кўрсатиш соҳасидаги ахлоқий талабларни баён этар экан, меҳмон кутиш одобидан ташқари яна, алоҳида бир фаслда ходимлар (хизматкорлар) одоби ҳақида ҳам маълумот бериб ўтади. Мазкур фаслда ходимларни одоб ахлоқ қоидаларини барчасини бирма-бир санаб ўтади. Шунингдек мешкобчилар касбий ахлоқий талабларини баён этар экан, аввало улар пок бўлиши, хусусан, маънавий жиҳатдан қалби пок бўлиши лозимлигини таъкидлаб, уларниг касбларига тегишли ўнта ахлоқий қоидани тушунтириб беради[2.93].

Бундан ташқари, Ҳусайн Воиз Кошифий тариқат вакилларидан бўлган марака тузувчилар ҳамда томоша кўрсатувчиларнинг ахлоқий қоидаларини ҳам тушунтириб беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, аввало, хизмат кўрсатиш соҳаси, айниқса меҳмон кутиш одоби Шарқ халқлари этикетида муҳим аҳамият касб этган бўлиб, мутафаккир алломаларимиз ўз асарларида бу соҳанинг назарий ва амалий асосларини ишлаб чиққанлар. Ҳусайн Воиз Кошифий томонидан миллий этикетимизга хос бўлган меҳмон кутиш одоб қоидалари ҳозирги даврда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган ва мазкур соҳадаги мутахассислар кадрларни тайёрлаш жараёнида муҳим назарий манба бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гонсалес, Руи Де Клавихо Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги(1403-1406) –Т.: “ O‘zbekiston “. 2010. 154-185бетлар
2. Кошифий Ҳусайн Воиз Футуватномаи султоний; Ахлоқий муҳсиний-Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2011. -77б.

III ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ, РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”

Н.А. Рахимова – докторант Вестминстерского Университета в городе Ташкенте
З.А.Рахимова – Преподаватель Вестминстерского Университета в городе Ташкенте

СПРОС НА УСТОЙЧИВЫЙ ТУРИЗМ

Аннотация: В этой статье обсуждаются потребности и мнения потребителей в отношении устойчивого туризма, а также тот факт, что в будущем туристы могут двигаться в направлении устойчивого развития, организовывать собственные поездки, заботясь об окружающей среде.

Ключевые слова: устойчивый туризм, экология, ресурсы, опрос, анализ, окружающая среда.

Annotatsiya: ушбу маколада баркарор туризмга нисбатан исътемолчиларнинг талаби, фикрлари ва калажакда саёхлар баркарорлик томон харакатланишлари, атроф-мухитга гамхурлик килиш оркали уз саёхатларини ташкил этишлари мумкинлиги ёритилган.

Калит сўзлар: barqaror turizm, ekologiya, resurslar, tadqiqot, tahlil, atrof-muhit.

Abstract: This article discusses the needs and opinions of consumers towards sustainable tourism, and the fact that in the future, tourists can move towards sustainability, organize their own trips by taking care of the environment.

Keywords: sustainable tourism, ecology, resources, survey, analysis, environment.

Сектор туризма, который стал одним из самых быстрорастущих секторов мировой экономики, является хорошим инструментом, способствующим улучшению регионального и национального развития, международной культурной и социальной коммуникации во всем мире. В дополнение к этим положительным влияниям туристического сектора верно и то, что он потребляет не возобновляемые ресурсы. Таким образом, важно принять сознание устойчивого туризма, чтобы максимизировать положительное влияние туризма и свести к минимуму негативное влияние. Устойчивый туризм должен быть не только туристической альтернативой для создания новой тенденции на туристическом рынке, он также должен принять принцип устойчивого развития.

Устойчивый туризм — это не отдельная или особая форма туризма; все формы туризма должны стремиться быть более устойчивыми. Концепция чего-либо устойчивое развитие получило широкое признание как путь к лучшему будущее. Это стало предметом озабоченности специалистов по планированию и политиков, а также областью растущего исследовательского интереса среди академических кругов.

Успех сектора туризма зависит от соотношения между экономическим ростом и сохранением окружающей среды. А именно, понимание туризма, которое фокусируется на экономическом воздействии туризма, не заботясь о поддержании окружающей среды и игнорируя ущерб окружающей среде, не будет успешным. На данный момент успех сектора туризма зависит от создания, защиты и передачи экологической и культурной устойчивости. Устойчивый туризм требует устойчивости экономических и социальных аспектов, а также устойчивости окружающей среды и ее ресурсах. Следовательно, для обеспечения устойчивого туризма очень важно четко понимать концепцию и управлять спросом на туризм.

Последние десятилетия огромное внимание уделялась концепции устойчивому туризму. Ученые старались изучить спрос и предложение, также какие факторы могут повлиять на выбор туристов в дестинациях или же их знания об устойчивом туризме. Например, согласно отчету Trekksoft[1] о тенденциях в сфере путешествий, будущие путешественники будут больше интересоваться экологическими, экономическими и социальными последствиями, которые они оказывают на посещаемые ими направления. [1]

Все больше и больше путешественников принимают во внимание экологичность при бронировании отпуска. Растет осведомленность об экологичных путешествиях и важности экологически чистых вариантов путешествий. Существование интересного сегмента рынка, для которого устойчивость является важным фактором при выборе путешествия, показано в нескольких исследованиях. Туристические компании с хорошей экологической репутацией все чаще получают коммерческое преимущество. Исследование An Abta [2] утверждает, что почти треть потребителей (29%), вероятно, предпочтут одну компанию другой на основе их экологической репутации.[2] Исследование UNEP [3] также показывает, что спрос на зеленый отдых растет.[3] Более трети путешественников отдают предпочтение экологически чистому туризму и готовы платить за этот опыт.

Американская компания TripAdvisor опросил более 35 000 гостиничных операторов и путешественников со всего мира об экологичных путешествиях. Во всем мире 79% путешественников считают важным, чтобы отели внедряли экологически безопасные методы.[4]

Международная компания Deloitte провела опрос более 1000 деловых путешественников, чтобы предоставит информацию компаниям лучше понять потребителей об экологических проблемах во время пребывания в гостиницах. Вывод из этого опроса: высокая планка, установленная этими потребителями, которые ожидают экологически безопасных мер от промышленности. Полностью 95% респондентов

[1] Компания по программному обеспечению для бронирования туроператоров
[2] Торговая ассоциация туроператоров и турагентств Великобритании, некоммерческая организация
[3] Программа ООН по окружающей среде (United Nations Environment Programme)

считают, что гостиничные компании должны осуществлять зеленые инициативы.[5] Компания исследовала поведение деловых туристов: 38% сообщили об экологичности отеля, а 28% готовы платить на 10% больше за экологичный отель.[6]

В Отчете Green Traveler Report 54% респондентов сообщают, что за последние 12 месяцев они брали «более экологичный» отпуск. В опросе 2768 человек в США об экологических путешествиях 951 человек (34,6%) описывают себя как «чрезвычайно» или «очень» осведомленных об окружающей среде. Когда их спросили о действиях, которые они предприняли как зеленые путешественники, 85 % ответили, что выключили свет, когда покидали комнату. Однако, когда дело дошло до более существенных, упреждающих экологических мер, только 19% сказали, что они «изучили и забронировали более экологичное жилье» осознонно. Менее четверти арендовали более экономичный автомобиль; только 12,6% компенсируют влияние своих поездок.[7]

Авторы приходят к выводу, что экологически безопасный туризм — это больше чем «трендовое слово», и что путешественники все чаще сознательно выбирают устойчивые путешествия, даже когда другие факторы, такие как цена, комфорт и место назначения, остаются основными.

Анализ путешествий Исследовательской ассоциации Holidays and Travel ежегодно анализирует спрос на отдых в Германии. Отчет за 2014 год показывает, что 31% немцев в возрасте от 14 лет и старше хотели бы, чтобы их отдых был как можно более экологичным, ресурсосберегающим и безопасным для окружающей среды. Социальная устойчивость своего отпуска важна для 38% немцев. Кроме того, 22% опрошенных даже заявляют, что всегда принимают во внимание экологичность во время путешествий. [8]

C. Rheem провел онлайн-опрос для жителей США. Она фокусируется на экологических аспектах (сокращение потребления, сокращение вредных выбросов/переработка, закупка продукции и компенсация выбросов). Основные выводы заключаются в том, что 44% путешественников в США считают экологические аспекты важными при планировании своего путешествия, а треть путешественников готовы платить больше за экологичное путешествие.[9]

С другой стороны, клиенты туриндустрии начинают обращать внимание, как компании реализуют повестку устойчивого развития. К примеру, на Booking.com [10] вы можете увидеть раздел с такими инициативами. Крупные сетевые гостиницы уже указывают в своем профиле, что они делают для природы, как они способствуют развитию местного сообщества. Устойчивый туризм требует как устойчивости экономики и вклада в общество, так и устойчивости использования окружающей среды и ресурсов. Это может быть реализовано только при четком понимании концепции и надлежащем управлении туристическим спросом. Вводятся в действие новые туристические объекты и

предоставляются новые услуги в связи с растущим спросом или для увеличения спроса на туризм. Независимо от первоначальной движущей силы, долгосрочное успешное развитие требует баланса.

Устойчивый туризм – не просто ответственный, но и в значительной степени сбалансированный, в том числе с точки зрения спроса и предложения. В период пандемии мы все увидели, как велика потребность людей в отдыхе на природе. Пандемия Covid-19 сделала путешественников во всем мире более осознанными и внимательными к вопросам устойчивого развития. Все большее значение приобретает интерес к нетронутой природе, бережное отношение к ресурсам и забота о собствен-ном благополучии. Также пандемия дала нам возможность внедрять принципы устойчивого туризма. При этом инструменты, которые продвигает устойчивый туризм, наиболее подходят для того, чтобы организовать этот процесс именно в этот момент, когда мы четко осознали что, развитие туриндустрия внесла негативные последствия на экологию.

Как показывает опыт развитых стран, все еще есть возможность перенаправить цели туризма от максимизации экономических выгод на трёх стороннюю выгоду от устойчивого туризма. Когда экология, экономика и местное насилие не страдают от воздействия отрасли, а наоборот получают выгоду. Для этого каждое предприятие и организация, работающие в сфере туризма, должны иметь глубокое понимание практической значимости устойчивого туризма. Общий вывод исследования заключается в том, что в будущем потребители туристической отрасли смогут организовывать туристические направления с факторами устойчивого туризма, принимая во внимание спрос потребителей туристического рынка.

Список используемой литературы

1. Trekksoft. Travel Trend Report 2017. Travel Trend Report. https://www.trekksoft.com/en/library/ebook-travel-trend-report-2017
2. An Abta. Increasing numbers of consumers now expect their travel company to take a lead on responsibility. https://abta.com/about-us/press/abta-reveals-new-research-onsustainable-holidays
3. UNEP. United Nations Environment Programme in partnership with the World Tourism Organization. Towards a green economy. Tourism. Investing in energy and resource efficiency. http://www.unep.org/greeneconomy/portals/88/documents/ger/GER_11_tourism.pdf
4. TripAdvisor. Alle Zeichen stehen auf “grün“, 17. Mai 2013. http://www.tripadvisor.de/PressCenter-i6007-c1-Press_Releases.html
5. Deloitte. Hospitality 2015: Tourism, hospitality, and leisure trends. http://www.barcelonahotels.org
6. Deloitte. The staying power of sustainability: Balancing opportunity and risk in the hospitality industry.https://www.expoknews.com/wp-content/uploads/2010/02/us_cb_sustainability_1906081.pdf
7. CMI. Community Marketing, Inc. Green traveler study 2010. http://cmigreen.com/wpcontent/uploads/2012/02/cmigreen2010_11.pdf .
8. FUR. Forschungsgemeinschaft Urlaub und Reisen e.V. Abschlussbericht zu dem Forschungsvorhaben: Nachfrage für Nachhaltigen Tourismus im Rahmen der Reiseanalyse. Kiel 2014.

9. Rheem, C. (2009). PhoCusWright‘s going green: The business impact of environmental awareness on travel. Sherman: PhoCusWright Inc
10. https://ratanews.ru/news/news_11102021_5.stm

Zuhra Jabborova – QarDU o‘qituvchisi

TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNALOGIYALAR, VIRTUAL TIZIMNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli va turizm biznesining zamonaviy ilmiy ishlanmalarga tayanishi va texnologik yechimlar, turizm sanoatida innovatsion tashabbuskorligi, jarayonlar, yangi bozorlarni izlash va rivojlantirish to‘g‘risida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, turizm, virtual sayohat, onlayn bron qilish, hotspot. virtual panorama, faol zona

Аннотация. В данной статье рассматриваться роль инноваций в развитии туризма и опора туристического бизнеса на современные научные разработки и технологическую решения, инновационные инициативы в сфере туризма, процессы поиска и освоения новых рынков.

Ключевые слова: инновации, туризм, виртуально путешествие, онлайн-бронирование, точка доступа. виртуальная панорама, активная зона.

Abtract. This article discusses the role of innovation in tourism development and the reliance of the tourism business on modern scientific developments and technological solutions, innovative initiatives in the tourism industry, processes, exploration and development of new markets.

Keywords: Innovation, tourism, virtual travel, online booking, hotspot. virtual panorama, active zone

Zamonaviy iqtisodiyotda turizm muhim yo‘nalishlar va sohalaridan biridir, chunki turizm birinchi navbatda daromad, yangi ish o‘rinlari yaratish, shuningdek, mamlakatimizning barcha hududlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Iqtisodiyotga multiplikativ ta'sir ko‘rsatish darajasi bo‘yicha turizm sanoati boshqa tarmoqlar orasida yetakchi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish uchun virtual axborot resurslari: kognitiv, yordamchi va tashkiliy resurslardan foydalanishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati tug‘iladi. Bugungi kunda axborot va internet texnologiyalaridan foydalanish turizm biznesi samaradorligini oshirishning deyarli asosiy vositasi hisoblanadi. Rivojlanayotgan raqobat sharoitida biznes rentabelligini oshirishning qo‘shimcha vositalari masalalari eng dolzarbdir Innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag‘batlantiradi Virtual tizim va texnologiyalarining hayotimizga kirib borishi bilan turizm haqidagi tushuncha o‘zgarmoqda. Turizmdagi virtual turizm yangiliklardan biridir. Virtual tizimda haqiqatda sayohat joylari, kurortlar, mehmonxonalar va boshqalarni namoyish qilish uchun eng yangi va istiqbolli vosita deb qaralsa, virtual sayohat iste’molchiga yoki bo‘lajak sayyohga u yerda bo‘lmasdan turib, diqqatga sazovor joyga tashrif buyurish imkoniyatini beradigan zamonaviy texnologiya deb qaraladi.

Virtual sayohat va oddiy fotosuratlar to‘plami o‘rtasidagi asosiy farq uning interaktivligidadir: foydalanuvchining o‘zi ayni damda unga qaysi fragment jozibador ekanligini, nimani kattalashtirishni va nimani olib tashlashni, yuqoriga yoki pastga qarashni tanlaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tomoshabin rasmni mustaqil ravishda boshqaradi, tafsilotlarni harakatga keltira oladi va tekshiradi. Ko‘pgina yirik kompaniyalar pandemiya sharoitida yangi mahsulotni omma ixtiyoriga foydalanish uchun chiqardi. Yilning bahor mavsumida (barcha uchun uyda qolish xavfsiz deyilgan sharoitda) onlayn ekskursiyalar gidlar bilan sayohat qilish yagona imkoniyatga aylandi. Mavjud vaziyat, qat’iy cheklovlar olib tashlangan va dunyo bo‘ylab sayohat qilish imkoniyati paydo bo‘lganida esa mahsulotga qiziqish keskin kamaydi, ammo kuzga kelib yana onlayn sayohat uchun so‘rovlar ko‘payganini qayd etilgan.

Kletirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2020-yilda dunyo bo‘ylab sayohatlarni onlayn bron qilish 800 milliard dollardan oshaganligini ayta olamiz. Shu bilan birga, 2023-yilga kelib 700 million foydalanuvchi tarmoqdan foydalanishi, joy izlashi taxmin qilinmoqda[1]. Bundan tashqari. onlayn bron qilish foydalanuvchilarining 33 foizi virtual tizimning doimiy foydalanuvchisi bolishi kutilamoqda. Shu bilan birga virtual sayohat yartish uchun mavjud texnik talablar qo‘yiladi. Bunday talablarga silliq tasvir uchun stabilizatorli kamera, shovqin va shamol tovushini kamaytirish uchun mikrofonning mavjudligini kiritishimiz mumkin.

Faol zona texnologiyasi panoramaning alohida tafsilotlariga e’tiboringizni qaratish imkonini beradi. Savdo markazlaridagi qiziqarli mahsulotlar, o‘ziga xos ko‘rgazma stendlari, mehmonxona ichki qismining individual tafsilotlari va shuningdek, virtual tashrif buyuruvchilar e’tiboriga havola etilishi kerak bo‘lgan boshqa ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. Virtual sayohatlarni qo‘llash sohalari keng va xilma-xildir: mehmonxona, restoran va turizm biznesi, ko‘chmas mulk va chakana savdo maydoni, go‘zallik va sog‘liqni saqlash sanoati, transport kompaniyalari, sanoat, siyosat va boshqalar. Boshqa narsalar qatori, muhim voqealarni yoritish va hisobotlarni yig‘ish uchun virtual turlardan foydalaniladi.Ushbu tizimning bir necha funksiyalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

Virtual sayohatlarni yaratish jarayoni juda mashaqqatli, uni olti bosqichga bo‘lish mumkin: g‘oyani izlash, ob’ektni to‘g‘ridan-to‘g‘ri suratga olish, olingan tasvirlarni qayta ishlash, virtual turni yakuniy yig‘ish, reja va navigatorni yaratish va mahsulotni bozorga targ‘ib qilish

Virtual turni yaratish chog‘ida barcha ob’ektga tegishli mayda detallargacha e’tibor qaratish lozim. Turizm raqamli texnologiyalar yo‘nalishi bilan bog‘liqlikda rivojlanish bosqichiga o‘tishi kuzatilmoqda. Statistik o‘rganishlar natijasida Adobe Digital Insights (ADI) auditoriyani jalb qilishning 321 million usulini tahlil qilgan holda, 10 ta yirik mehmonxonadan

[1] https://welcometimes.ru/opinions/cifrovye-trendy-v-turizme-2020

kamida 8 tasi virtual imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazayotganini aniqladi. Ishlab chiquvchilar VR qurilmalarini tashrif buyuruvchilarning mobil telefonlaridagi ilovalar bilan shakllantirmoqda[1]. Jahon tajribalaridan olingan xulosaga ko‘ra virtual turizmning bir qator afzaliklari dunyo mamlakatlari tomonidan keltirildi. Ular quyidagilar:

1. Virtual turizm juda arzon va qulay sayohat turi bo‘lib, bunday sayohat tayyorgarlik ko‘rish uchun ortiqcha vaqt talab qilmaydi, hamda xohlagan vaqtda boshlangan sayohat istalgan vaqtga to‘xtatilish va yana davom ettirilishi mumkin.

2. Bilamizki sayohat qilish uchun barchaning ham imkoniyati yetarli bo‘lmasligi mumkin, ammo virtual turizm orqali ma’lum mablag‘, tayyorgarliksiz, ba’zan kirish qiyin bo‘lgan mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatini yaratadi. Yana bir tomoni Yevropa bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan ayollar, ota-onasining kuzatuvisiz chegarani kesib o‘ta olmaydigan o‘spirinlar va dunyo bo‘ylab erkin harakatlanishiga imkon bermaydigan oilaviy majburiyatlar yuklangan odamlar: bolali onalar, ko‘p bolali ota-onalar va boshqalar uchun bu ajoyib imkoniyat beruvchi tizimdir.

3. Hudud bo‘ylab tasavvurga ega bo‘lmagan va til bilmagan sayyohlar uchun ham qulay imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston virtual xizmatining mahalliy aholini qiziqtiradigan afzalliklari bor. Virtual platforma orqali ular kerakli muassasa manzilini topib, marshrutni chizish imkoniyatiga ega. Masalan, agar siz biror muassasaga tashrif buyurishingiz kerak bo‘lsa, ushbu xizmat orqali ushbu tashkilot haqidagi ma’lumotlar bilan haqiqatdan ham tanishishingiz mumkin, masalan:

- ish tartibi;
- aloqa ma’lumotlarini;
- aniq manzil;
- taqdim etilayotgan xizmatlar ro‘yxati va boshqalar..

Iste'molchilarning virtual turizmga yangi yo‘nalish sifatida qiziqishi yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda shuni ta'kidlash kerakki, ko‘pchilik oddiy foydalanuvchilar hali ham virtual turlarni ko‘rishni turizmning alohida turiga bog‘lamaydilar. Virtual turizm hozirda kichik darajada rivojlangan, ammo zamonaviy texnologik dunyoda yanada keng tarqalish tomon barqaror sur'atda harakat qilmoqda. Bu istiqbolli yo‘nalish bo‘lib kelmoqda. Jarayonlarni global raqamlashtirish bozor ishtirokchilarini raqamli makonda mijoz uchun kurashishga undamoqda, chunki bu texnologiyaning kirib kelishi kompaniyalar uchun ham, iste'molchilar uchun ham juda ko‘p foyda keltiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 Клименко, Е. В., & Смирнов, Е. Б. (2014). Виртуал'нйе путешествия: текҳнология создания и анализ средств [Виртуал травел: Течнологй оф среатион анд аналйсис оф фундс]. Студенческиж научнйж форум [Student Scientific Forum]: Materials of the VI International Student Scientific Conference. URL: https://scienceforum.ru/2014/article/2014005810 (Accessed on 16.07.2020) (In Russ.).

1. Ш.А.Бегматова//Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солишнинг назарий асослари//Иқтисодиёт ва молия 2019. //3-б
2. Z.A. Jabborova. Enabling and disabling factors for innovation in tourism in the context of the innovation and digital economy.Samarqand.123-126 b.
3. R.K.Ergashev, Z.Jabborova. The importance of innovative activity in tourism European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www. scholarzest. com Vol. 2 No. 4, April 2021
4. Уокер Дж. Введеніуе в гостеприимство. Учеб. Пособіуе / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1999.,
5. L.P.Voronkova .Virtual Tourism: on the Way To the Digital Economy December 2018

M.Xamroyev – SamISI tayanch doktoranti
J.Saidqulov – MDM-120 guruh magistranti

SAYYOHLIK BIZNESINI SUG‘URTALASH AMALIYOTI

Аннотация. Maqola globallashuvning yanada rivojlanishi va turizm sohasida yangi xatarlarning paydo bo‘lishi sharoitida turistik biznesni sug‘urtalashga bag‘ishlangan. Muallif turistik biznesning muvaffaqiyatli faoliyatida sug‘urtaning roli dolzarbligini asoslaydi. Sayyohlik kompaniyalari sug‘urtasini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan omil sifatida reyting institutini tashkil etish bo‘yicha tavsiyanomalar keltirilgan va asoslangan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sayyohlik biznesi, sayyohlik xizmatlari, sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta mahsulotlari, sug‘urta infratuzilmasi.

Аннотация. Статья посвящена страхованию деятельности туристического бизнеса в условиях дальнейшего развития глобализации и появления новых рисков в сфере туризма. Автором обосновано актуальность роли страхования в успешной деятельности турбизнеса. Представлена и обоснована рекомендация о создании рейтингового института, как фактора, способствующего развитию страхования турпредприятий.

Ключевые слова: страхование, турбизнес, туристские услуги, страховые компании, страховые продукты, инфраструктура страхования.

Abstract. The article is devoted to the insurance of the tourism business in the context of the further development of globalization and the emergence of new risks in the tourism sector. The author substantiates the relevance of the role of insurance in the successful activity of the tourist business. The recommendation on the creation of a rating institute as a factor contributing to the development of insurance of travel companies is presented and substantiated.

Keywords: insurance, travel business, travel services, insurance companies, insurance products, insurance infrastructure.

Ham sug‘urta, ham turizm xizmatlari sohasida samarali moliyaviy siyosat sug‘urta xizmatlari uchun ham, turistik xizmatlarning o‘sish sur'atlarini oshirish uchun ham talabning tiklanishi va o‘sishi jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun iqtisodiy islohotlar sharoitida sug‘urta tizimi moliya-

kredit sohasining ajralmas qismi sifatida iqtisodiyotning izchil rivojlanishini ta'minlashda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta sohasi jadal rivojlanmoqda, ammo turizm korxonalarini sugʻurtalashning YaIMdagi ulushi juda past boʻlib qolmoqda. 2007-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirish strategiyasining dasturi sugʻurtani rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega [1]. Ushbu Dastur tufayli sugʻurta kompaniyalarining iqtisodiy faoliyati koʻlamini quyidagi yoʻnalishlarda kengaytirish uchun shart-sharoitlar paydo boʻldi:

- kompaniyalar ustav kapitali hajmining oʻsishi va bu iqtisodiyot va aholini kutilmagan hodisalardan himoya qilish darajasining oshishini anglatadi;

- mamlakatning investitsiya salohiyatining oʻsishi, chunki sugʻurta kompaniyalari yangi sharoitda eng muhim moliyaviy va investitsiya institutlari sifatida harakat qilishadi;

- respublika sugʻurta kompaniyalarining oʻz mablagʻlarini saqlash hajmining oʻsishi. Bu chet elga oʻtkaziladigan qayta sugʻurta toʻlovlari hajmini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ushbu dasturga muvofiq barcha mulk shaklidagi yuridik shaxslar imtiyozli shartlarda oʻzlarining tadbirkorlik yoki mulkiy manfaatlari, shuningdek mehnat jamoalari a'zolarining sogʻligʻi uchun sugʻurta himoyasini ta'minlashlari mumkin. Respublikada faoliyat yuritayotgan sugʻurta kompaniyalari, aslida, universal sugʻurta kompaniyalari boʻlib, aniq belgilangan hududiy ixtisoslashuvga ega - ular keng koʻlamli xizmatlarni taklif qiladilar, ham an'anaviy, ham ixtisoslashgan turlarini taqdim etadilar. Soʻnggi yillarda ular sayyohlik korxonalari faoliyatini sugʻurtalashga alohida e'tibor berishni boshladilar jumladan:

- turizm korxonalarining ustuvor yoʻnalishlari sugʻurta qoplamasini ta'minlash boʻyicha qoʻshma masalalarni hal qilish maqsadida ular bilan, shuningdek vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va kengaytirishga asoslangan investitsiya faoliyatini kuchaytirish;

- an'anaviy sugʻurta xizmatlarining turlarini takomillashtirish va yangi sugʻurta mahsulotlarini joriy etish;

- yetakchi sugʻurta kompaniyalari bilan qayta sugʻurtalash boʻyicha me'yordan ortiq majburiyatlarni qabul qilish va oʻtkazish boʻyicha ishlash.

Harakatlar strategiyasi dasturini amalga oshirish doirasida sugʻurta asosan ixtiyoriy turlar asosida bosqichma-bosqich va bosqichma-bosqich rivojlanishi kerak. Ularning faoliyati ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi, ammo koronavirus pandemiyasi boshlangani sababli olti oy davomida Oʻzbekiston sugʻurta kompaniyalari 958,3 milliard soʻm (94 million dollar) ga sugʻurta mukofotlarini yigʻdilar, bu oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 foizga kamdir. Birinchi yarim yillikda oʻzbek sugʻurta kompaniyalari 328,1 milliard soʻm (32,1 million dollar) uchun sugʻurta tovonini toʻlashdi, bu oʻtgan yilga nisbatan 14,4 foizga kam [2].

Oʻzlarining mulkiy manfaatlarini sugʻurtalashga imkon beradigan va shu bilan respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy oʻzgarishlarga hissa qoʻshadigan yirik

korporatsiyalar bilan shartnomalar tuzildi. Buning uchun korxonalarni (tashkilotlarni), xususan, turizm korxonalarini sug‘urta qoplamalari hajmini tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, tabiiy va texnogen falokatlar natijasida kelib chiqadigan zarar xavfidan ko‘paytirish ko‘zda tutilgan. Qayta sug‘urtalash sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bozorda ishlagan birinchi kundan boshlab kompaniyalar potentsial sheriklarning har biri bilan munosabatlarni o‘rnatish uchun individual yondashuvni amalga oshirmoqdalar. So‘nggi davrda sug‘urta kompaniyalarining qayta sug‘urta faoliyati rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Qayta sug‘urta operatsiyalari respublikaning o‘ndan ortiq sug‘urta kompaniyalari bilan amalga oshirildi. Sug‘urta bozori sanoat va hududiy yangi segmentlar paydo bo‘lishi hisobiga kengaymoqda. Investitsiya faoliyati, biznes va bank xatarlarini sug‘urtalashni o‘z ichiga olgan yangi, istiqbolli sug‘urta turlari paydo bo‘ladi. Banklar bilan hamkorlik ularning strategiyasi doirasida doimiy ravishda mustahkamlanib va kengayib bormoqda. Xususan, kichik biznesni, jumladan, sayyohlik korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha dasturiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va sayyohlik korxonalariga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha kompleks ishlar olib borilmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, sug‘urta kompaniyalari investitsiyalardan tushadigan daromad sug‘urta faoliyatidan ustun bo‘lganida eng barqaror bo‘lib qoladilar. Shunday qilib, sug‘urta kompaniyalari turistik korxonalarning moliyaviy salohiyatini sezilarli darajada kengayishiga, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va himoya qilishga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Turistik xatarlarni to‘g‘ri boshqarish, turizm va sug‘urta biznesi xususiyatlarini aniq belgilash va umumiy aloqa nuqtalarini topish sug‘urta kompaniyalari va turistik korxonalar va ularning mijozlari uchun o‘zaro manfaatli bo‘lishi mumkin. Turistik korxonalar faoliyatidagi xavfni umuman kamaytirish sug‘urta orqali amalga oshiriladi va barcha tomonlarning manfaatlariga xizmat qiladi. Turistik korxonalarning mol-mulki va xizmatlarini muhofaza qilish, birinchi navbatda, notijorat, keyin esa ularning xatarlarini maqbul sug‘urtalashni nazarda tutadi. Ekskursiyalar paytida sug‘urta, hayotni sug‘urtalashda jamg‘arma, jamg‘arma va investitsiya funktsiyalari muvaffaqiyatli birlashtirilganligi sababli, ushbu xizmat turi bizning turistik korxonalarimiz va sayyohlarimiz uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Shubhasiz, siz sug‘urta polisini turistik to‘plamga keraksiz qo‘shimchalar deb hisoblamasligingiz kerak [3, 12-bet]. Shu bilan birga, yodda tutish kerakki, yagona universal usuldan foydalangan holda turistik korxonalarni sug‘urtalashni rivojlantirishning hozirgi sharoitida har xil o‘lchamdagi sug‘urta kompaniyalari va turistik korxonalar uchun taqqoslanadigan, real reytinglarni tuzish qiyin. Bu, xususan, ixtisoslashuv, mulk shakli, shakllanish genezisi va islohot bosqichi kabi bir qator omillarni hisobga olish zarurligi bilan izohlanadi. Reyting instituti shakllanib va rivojlanib borgan sari, ma'lum bir sug‘urta kompaniyasini tanlash va unga ishonish uchun ishonchli asoslar paydo bo‘ladi, bu sayyohlik korxonalari va sayyohlarga va butun iqtisodiyotga foyda keltiradi, chunki

sug‘urta kompaniyalari o‘ziga xos investitsiya kompaniyalari sifatida pul yig‘ib, uni yo‘naltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Указ Президента РУз «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., № УП-4947
2. «Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ривожлантириш стратегиясини ва Суғурталовчиларнинг капитали етарлилиги ва тўлов қобилияти бўйича халқаро стандартларни суғурта фаолиятига босқичма-босқич жорий этиш стратегиясини» тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарори https://regulation.gov.uz/ru/document/20040
3. Черникова Л. И. Особенности страхования и рисков в туризме // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-strahovaniya-i-riskov-v-turizme (дата обращения: 25.02.2021).

Шахриёр Холбаев – СамДУ стажёр-тадқиқотчиси

ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАСИ

Аннотация: Мазкур мақолада туризм соҳасининг иқтисодий салоҳиятдан фойдаланишнинг долзарблиги, барқарор туризмнинг ривожланиши, туризм соҳасида иқтисодий салоҳиятдан фойдаланиш хусусиятлари очиб берилган.

Калит сўзлар: Туризм, иқтисодий салоҳият, барқарор туризм, ресурс, туризм хизматлари, экспорт, инвестиция, иқтисодий ўсиш.

Аннотация: В данной статье рассмотрена важность использования экономического потенциала сферы туризма, пути устойчивого развития туризма, особенности использования экономического потенциала в сфере туризма.

Ключевые слова: туризм, экономический потенциал, устойчивый туризм, ресурс, услуги туризма, экспорт, инвестиции, экономический рост.

Abstract: The article discovers the importance of using the economic potential of the tourism sector, the ways of sustainable development of tourism, the features of using the economic potential in the tourism sector.

Keywords: tourism, economic potential, sustainable tourism, resource, tourism services, export, investment, economic growth.

Жаҳонда туризм соҳасининг кенгайиб бориши ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатларнинг ялпи ички маҳсулот таркибини ҳам ўзгаришига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Бутун жаҳон туризм ташкилотининг маълумотларига кўра, глобал ҳамжамият ижтимоий ва иқтисодий қийинчиликка қарши курашаётганлиги сабабли, ҳозирги инқирознинг ҳаддан ташқари ноаниқлигини ҳисобга олган ҳолда,

изоҳланиши кераклигини таъкидлайди. Шунингдек, бугунги кунда халқаро туризмнинг ишбилармонлик ҳажми нефть экспорти, озиқ-овқат маҳсулотлари ёки автомобиллар ҳам тенг ёки ҳатто устундир. Туризм халқаро тижоратнинг асосий йўналишларидан бирига айланди ва шу билан бирга кўплаб ривожланаётган мамлакатлар учун даромад манбаларидан бири ҳисобланади. Ушбу ўсиш таркибга тобора диверсификация ва йўналишлар ўртасида рақобат билан боғлиқ.

Бугунги кунда барча соҳаларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлардан кўзланган пировард мақсад мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантириш, аҳоли турмуш фаровонлигини юксалтиришга қаратилган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Туризм – иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири. Мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, ушбу тармоқни янада такомиллаштириш зарур, буни даврнинг ўзи тақозо этмоқда”.[1]

Шу нуқтаи назардан, бугунги туризм соҳасида барқарор иқтисодий ўсишнинг омиларидан бири туризм соҳасида иқтисодий салоҳиятдан фойдаланиш долзарб масала ҳисобланади.

Барқарор туризмни ривожлантириш бўйича кўрсатмалар ва бошқарув амалиёти барча турдаги туризмнинг барча турлари, шу жумладан оммавий туризм ва турли турдаги туризм сегментларида қўлланилиши мумкин. Барқарорлик принциплари туризмни ривожлантиришнинг атроф-муҳит, иқтисодий ва ижтимоий-маданий жиҳатлари ва ушбу уч ўлчовнинг узоқ муддатли барқарорлигини кафолатлаш учун муносиб мувозанатни ўрнатиши керак.

Шундай қилиб, барқарор туризм:

1. Туризмни ривожлантиришнинг муҳим қисмини ташкил этувчи, зарур экологик жараёнларни сақлаш ва табиий мерос ва биологик хилма-хилликни сақлашда ёрдам берадиган экологик ресурслардан оптимал фойдаланиш;

2. Мезбон жамоаларнинг ижтимоий-маданий ҳақиқийлигини ҳурмат қилиш, уларнинг қурилган ва яшайдиган маданий мероси ва анъанавий қадриятларини сақлаш ва маданиятлараро тушунча ва бағрикенгликка ҳисса қўшиш;

3. Ҳаётий, узоқ муддатли иқтисодий операцияларни таъминлаш, адолатли тақсимланган барча манфаатдор томонларга ижтимоий-иқтисодий имтиёзлар бериш, шу жумладан барқарор бандлик ва даромад олиш имкониятлари ва мезбон жамоаларга ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва қашшоқликни камайтиришга ҳисса қўшиш.[2]

Барқарор туризмни ривожлантириш барча тегишли манфаатдор томонларнинг хабардор иштирокини, шунингдек кенг иштирок етиш ва консенсус қурилишини таъминлаш учун кучли сиёсий етакчиликни талаб қилади. Барқарор туризмга эришиш доимий жараёндир ва у таъсирларни

[1] https://uza.uz/uz/posts/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017
[2] UNWTO, https://www.unwto.org/sustainable-development

доимий равишда кузатиб боришни, керак бўлганда зарур профилактика ва/ёки тузатиш чораларини жорий етишни талаб қилади.

Барқарор туризм, шунингдек, туристик қониқишнинг юқори даражасини сақлаб туриши ва сайёҳларнинг мазмунли тажрибасини таъминлаши, уларнинг барқарорлик масалалари тўғрисида хабардорлигини ошириши ва улар орасида барқарор туризм амалиётини тарғиб қилиши керак.

Ўзбекистонда Республикасида туризм соҳасида туризм хизматларининг умумий экспорти ва туризм соҳасига киритилган инвестициялар ҳажми динамикасини қуйидаги диаграммаларда кўришимиз мумкин.

1-диаграмма. Ўзбекистон Республикасида туризм хизматларининг умумий экспорти (минг. АҚШ доллари)[1]



1-диаграммада кўриниб турибдики, Ўзбекистон Республикасида туризм хизматларининг умумий экспорти коронавирус пандемияси бўлганлиги сабабли 2020 йилда 2021 йилга нисбатан 1 052 044,9 минг АҚШ долларига камайган.

2-диаграмма Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасига киритилган инвестициялар ҳажми (млрд. сўм)[2]

[1] Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш Қўмитасининг маълумотлари
[2] Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш Қўмитасининг маълумотлари



2-диаграммада кўриниб турибдики, Ўзбекистонда 2020 йилда 2019 йилга нисбатан туризм соҳасига киритилган инвестициялар ҳажми 3 бараварга, яъни 2 811,1 млрд. сўмга ошган.

Иқтисодий тизимларнинг фаолияти иқтисодий салоҳиятни шакллантириш ва улардан фойдаланиш жараёнларига асосланади. Бозор иқтисодиётини ривожлантириш иқтисодиётнинг барча тармоқларида ва алоҳида корхоналарда ушбу жараёнларнинг юқори даражада самарадорлиги зарурлигини белгилайди, бу эса юқори динамик фаолият муҳитида ва чекланган, қиммат ресурслардан фойдаланиш орқали самарадорликни ошириш муаммосини белгилайди ва ҳал қилишга ёрдам беради. Бу муаммонинг икки жиҳати бор:

- мақсадли (эҳтиёжларни қондириш, иқтисодий самарали натижалар берувчи иқтисодий ўсиш стратегиясини танлаш асосида);

- ресурс (ишлаб чиқаришни диверсификация қилишга қаратилган яширин, чекланган ресурслардан фойдаланиш).

Иккала жиҳат ҳам ўзаро боғлиқдир. Мақсадли самарадорлик, яъни стратегик мақсадларга эришиш ва юқори натижаларга эришиш ресурсларни жалб қилиш ва улардан фойдаланиш сифатига бевосита пропорционалдир.

Кўпчилик иқтисодчи олимларнинг таъкидлашича ресурс нуқтаи назардан иқтисодий салоҳият иқтисодий тизим учун мавжуд бўлган ресурсларнинг миқдори ва сифатининг йиғиндиси сифатида қарайди. Иқтисодий салоҳият таркиби сифатида моддий, номоддий, меҳнат ва ахборот ресурслари сифатида таснифлайди.

Туризм соҳасида тадбиркорлик субъектининг фаолияти жалб қилинган ресурслар миқдори реализация қилинган ресурслар миқдоридан кам бўлганда самарали бўлади. Бундай таққослаш натижасида ҳосил бўлган кечикиш жалб қилинган ресурслар миқдорини қоплаши ва такрор ишлаб чиқариш жараёни учун захира яратиши керак. Чунки, туризим соҳасида заҳира фондларида маблағларнинг ошириш орқали туризм соҳасида тадбиркорлик субъектларини модернизациялаш ва диверсификациялаш имконини беради. Шунингдек, туризм соҳаси

корхоналарини модернизация қилиш, техник қайта жиҳозлаш, инновацион ривожланиш учун зарур бўлган иқтисодий ресурсларни тўплайди, кейин маълум бир кечикиш учун танланган корхона стратегиясига қараб амалга оширилиши ва вақтни ҳисобга олиш керак. Ўтказилган ва амалга оширилган ресурсларни ўзгартирилишини мувофиқлаштирилиши керак. Айнан мана шу ёндашув туристик корхоналарнинг иқтисодий ўсиш захираларидан самарали фойдаланишга ҳисса қўшади (1-расм).

Мазкур тамойилларнинг ўзаро мувофиқлиги асосида, биз туристик корхоналарнинг иқтисодий салоҳияти фаолиятининг икки асосий тамойиллари таклиф - (оптимал таркиби ва мақсад ва стратегик мақсадларга эришиш учун зарур бўлган ресурслар миқдори билан таъминлаш) етарлилик тамойили ва (фаолияти натижалари самарадорлигини акс эттиради) такрор ишлаб чиқариш тамойили муҳим аҳамият касб этади. Бу тамойиллар туризм соҳаси корхоналари иқтисодий салоҳиятининг асосий хусусиятларини ўзида акс эттиради.



1-расм. Туристик корхоналарнинг иқтисодий салоҳиятини шакллантириш кесишмаси.[1]

Иккита асосий нарсалардан ташқари, биз бошқа муҳим принципларни таклиф қиламиз:

- иқтисодий ресурсларни қамраб олиш ва жалб қилишнинг тўлиқлиги;
- фойдаланиш иқтисодиёти (харажатларни оптималлаштириш);

[1] муаллиф томонидан тузилган

- режалаштириш ва бюджетлаштириш (иқтисодий салоҳиятни режалаштириш ва ресурсларни тежаш режимини амалга ошириш);

- самарали бошқарув (ресурсдан фойдаланиш қиймати ундан фойдаланишнинг иқтисодий даромадидан ошмаслиги керак) ҳамда инновацион ривожланиш.

Тақдим этилган тамойиллар туризм соҳаси корхоналарининг иқтисодий салоҳиятинингасосий кўрсаткичларини, ҳам ишлашни баҳолаш тизимида, ҳам яширин ривожланиш захираларида аниқлаш учун асос бўлади.

IV ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГНИ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

Б.О. Дусматов– СамИСИ, “Реал иқтисодиёт” кафедраси доцент в.б.

САНОАТ КОРХОНАЛАРИ РИВОЖЛАНИШИНИ БОШҚАРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистонда ўтказилган иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш шароитида саноат корхоналари ривожланишини бошқаришга оид инновацион ёндашувлар атрофлича кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Саноат корхоналари, менежмент, инновация, инновацион бошқарув, инновацион фаолият.

Аннотация: В данной статье всесторонне рассмотрены инновационные подходы к управлению развитием промышленных предприятий в условиях углубления экономических реформ проводимое в Узбекистане.

Ключевые слова: Промышленные предприятия, менеджмент, инновации, инновационный менеджмент, инновационная деятельность.

Abstract: This article comprehensively considered innovative approaches to the management of development of industrial enterprises in the conditions of economic reforms carried out in Uzbekistan.

Keywords: Industrial enterprises, management, innovations, innovation management, innovation activity.

Ўзбекистонда ўтказилган иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш шароитида,авваламбор, унинг иқтисодий ривожлантиришга иннвоциялар зарурдир.Фан ва техника ютуқларидан фойдаланишни рағбатлантирмай, янги технологияларни жорий этмай, саноат корхоналарида барча илмий-техника соҳасининг ҳамма субъектларининг илмий-техника фаолиятини фаоллаштирмай туриб барча тармоқларда барқарор иқтисодий ўсишга ўтишнинг иложи йўқ.

Айнан шунинг учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги ПФ-5308-сон “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сон фармонида саноатни устувор даражада ривожлантириш дастури ва ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилашга доир тармоқ дастурларининг изчил амалга оширилиши натижасида саноат таркибида юқори қўшимча қийматга эга бўлган, рақобатдош маҳсулотлар

тайёрлаётган қайта ишлаш тармоқларининг ўрни тобора ортиб бормоқда. Мазкур босқичда ресурсларни тежамли сарфлаш, инновацион юқори унумдорли техника, технологияни қўллаш масалалари алоҳида эътибор қаратилган; айнан саноат корхоналари жамият ва ҳар бир ишчи олдида асосий ижтимоий жавобгарликка эга. Гап шундаки, ҳар қандай янгилик инновация пайдо бўлиши ва унинг жорий этилиши маълум даражада ахборотлар билан боғлиқ. Айнан шунинг учун менежернинг инновациялар бўйича амалий фаолияти мамлакптда инновацияларни ривожлантиришга тааллуқли ахборотларни тўплаш ва қайта ишлаш билан боғлиқ.

Инновацияларнинг турли таърифларини тахлил қилиш, иннвоцияларнинг ўзига хос мазмунини ўзгаришлар ташкил этади деган хулоса қилишга олиб келди, инновацион фаолиятнинг асосий вазифаси эса ўзгаришлар вазифаси ҳисобланади. Австралиялик олим И.Шумпетер ўзгаришларнинг бешта турини ажратиб кўрсатди:

- янги техника, янги технологик жараёнлар ёки ишлаб чиқаришнинг янги бозор таъминотидан фойдаланиш;

-янги хусусиятларга эга маҳсулотни жорий этиш;

-янги хомашёдан фойдаланиш;

-ишлаб чиқаришни ташкил этишда ва уни моддий-техник таъминлашдаги ўзгаришлар;

-янги савдо бозорлари пайдо бўлиши.[1]

Корхонада инновацион фаолият самарадорлиги кўпгина омилларга боғлиқ. Уларнинг асосийлари саноат корхонасида инновацион фаолиятга ташкилий ва мақсадга йўналтирилган характер, янгиликларни излаш ва уларни жорий этишга рағбатлантириш даражаси берилади.

Ифодаланган инвестиция дастурининг амалийлигини белгиловчи муҳим жиҳати, мустақил сингари, ички экспертизаси асосида ҳам ўтказилиши мумкин бўлган илмий-техник экспертизани ўтказиш ҳисобланади. Ташқи экспертиза, инновациялар саноат корхоналарининг мувофиқ муаммоларини ҳал этишга тааллуқли бўлган ҳолатларда ўтказилади, ва бу катта харажат ва хатарлар билан боғлиқ. Ички экспертиза ўтказишда бошқарувнинг асосий вазифаси турли экспертлар томонидан эксперт баҳолашларни объективлаштириши бўлиши лозим.

Инновацияларни бошқариш тузилмаси инновацион соҳада бошқарув фаолиятини тақсимлаш ва мувофиқлаштириш шакли сифатида аниқланади. У бошқарув органи таркибини ўз ичига олади ва улар ўртасидаги муносабатлар характерини белгилайди. Инновацияларни бошқариш тузилмасини шакллантиришда тузилманинг тури, бошқарув органининг таркиби ва вазифалари белгиланади, турли даражадаги раҳбарлар ўртасида ваколатлар тақсимланади, бошқарув қарорларини асослаш тартиботлари ва усуллари, уларни келиштириш тартиби ва ташкилий ижроси, инновацяиларни бошқариш органларини ахборот таъминоти белгиланади.

[1]Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.,346 с.

Инновацион замонавий ишлаб чиқариш ўз фаолиятига юқори талабларга мос келиши лозим, бу эса қатор сабаблар билан ифодаланган:

-буюмлар ассортиментини тезкор ўзгартириш имконини берувчи ишлаб чиқаришнинг юқори қайишқоқлигини зарурлиги. Бу, маҳсулотнинг ҳаётийлик даври буюмлар турли-туманлигида қисқарди ва бир марталик бартиялар ҳажми эса катталиги билан ифодаланган;

- меҳнатни назорат қилиш, ташкил этиш ва тақсимлашнинг мутлақо янги шаклларини талаб этувчи мураккаб ишлаб чиқариш технологияси билан;

-савдодан кейинги хизмат кўрсатиш ва қўшимча фирма хизматларини ташкил этишни талаб этувчи маҳсулот сифатига тубдан ўзгарувчан талабларда товар бозоридаги жиддий рақобат билан;

- ишлаб чиқариш харажатлари таркиби кескин ўзгариши билан;

-ташқи муҳитнинг ноаниқлигини ҳисобга олиш зарурати билан.

Бозор иқтисодиётида инновацияларни ишлаб чиқувчилар ва истеъмолчилари ўртасида ҳуқуқлар тенглаштирилди. Улар бозорда ўз ўринларини ўзлари топадилар. Бунда уларнинг мотивациялари молиявий ютуқ ва истеъмолчилик самарасини максималлаштиришдан келиб чиқади. Бошқача айтадиган бўлсак, ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчи ўртасидаги алоқа реал, маълум молиявий ва нарх мезонлари орқали амалга оширилади. Истеъмолчи янгиликлар ўртасида танлош ҳуқуқига эга бўлишни назарда тутиш лозим. Айнан истеъмолчи янада маъқул хусусиятларни танлайдилар. Янги маҳсулот сифати истеъмолчилар талабларига мослашиш даражаси сифатида аниқланади.

Технологияларнинг динамик ўзгариши, истеъмолчи ва маҳсулот сифати учун кураш саноат корхоналарини бутун бошқарув масалаларини қайта кўриб чиқишга мажбур қилади. Ҳозирги шароитларда бошқарув фаолияти саноат корхоналари рақобатбардошлиги ўсишининг муҳим омили сифатида иштирок этади. Сўнгги вақтларда фирма ички бошқарувининг қайта қурилиши саноат корхоналарининг бутун хўжалик фаолияти механизмини қайта тузиш асосига айланди. Бошқарувнинг қайишқоқлиги, тезкор қайта қурилишни билиш қобилияти, янгиликлар ва бозорда очилган янги имкониятларни бой бермаслик ҳозирги вақтда бошқарув харажатларининг бевосита тежашга нисбатан кўпроқ аҳамият касб этмоқда. Истеъмол талабига таяниш, қайишқоқ илмий-техник ва инновацион сиёсатни амалга ошириш, инновацияларга интилиш саноат корхоналарини бошқаришнинг асосий шартларига айланди.

Шундай қилиб, саноат корхоналарининг инновацион фаолияти, корхонанинг рақобатбардошлиги ўсишига катта ҳисса қўшган ўзгаришларнинг янада истиқболли тури сифатида унинг барқарор ривожланишига асосий омил сифатида хизмат қилиши мумкин. Фан, янги технологиялар, илмталаб тармоқлар ва корхоналар, фаол жорий этилувчи янгиликлар – инновацион соҳани ривожлантириш даражаси ва динамизми иқтисодий ўсиш асосини яратади.

С.Б. Шарипов – СамДУ таянч докторанти

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: Ушбу мақолада муаллиф томонидан хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизми ўрганилиб таҳлил қилинган ва уни такомиллартириш тўғрисида таклиф ва хулосалар келтирилган.

Аннотация: В данной статье рассматривается и анализируется автором механизм управления конкурентоспособностью сервисных предприятий и предлагаются предложения и выводы по его совершенствованию.

Abstract: This article examines and analyzes the mechanism of competitiveness management of service enterprises by the author and offers suggestions and conclusions on its improvement.

Калит сўзлар: хизмат кўрсатиш, рақобат, рақобатбардошлик, рақобат устунлиги, рақобатбардошликни баҳолаш, рақобатбардошликни бошқариш, билимлар ва сифатни бошқариш.

Ключевые слова: сервис, конкуренция, конкурентоспособность, конкурентное преимущество, оценка конкурентоспособности, управление конкурентоспособностью, управление знаниями и качеством.

Keywords: service, competition, competitiveness, competitive advantage, competitiveness assessment, competitiveness management, knowledge and quality management.

Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизмини такомиллаштиришда хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини баҳолаш, инвестициялаш ва кредитлаш, рақобатбардошликни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан мувофиқлигини таъминлаш, рақобат устунлиги стратегиясини ишлаб чиқиш, корхоналар ўртасида эркин рақобат муҳитини таъминлаш каби йўналишлардаги мавжуд муаммоларни бартараф этиш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимиз хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизмини амалда муносиб ишлашини таъминлаш мақсадида бир қатор салмоқли ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида «...хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш ҳамда ушбу йўналишда жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш»[1] белгиланган.

Бундан келиб чиқадики, Тараққиёт стратегиясида белгиланган мақсадлар хизмат курсатиш корхоналари олдига ҳам устувор вазифаларни амалга оширишни талаб этади. Шу нуқтаи-назардан хизмат кўрсатиш

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти ШМирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60–сонли Фармони.

корхоналари ички муҳити барқарорлигини ошириш ва бошқаришда ташқи ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда, янги замонавий билимлар асосида зарур бошқарув технологиялари ва механизмларини такомиллаштириш зарур бўлади.

Хизмат кўрсатиш соҳасида бошқарувга оид замонавий билимларни эгаллаш, хизмат кўрсатиш корхонларини бошқариш самарадорлигини оширишнинг ажралмас қисмидир. Шунинг учун билимларни бошқариш ва сифат менежменти ўртасида узвий боғлиқлик борлигини таъкидлаш мумкин. Ҳозирги замонавий иқтисодий ривожланиш шароитида сифат менежменти ва билимларни бошқаришнинг умумий ва асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

истеъмолчиларга (мижозларга) эътибор бериш;

барча даражадаги менежерларни кохона фаолиятга фаол жалб қилиш;

ходимларни ҳаракатчанлиги аҳамиятини ошириш;

оптимал бошқарув қарорларини қабул қилиш учун ахборот ресурсларини таҳлил қилиш;

корхона ходимларининг имкониятлари ва салоҳиятидан ахборот технологиялари орқали самарали фойдаланиш, (масофавий ўқитиш ва рақамли хизматлар кўрсатиш);

ўз фаолиятларида ишонч ва ошкораликни мустаҳкамлаш учун мақсадли мулоқот олиб бориш;

хизмат кўрсатиш ва сервис фаолиятини барқарор ривожлантирувчи билим, кўникма, малака ва тажрибаларни тарқатиш ва стратегик мақсадларга эришиш учун самарали меҳнат фаолияти йўналишларини аниқлаш;

хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришни бошқарув механизмлари асосида ўз-ўзини баҳолаш ва мониторинг қилиш.

Хизмат кўрсатиш бозорларида рақобатнинг кучайиши, истеъмолчиларнинг хоҳиш-истаклари ўзгаришининг юқори динамикаси, барча турдаги ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш зарурати, хизмат кўрсатиш сифатини стандартлаштириш ва сертификатлашнинг замонавий талаблари хизматлар сифатини таъминлашнинг концептуал механизмини шакллантиришда тизимли ёндашувни талаб қилади. Шу сабабли, қуйидаги 1-расмда хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизмини ишлаб чиқдик.

Бизнинг фикримизча, хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизми корхона рақобатбардошлигини сақлаб қолади ва иқтисодий жиҳатдан самарадорликни оширади, бундан ташқари замонавий, стратегик, тактик, тезкор бошқарув қарорларини қабул қилиш орқали рақобатбардош устунликка эришади ҳамда рақобатбардошликни бошқариш моделини,



1-расм. Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизми

коорпоратив стратегия ва мақсадларни, тизимли ёндашувни ва бошқарув методолояиасини ишлаб чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60–сонли Фармони.

2. Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации; учеб/Р.А. Фатхутдинов. 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Маркет ДС, 2008-432 с.

3. Келарева Е.В. Лояльность персонала как фактор конкурентоспособности предприятия сферы услуг // Школа университетской науки: парадигма развития. 2010. № 1-2. С. 342-347.

V ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

E.N.Xodjayev – SamISI professori,
E.Sh.Jaynarov – SamISI, MDM-121 guruh magistranti

TA’LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimini moliyalashtirishning tahlil qilish masalalari yoritilgan. Xorijiy tajribaga asoslanib O‘zbekistonda ta’lim tizimini samarali moliyalashtirishning amaliyotga joriy etish istiqbollari ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, moliyalashtirish, byudjet loyihasi
Аннотация: В данной статье рассматривается анализ финансирования системы образования. На основе зарубежного опыта рассмотрены перспективы осуществления эффективного финансирования системы образования в Узбекистане.
Ключевые слова: система образования, финансирование, проект бюджета
Abstract: In this country, an analysis of the financing of the education system is being considered. Based on foreign experience, the prospects for effective financing of the education system in Uzbekistan are considered.
Key words: education system, financing, draft budget.

Ma’lumki ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiyiqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida [1] “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish,sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.103 Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi xususan, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, bu sohani moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ta’kidlash joizki, bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatimizning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’im tizimining, hurmatli professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi-yosh

[1] www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida

avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2020 yil uchun Davlat byudjeti loyihasiga bag‘ishlangan navbatdagi Fuqarolar uchun byudjet loyihasi taqdim etildi. 2020 yilda davlat byudjeti xarajatlari qismida ijtimoiy soha xarajatlariga 56 113.1 mlrd.so‘m xarajat qilinishi prognoz qilingan bo‘lib shundan ta’lim xarajatlari eng katta qismini tashkil qildi. Davlat byudjeti xarajatlarning qariyb yarmi ijtimoiy sohaga yoki umumiy xarajatlarning 22,9 foizi ta’lim sohasiga yo‘naltirilishi hozirgi paytda rejada kutilmoqda. Mamlakatimizda 2019 yil maktabgacha ta’lim muassasalari 5847 tani tashkil qilgan va 2020 yilga 6213 ta maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash yangi maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish rejalashtirilgan. Bundan maqsad bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilishni kengaytirish va kelajak avlodni bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir. 2019 yilda Maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash uchun Davlat byudjeti xarajatlari tomonidan 1 720,8 mlrd.so‘m qilingan bo‘lib, 2020 yilda esa 1 751,7 mlrd.so‘m rejalashtirilgan. 2020 yilda umumta'lim va maktabdan tashqari muassasalarini moliyalashtirish uchun 20 885,2 mlrd. so‘m yoki umumiy ta'lim xarajatlaridan 70 foizini yo‘naltirish rejalashtirilmoqda.[1] Maktabdan tashqari ta’lm bolalar musiqa va san’at maktablarini va “Barkamol avlod” maktablarini o‘z ichiga oladi. Bolalar musiqa va san’at maktablrini saqlash uchun Davlat byudjeti hisobidan xarajatlar 482,0 mlrd.so‘m rejalashtirilgan bo‘lib shuningdek “Barkamol avlod” maktablarini saqlash uchun Davlat byudjeti hisobidan xarajatlar 151,5mlrd.so‘m ajratilishi rejalashtirildi.Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar 2020 yilda 954 tani tashkil etib Davlat byudjetidan esa 1718,6 mlrd.so‘m xarajat qilinishi rejalashtirilgan. Shuningdek 2021 yilda esa 505 ta kasb-hunar va akademik litseylar bo‘lib davlat byudjetidan 2406,0 mlrd.so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. 2022 yil esa kasb-hunar va akademik litseylar soni o‘zgarishsiz qolib Davlat byudjetidan 3 368,4 mlrd.so‘m xarajat qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki kelajakda kasb-hunar va akademik litseylar soni qisqarib davlat byudjetidan esa xarajatlar miqdori kamayib borishini kuzatish mumkin. Oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish uchun 2020 yilda Davlat byudjetidan 2 266,8 mlrd.so‘m yo‘naltirilishi rejalashtirildi.[2] Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim tizimini moliyalashtirishni samarali tashkil etilishi Davlat byudjetining to‘g‘ri taqsimlanganligi shuningdek byudjet tashkilotlariga davlat tomonidan qilinayotgan xarajatlarning nazorati olib borilayotganligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda Xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini

[1] www.mf.uz O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida
[2] www.stat.uz O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida

qo‘llashga ko‘maklashadi. Ta’lim tizimi o‘zining faoliyati nuqtai nazaridan ikki muhim vazifani bajaradi.

Bular:

-inson shaxsini taraqqiy ettirish,takomillashtirish,uni manaviy ahloqiy, badiiy jihatdan rivojlantirish, ma’naviy komil, har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishiga yordam berish;

-jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining bosh elementi bo‘lgan ishchi kuchiga bevosita va faol ta’sir ko‘rsatish ularning tabiatini o‘zgartirish va yaxshilashdir.

Shuning uchun ham ta’lim tizimiga mablag‘ sarflash inson kapitalini investitsiyalash hisoblanib, eng samarali va kafolatlangan,jozibadorligi yuqori bo‘lgan investitsion sarfdir. Buni hisobga olgan holda ta’limni moliyalashtirish jamiyat manfaati nuqtai nazaridan qaraladi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘ topish yo‘llari muassasaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ta’lim xizmatlari marketingini yo‘lga qo‘yish va budjetdan tashqari mablag‘ topish yo‘llarini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ta’lim tizimini moliyalashtirishning asosiy maqsadi davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar va boshqa manbalar hisobidan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘ izlab topish, ta’limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtirish, uning ko‘p variantli tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlashi rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim sohasiga homiylarni jalb etish bo‘lsada, ko‘p hollarda davlat budjetiga nisbatan yuk hamon saqlanmoqda. Bu esa ta’lim tizimini rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotganligini anglatib, budjetdan tashqari mablag‘ topishda ta’lim xizmatlari marketingining ahamiyatini oshirishni talab etadi. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim xizmati ko‘rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari rivojlantiriladi, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta’lim xizmati ko‘rsatish bozori davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim xizmatlari marketingning rivojlanib borayotganligi va samarasi tufayli umumiy o‘rta ta’limni byudjet tashqari moliyalashtirishning yangi manbalari o‘rganilmoqda. Ta’lim muassasasi rahbarining Umumiy o‘rta ta’lim muasssasalarida budjetdan tashqari mablag‘ topish yo‘llari respublikamiz qonunchiligida o‘z aksini topgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 22apreldagi 343-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi[1] va 344-son “Xalq ta’limi tizimidagi muassasalarning budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi [2] qarorlarida aks ettirilgan. Budjetdan tashqari

[1] www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida
[2] www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida

moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolarni yumshatishda ta’lim xizmatlari marketingining o‘rni behad muhimdir.Ta’lim xizmatlari marketingini rivojlanishi tufayli umumiy o‘rta ta’lim muassasasini zamon talabiga moslashtirish va natijada yuksak malakali raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun avvalo quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- yuqori natijalarga erishgan xorijiy mamlakatlarning ta’lim xizmatlari marketing faoliyati tajribasini amaliyotga ko‘proq tatbiq etish lozim;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlari marketing faoliyatini kengaytirish va vazifalarini aniqlashtirish;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ishlayotgan pedagog–xodimlarga pullik xizmatlarni yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish,ularning malakasini oshirish va shu kabi saviyani oshiruvchi chora-tadbirlarni qo‘llash;
- umumiy o‘rta ta’lim tizimida davlat va jamiyat tomonidan moliyalashtirishni uyg‘unlashtirish;

Marketing bilan shug‘ullangandan keyingi natijalar moddiy-tehnika baza mustahkamlanadi, maktab pedogogik jamoasini qo‘shimcha moddiy rag‘batlantiriladi, rahbarlarning yangi avlodi shakllanadi, o‘quv- tarbiya jarayoni sifati oshiriladi. Maktabda o‘quvchilarning bandligi ta’minlanadi.Qo‘shimcha moliyaviy mablag‘lar topish imkoniyati paydo bo‘ladi. Maktab ta’limi jarayo-nida qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatish kengayadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim xizmatlari marketingini rivojlanishi ta’lim samaradorligining oshishi, budjetdan tashqari mablag‘lar manbaining ko‘payishi budjet mablag‘larining tejalishiga va budjet taqchilligini oldini olishga yordam beradi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat yuzaga keladi, ta’lim muassasalarining talabgorligi ortadi hamda asossiz pul yig‘imlarini oldi olinadi.

Х.Х. Имомов – ТДИУ, “Молия” кафедраси и.ф.н., доценти

МАМЛАКАТИМИЗ ИҚТИСОДИЁТИ ТАРМОҚЛАРИ ВА ҲУДУДЛАРИГА ХОРИЖИЙ САРМОЯЛАРНИ ФАОЛ ЖАЛБ ЭТИШ

Аннотация: Мақолада мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этишнинг муҳим жиҳатлари ёритилган бўлиб, бу борада амалга оширилиши зарур бўлган чора тадбирлар мужмуаси келтирилган.

Калит сўзлар: инвестиция, хорижий капитал, реинвестиция, бюджет, бюджет сиёсати, солиқ имтиёзлари, солиқ маъмурчилиги, тадбиркорлик субъектлари, солиқ тушумлари, солиқ имтиёзлари, солиқ, солиқ ставкаси, преференциялар.

Аннотация: В статье выделены важные аспекты активного привлечения иностранных инвестиций в отрасли и регионы экономики страны, а также приведен комплекс мер, которые необходимо предпринять в связи с этим.

Ключевые слова: инвестиции, иностранный капитал, реинвестирование, бюджет, бюджетная политика, налоговые льготы, налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговые поступления, налоговые льготы, налог, налоговая ставка, преференции.

Abstract: The article highlights the important aspects of active attraction of foreign investment in the sectors and regions of the economy of the country, and provides a set of measures that need to be taken in this regard.

Keywords: investment, foreign capital, reinvestment, budget, budget policy, tax incentives, tax administration, business entities, tax revenues, tax incentives, tax, tax rate, preferences.

Амалдаги ислоҳотлар иқтисодиётни янада ривожлантириш ва либераллаштиришга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолишга қаратилган бўлиб, айни пандемия шароитида ҳам ўзини ижобий натижаларини бермоқда. Бу борада хорижий инвестицияларни жалб этиш, мавжудларини сақлаб қолиш миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантиришга хизмат қилиши тайин. Олиб борилаётган ислоҳотларда иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш бўйича институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш, хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш, ҳудудлар, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ҳолда ижтимоий-иқтисодий тараққий эттириш, инвестициявий муҳитни яхшилаш орқали мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш муҳим аҳамият касб этади.

Ушбу вазифаларни ўз вақтида самарали ҳал этишни иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишни тартибга солиш ва рағбатлантириш механизмларини янада такомиллаштириш масалаларини қамраб олувчи чора-тадбирлар орқали янги саноат корхоналари ва сервис марказларини ташкил этиш, кичик саноат зоналарини ташкил қилиш, йирик хўжалик бирлашмаларининг маблағларини, банкларнинг кредитларини ва хусусий хорижий инвестицияларни жалб қилиш ҳисобига кичик шаҳарлар ва шаҳарчаларни жадал ривожлантиришни таъминлаш мумкин. Шунинг учун, бугунги кунда республикамизда олиб борилаётган инвестиция сиёсати, яъни иқтисодиёт тармоқларини ривождантириш учун хорижий инвестицияларни жалб қилиш жараёнини фаоллаштириш йўлларини ишлаб чиқиш долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Ҳар доим инвестиция соҳасига давлатнинг фаол аралашуви ва унга узоқ йиллар мобайнидаги макроиқтисодий сиёсатнинг таркибий қисми сифатида қарамоқ даркор. Бу эса стратегик мақсад – иқтисодий ўсишни таъминлаш учун амалга оширилмоғи, бу рақобатбардошлик ва миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши мезонларига жавоб бериши лозим. Стратегик мақсадга эришиш макроиқтисодий режалаштириш асосида таъминланиши мумкин, инвестиция жараёнларини давлат йўли билан

макробошқариб туриш, режалаб туришнинг энг муҳим бўғинларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Белгиланган бундай вазифаларни самарали ҳал этишда инвестицияларни, шу жумладан чет эл инвесторларини жалб этишни кенгайтириш ва улардан самарали фойдаланишни ташкил этишни талаб этади. Булар мамлакатимизда ҳозирги кунгача давом этиб келаётган таркибий ўзгартиришларни мантиқий давоми сифатида Ўзбекистон иқтисодиётини барқарор ривожланишида муҳим аҳамиятга эгадир.

Мамлакатимиз ижтимоий ва иқтисодий ривожланишида ҳудудлар ўртасидаги ўзаро иқтисодий фарқланишлар ва номувофиқларни камайтиришда ўзига хос ўринга эга. Бу эса ўз ўрнида, ушбу имкониятлардан оқилона фойдаланиш ҳудудларда мавжуд барча ресурслардан фойдаланишни самарали амалга ошириш ҳамда минтақавий иқтисодиётнинг таркибий жиҳатдан такомиллаштиришга замин яратади.

Ҳаракатлар стратегияси қабул қилинган йилдан республикада асосий капиталга ўзлаштирилган инвестицияларни кескин ўсиши, амалга оширилаётган иқтисодий, сиёсий ислоҳотлар натижаси ўлароқ кўтарилиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Бу самарали ёндошувлар хорижий инвестициялар учун яратилган шарт-шароитлар мамлакатимиз иқтисодиётига жалб этилаётган инвестициялар ҳажмини йилдан-йилга кўпайиб боришига имкон бермоқда.

Ислоҳотларнинг тадрижийлиги мамлакатимизнинг инвестиция сиёсати миллий иқтисодиётда маълум таркибий ўзгаришлар юз беришига имконият берди, ўз навбатида бозор муносабатлари шаклланишига ижобий таъсир этди ва иқтисодий барқарорлик учун зарурий шарт-шароитларни юзага келтирди. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси”да ҳам ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, фаол инвестиция сиёсатини олиб бориш ва уларни амалга ошириш натижасида минтақаларнинг иқтисодий салоҳиятини янада кенгайтириш, экспорт салоҳиятини юксалтириш борасида инвестицион самарадорликни баҳолаш каби вазифалар белгилаб берилган.

Умуман олганда, республикамиз ҳудудларининг табиий ресурсларга бойлиги инвестиция муҳитини янада жозибадор қилишга имкон беради. Шу боисдан, мавжуд вазиятни тўғри баҳолаган ҳолда хорижий инвестицияларни жалб этишни ва уни минтақлар иқтисодиёти ривожланишига кўмаклашиш зарурати туғилмоқда.

Шу нуқтаи назардан, мамлакат иқтисодиётига йўналтирилган инвестиция маблағлари самарадорлигини аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Бу борада миллий иқтисодиётимиз рақобатдошлигини оширишнинг асосий вазифалари ва йўналишларидан келиб чиқиб стратегия қабул қилинишининг нақадар долзарблигини англаш мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш борасида **қуйидаги хулоса ва таклифларимизни** келтирамиз:

- хорижий инвестиция улуши мавжуд корхоналарни республика ҳудудларига мутаносиб жойлаштириш орқали ҳар бир ҳудуд салоҳиятидан самарали фойдаланиш;

- хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар ички бозорларни қондириш билан бир қаторда ташқи бозорни ҳам таъминлашга қаратилиши мақсадга мувофиқ;

- иқтисодиётнинг турли соҳаларида капитал жамғарилиши жараёнларини кучайтириш, аҳолининг тўловга қобилиятлилик ҳолатини кенгайтириш йўли билан тартибга солиш;

- кредит сиёсатини, давлатнинг норма ва стандартларининг антимонопол тадбирларини ишлаб чиқариш, давлат мулкини хусусийлаштириш ва нарх-наво сиёсатини ўтказиш;

- ҳудудларнинг қишлоқ хўжалиги имкониятларидан келиб чиққан ҳолда экспортга мўлжалланган маҳсулотларни етиштириш чора-тадбирларини кучайтириш;

- миллий иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг ҳудудий дастурлари самарасини ошириш, инвестицион жозибадорликни оширишга қаратилган «Ҳудудларда саноатни ривожлантириш» концепциясини ишлаб чиқиш;

- мамлакатимизнинг жаҳон меҳнат тақсимотидаги ўрни ва роли юксалиб боришини таъминлайдиган саноат тармоқлари ва соҳаларида таркибий ўзгаришларни амалга оширишни чуқурлаштириш ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Мамлакатимиз тадбиркорлари билан очиқ мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқи. 2021 йил 20 август. –http://president.uz/uz/lists/view /4551
2. Ғозибеков Д. Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. -Т.: Молия, 2003. 323 б.
3. Мертенс А.В. Инвестиции: Курс лекций по современной финансовой теории. -Киев. Киевское инвестиционное агентство, 1997. 563-с.
4. Хазанович Э.С. Инвестиционная стратегия: Учебное пособие. //Э.С. Хазанович, А.М. Ажлуни, А.В. Моисеев. – М.: КНОРУС, 2010. – 304 с.
5. Шарп У.Ф., Александер Г.Д., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер.с англ.- М.: ИНФРА - М, 1997. -1024 с.
6. Кэмпбелл Р., Макконелл, Станли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том, -М.: Республика, 1992. -388 с.

B.N. Nosirov– Muhammad al –Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali
Dasturiy injiniring kafedrasi katta o‘qituvchisi

XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARIDA, INVESTITSIYA LOYIHALARIDA IQTISODIY–MATEMATIK USULLAR VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish sohalarida va investitsiya loyihalarida iqtisodiy–matematik usullar va ekonometrik modellashtirishni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ekonometrik model, ekonometrik usullar, iqtisodiy va matematik usullar, xizmatlar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, investor, investisiya loyihalari, raqamli iqtisodiyot, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari.

Аннотация: В статье рассматривается применение экономико-математических методов и эконометрического моделирования в сфере услуг и инвестиционных проектах.

Ключевые слова: Эконометрическая модель, эконометрические методы, экономико-математические методы, услуги, макроэкономические показатели, инвестор, инвестиционные проекты, цифровая экономика, услуги связи и информации

Abstract: The article discusses the application of economic and mathematical methods and econometric modeling in the service sector and investment projects.

Keywords: Econometric model, econometric methods, economic and mathematical methods, services, macroeconomic indicators, investor, investment projects, digital economy, communication and information services

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida aholiga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishga imkon beradigan qator Davlat dasturlari qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshqa sohalar kabi xizmatlar sohasida ham tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish” muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

Ekonometrik usullarning va kompyuterlarning milliy iqtisodiyotni boshqarishda afzalliklaridan biri shundaki, ular yordamida modellashtiruvchi ob’yektga omillarning ta’sirini, natija ko‘rsatkichiga resurslarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘nlab tarmoqlar va minglab korxonalarda ishlab chiqarish natijalari va milliy iqtisodiyotni ilmiy asosda prognozlashtirish va boshqarishga imkon beradi.

Ekonometrik modellash iqtisodiy koʻrsatkichlarni oʻzgarish qonuniyatlarini, tendensiyalarni aniqlash natijasida ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy jarayonlarni rivojlanish va prognozlash yoʻllarini belgilaydi.

Ekonometrik modellashtirish va modellarning ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

- Ekonometrik usullar yordamida moddiy, mehnat va pul resurslaridan oqilona foydalaniladi.
- Ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy jarayonlar faqat chuqur tahlil qilibgina qolmasdan, balki ularning yangi oʻrganilmagan qonuniyatlarini ham ochishga imkoni yaratiladi. Shuningdek, ular yordamida iqtisodiyotning kelgusidagi rivojlanishini oldindan aytib berish mumkin.
- Ekonometrik usullar va modellar hisoblash ishlarini avtomatlashtirish bilan birga, aqliy mehnatni yengillashtiradi, iqtisodiy soha xodimlarining mehnatini ilmiy asosda tashkil etadi va boshqaradi.
- Asosiy ekonometrik usullar – bu matematik statistika usullari va ekonometrik usullardir.

Banklarning kapitallashuvi va investisiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarning ustuvor yoʻnalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish va bu jarayonlarda iqtisodiy–matematik usullar hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot barcha soha va tarmoqlarda samarali faoliyat olib borishni taqozo etadi. Ma’lumki inson ehtiyojlari uchun maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish jarayoni ma’lum harajatlar evaziga amalga oshiriladi.

Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini avj oldirish va ishlab chiqarishni xususiylashtirish, modernizatsiyalash, texnik jixatdan qayta qurollantirish va rekonstruktsiya qilish dasturlarini amalga oshirish ishchi kuchi koʻp boʻlgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish, Oʻzbekiston iqtisodiyotini barqaror va dinamik tarzda rivojlantirishga erishish uchun xorijiy kredit mablagʻlaridan samarali foydalanish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya dasturi tugʻrisida"gi Qarori tasdiqlangan.

Ushbu qarorni amalga oshirish uchun Respublikamizga chet el investitsiyalari jalb qilina boshlandi. Shuning bilan birgalikda katta xom-ashyoga ega boʻlgan sohalarda mahalliy ishbilarmon tadbirkorlar ham keng koʻlamda oʻz investitsiyalarini jalb qila boshladi.

Bugungi kunda investitsion portfellarning juda ham keng klassifikatsiyasi mavjuddir. Real va moliyaviy investitsiyalarning aniq klassifikatsiyasi haqida yaxshi tushunchaga ega boʻlish muhimligi shu bilan xarakterlanadiki, har bir investitsion portfel uchun unga mos usulni ishlab chiqishni talab etadi, bu esa oʻz navbatida masalaning iqtisodiy va moliyaviy quyilishini ham, iqtisodiy–matematik modelini ham, oʻziga mos usulni ham qamrab oladi.

Real va moliyaviy instrumentlardan tarkib topgan investitsion portfel shakllanish masalasida, iqtisodiy–matematik modelda qatnashayotgan optimallik kriteriyalarning soniga qarab portfellar ikkita katga guruhga, ya’ni bir kriteriyalik va koʻp kriteriyaliklarga ajratilishi mumkin.

Koʻp kriteriyalik modellar tarkibida kamida ikkita optimallik kriteriyasi mavjud boʻladi. Moliyaviy va ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga qarab modellarning qoʻyidagi guruhlarini ajratib koʻrsatish mumkin:

- Berilgan korxona uchun ishlab chiqarish dasturi va aniq byudjet kapital koʻyilmalarining mavjudligida optimal investitsion portfelni shakllantirishga imkon beradigan modellar;
- Berilgan korxona uchun qabul qilingan ishlab chiqarish dasturining mavjudligida optimal investitsion portfel shakllanishiga va moliyalashtirilish manbalarini aniqlab olishga imkon beradigan modellar;
- Berilgan korxona uchun pul mablagʻlarining hajmi va kerak boʻlgan moliyaviy resurslarning turli sohalardan jalb etilishi hisobiga optimal investitsion portfel va ishlab chiqarish dasturini shakllantirishga imkon beradigan modellar.

Shuningdek, modellar investitsion portfellarning amalga oshirilish muddatiga qarab ham klassifikatsiya qilinishi mumkin:

1. ***Statik model***– investitsion rejalashtirishning muddati faqatgina bitta vaqt oraligʻidan iborat boʻladi.
2. ***Bir pogʻonali model***– investitsion rejalashtirishning muddati bir necha bir xil vaqt oraligʻiga boʻlinadi, lekin hamma harakatlar faqatgina birinchi oraliqda amalga oshiriladi.
3. ***Koʻp pogʻonali model***– zarur boʻlgan hisob – kitoblar investitsion rejalashtirishning har xil vaqt oraliqlarida amalga oshiriladi.

Aniqlik holatidagi modellar oʻzining maqsad funktsiyalari va cheklashlar turiga qarab chiziqli, nochiziqli, dinamik, grafik turlarga boʻlinadi.

Qoʻyilgan maqsad va cheklashlarga qarab bir kriteriyalik modellarni quyidagi turlarga boʻlish mumkin:

1. Tanlangan samarali mezonga asosan investitsion loyihalarni ranjirovka qilishga moʻljallangan modellar
   - aniqlik sharoitida;
   - tavakkalchilik sharoitida.
2. Moliyalashtirish uchun investitsion loyihalarni saralashda echim qabul qilishning iqtisodiy-matematik modeli
   - aniqlik sharoitlarida amalga oshiriladigan dasturli echimlarning modeli;
   - stoxastik modellar;
   - noaniqlik belgilari mavjud boʻlgan modellar.

Chiziqli model oʻzining xilma – xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bunda oʻzgaruvchilarning qiymatini oʻzgartirib borib, qoʻyilgan maqsadga erishish mumkin. Chiziqli bir kriteriyali modellarga "ryukzak" modeli, Dinning statik modeli, Albaxning bir pogʻonali modeli, Xaks va Vayngartnerlarning koʻp pogʻonali modeli, Ferstner-Xenning bir nechta ishlab chiqarish pogʻonali

kengaytirilgan modeli va boshqalar kiradi.

Ryukzak modeli asosida korxonaning aniq ishlab chiqarish dasturi aniq bo‘lganda optimal investitsion portfelni tuzish mumkin.

Investitsion loyihani hosil qilishning iqtisodiy – matematik modelini quyidagicha yozishimiz mumkin.

Maqsad funktsiyasi

$$\sum_{j=1}^{m} c_j x_j \rightarrow max$$

Qaysiki quyidagi shartlarni bajarsin:

$$\sum_{j=1}^{m} k_j x_j \leq I; \quad x_j \epsilon 0,1 \{j = 1,2\}, \dots m$$

1, agar j – loyiha ishlatishga qabul qilinsa;

$x_j \in 0$, agar j – loyiha ishlatishga qabul qilinmasa.

Yuqoridagi model asosida tanlab olingan investitsion loyiha to‘liq hamda bir marta ishlatishga qabul qilinadi. Agar investitsion loyiha qisman qabul qilinsa u holda masala sharti o‘zgartirilishi lozim.

Xozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsion loyihalarni ilmiy jihatdan asoslashda investor uchun ham tadbirkor uchun ham ahamiyatliligini hisobga oladigan bo‘lsak, iqtisodiy–matematik usullar va ekonometrik modellarni qo‘llash hamda ularga asosan dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va shular asosida iqtisodiy samaradorlikka erish mumkinligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 2022 йил 27 январ. Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловаси «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси». Lex.uz.
3. Введение в «цифровую» экономику / подобщ. ред. А. В. Кешелава. М.: ВНИИ Геосистем,2017. 28 с.
4. Абдуллаев О., Жамалов М. Эконометрическое моделирование. Учебник.–Т.: Fan va texnologiya. 2016. – 612 с.
5. Mukhitdinov Kh.S., Abdiraimov Sh. D., Nosirov B.N. Empirical models which were built for each sector of the service sector to the population of the region. Indiya 2020.- p.16116-16123
6. Mukhitdinov Kh.S., Nosirov B.N. Communication and information services to the population of the region. “Journal of Management Value & Ethics” Jan.-March. 2021 Vol. 11 No.01. SJIF 7.201 & GIF 0.626

A.A Nurmuxamedov – Toshkent moliya instituti, Magistratira 1-bosqich talabasi
A.I Karimov – Ilmiy rahbar: “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

INNOVATSION IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ZARURLIGI VA SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: Maqolada innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi, shart-sharoitlari, bilimlarga asoslangan iqtisodiyot omillari yoritilgan, bilim va maxsus noyob ko‘nikmalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: Investitsion faoliyat, investitsiya, innovatsiya, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion infratuzilma, venchur biznesi, biznes-inkubatorlari, texnoparklar.
Аннотация: В статье рассматриваются необходимость, условия привлечения инвестиций в инновационную деятельность, изучаются факторы инновационной экономики, обосновывается необходимость знаний и специальных навыков как источника стабильного экономического роста.
Ключевые слова: инвестиционная деятельность, инвестиция, инновация, научно-технический прогресс, инновационная экономика, инновационная инфраструктура, венчурный бизнес, бизнес-инкубаторы, технопарки.
Abstract: The article discusses the need, conditions for attracting investment in innovation, studies the factors of the innovation economy, substantiates the need for knowledge and special skills as a source of stable economic growth.
Keywords: investment activity, investment, innovation, scientific and technological progress, innovative economy, innovative infrastructure, venture business, business incubators, technology parks.

Investitsion faoliyat va ilmiy-texnika taraqqiyoti o‘zaro uzviy bog‘liqligining bir nechta muhim jihatlari mavjud. Avvalo, ilm-fanning jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borayotgan sharoitida, investitsiyalarga ilmiy tadqiqotlarning o‘ziga xos katalizatori sifatida qarash lozim. Shu munosabat bilan innovatsiyalar asosida fan-texnika taraqqiyotining so‘nggi yutuqlari bazasida iqtisodiyot real sektorini rivojlantirishga imkoniyat yaratadigan iqtisodiy o‘sishni moliyalashtirish modelini yaratish lozim.

“Mamlakatda qisqa muddatda innovatsiyaga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Respublikani innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ tashkil etilganligi, uning huzurida Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi shakllantirilganligi mazkur yo‘nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi”[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

Innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va shart-sharoitlari haqida gap borar ekan, shuni ta’kidlash lozimki, bozor munosabatlarining asosini tashkil etuvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatlari ular moddiy bazasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq, chunki moddiy resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o‘sishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

Bilimga asoslangan iqtisodiyot iqtisodiyotning sanoat rivojlanishidan keyingi va innovatsion iqtisodiyotning oliy bosqichi hisoblanadi. Bunda ko‘pincha “bilimga asoslangan iqtisodiyot” atamasi “innovatsion iqtisodiyot” sinonimi sifatida ishlatiladi. Ammo bilimga asoslangan iqtisodiyot – innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning oliy bosqichidir.

Jahon Banki ekspertlarining ta’rifiga ko‘ra: “Bilimga asoslangan iqtisodiyot – o‘zining o‘sishi va raqobatdoshligini oshirish uchun bilimlarni yaratadigan, tarqatadigan va ulardan foydalanadigan iqtisodiyotdir”[1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mutaxassislari tomonidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga batafsilroq ta’rif berilgan, ya’ni u “bilimlar barcha tarmoqlar, barcha sektorlar, iqtisodiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitadigan iqtisodiyotdir. Ayni paytda bunday iqtisodiyot turli shakllardagi bilimlardan foydalanibgina qolmasdan, balki mazkur bilimlarni yuqori texnologiyali mahsulotlar, yuqori malakali xizmatlar, ilmiy mahsulot va ta’lim sifatida yaratadi”[2] (1-rasm).



1-rasm. Jahon banki ekspertlari fikricha, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning tarkibiy qismlari

Bilimga asoslangan iqtisodiyot “moddiy iqtisodiyot”dan “intellektual iqtisodiyot”ga o‘tishni nazarda tutadi. Buning mohiyati shundan iboratki, bilimlar va maxsus noyob ko‘nikmalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy

PQ-3698-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.05.2018 y., 07/18/3698/1178-son.

[1] Manba: http: // www.worldbank.org.

[2] Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi materiallari. Manba: http: // www.undp.uz.

manbai va hal qiluvchi omiliga aylanadi. Akademik V.L.Makarovning fikricha, “Bilimga asoslangan iqtisodiyotda, bir tomondan, olimlar tomonidan qanchalik ko‘p bilim yaratilsa, ikkinchi tomondan, odamlar bu bilimlarni qanchalik ko‘p iste’mol qilsalar, shunchalik ko‘p mahsulot hajmi ortadi. Ya’ni bilimlarni pirovard iste’molchilarga yetkazadigan olimlarning ham, uni iste’mol qiladigan odamlarning ham ishi muhimdir”[1].

Bilimga asoslangan iqtisodiyot infratuzilmasiga iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan quyidagi omillar kiradi:

- yuksak turmush sifatini amalga oshiradigan samarali davlat institutlari;
- yuqori sifatli ta’lim, samarali ilm-fan;
- samarali ilmiy-texnikaviy venchur biznesi;
- yuqori sifatli inson kapitali;
- bilimlar va yuqori texnologiyalarning yaratilishi;
- axborot jamiyati yoki bilimlar jamiyati.

Hozirgi vaqtda faqat AQSH hamda Yevropa Ittifoqiga a’zo ayrim davlatlarning iqtisodiyotini “bilimga asoslangan iqtisodiyot” deb atash mumkin. Jahonning ushbu taraqqiy etgan davlatlari olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy g‘oyalarni tovarlar va mahsulotlarga tez va samarali aylantirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratdilar. Bevosita ilmiy tadqiqotlar, inson kapitaliga investitsiyalarning ortishi va buning natijasida eng yangi texnologiyalarning o‘zlashtirilishi jahonning yetakchi mamlakatlariga iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlash imkoniyatini bermoqda.

Mehnatni bilimlar bilan almashtirish bilan bog‘liq tub o‘zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, bilimlar resurslarni qayta ishlashga jalb qilinar ekan, mehnat emas, balki bevosita bilimlar qiymat manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Mohiyat jihatidan “qiymatning mehnat nazariyasi” “bilimlar tomonidan yaratiladigan qiymat” nazariyasi bilan almashtirilmoqda.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot – bilimlardan o‘zining o‘sishi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun foydalanayotgan iqtisodiyotdir. Bunday iqtisodiyotda bilimlar iqtisodiyot barcha tarmoqlarini, iqtisodiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitib boradi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy (tannarxning arzonlashishi, strategik raqobat ustunligi), balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega, u turmush sifatini yaxshilash prinsiplariga asoslangan (2-rasm).

Insoniyat bugungi kunda ega bo‘lgan bilimlarning 90,0 foizi so‘nggi 30 yil ichida yaratilgan. Umuman, jahonda bilimlarni birinchi marta ikki barobarga ko‘paytirish uchun bir ming yetti yuz yil (milodiy I-XVII asrlar) kerak bo‘ldi. Bilimlarning ikkinchi bor yana ikki marotabaga ortishi esa bir ming to‘qqiz yuz (1900) yilda sodir bo‘ldi. Bilimlarning uchinchi marta yana ikka karraga ko‘paygan sanasi sifatida 1950-yil ko‘rsatiladi.

Sivilizatsiyaning butun tarixi davomida yetishib chiqqan olimlar va

[1] Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Вестник Российской академии наук, 2013, №5.- С.73.



2-rasm. Bilimga asoslangan iqtisodiyot tizimi

muhandislarning 90,0 foizi ham zamondoshlarimizdir.

XXI asrni – axborot asri deb atalishi bejiz emas. Ushbu mingyillik boshiga kelib axborot hajmi 30 barobarga ortdi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot tizimida bilimlardan resurs sifatida foydalanish – bilimlarni joriy etish, birinchi navbatda, innovatsion jarayonni amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Bilimlarni joriy etish samarasi, eng avvalo inson farovonligini aks ettiradigan uning salomatligi, turmush darajasining sifati va umr ko‘rish davomiyligida o‘z ifodasini topadi.

Tovarlar va xizmatlar tannarxini arzonlashtirishga xizmat qiladigan bilimlardan foydalanish ishlab chiqaruvchilarga raqobatda strategik ustunlik beradi. Natijada korxonalar va ular xodimlarining daromadlari ortadi. Pirovard natijada esa bu milliy iqtisodiyot barqaror yuqori sur’atlarda o‘sishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, daromadlarni qayta taqsimlashga qaratilgan davlat siyosati ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat sohalarini, aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini moliyalashtirishni ko‘paytiradi.

Innovatsiya (inglizcha “innovationas” –“kiritilgan yangilik”, “ixtiro” so‘zidan) – fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishidir.

Keng ma’noda innovatsiya deyilganda yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar turlari sifatidagi yangiliklar, ishlab chiqarish, moliya, tijorat, ma’muriy yoki boshqa xususiyatlarga ega tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlardan samarali foydalanish tushuniladi. Yangilik g‘oyasining

tug‘ilishi, uning yaratilishi va ommalashishidan boshlab foydalanishgacha bo‘lgan vaqtni innovatsiyaning hayotiy sikli deb atashadi. Ana shular bilan bog‘liq ishlarni olib borish tartibi hisobga olingan holda innovatsiyaning hayotiy sikliga innovatsiya jarayoni sifatida qaraladi.

Zamonaviy sharoitda innovatsion faoliyat innovatsiyalarni kiritishdan iborat. Yangilik – yangiliklar bozorini, investitsiyalar - kapital (investitsiya) bozorini yaratganidek, yangilik kiritish – yangilik kiritishning sof raqobat bozorini yaratadi.

Xalqaro standartlarga ko‘ra, innovatsiya bozorida joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv – innovatsiya faoliyatining pirovard natijasi sifatida baholanadi.

Ekspertlar tomonidan ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlanmalarga sarf qilingan har 1 AQSH dollari texnikaga sarf qilingan 1 AQSH dollariga nisbatan sakkiz barobar ko‘p foyda keltirishi hisoblab chiqilgan.

Milliy innovatsion tizimda unsurlarning birinchi guruhi inson kapitali, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektori, intellektual mulkni himoya qilish tizimi, shuningdek umumiy tadbirkorlik muhitini qamrab oladi. Milliy innovatsion tizim uchun ushbu unsurlar zarur, lekin yetarli emas, shuning uchun ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish talab qilinadi.

Unsurlarning ikkinchi guruhiga innovatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari (grantlar, imtiyozli yoki kafolatli kreditlash) tashkiliy vositalar (ilmiy-texnikaviy biznes-inkubatorlari, texnoparklar, texnologiyani o‘zlashtirish bo‘yicha tashkilotlar) hamda yangi mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar, nou-xaular, patentlar kiradi.

Innovatsion faoliyat innovatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat xatti-harakatlari yig‘indisidir.

Innovatsion faoliyatning natijalari mehnat unumdorligining va milliy ishlab chiqaruvchilarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshliklari ortishida, resurslarning tejalishida, umuman iqtisodiyotning barqaror o‘sishida o‘z ifodasini topadi (3-rasm).

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish ma’lum moliyaviy manbalarni jalb qilishni zarur qilib qo‘yadi, bu esa davlatning innovatsion siyosati strategik yo‘nalishlarida o‘z aksini topishi, innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun yetarlicha tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo qiladi, zero ular innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning samaradorligini ta’minlaydi va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini mustahkamlaydi. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, innovatsiyalarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, ular manbalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan mustahkamlash bilan bog‘liq mexanizmlarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish respublikamizda innovatsion muhitni yaxshilash, ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion



3-rasm. Milliy innovatsion tizimning amal qilishi

mahsulotlar yetkazib berish ko‘lamlarini oshirish, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi

G.J. Jumayeva– QarMII, “BHvaA” kafedrasi dotsenti,
U.B. Raxmanov– QarMII, “BHva A” kafedrasi magistri

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzishning zarurligi ilmiy-nazariy jihatdan bayon qilingan. Tijorat banklarida tashqi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etishdagi mavjud muammolar tasnifi hamda ularni yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalar qilingan.

Kalit so‘zlar. Bank, tijorat, moliya, hisobot, xalqaro, standart, buxgalteriya, hisob, audit, uslub, sertifikat, diplom, professional.

Аннотация: В данной статье научно и теоретически описывается необходимость составления финансовой отчетности в коммерческих банках в соответствии с международными стандартами. Коммерческие банки предоставляют предложения и рекомендации по классификации существующих проблем

при составлении и сдаче финансовой отчетности для внешних пользователей в соответствии с международными стандартами и пути их решения.

Ключевые слова. Банк, торговля, финансы, отчетность, международные стандарты, бухгалтерский учет, аудит, методология, сертификат, диплом, профессионал.

Annotation: This article scientifically and theoretically describes the need to prepare financial statements in commercial banks in accordance with international standards. Commercial banks provide suggestions and recommendations on the classification of existing problems in the preparation and submission of financial statements for external users in accordance with international standards and their solutions.

Keywords. Banking, commerce, finance, reporting, international, standard, accounting, accounting, auditing, methodology, certificate, diploma, professional.

Mamlakatimizda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ettita ustuvor yo‘nalishdan iborat, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori osish sur’atlarini ta’minlash”da tijorat banklarining moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga o‘tkazish alohida ahamiyatga ega. Chunki, “Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish” [1] da xorijiy investorlarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzish va taqdim etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, milliy iqtisodiyotimiz bank sektori 31 ta bankdan iborat bo‘lib, shundan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud. Ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasida ta’kidlanganidek, “2021 yilda “Sanoatqurilishbank”, “Asaka bank”, “Ipoteka bank”, “Aloqa bank”, “Turon bank” hamda “Qishloq qurilish bank”ni xususiylashtirishga tayyorlaymiz. Kamida bitta yirik bankdagi davlat ulushi strategik investorlarga to‘liq sotiladi. Bu borada yetakchi yevropa banklari bilan muzokaralar olib borilmoqda”[2].

Ushbu holatlar ham tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishva taqdim etishni obyektiv zarurligini asoslaydi.

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tijorat

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot srategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonning 1-ilovasi.www.lex.uz

[2] https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998

banklarini moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Zero, tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlarni ham zaruriy axborotlar bilan ta’minlash va tijorat banklarimizni xalqaro moliya bozorlarining faol ishtirokchisiga aylantirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Moliyaviy hisobot tijorat banklari tomonidan bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui bo‘lib, u subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining holatini ma’lum davr (chorak, yillik)ga qiymat ko‘rinishida aks ettiradi. Demak, moliyaviy hisobot tijorat banklari moliya-xo‘jalik faoliyati haqida batafsil axborot olish inkonini beruvchi manba hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobot tashqi foydalanuvchilar, xususan investorlar uchun tuziladi. Milliy iqtisodiyotimizda ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida huquqiy asoslar yaratilmoqda, hamda amaliy ishlar bosqichiga o‘tilmoqda.

Shu nuqtai-nazardan ham, 2017 yilda boshlangan bank sektorini isloh qilishning faol bosqichi valyuta bozorini liberallashtirish, bank faoliyatidagi eskirgan cheklovlarni olib tashlash va banklarni ularga xos bo‘lmagan funksiyalardan ozod qilish, bank xizmatlari ommabopligini oshirishga qaratildi.

Natijada, 2019 yildan buyon bank tizimida bir qator sifat o‘zgarishlari amalga oshirilmoqda. Xususan: bank ishining zamonaviy standart va tamoyillariga mos keluvchi yangi tahrirdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining isloh qilinishi;

davlat dasturlarini Markaziy bankning asosiy stavkasidan kam bo‘lgan stavkalarda kreditlash amaliyotidan voz kechilishi va 2021 yildan kreditlashning bozor shartlariga o‘tilishi;

tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning 3 ta bank - AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda jamlanishi;

tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmining Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi orqali tashkil etilishi;

bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari hisobidan aholini uy-joy bilan ta’minlashning yangi tartibi joriy etilishi;

Jahon banki bilan hamkorlikda tijorat banklari faoliyati ustidan prudensial nazorat mexanizmlari va tartib-taomillarini ularning Bazel qo‘mitasi tamoyillariga

mos kelishi nuqtai-nazaridan baholashdan o‘tkazilishi.

Aynan, ushbu ozgarishlar ham bugungi kunda tijorat banklarining investorlari tarkibida xorijiy investorlarning ulushi oshib borayotganligini asoslaydi. Bunda moliyaviy hisobotni xalqaro standarlariga o‘tilishi ayni muddao hisoblanadi. Chunki, tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzish, ulardagi ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlaydi. Ma’lumotlarning shaffofligi va ob’ektivligi esa investor va mijozlar tomonidan banklar faoliyatiga ishonchni oshiradi. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o‘tish mamlakat miqyosida xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilishga, buning natijasida ishlab chiqarishni kengayishiga, modernizatsiya qilinishiga, yangi ish o‘rinlarni yaratilishiga, davlat byudjetiga soliqlarning tushumini ko‘payishiga, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Ma’lumki, moliyaviy hisobotning maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot taqdim etishdan iboratdir. Ushbu ma’lumot keng doiradagi foydalanuvchilarga qarorlarni qabul qilishi uchun zarur. Ammo tahlillarimizdan ko‘rinadiki, bugungi kunda tijorat banklarining umumlashgan, ya’ni jamlangan yillik moliyaviy hisobotlarini tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish amaliyoti xalqaro standartlarga javob bermaydi. Xususan, tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o‘tish amaliyoti 2015 yildan boshlangan bo‘lsada, bugungi kunga qadar to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q. Natijada davlat siyosati darajasida[1], aksiyadorlik jamiyatlari, tijotar banklari, sug‘urta tashkilotlari, yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiradigan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash (qonun hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno) borasidagi amaliy ishlar boshlandi. Tadqiqotlarimiz korsatadiki, bugungi kunda tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish bo‘yicha ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, ammo uni taqdim etish, tahlil qilish va auditini xalraqo standartlar bo‘yicha tashkil qilish borasida oz yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Mazkur muammolarni shartli ravishda 3 guruhga: huquqiy, uslubiy va tashkiliy muammolarga ajratib organishni tavsiya qilamiz va ularning yechimini ta’minlash maqsadida tadqiqotlar olib boorish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, tijorat banklarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzish va taqdim etish natijasida kutilagan samaraga erishish uchun quyidagi masalalar yechimini ta’minlash tavsiya etiladi:

- vazifalarni yechish uchun talab etiladigan moliyaviy ma’lumotlarning to‘liq, haqqoniy mavjudligiga erishish;
- xalqaro standartlar asosida tayyorlangan hisobotdagi axborotlarni tizimini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish;
- moliyaviy hisobot elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va natijalarini to‘g‘ri sharxlaydigan va tahlil qila oladigan malakali mutaxassislar guruhini shakllantirish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori. www.lex.uz.

G.T. Samiyeva– QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.,
G.O.Otabekova– QarMII, “Iqtisodiyot” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH VA SAMARADORLIGINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiya faoliyatini amalga oshirish va samaradorligini oshirishning nazariy, ilmiy va uslubiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, investitsiya samaradorligining asosiy yo‘nalishlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, pul mablag‘lari, mulkiy va intellektual boyliklar, kapital, investitsiya jozibadorligi

Аннотация. В данной статье описаны теоретические, научные и методологические основы осуществления и эффективности инвестиционной деятельности. В нем также обсуждаются ключевые области эффективности инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, денежные средства, собственность и интеллектуальная собственность, капитал, инвестиционная привлекательность.

Abstract. This article describes the theoretical, scientific and methodological foundations for the implementation and effectiveness of investment activities. It also discusses key areas of investment performance.

Keywords: investments, funds, property and intellectual property, capital, investment attractiveness.

Mulkchilikni turli shakllarining rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo‘lga qo‘yilishi, jahon iqtisodiy aloqalari taraqqiy etishi, qo‘shma korxonalarni iqtisodiyotni barqarorlashtirishda roli ortishi, investitsiya faoliyatini to‘la tashkil etish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni yaratadi. Mulkchilikning shakllarining turli bo‘lishi o‘z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi hamda investitsiya faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlarini ham aniqlab beradi.

Investitsiya faoliyati to‘rt asosiy yo‘nalishlarda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda, turli xil mulkdorlar tomonidan olib boriladi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishning bu yo‘nalishlari o‘z navbatida bir nechta tip va shakllarda amaliyotga tatbiq etiladi. Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya’ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

1. Pul mablag‘lari, banklardagi maqsadli jamg‘armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar;
2. Harakatdagi va harakatda bo‘lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar hamda boshqa moddiy boyliklar);
3. Mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
4. Yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
5. Boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo‘lga qo‘yish, mablag‘lar sarflash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora tadbirlarining yig‘indisi investitsiya faoliyatini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o‘z manfaatini ko‘zlab yagona maqsadga, ya’ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo‘jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish inves-torlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb etish yo‘li bilan kreditlar evaziga, muo-malaga, qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog‘ozlar va zayomlar chiqa-rish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylash-tirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalar tarkibida mablag‘lar kama-yib borishi kuzatilmoqda. Aksincha, turli mulk egalarining mablag‘lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertrlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o‘ynaydi. Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo‘nalishida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiq-lashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo‘li bilan davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator chora va tadbirlarni qo‘llash va hayotga tatbiq etish negizida amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi.

Investitsiyalar yo‘nalishlarini aniqlashda mavjud bo‘lgan vaziyatni hisobga olish, O‘zbekiston iqtisodiyotini qayta qurish, chet mamlakatlar bilan aloqalar mustahkamlanishi, jahon bozoriga o‘z mahsuloti bilan chiqishni asosiy masala qilib olish lozimdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish masalasi investitsiya faoliyatini tashkil qilishni mavjud moddiy va moliyaviy resurslar bilan bog‘langan holda olib borishni talab qiladi va ishlab chiqarish investitsiyalarini eng zarur bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilishini taqozo etadi. Bu borada ayniqsa, paxtachilik bilan bog‘liq bo‘lgan va tayyor

mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarurdir. O'zbekiston sharoitida investitsiyalar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda namunaviy mashina, asbob-uskunalarni kirib kelishiga qaratilishi juda ham samaralidir.

Iqtisodiyotni inqirozdan chiqarishda uni barqarorlashtirishda hamda yuksak darajada rivojlantirish hayotiy masala investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda quyidagi savollarga javob berishdir:

Kapital qo'yilmalar siyosati qanday olib borilishi lozim; davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan investitsiyalar qanday hajm va nisbatlarda o'zlashtirilishi kerak; boshqa mulkchilik shakllaridagi korxonalar investitsiyalarini nimalarga qaratishi kerak; chet el investitsiyalari birinchi navbatda qaysi tarmoqlarga qanday kirib kelishi zarur va boshqalar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligining qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomil-lashtirishdir. Tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish maqsadida chet el investor-lari uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish, ularni qo'yilmalarini davlat tomonidan sug'urtalash, turli imtiyozlar berish muhim hisoblanadi.



1-rasm.Investitsiyalash jarayoni[1]

Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'-larga ega bo'lganlar)ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir. Ayrim vaqtda, xususan mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar

[1]Кожухар В.М. Практикум оценка инвестиций: Учебное пособие. -М.:, Дашка и К. 2005

bevosita muomalaga kirishadilar. Moliyaviy institutlar, masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiya-lari – odatda omonatlarni qabul qiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshqa pul bilan mablag‘larni investitsiyalaydilar. Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga ehtiyoj sezayotganlar odatda fond birjalariga o‘xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmi hisoblanadi. Aksiyalar bozori, obligatsiyalar bozori, auksionlar bozori kabi moliyaviy bozorlarning qator turlari bor. Ularning umumiy xususiyati moliyaviy vositani bahosi turli holatlarda talab va taklifni muvozanat nuqtasini topishlikdadir. Daromadlilik, tavakkalchilik, inflyatsiyalar, dunyodagi turli vaziyatlar haqida yangi axborotlarni e’lon qilinishi tufayli talab va taklif nisbatining o‘zgarishi yangi muvozanatni yoki yangi bozor bahosini o‘rnatilishiga olib keladi.

Pul resurslarini taklif qilayotgan shaxslar unga ehtiyoj sezayotgan-larga moliyaviy institutlar, moliyaviy bozorlar orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishi mumkin. Moliyaviy institutlar moliyaviy bozorda talab va taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin. Moliyaviy bozorni qisqa muddatli sektori pul bozori deb ataladi, uzoq muddatlisi esa kapital bozori deb atalib, unda fond birjasi o‘rni salmoqlidir.

K.G‘. Muxammadiev– SamISI, Bank ishi kafedrasi assistenti
J.G‘. G‘ulomiddinov– SamISI magistranti

TIJORAT BANKLARINING MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari muhokama qilingan bo‘lib, bank xizmatlari va operatsiyalari tahlil qilingan. Maqolada tahlillarga asoslangan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank xizmatlari, operatsiyalar, to‘lovlar, kredit, depozit, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы развития дистанционного банковского обслуживания коммерческих банков и анализируются банковские услуги и операции. В статье на основе анализа разработаны научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские услуги, операции, платежи, кредит, депозит, эффективность.

Abstract: This article discusses the prospects for the development of remote banking services for commercial banks and analyzes banking services and operations. Based on the analysis, scientific and practical recommendations have been developed in the article.

Key words: commercial banks, banking services, operations, payments, credit, deposit, efficiency.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bank tizimini rivojlantirish, ayniqsa, sohaga zamonaviy IT-texnologiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish qaratilgan konstruktiv choralar ko‘rilmoqda. Bu boradagi jarayonlar joriy yildan boshlab yana-da tezlashtirildi. Bu bejiz emas. Zero, davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganidek, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda.

2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi".

Bu yo‘lda banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta’minotini tubdan yangilash, “kredit tarixi” axborot tizimini to‘liq ishga tushirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilanib, izchil amalga oshirilyapti.

Ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida banklarning masofaviy xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etyapti. Quvonarlisi, koronavirus kasalligi tarqalishining oldini olish maqsadida yurtimizda pensiya ta’minotini masofadan turib amalga oshirish jarayonlarini amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda

Plastik kartalarni esa hisob-kitoblardan so‘ng tez va osonlik bilan dezinfeksiyalash mumkin. Shuningdek, hozirda har bir bank to‘lov va bank xizmatlaridan foydalanishni masofadan turib amalga oshirish, ya’ni mobil ilovalardan foydalanishni oson va qulay shaklga keltirishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Bu degani, naqd pulga qaraganda bank kartalaridan foydalanish kundan-kunga har tomonlama samarali va qulay bo‘lib boradi.

Ta’kidlash joiz, yurtimizda banklarning masofaviy xizmatlarini ko‘rsatish sifati va ko‘lamini kengaytirishda Prezidentimizning 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni dasturilamalda to‘lov tizimini yana-da rivojlantirish, shu jumladan, masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish hamda yangi texnologiyalardan foydalanish asosiy vazifa etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida so‘nggi yillarda aynan shunday zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash sohada birmuncha qulaylik va yangiliklar yaratayotgani shundan dalolat beradi.

Jumladan, yurtimizda mijozlarga taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan “Bank-mijoz”, “Internet-banking”, “SMS-banking” hamda “Mobil-banking” shakllari mijozlar tomonidan keng foydalanilmoqda. Sababi, ularning barchasi har ikkala tomonning o‘zaro manfaatli sheriklik asosida faoliyat yuritishida qo‘l kelmoqda.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni so‘nggi 7 yil ichida salkam 83 barobarga oshgan. Ya’ni 2014-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 24 545 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yil 1-yanvarga kelib bu ko‘rsatkich 2 042 111 nafarga yetgan.

Shuningdek, internet tarmog‘idan foydalanayotgan aholi soni ham keskin ko‘paymoqda. Bu esa masofaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimi zimmasiga yana-da katta vazifalar yuklaydi.

Binobarin, xalqaro standartlarni qo‘llagan holda texnologik platformani modernizatsiyalash natijasida plastik karta egalariga elektron tijorat SMS-xabarnomalari, pul o‘tkazmalari va shu kabi boshqa zamonaviy xizmat turlarini joriy etish imkoniyati yaratildi. Boshqacha aytganda, texnologik platforma mobil aloqa yoki internet mavjud bo‘lgan har qanday joyda plastik kartochka bo‘yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo‘llanish doirasi kengayib boryapti, tadbirkorlar o‘rtasida keng ommalashib, tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni birgina 2020-yilning o‘ziga kelib 2 milliondan oshib ketdi. Vaholonki, bu ko‘rsatkich 2014-yilda 25 ming nafarga ham yetmasdi. Joriy yilda esa foydalanuvchilar soni keskin ko‘paydi(bu bo‘yicha aniq statistikani topishning imkoni bo‘lmadi).

Masofaviy bank xizmatlari ulardan foydalanadigan mijozlarning huquqiy maqomiga ko‘ra, yuridik va jismoniy shaxslarga mo‘ljallangan masofaviy bank xizmatlariga tavsiflanishi mumkin.

Hozirda yuridik shaxslarga “Korporativ internet-banking”, “Mobil-banking” va “SMS-banking” kabi zamonaviy xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

Yuridik shaxslar uchun “Internet banking” xizmati ko‘lamini kengaytirish ham doimiy e’tiborda turibdi.

Banklarning amalga kiritilgan tariflariga muvofiq, “Korporotiv internet banking” xizmatiga ulanish hamda “e-key” xavfsizlik kalitlarini taqdim etish bepul. Oylik abonent to‘lovi esa eng kam ish haqining 20 foiz miqdorida belgilangan.

Masalan, bu borada ATB “Qishloq qurilish bank” ni olib ko‘raylik. 2018-yilning 1-fevral holatiga ko‘ra mazkur moliya muassasasining “Korporativ internet-banking” xizmatidan foydalanuvchi mijozlar soni 2998 nafarni tashkil qilgan edi. Ularning soni yildan yilga o‘sib boryapti. Buning afzalliklari nimada?

Gap shundaki, “Korporotiv internet-banking” xizmatidan foydalangan holda, mijozlar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

- Bank muassasasiga kelmagan holda, to‘lovlarni masofadan, uydan yoki ofisdan bajarish;

- Mijozga zarur bo‘lgan kunlik, oylik va yillik hisobotlarni (htms, xls) chiqarish hamda chop etish;

- Ko‘p foydalanadigan ma’lumotlar, sana, valyutalar kursi va bank amaliyot kuni va tizimi ma’lumotlarini onlayn kuzatib borish;

- To‘lov topshiriqnomalarining saqlangan tayyor shablonlaridan foydalanib, to‘lovlarni tezkor ravishda bajarish;

Shu bilan bir qatorda, “Bank-mijoz”, “Internet-banking”, “Mobil-banking” va “SMS-banking” xizmatlari yuqori o‘sishga ega bo‘lib, 2014-yildan 95-martaga oshib, 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, “Bank-mijoz”,

“Internet-banking” xizmatidan foydalanuvchilar soni 135,629 mingtani tashkil etadi. 2014-yilda bu ko‘rsatkich 1,424 mingtani tashkil etgan edi.

Yuridik shaxslar uchun “SMS-xabarnoma” xizmati uchun tarif miqdorlari “To‘liq xizmat”, “Qoldiq xizmat” kabi turlarga tabaqalashtirilgan bo‘lib, oylik abonent to‘lov mos ravishda eng kam oylik ish haqining 15, 10 va 5 foiz miqdorida belgilangan.

Bundan tashqari, "Bank-mijoz”, “Internet-banking”, “Mobil-banking” va “SMS-banking” kabi to‘lov tizimlari faoliyatlari tashkil etilgan va ular ko‘magida uyali aloqa operatorlari, kommunal to‘lovlar, internet provayderlar xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish, savdo-servis korxonalariga pul mablag‘larini o‘tkazish bevosita bank hisobidan internet-magazinlardan onlayn xaridlarni amalga oshirish hamda kartadan-kartaga mablag‘ o‘tkazish imkoniyatlari yaratildi.

Aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini bank sektoriga jalb etish hamda bank daromadliligini oshirish va xizmat turlarini ko‘paytirish maqsadida mamlakatimiz banklarida “Internet-banking”, “Bank mijoz”, “SMS-Banking” va “Mobil-banking”, ular uchun mo‘ljallangan “Click”, “MBANK”, “UzCard”, “UPAY”, “Payme” ilovalari yana-da rivojlantirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992- sonli farmoni. 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b 2.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3620 sonli Qarori.
3. Jukov E.F. “Banki i bankovskie operatsii”. M., 2017, “YUNITI”.
4. Ivanov A.N. “Bankovskie uslugi: zarubejnыy opыt i rossiyskiy opыt” , M., 2019.
5. Lavrushin O.I. “Bankovskie operatsii”., /darslik/, M., 2019.
6. Nesterova T.N. “Bankovskie operatsii”., M., 2020.
7. Piter S. Rouz, “Bankovskiy menedjment”, M. 2007.
8. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti
9. www.bankers.uz

М.Хамроев – СамИСИ катта ўқитувчиси
Ш.Тулқинов– СамИСИ МДМ 120 гуруҳ магистранти

ЖАМҒАРИБ БОРИЛАДИГАН ҲАЁТ СУҒУРТАСИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: мазкур мақолада суғурта хизматлари истеъмолчилари ва суғурта фаолиятининг бошқа субъектлари ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтириш, аҳолининг суғурта саводхонлигини ва суғуртага бўлган ишончини ошириш, суғурта бозорининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, хусусан узоқ муддатга ҳаётни суғурталаш амалиётини ривожлантириш масалалари ёритиб ўтилган.

Калит сўзлар: суғурта, хаёт суғуртаси**,** жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси, инвестицион маблағлар, кафолатлаш жамғармаси.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы усиления защиты прав потребителей и других субъектов страховых услуг, повышения страховой грамотности населения и их доверия, обеспечения гласности и прозрачности на страховом рынке. А также изучены практические аспекты развития долгосрочного страхования жизни.

Ключевые слова:страховние, страхование жизни, накопительное страхование жизни, инвестиционные фонды, гарантийный фонд

Abstract: This article discusses the issues of strengthening the protection of the rights of consumers and other entities of insurance services, increasing the insurance literacy of the population and their trust, ensuring transparency and transparency in the insurance market. And also studied the practical aspects of the development of long-term life insurance

Keywords: insurance, life insurance, accumulative life insurance, investment funds, guarantee fund.

Молия бозорининг муҳим таркибий қисми бўлган суғурта фаолияти ҳар қандай мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожида катта аҳамиятга эга. Айни пайтда суғурта ишлаб чиқаришнинг тўхтовсиз ривожланишини таъминлайдиган ва жамиятда аҳолини ижтимоий кафолатлайдиган соҳага айланаётганлиги давлатнинг суғурта сиёсатида ўз аксини топмоқда. Бугунги кунга келиб, республикамизда 40 дан ортиқ суғурта компанияси мавжуд бўлиб, уларнинг 34 таси умумий суғурта, 8 таси ҳаёт суғуртасига ихтисослашган [1] . Жорий йилнинг 1 январ ҳолатига кўра, республикамиздаги суғурта компанияларининг жами активлари 2,5 трлн. сўмни ташкил этиб, умумий устав капитаси миқдори 534 млрд. сўмдан иборат [2] . Лекин шунга қарамай суғурта мукофотлари билан тўловлари ўртасидаги тафовут юқори даражада сақланиб қолмоқда. Натижада мамлкатимизда аҳоли жон бошига тўғри келадиган суғурта мукофотлари ўртача 48,8 минг сўмни (ўртача 5,0 АҚШ дол.) ёки уни унинг ЯИМ даги улуши 0,4 фоизни ташкил этмоқда[3], таҳлиллар шуни кўрсатдики, суғурта мукофотларининг ЯИМдаги улуши Ғарбий Европада 8,4 фоиз , Осиёда 6,1 фоиз , Россияда 1,3 фоиздир

Ўзбекистонда суғурта соҳасини ривожлантиришни назарда тутувчи кўплаб фармон ва қарорларнинг, Олий мажлис томонидан суғурта фаолияти билан боғлиқ қонунларнинг қабул қилинаётганлиги ва амалдагиларининг такомиллаштирилаётганлиги давлатимиз томонидан суғурта бозорини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилаётганлигини кўрсатиб турибди. Сабаби бугунги бозор иқтисодиёти шароитида суғурта

[1] www.mf .uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирилигининг расмий сайти маълумотлари асосида
[2] www.uzbekinvest.uz Ўзбекинвест ЭИМСК расмий сайти маълумотлари асосида
[3] www.stat.uz Давлат статистика қўмитаси расмий сайти маълумотлари асосида

хизматларига бўлган талаб тобора ортиб бормоқда ва бу талабни қондириш учун суғурта бозорини ушбу талаб даражасида ривожлантириш зарурати юзага келмоқда.

Суғурта ижтимоий ишлаб чиқаришни турли хил хавф-хатарлардан ҳимоялаш билан давлатнинг иқтисодий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади, шу билан бирга суғурта бозор муносабатларининг салбий таъсиридан моддий жиҳатдан танг аҳволга тушган кишиларни ижтимоий ҳимоялашда жамиятнинг муҳим тармоғи сифатида шаклланади.

XIX-XXI асрлар оралиғида суғурта ва ҳаёт суғуртасининг иқтисодий моҳияти тўғрисидаги дунё олимларининг қарашларига асосланган ҳолда биз суғуртанинг шаклланиши ва ривожланиши тўғрисидаги илмий қарашларни даврларга бўлдик.

Даврларга бўлиш қуйидаги белгилар асосида амалга оширилди:

1.Маълум даврларга мос келувчи ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг хусусиятларидан келиб чиқиб.

2.Суғурта ва ҳаёт суғуртасининг маълум даврларда давлат ва жамият учун қандай мақсадларда хизмат қилишидан келиб чиқиб.

Бизнинг фикримизча юқорида келтирилган белгилар суғурта назариясининг шаклланиши ва ривожланишининг ҳар бир босқичида суғурта ва ҳаёт суғуртасининг моҳияти ва иқтисодий хусусиятини белгилаб беради.

Суғуртанинг ажралмас ва муҳим тармоқларидан бири бўлган ҳаёт суғуртасининг ривожига ҳам алоҳида эътибор қаратилиб, ушбу соҳанинг ривожланишини кўзда тутувчи имтиёзлар яратилди.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4412 қарорига мувофиқ узоқ муддатли ҳаёт суғуртасига оид суғурта мукофотлар бўйича солиқ имтиёзлари белгилаб берилди[1]

Натижада бугунги кунда ҳаёт суғуртаси ва хусусан жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси бўйича ўсиш даражаси юқори кўрсаткичлар билан давом этмоқда.

Жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси мамлакат иқтисодиёти учун ҳам, аҳоли учун ҳам муҳим роль ўйнайди, чунки ушбу суғурта воситасида фуқароларнинг ҳаётида, оиласида ва иш фаолиятида табиий ва бошқа стихияли ҳодисалар натижасида уларга етказиладиган моддий зарарлар ўз вақтида қоплаб берилади. Ҳаёт суғуртасини амалга оширувчи суғурта ташкилотлари жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртасини амалга ошириш билан иқтисодиётнинг қон томири бўлган катта ҳажмдаги узоқ муддатли инвестицион маблағларнинг тўпланишини таъминлаб беради. Бу эса суғурта компанияларига шундай имкониятни юзага келтирадики, натижада улар тадбиркорлик субъектлари учун узоқ муддат давомида

[1] www.lex.uz Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг расмий сайти маълумотлари асосида

фойдаланишлари мумкин бўладиган кредит маблағларини тақдим этиб, банклар билан рақобатлаша олиш имкониятига эга бўладилар.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси билан шуғулланувчи суғурта ташкилотларининг фаолиятини ўрганиш, ушбу фаолият билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш ва мазкур йўналиш ривожланган мамлакатларнинг тажрибаларига таянган ҳолда, қуйидаги вазифаларни амалга ошириш зарур:

-жисмоний шахслар ҳаётини жамғариб бориладиган суғурта орқали суғурталашни ташкил этиш ва амалга оширишнинг назарий асосларини таҳлил қилиш, ушбу суғурта турининг моҳияти ва амалга ошириш принципларига аниқлик киритиш;

-Ўзбекистонда жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртасининг ҳозирги ҳолатини ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали унга баҳо бериш, ушбу суғурта турининг ривожланишига тўсиқ бўлаётган ҳолатларни аниқлаш;

-мазкур суғурта турининг чет мамлакатлардаги ҳолати ва шарт-шароитларини ўрганган ҳолда мамлакатимизда уни ривожлантириш йўлларини белгилаш;

-жисмоний шахсларнинг ҳаётини жамғариб бориладиган суғурта орқали суғурталаш билан боғлиқ рискларни комплекс баҳолаш бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиқиш;

- жисмоний шахсларнинг ҳаётини жамғариб бориладиган суғурта орқали суғурталашга бўлган уларнинг талабларини ошириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқиш муҳим бўлиб саналади

B.N. Nosirov– Muhammad al –Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali
Dasturiy injiniring kafedrasi katta o‘qituvchisi

INVESTITSIYA MABLAG‘LARINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNNG AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada investitsiya fondlarining samaradorligini aniqlash va rivojlantirishning ekonometrik modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotchilar ishlab chiqarish va xizmatlarga sarmoya kiritadigan investorlar investitsiya fondlarining samaradorligini aniqlash va rivojlantirishlari uchun foydalanish mumkin bo‘lgan modellarni taklif etganlar.

Kalit so‘zlar: Ekonometrik model, ekonometrik usullar, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, makroiqtisodiy indikatorlar, investor, investitsiyaning samaradorligi, investitsiya loyihalari, raqamli iqtisodiyot, aloqa va axborot xizmatlari, xizmatlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы эконометрического моделирования определения и развития эффективности инвестиционных фондов. Исследователи также предложили модели, которые инвесторы,

инвестирующие в производство и услуги, могут использовать для определения и повышения эффективности инвестиционных фондов.

Abstract: The article deals with the issues of econometric modeling for determining and developing the effectiveness of investment funds. The researchers also proposed models that investors investing in manufacturing and services can use to identify and improve the performance of investment funds.

Ключевые слова: Эконометрическая модель, эконометрические методы, сферы услуг, макроэкономические показатели, инвестор, эффективность инвестиций, инвестиционные проекты, цифровая экономика, услуги связи и информации, услуги.

Keywords: Econometric model, econometric methods, services, macroeconomic indicators, investor, investment efficiency, investment projects, digital economy, communication and information services, services.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida roʻy berayotgan jiddiy tarkibiy oʻzgarishlar tashqi iqtisodiy koʻrsatkichlarda oʻzining aniq ifodasini topmoqda. Bunday iqtisodiy oʻsishga erishishda, avvalambor, keng koʻlamli tizimli bozor islohotlarini joriy etish va xorijiy investisiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilganligi katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida oʻzgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilgʻab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan foydalanish yordamida makroiqtisodiy indikatorlarni prognozlash, koʻp variantli yechimlardan muqobil yechimni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish, keyinchalik, bu qarorlar bajarilishini kompyuter orqali monitoring qilish masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini oʻrganishda ekonometrik modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot barcha soha va tarmoqlarda samarali faoliyat olib borishni taqozo etadi. Maʼlumki inson ehtiyojlari uchun maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish jarayoni maʼlum harajatlar evaziga amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatishga sarmoya koʻrsatayotgan sarmoyador (investor) oʻz mablagʻlaridan yanada samarali foydalanishga harakat qiladi. Sarmoyalar turli koʻrinishda boʻlib, daromad olish maqsadida va ijtimoiy samaraga erishish uchun yoʻnaltirilgan pul mablagʻlari, maqsadli bank qoʻyilmalari, aktsiyalar, boshqa qimmatli qogʻozlar, texnologiya, mashina va jixozlar, litsenziyalar, shuningdek tovar belgilari, kreditlar, boshqa shu singari iqtisodiy boyliklar yoki intelektual qiymatga ega boʻlgan moddiy va maʼnaviy koʻrinishda boʻladi.

Bu koʻrinishdagi investitsiyani ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatishga jalb etayotgan investor oʻz sarmoyasini iqtisodiy tahlil qilib borish uchun quyidagi hisob ishlarini amalga oshirishi kerak boʻladi.

Sof diskontirlangan daromad yoki investitsiyaning samaradorligi. Bunda

hisobot davrida olingan joriy samara summasini aniqlash zarur bo‘ladi.
Buning uchun:

$$\boldsymbol{SDD = \sum_{t}^{T} (R_j - X_j) \cdot \frac{1}{1+E}}$$

Bunda $\boldsymbol{SDD}$ – sof diskontirlangan daromad, so‘m.

$\boldsymbol{R_j}$ – t vaqt ichida olingan moliyaviy natija, daromad, so‘m.

$\boldsymbol{X_j}$ – t vaqt ichida sarflangan harajatlar, so‘m.

$\boldsymbol{T}$ – investitsiya loyihasini amalga oshirish hisob davri.

$\boldsymbol{E}$ – diskont normasi.

Investitsiya qo‘yilmalarni qoplash darajasi qabul qilingan diskont normasidan kam bo‘lmasa, demak investitsiya loyihalari samarali hisoblanadi.

Diskont normasi deganda kapitalning daromadlilik koeffitsenti tushuniladi va u quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\boldsymbol{Dn = \frac{\Delta Q}{\Delta K}}$$

Bunda: $\boldsymbol{Dn}$ – diskont normasi.

$\boldsymbol{\Delta Q}$ – daromad hajmi, so‘m.

$\boldsymbol{\Delta K}$ – kapital qo‘yilma, so‘m.

Kapitalning daromadlilik koeffitsenti normadan yuqori bo‘lgan taqdirda (ya’ni 1,0 dan yuqori bo‘lganda) investirlar o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishga sarf qiladilar.

Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda, joriy, bazis, jahon va kutilayotgan hisob baholaridan foydalaniladi.

Investitsiyani daromadlilik indeksi olingan samarani sarflangan investitsiya miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi va u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\boldsymbol{ID_i = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^{T} (R_t : X_t) \cdot \frac{1}{1+E}}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng bo‘lsa yoki undan katta bo‘lsa, investitsiya loyihalari samarali, agar birdan kam bo‘lsa samarasiz hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini samaradorligini belgilovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan yana biri bu mablag‘larning qoplanish muddati hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$\boldsymbol{J_{mud} = \frac{C}{D_{sch}}}$$

Bunda: $\boldsymbol{J_{mud}}$ – investitsiya mablag‘larini qoplanish muddati, yil, oy, kun.

$\boldsymbol{S}$ – sarflangan toza investitsiya miqdori, so‘m.

$\boldsymbol{D_{sch}}$ – loyihadan tushayotgan o‘rtacha yillik pul mablag‘lari tushumi, so‘m.

Amaliyotda investitsiyalardan olingan daromad quyidagi formula orqali topiladi.

$$R_u = \frac{M_n}{K} \cdot 100\%$$

Bunda: R_u – investitsiya daromadi, %

M_n – soliqlar to‘lashdan keyingi foyda, so‘m.

K – investitsiyani boshlang‘ich qiymati, so‘m.

Investitsiya loyhalarini samaradorligini aniqlashda pulning qiymatiga, inflyatsiya masalalariga jiddiy e’tibor berish zarur hisoblanadi.

O‘zbek xalqining “Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar” degan purma’no maqoli bor. Darhaqiqat har qanday sarmoyador puxta, hisob kitob va tahlil asosida o‘z sarmoyasidan maqsadli foydalansa, raqobat kurashida doimo qo‘li baland keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 2022 йил 27 январ. Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловаси «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси». Lex.uz.
3. Введение в «цифровую» экономику / подобщ. ред. А. В. Кешелава. М.: ВНИИ Геосистем,2017. 28 с.
4. Mukhitdinov Kh.S., Abdiraimov Sh. D., Nosirov B.N. Empirical models which were built for each sector of the service sector to the population of the region. Indiya 2020.- p.16116-16123
5. Mukhitdinov Kh.S., Nosirov B.N. Communication and information services to the population of the region. “Journal of Management Value & Ethics” Jan.-March. 2021 Vol. 11 No.01. SJIF 7.201 & GIF 0.626

D.Malikova – SamIES, assistant of the department of Banking

RISKS IN CONSULTING ACTIVITIES AND MANAGING THE RISKS OF CONSULTING PROJECTS

Abstract: The paper presents the risks associated with the provision of consulting services, risk management methods, proposals for reducing risks in consulting activities.

Keywords: consulting, risks, risk management, risk management methods, risk indicator system

Аннотация: Мақолада консалтинг хизматларини кўрсатиш билан боғлиқ таваккалчиликлар, таваккалчиликларни бошқариш усуллари, консалтинг фаолиятида таваккалчиликларни камайтириш борасида таклифлар келтирилган.

Калит сўзлар: консалтинг, таваккалчиликлар, риск-менежмент, риск-менежмент усуллари, риск-индикатор тизими

Аннотация: В статье представлены риски, связанные с оказанием консалтинговых услуг, методы управления рисками, предложения по снижению рисков в консалтинговой деятельности.

Ключевые слова: консалтинг, риски, риск-менеджмент, методы риск-менеджмента, система риск-индикаторов

In order to increase the share of the service sector in the country’s economy, to fully utilize the existing opportunities in the service sector in the regions, to solve urgent problematic issues related to expanding the types and

improving the quality of services in Uzbekistan, it is planned to expand the market for consulting services[1].

The range of tasks solved by consulting is very wide, moreover, the specialization of companies providing consulting services can be different: from narrow, limited to one direction of consulting services (for example, accounting services, audit), to the widest, covering the full range services in this area.

Consulting is a paid service in the form of information and advice that allows the client to improve the efficiency of its business.

Consulting activities are carried out by consulting service providers on a commercial basis. Strong competitive conditions place high demands on the quality and efficiency of consulting services and encourage the service to focus on the interests of the client.

No activity is without risk. And consulting is no exception. There are the following groups of risks inherent in consulting services:

- dissatisfied clients;
- data breaches;
- unpredictable markets;
- property damage or loss;
- employee issues.

Even with effective communication and clear agreements, unhappy clients are going to happen. Client dissatisfaction has plenty of potential roots in the consulting industry, such as:

- cost overruns;
- missed deadlines;
- miscommunication;
- misrepresentation;
- strategy or planning issues;
- financial limitations;
- failure to deliver on expectations.

Many consulting companies gain access to essential data to troubleshoot workflow or procedural issues. Naturally, there's a significant amount of shared information. Plus, most consulting firms store client data on their computers.

It's crucial to use the best cybersecurity practices by thoroughly reviewing the security protocol of any technology service provider.

A delicate balance exists between finding new clients and nurturing current ones. Monitoring the dynamics of new versus current clients is a tricky feat – but necessary.

Additionally, no one can predict a market's climate from one moment to the next. From late-paying clients to unplanned costs to irregular business, unpredictability is a genuine concern. Such is the nature of running a business.

[1] Order of the President of the Republic of Uzbekistan "О мерах по ускоренному развитию сферы услуг" (On measures for the accelerated development of the service sector) dated May 11, 2021 under registration number ПП-5113

Consulting companies also face property theft regarding their office space, supplies, inventory, equipment, and more. Damage to tangible assets could cause a massive pause in business operations, so consulting firms avoid these setbacks fervently.

Consulting service is the result of intellectual work. Consulting services is exceptionally vulnerable to human error and employee issues. In other words, this group of risks is due to the personal qualities of the company's personnel, such as lack of experience, professionalism, violation of standards of professional behavior and ethics.

One of the most difficult areas, like any business, also in consulting companies is associated with risk management. The inability to assess potential risks and offer effective ways to overcome them reduces the competitiveness of any business. But it should be noted that the risk is an additional chance of profit. It is the optimal combination of risk and return that is the main goal of risk management. The risk management process includes the identification, analysis of risks and decision-making aimed at reducing the likelihood of risks and minimizing losses. Commonly used basic risk management methods include the following:

- risk aversion;
- risk reduction;
- risk transfer;
- risk acceptance.

The choice of a specific method of risk management is carried out depending on the specific situation.

Due to the fact that at the present stage more attention is paid to the risk management process, a number of generally recognized standards and approaches to risk management have been developed in world practice. One method of risk assessment and management can be considered a system of risk indicators.

Key risk indicators are indicators that allow predicting and evaluating the likelihood of a risk (risk event) occurring. The system of key risk indicators is a comprehensive monitoring tool that allows to get a complete picture of the operational risk profile.

In conclusion, it can be noted that in order to minimize the risks associated with the implementation of consulting activities, it is necessary to train employees to support identity management and handle access credentials correctly. Moreover, a consulting company must have proven problem-solving technology and the necessary skills in formulating an organizational diagnosis, strategic planning, using information systems, as well as methods of analyzing and forecasting the economic situation, diagnosing the general production situation, establishing contacts. For risk management, it would also be appropriate to use a system of risk indicators. Since when using a system of key risk indicators, risks are not simply identified or measured, an analysis of the consulting company's exposure to a specific risk in dynamics is carried out, which also makes it possible to identify the ineffectiveness of the applied controls and measures aimed at reducing risks.

Д.Абиев – СамИСИ, “Банк иши” кафедраси ассистенти

БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Аннотация. Замонавий бозор банк сектори турли инновацион маҳсулот ва хизматларини ишлаб чиқиш ва жорий этишни талаб қилади. Мақолада банк хизматларини такомиллаштиришда инновацияларнинг асосий жиҳатлари кўриб чиқилади ва Ўзбекистон банк секторидаги инновацияларни ривожлантиришнинг асосий замонавий тенденциялари ёритилган.

Калит сўзлар: Инновация, рақамли иқтисодиёт, инновацион маҳсулот, банк хизматлари, финтех

Аннотация. Современный рынок требует разработки и реализации различных продуктов и услуг банковской сферы. В статье рассматриваются основные аспекты внедрения инноваций в сфере совершенствования банковских услуг и выделяются основные современные тенденции развития инноваций в банковской сфере Узбекистана.

Ключевые слова: Инновации, цифровая экономика, инновационный продукт, банковские услуги, финтех.

Abstract. The modern market banking sector requires the development and introduction of various innovative products and services. The article discusses the main aspects of innovation in improving banking services and highlights the main current trends in the development of innovation in the banking sector of Uzbekistan.

Key words: Innovation, digital economy, innovative product, banking services, fintex.

Молия бозорида кучли рақобат шароитида муваффақиятли фаолият юритиш, давлат томонидан тартибга солувчи таъсирларга ва мамлакатдаги умумий иқтисодий вазиятга мослашиш учун тижорат банклари доимий равишда инновацион фаолият билан шуғулланишга мажбур бўлмоқда. Тижорат банкларида инновациялар тизимли жараён бўлиб, молиявий хизматлар соҳасини ривожлантириш ва молия бозорларини шакллантириш катализатори бўлиб ҳисобланади. Тижорат банклари аҳоли томонидан қўлланиладиган молиявий воситаларнинг хусусиятларини ўзгартириб, янги бозорлар яратмоқда. Инновациялардан мақсад банкнинг ўз капитали ва фойдасини кўпайтириш, янги бозорларга чиқиш, иқтисодиётнинг реал секторини самарали ривожлантириш учун молия соҳасида қулай шарт-шароитларни яратишдан иборат.

Шу муносабат билан тижорат банкларининг ресурслари ва функцияларини инновацион омилларга асосланган ҳолда бошқаришни ҳар томонлама такомиллаштириш алоҳида долзарб ва аҳамиятли ҳисобланади. Таърифланган ҳодисалар банк хизматлари бозори иштирокчиларининг сифат ва миқдорий таркибига сезиларли таъсир кўрсатади ва истеъмолчиларнинг хатти-ҳаракатларида асосий ўзгаришларга, шу тариқа банкларга ўрта муддатли истиқболда банк секторини ривожлантириш

стратегиясини белгилаб берувчи инновацияларни жорий этиш орқали ўз рақобатдош устунликларини сақлаб қолиш ва оширишнинг ягона имкониятини қолдиришга олиб келади[1].

Инновациялар банк секторида барқарорлик ва рақобатбардошликнинг асосий омили сифатида И.В.Бархатов [2], М.Березовская [3], В.С.Викулов [4], Л.В.Кох, Е.Н.Смольянинова, В.С. Просалова [5], А.В. Муравьев [6] ва бошқалар ўз илмий асарларида кўриб чиқишган. Бироқ, банк инновацияларининг моҳиятини аниқлаш ва уларни таснифлаш, шунингдек, банк соҳасида инновацион ривожланиш тенденцияларини ўрганиш кўпроқ эътиборни талаб қилади, бу эса ушбу мақоланинг асосий мақсадини белгилайди.

Банк инновацияси – бу инновацион жараённинг натижаси, яъни банкнинг инновацион ривожланиш стратегияси доирасидаги изчил ҳаракатлар ва ҳодисалар занжири. Инновацион сиёсатни олиб бориш ва унинг натижасида банк инновацияларини яратиш маълум бир ижобий иқтисодий ёки стратегик самарага эришишга қаратилган бўлиб, улар қуйидагиларни ўз ичига олади: банкнинг молиявий даромадларини ошириш, янги мижозларни жалб қилиш, банкнинг бозордаги улушини кенгайтириш, кредит муассасаси харажатларини камайтириш ва бошқалар. Қонун ва меъёрий ҳужжатлар, турли ташкилотлар, ўзаро муносабатларнинг расмийлаштирилган ва расмийлаштирилмаган схемалари каби турли шаклларда амалга оширилаётган банк тизимининг институционал тузилиши ўзгарувчан, доимий равишда ўзгартирилиб, янгиланиб туради. Шунинг учун ҳам банк тизими иқтисодиётнинг янги технологиялардан энг фаол фойдаланиладиган тармоқларидан биридир. Бир томондан, банк тизими ривожланаётган янги рақамли технологияларни қўлласа, иккинчи томондан, у бундай инновацияларнинг ташаббускори ҳисобланади.

Банк инновацияларини ривожлантириш, жаҳон банк амалиётида мижозларнинг муайян эҳтиёжларини қондириш учун тегишли маҳсулот гуруҳининг ривожланиш йўналишига қараб банк инновацияларининг қуйидаги гуруҳларини ажратиб кўрсатиш одатий ҳолдир:

1. Бозорнинг ноанъанавий сегментларида инновациялар (суғурта биз-неси, молиявий лизинг, кўчмас мулкка инвестициялар, траст

[1] Roberts P.W. The Dynamics of Innovative Activity and Competitive Advantage: The Case of Australian Retail Banking, 1981 to 1995 / P.W. Roberts, R. Amit // Organization Science. – 2003. – Vol. 14, No 2. – P. 107-122.
[2] Бархатов И.В. Особенности инновационных банковских услуг / И.В. Бархатов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – No 34. – С. 130-135
[3] Березовская М. Инновационный аспект экономического развития / М. Березовская // Вопросы экономики. – 1997. – No 3. – С. 58-66
[4] Викулов В.С. Концептуальный подход к разработке инновационныих стратегий коммерческого банка / В.С. Викулов // Финансовый менеджмент. – 2010. – No 5. – С. 106.
[5] Кох Л.В. Инновации в банковском бизнесе / Л.В. Кох, Е.Н. Смольянинова, В.С. Просалова. // СПб.: Изд-во Политехн. ун-та. – 2009. – 49 с. Кох Л.В. Эффективность инновационной деятельности банка: теория и методология. монография / Л.В. Кох // СПб.: Изд-во Политехн. ун-та. – 2008. – 24 с.
[6] Муравьева А.В. Банковские инновации: мировой опыт и российская практика : дис. ...канд. экон. наук / А.В. Муравьева, 2005. – С. 12

операциялари);

2. Пул ва молия бозоридаги инновациялар (ҳосилавий молиявий воситалар бозори);

3. Кредит капитали бозорининг анъанавий сегментларида инновациялар (молиявий воситачилик самарадорлигини ошириш, депозит сертификатлари, ўзгарувчан фоизли облигациялар ва бошқалар).

Ўзбекистонда банклар лизинг, суғурта ва инвестиция фаолиятида ривожлана бошладилар, қимматбаҳо металлар ва ҳосилавий молиявий воситалар бозорларига кириб, алоҳида фаолият турларини алоҳида йўналишларга ажратдилар. Шу билан бирга, Ўзбекистон ва ривожланган давлатлар банклари маҳсулот ва хизматларни яратиш технологияларини модернизация қилиш, уларнинг таннархини пасайтириш ва рақобатдош устунликларини мустаҳкамлашни мақсад қилганлар. Ушбу икки жараённинг суперпозицияси - янги маҳсулот қаторини яратиш ва янги бозорларга чиқиш, технологик ва ресурс компонентларини такомиллаштириш тенденцияси билан бирга - ҳозирги ўзгариш ва янги банк стратегиясининг шаклланишини англатади. Шунингдек, банклар томонидан корпоратив мижозларга хизмат кўрсатишда инновацияларни жорий қилиш контекстида корпоратив мижозлар учун инновацион банк хизматлари моделидан фойдаланиш корпоратив мижозларга хизмат кўрсатишда инновацияларни яратиш ва ривожлантириш соҳасида муайян банк стратегияларидан фойдаланиш истиқболларини баҳолаш имконини беради. Ушбу модел бир-бирига боғланган бир нечта блоклардан иборат. Тизим талаблари доирасида маълум банк стратегиясини ишлаб чиқиш йўналишини ҳисобга олган ҳолда банкнинг инновациялар соҳасидаги стратегик талаблари шакллантирилади. Аналитик блок корпоратив мижозларга хизмат кўрсатишда банк инновацияларининг ривожланиш кўрсаткичларини таснифлаш ва уларни баҳолаш имконини беради. Иқтисодий блок эса банк фаолиятини ва корпоратив мижозларга хизмат кўрсатиш соҳасидаги инновацияларни ривожлантириш истиқболларини тавсифлаш имконини беради. Олинган натижаларнинг сифати 2 дан 5 гача бўлган мезонлар бўйича баҳоланади. Таҳлил натижаларига кўра корпоратив мижозларга хизмат кўрсатишда банк инновацияларини ривожлантиришнинг маълум босқичида маълум бир банк стратегиясидан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш мумкин.

Шундай қилиб, глобаллашув ва жаҳон молия тизимида интеграция жараёнларининг ривожланиши шароитида тижорат банкларининг рақобатбардошлигини оширишнинг энг муҳим омилларидан бири таркибий элементлар сифатида, инновациялар, энг янги банк ахборот-компьютер технологиялари ва ечимларини кенг жорий этиш ва улардан фойдаланиш йўлга қўйилган. Шу боис замонавий шароитда бизнес-жараёнларни, ҳужжат айланишини бошқаришнинг илғор ахборот технологияларини, шунингдек, қарорлар қабул қилишнинг интеллектуал автоматлаштирилган тизимларини жорий этиш зарур. Хатарларни

бошқаришнинг сўнгги интеграциялашган тизимларини ўз вақтида жорий қилган банклар мижозларни яхшироқ ушлаб туриш, айланма маблағларни тежаш ва яхшиланган кредит рейтинглари орқали камроқ истиқболли рақобатчиларга нисбатан капиталнинг паст нархига эришишлари мумкин.

Бу каби масалалар бир томондан, янги ахборот технологияларининг ривожланиши банк бизнеси учун молиявий ташкилот самарадорлигини сезиларли даражада ошириши ва мижозларга кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириши мумкин бўлган инновацион ечимларни таклиф этади, иккинчи томондан эса таклиф этилаётган банк маҳсулотлари ва хизматлари мажмуида маълум инновацияларнинг пайдо бўлишини рағбатлантиради. Шу билан бирга, банк секторининг жадал ривожланиши иқтисодиётнинг бошқа тармоқларида ҳам ахборот ривожланишининг жадаллашувига олиб келади, чунки IT-компаниялар молия институтларининг инновацион ечимларга бўлган доимий ортиб бораётган талабини қондиришга ҳаракат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Roberts P.W. The Dynamics of Innovative Activity and Competitive Advantage: The Case of Australian Retail Banking, 1981 to 1995 / P.W. Roberts, R. Amit // Organization Science. – 2003. – Vol. 14, No 2. – P. 107-122
2. Бархатов И.В. Особенности инновационных банковских услуг / И.В. Бархатов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – No 34. – С. 130-135
3. Березовская М. Инновационный аспект экономического развития / М. Березовская // Вопросы экономики. – 1997. – No 3. – С. 58-66
4. Викулов В.С. Концептуальный подход к разработке инновационныих стратегий коммерческого банка / В.С. Викулов // Финансовый менеджмент. – 2010. – No 5. – С. 106.
5. Кох Л.В. Инновации в банковском бизнесе / Л.В. Кох, Е.Н. Смольянинова, В.С. Просалова. // СПб.: Изд-во Политехн. ун-та. – 2009. – 49 с. Кох Л.В. Эффективность инновационной деятельности банка: теория и методология. монография / Л.В. Кох // СПб.: Изд-во Политехн. ун-та. – 2008. – 24 с
6. Муравьева А.В. Банковские инновации: мировой опыт и российская практика : дис. ...канд. экон. наук / А.В. Муравьева, 2005. – С. 12

Н.Х.Рузибаева – СамИСИ катта ўқитувчиси

“ЯШИЛ” БАНК ХИЗМАТЛАРИ – РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРИ

Аннотация. Мақолада “яшил” банк тушунчасининг аҳамияти, рақамли иқтисодиёт шароитида “яшил” банкни яратиш афзалликлари кўриб чиқилади. Тадқиқотда яшил молия воситалари, шунингдек, яшил банк соҳасида халқаро ва миллий ташаббуслар ўрганилган. Яшил банкнинг асосий элементлари кўриб чиқилиб, уни янада ривожлантириш бўйича тавсиялар таклиф этилади.

Калит сўзлар: яшил банк, яшил облигация, рақамли иқтисодиёт, яшил кредит, яшил молиялаштириш.

Аннотация. В статье рассматривается важность понятия «зеленый» банк, преимущества создания «зеленого» банка в условиях цифровой экономики. В исследовании рассматриваются зеленые финансовые инструменты, а также международные и национальные инициативы в области зеленого банкинга. Будут рассмотрены основные элементы зеленого банка и предложены рекомендации по его дальнейшему развитию.

Ключевые слова: зеленый банкинг, зеленые облигации, цифровая экономика, зеленый кредит, зеленые финансы.

Abstract. The article discusses the importance of the concept of a "green" bank, the benefits of creating a "green" bank in a digital economy. The study examines green financial instruments as well as international and national green banking initiatives. The main elements of a green bank will be considered and recommendations for its further development will be proposed.

Keywords: green banking, green bonds, digital economy, green credit, green finance.

Барқарорлик ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ҳозирда бутун дунёда инсоният томонидан унга етказилган ҳалокатли таъсирларни бартараф этиш учун экстремал чораларни қайта белгилаш сифатида эътироф этилмоқда. Ҳозирги вақтда глобал исиш ва иқлим ўзгаришига таъсир қилиши мумкин бўлган ривожланишнинг салбий оқибатларига қарши курашиш учун турли глобал ташаббуслар амалга оширилмоқда.

Президентнинг 2019-йил 4-октябрдаги “2019-2030-йилларда Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтиш бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорига асосан ушбу йилларга мўлжалланган ҳукумат стратегияси ишлаб чиқилди. Унда “яшил” инвестицияларни, хусусан, “яшил” кредитлашни қўллаб-қувватлаш, “яшил” иқтисодиётга ўтиш бўйича лойиҳаларни молиялаштиришда хусусий секторни фаоллаштириш, шунингдек, банк тизимини “яшил” инвестицияларга рағбатлантириш масалалари белгилаб берилган. “O‘zsanoatqurilishbank” тизимида Жаҳон банки билан биргаликда кредитлаш операциялари ушбу механизм асосида амалга оширилмоқда. Халқаро молия корпорацияси ва Европа тикланиш ва тараққиёт банки

маслаҳатчилари кўмагида банк томонидан 2018-йилгача ишлаб чиқилган трансформация дастурида “Green banking” ҳам алоҳида ўрин тутади. Ҳозиргача банк 3 босқичда жами 91 млн. долларлик 20 та яшил лойиҳани молиялаштирди[1]. Банклар ва молия институтлари сайёрамизни яшаш учун яхшироқ жойга айлантиришга қаратилган ушбу глобал саъй-ҳаракатларда муҳим ва ҳал қилувчи рол ўйнаши мумкин. Молиявий провайдер сифатида банклар корхоналарнинг атроф-муҳитга зарар этказувчи амалиётларни қўллашини таъминлаши мумкин. Яшил технологияларни ўзлаштириш учун арзонроқ маблағларни тақдим этиш орқали рағбатлантириш атроф-муҳитга узоқ муддатли ижобий таъсир кўрсатади. Йирик технология ишлаб чиқувчилари сифатида банкларнинг ўзлари яшил амалиётларни қабул қилишлари ва шу тариқа ушбу глобал ташаббусга раҳбарлик қилишлари мумкин.

“Яшил” банк – бу молиявий институт бўлиб, одатда давлат ёки квазидавлат бўлиб, у тоза энергия технологияларини жорий этишни жадаллаштириш учун хусусий сектор билан ҳамкорликда инновацион молиялаштириш усуллари ва бозорни ривожлантириш воситаларидан фойдаланади. “Яшил” банклар давлат маблағларидан тоза энергия технологияларига хусусий сармояларни жалб қилиш учун фойдалан-моқдалар, улар тижорат имкониятларига қарамай, истеъмол бозорларида кенг иштирок этиш учун курашмоқда.

Хорижлик иқтисодчи олим Raad Mozib Lalon[2]нинг фикрига кўра, “яшил” банк – бу мамлакат ва миллат атроф-муҳитга фойда келтирадиган банк фаолиятининг ҳар қандай шакли. Анъанавий банк ўз фаолиятини атроф-муҳитни яхшилашга йўналтириш орқали "яшил" банкка айланади. “Яшил” банкинг, шунингдек, иқтисодий ривожланиш ва атроф-муҳитга таъсирни таъминлайдиган инклюзив банк стратегияларини ишлаб чиқишни ўз ичига олади.

Broto Rauth Bhardwaj ва Aarushi Malhotra[3]лар эса “яшил” банк иши – углерод изини сезиларли даражада камайишига олиб келадиган, шунингдек, банк бизнесининг барқарор ривожланишига ҳисса қўшадиган технологиялар, жараёнлар ва маҳсулотларни жорий этишга асосланган банкнинг инновацион стратегияси.

Mark G. Dotzour, Sunshine Manning[4]лар эса “яшил” банк - бу инсон атроф-муҳитига салбий таъсирларни юмшатиш учун имкониятлар яратадиган ва хусусий секторга экологик фаолиятдан иқтисодий манфаат-дор бўлишга имкон берувчи банк моделидир, деб таъкидлаб ўтишган.

Сўнгги ўн йилликдаги тадқиқотларда "яшил" банк нафақат давлат,

[1] https://www.sqb.uz/press-center/news-ru/uzpromstroybank-podderzhivaet-zelenuyu-ekonomiku-v-uzbekistane/
[2] Lalon R.M. (2015). Green Banking: Going Green. *International Journal of Economics, Finance and Management Sciences,* Vol. 3, Issue 1, 34–42
[3] Bhardwaj B.R., Malhotra A. Green banking strategies: sustainability through corporate entrepreneurship // Greener Journal of Business and Management Studies. 2013. Vol. 3, Is. 4. P. 180–193
[4] Dotzour M.G., Manning S. Environmental banking. A reprint from Tierra Grande, the Real Estate Center Journal, April. 2002

балки тижорат молия институти сифатида, “яшил” иқтисодиёт воситаларидан бири сифатида фаолият юритиб, экологик барқарор ва ижтимоий масъулиятли инвестицияларни рағбатлантириш, экологик лойиҳаларни молиялаштириш орқали тадбиркорларни экологик тоза ишлаб чиқаришга жалб этишни таъминлаш ҳам кўриб чиқилди. Яшил молиялаштириш инструментлари бўлиб мижозлар билан қоғозсиз ишлаш – online банк, экологик/“яшил” облигациялар, “яшил” инвестиция ҳисоблари ва “яшил” инвестиция портфеъли, “яшил” кредитлаш/ипотека ва махсус банк карталари ҳисобланади.

Бугунги кунда "яшил" банкни ривожлантириш учун қуйидаги йўналишларни атрофлича ўрганиб чиқиш муҳим ҳисобланади:

1. Корпоратив кредитлаш тизимида ижтимоий ва экологик тамойилларни амалга ошириш;
2. "Яшил" қимматли қоғозлар бозоридаги операциялар;
3. "Яшил" карта маҳсулотлари. Технологик инновациялар, мобил иловалар ва пластик карталарнинг кенгайиши, “яшил” карта маҳсулотлари сегментини ривожлантиришни фаоллаштиради.
4. Экологик тоза ва кўнгилли хайрия. Бундай лойиҳаларга молиявий инвестициялар замонавий банкнинг рақобатбардошлигини шакллантирадиган имиджини яхшилашга имкон беради.
5. Атроф-муҳит маркетинги банк маҳсулотларини илгари суриш бўйича чора-тадбирлар тизимининг муҳим бўғини бўлишини ваъда қилади ва фуқароларнинг экологик хулқ-атвори тамойилларини мустаҳкамлашга ёрдам беради.
6. Банк ичидаги жараёнлар экотизимини яхшилаш.

"Яшил" банк фаолиятини ривожлантиришнинг санаб ўтилган йўналишларига қўшимча равишда экологик лойиҳаларга йўналтирилган банкларни қонунчилик билан қўллаб-қувватлаш талаб этилади. “Яшил” банк иштирокчилари истиқболлари асосан экотизимга зарарли таъсирни камайтириш, ташкилотнинг ижтимоий аҳамияти ва рейтингини ошириш, рақобатчилар орасида кучли мавқеини таъминлаш, ташкилотнинг иқтисодий самарадорлиги ва бошқалардан иборат бўлади. Жаҳон амалиётида экологик йўналтирилган молиялаштириш кўламини ва “яшил” банк маҳсулотлари учун “тренд”нинг пайдо бўлишини кузатар эканмиз, “яшил” банк фаолиятини янада ривожлантириш тенденцияси сифатида тасаввур қилиш мумкин.

Ҳозирги вақтда тижорат банклари пул бозори операциялари, лойиҳаларни молиялаштириш, суғурта бизнеси, лизинг операциялари, ипотека, қимматли қоғозлар савдоси, устувор тармоқларни молиялаштириш ва молиявий маслаҳатлар билан шуғулланади. Бир неча йил аввал кўпчилик банклар ўз фаолиятига тааллуқли бўлган ижтимоий ва экологик муаммоларни ҳисобга олмаган – бу уларнинг барқарор ривожланишининг асосий омили ҳисобланади.

“Яшил” кредит – бу фақат мавжуд бўлган янги ёки мавжуд экологик

лойиҳаларни тўлиқ ёки қисман молиялаштириш ёки қайта молиялаштириш учун тақдим этиладиган ҳар қандай кредит воситасидир. “Яшил” кредит тармоқлар ўртасидаги боғловчи элемент, тоза ишлаб чиқаришга ва молиявий институтларга содиқ ҳисобланади. Қарз олувчининг тоифасига қараб, "яшил" кредитларнинг иккита асосий тури мавжуд: стратегик соҳалардаги ташкилотларга кредитлар ва бошқа ташкилотларга кредитлар. Кредитлаш механизмига кўра тўғридан-тўғри "яшил" кредитлаш ва "яшил" қайта кредитлаш фарқланади.

Тўғридан-тўғри “яшил” кредитлаш давлат банкларининг маблағларини тўғридан-тўғри “яшил” компанияларга катта миқдорда сўралган маблағлар билан таъминлаш орқали амалга оширилади. Тижорат банклари, шунингдек, қарз олувчиларнинг “яшил” лойиҳаларини банк томонидан молиялаштиришга бўлган талабга қараб, тўғридан-тўғри кредитлашни мустақил равишда амалга ошириши мумкин. Тўғридан-тўғри кредитлашда банклар кредит беришни ташкил қилади, унинг қайтарилишини ва қарз олувчи томонидан кредит шартномаси шартларини бажаришини назорат қилади. “Яшил” кредитлар жами банк кредит портфелининг сифатини яхшилайди, кредитор банкнинг кредит, обрў-эътибори ва ҳуқуқий рискларини камайтиришга, унинг имиджини яхшилашга, рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Bloomberg маълумотларига кўра, 2018 йилда "яшил" кредитлар ҳажми (кафилликлар ва аккредитивларни ҳисобга олган ҳолда) 99 млрд. доллардан ошди, 2019 йил охирида - камида 81 млрд. доллар[1] бўлган.

Банк ўз кредит сиёсатида қарз олувчилар учун жозибадор шарт-шароитларга эга "яшил" кредит маҳсулотларини тақдим этиши мумкин, бу орқали экологик тоза ва энергия тежовчи саноат ва корхоналарни яратиш ва ривожлантиришни рағбатлантириш, ижтимоий ишлаб чиқариш таркибининг ўзгаришига таъсир кўрсатиши мумкин. Шу билан бирга, банклар атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ёки энергия тежаш қоидалари ва қонунларини бузган корхоналарни кредитлашни тўхтатиш, атроф-муҳитга ижобий таъсир кўрсатмайдиган лойиҳаларни кредитлашдан бош тортиш, шу билан қарз олувчиларнинг экологик хавфларни қабул қилишини назорат қилиш орқали "жазолаши" мумкин.

Яшил молия соҳасида методологик базани ишлаб чиқиш, шу жумладан, амалдаги давлат тузилмалари ўртасида ваколатларни тақсимлаш ёки ушбу жараённи тартибга солувчи янги институтларни яратиш. Экологик барқарор молиялаштириш соҳасида халқаро ҳамкорликни кенгайтириш, шу жумладан, бу борадаги халқаро ташаббусларга қўшилиш. Эҳтимол, вақт ўтиши билан ҳар бир банкнинг умумий инвестиция портфелидаги берилган "яшил" кредитлар улуши бўйича қўшимча стандартлар пайдо бўлади. Шунингдек мамлакатимизда “яшил” иқтисодиётга ўтиш бўйича лойиҳаларни молиялаштиришда хусусий секторни фаоллаштириш, шунингдек, “яшил” инвестицияларга нисбатан банк тизимини рағбатлантириш жуда муҳимдир.

[1] Sustainable Finance. The rise of green loans and sustainability linked lending (2019). URL: https://lpscdn.linklaters.com/-/media/files/thoughtleadership/green finance/sustainable_finance_green_and_sustainability_linked_lending_linklaters.ashx?rev=86ebcb26-c283–4e5b-be26-b065f08cc27e&extension=pdf&hash=CA71D33707F9F4DFA52FD53B02F56065

Шерзод Ниёзов – МДМ-120 гуруҳ магистри, СамИСИ
П. Усмонов – илмий раҳбар: асс. Усмонов П. СамИСИ

ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАЛАРИ ЖАЛБ ЭТИШ КЎЛЛАМИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада инвестиция муҳитини яратиш мақсадида амалга оширилиши зарур бўлган масалалардан бири у ҳам бўлса инвестицияларни молиялаштириш манбалари ёритилган, инвестиция ҳажмини оширишга хизмат қилишга қаратилган толлинг ва ундан кенг фойдаланиш зарурятлари кўрсатиб ўтилган.

Таянч иборалар: молиявий манба, фойда, молиявий имконят, марказлаштирилган инвестициялар, бюджетлараро инвестиция.

Аннотация: В данной статье освещен один из вопросов, который необходимо решить в целях изучения инвестиционного климата, а именно источники финансирования инвестиций, необходимость толлинга и его широкое использование, применяемое для увеличения инвестиций.

Ключевые слова: финансовый ресурс, прибыль, финансовая возможность, централизованное инвестирование, межбюджетное инвестирование.

Abstract: This article highlights one of the issues that need to be addressed in order to study the investment climate, namely the sources of investment financing, the need for tolling and its widespread use to increase investment.

Key words: financial resource, profit, financial opportunity, centralized investment, intergovernmental investment.

Инвестицияни молиялаштириш манбаларини шакллантириш ва бошқа активларни инвестиция ресурсларига амалга ошириш долзарб бўлиб ҳисобланади. Амалиётда молиявий ресурслартакрор ишлаб чиқаришдан олиниб, кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришга йўналтирилади.

Ҳозирда инвестицияларни молиялаштиришни, асосий манбаларидан бири фойда бўлиб ҳисобланади. Амортизация ажратмаларидан фарқли ўлароқ, фойда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш харажатларини қоплаган ҳолда, иқтисодиётга қўшимча молиявий оқим кириб келишини таъминлайди. Фойда бошқа пул оқимлари билан ўрин алишмайди.Фойданинг бир қисми ишлаб чиқаришга қаратилган инвестицияларга йўналтирилади. Бундай қарор қабул қилиш корхонанинг ривожланиш истиқболи ва молиявий имкониятини аниклаб беради.

Инвестицияларни молиялаштириш ҳажми акцияларга қўйилган қўйилмалар ҳисобига ҳам амалга оширилиши ушбу манба афзалликларга ҳам эгадир (чизма 1- қаралсин).

Айтиш жоизки молиялаштириш ҳажмининг ўсишига таъсир этувчи манбаларидан яна бири Толлингни ривожлантириш билан боғликдир. Толлинг шароитида ишловчи ходимлар иш ҳақини олади, корхонанинг ишлаб чиқариш ва хўжалик фаолиятини ташкил этишда иштирок этади ҳамда молиявий натижадан манфаатдор бўлишади. Айланма

маблагларнинг умуман йўқлиги ёки етишмаслиги шароитида толлингдан фойдаланиш – корхоналарни хом ашё сотиб олиш ва уларни қайта ишлаш учун ўз жамгармаларини жалб қилишига имкон яратади. Бу эса, турли соҳалардаги бир қатор корхоналарни иқтисодий тақчилликдан олиб чиқишга ва айланма маблагларни ташқи кредит манбалари орқали тўлдиришдаги боглиқликни камайтиради.



Инвестицияларни молиялаштириш ҳажми марказлаштирилган маблағлар ҳисобига ҳам таъминланиши учун имкониятлар мавжуд. Ушбу маблағлар республика маҳаллий бюджет, бюджетдан ташқари фондларнинг маблағлари ва ҳукумат кафолати остида жалб қилинган хорижий инвестицияларни киритиш орқали ташкил этилиши алоҳида аҳамият касб этади. Республикамизнинг 2022 йил учун инвестицияга марказлаштирилган инвестицияларнинг салмоғи жами инвестицияларнинг салмоғи жами инвестицияларда 38 фоизни ташкил этиши режалаштирилган бўлиб, 2020 йилда бу кўрсаткич 21 фоизни ташкил этган. Демак, замонавий инвестиция сиёсатида марказлаштирилган инвестицияларнинг улушини қисқартириш ва корхоналарнинг шахсий маблағлари, аҳолининг бўш маблағлари ва бевосита чет эл инвестицияларни жалб қилишни кўпайтириш масаласи асосий масалаларда ҳисобланади.

Республика ва маҳаллий бюджетлараро инвестицион жараёнлар амалга ошишини ҳам таъминлаш мумкин.

Республика бюджетига бир тарафдан ягона иқтисодий юксалишни сақлашга қаратилган ва умумбашарий манфаатдан келиб чиқувчи истиқболли инвестицион дастурларни таъминлаш, шунингдек,

макроиқтисодий тизим барқарорлигини шакллантириш шартларидан бири сифатида халқ хўжалигини баланслаштиришга эришишни таъминлаш лозим. Бошқа томондан эса, марказнинг асосий функцияси, бюджет, солиқ воситаси орқали қуйи бўғинларга таъсир этиш ва нафақат инвестиция фаолиятини мувофиқлаштириш, балки инвестиция талабини ошириш учун қулай инвестиция муҳитини яратиш ва мавжуд шароитни яхшилашга қаратилган бўлиши зарур.

Инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш манбалари кенгайтиришда қуйидаги тавсиялардан фойдаланиш муҳим деб ҳисоблаймиз: Ҳудудларда янги ташкил этилаётган корхоналарга берилаётган имтиёзлар ва субсидиялар ўрнига корхона уставига махаллий ҳокимият улуши сифатида шакллантиришнинг қонуний мезонларни ишлаб чиқиш.

Инвестиция инфратузилмасининг етарлича ривожланмаганлиги – банкларнинг ОТБ, ХРА, ЕТТБ каби халқаро молия институтларнинг йўналишларидаги 5-7%лик ставкасини сақлаган ҳолда фақат йирик лойиҳаларга эмас, ўрта, кичик бизнес ва истемол кредитлари портфелларини шакллантириш лозим. Шунингдек инвестиция фондлари, суғурта ва лизинг компаниялари фаолиятини ҳам рағбатлантириш ва инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда уларнинг иштирокини самарали йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир.

А.А.Аблаизов –СамИСИ, “Иқтисодиёт назарияси” кафедраси ўқитувчиси

ЭКОТУРИЗМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕЪЁРЛАРИ ВА ДАВЛАТИМИЗНИНГ СИЁСАТИ

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда экотуризмни ташкил қилиш ва ривожланти ришга асос бўлувчи ҳуқуқий меъёрлар ва давлатимизнинг сиёсати бўйича расмий ҳужжатлар келтирилган.

Аннотация: В статье приведены официальные документы по правовые норматив ные акты и политика Узбекистана основывающее в организации и развития экотуризма.

Abstract: The article presents official documents on legal regulations and policies of Uzbekistan, which are based on the organization and development of ecotourism.

Калит сўзлар: этап, модел, экологик билим, экологик маданият, экологик бошқарув, экологик муаммолар.

Ключевые слова: этап, модел, экологическая знания, экологическая культура, экологическое управление, экологические прблемы.

Keywords: stage, model, ecological knowledge, ecological culture, ecological management, ecological problems.

Ўзбекистонда экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ҳуқуқий меъёрлари ва давлатимизнинг бу йўналишдаги сиёсатининг шаклланишини қуйидаги 3 босқичли даврларга бўлишимиз мумкин.

1-Босқич-2000-2007й.й.-глобал экологик инқирозларнинг экотуриз

мнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши. XX-асрнинг иккинчи ярим йилликларидан бошланган илмий-техника ривожи табиат ва унинг ресурс ларидан режасиз, аёвсиз фойдаланиш даврини бошлаб берди. Қудратли техника ер бағрининг 10 км чуқурлигича кириб борди.

Халқаро бозордаги иқтисодий рақобат табиий ресурслардан қайта ишлаб маҳсулотлар яратишни кучайтирди. Сайёрамиз атмосферасининг заҳарли газлар билан ифлосланиши, унумдор ерларнинг қишлоқ хўжалиги фойдаланишидан тобора кўплаб майдонларда чиқарилиши, биологик ресурслардаги турларнинг ер юзидан йўқотилиши кучайиб бораётганлиги, дунё океанининг ифлосланиб бориши ўтган аср охирларида халқаро ҳамжамиятни ташвишга солиб қўйди.

Ер юзида инсоният ҳаётини сақлаб қолишнинг кўпдан-кўп йўллари изланди. Шу изланишлардан бири экотуризмни ташкил қилиш масалалари эди. Ҳозирги йилларгача ўтган муддатда экотуризмни ривожлантириш нинг мақсади, вазифалари, моҳиятига кўп йиллик тортишувлардан кейин баҳо берилди. Экотуризмнинг тамойиллари, қоидалари белгиланди, шу билан бирга экотуризмни ривожлантиришнинг кўплаб усуллари, амалиёти ва халқаро миқёсда тан олинган моделлари яратилди.

Табиат муҳофазасида ва инсонларда экологик онг ва экологик маданиятни шакллантиришда экотуризмнинг муҳим ўрнини даставвал сезган давлатлар қайд қилинган усуллар ва халқаро моделларни ҳеч иккиланмасдан қабул қилдилар ва ўз давлатларида экотуризмни жадал суратлар билан ривожлантириб бормоқдалар.

Инсоният олдида турган сайёравий муаммоларни инсониятнинг ўзи бартараф этиши керак ва бартараф этишга мажбур. Шу нуқтаи-назардан ҳам, экотуризмни ривожлантириш дунёдаги барча давлатларнинг давлат сиёсатига айланиб бораётганлигида ҳам тушуниш мумкин. БМТнинг конференциялари ва саммитларида 150 дан ортиқ халқаро табиат муҳофаза си олимларининг, кўрсатмаларининг қабул қилиниши натижасида экологик бошқарув миллий механизмларининг кўплаб зарурий элементла ри яратилмоқда. Бу қарорлардаги энг муҳим тамойиллар:

1-Ҳар қандай ишлаб чиқариш соҳаларида экологик бошқарувни амалга ошириш таъминлансин.

2-Ҳар бир давлатларда яшаётган халқларнинг экологик билими ва экологик маданиятини шакллантириш экологик муаммоларни ҳал қилишдаги биринчи имкониятлар, кучлар эканлиги алоҳида таъкидлансин.

Жаҳон туризмида экотуризм ҳам келиб чиқгандан кейин мамлакат ларда туризмдаги бу муҳим соҳани ривожлантиришнинг давлат дастурла ри, стратегик режалари ишлаб чиқила бошланди. Бу йўналишда ҳам иқтисодий ривожланган мамлакатлар биринчилардан бўлишди. Экотуризм нинг халқаро туризмга кириши натижасида экотуризм ҳақидаги халқаро ахборотлар Ўзбекистонга ҳам кириб келди.

2-Босқич-2007-2015й.й.-Ўзбекистонда экотуризмни ривожлан тириш концепциясининг ишлаб чиқилиши ва экотуризм таълимининг

яратилиши. Янги,муҳим бўлган соҳа албатда ўзининг ривожлантириш «Концепцияси»ни талаб қилади. Ўзбекистонда экотуризмни ривожланти ришда ҳали илмий мақолалар эълон қилинмаган бир шароитда «Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Концепцияси»ни Ўзбекистон Республикаси «Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш Давлат қўмитаси» ва «Давлат Бионазорати» ташкилоти ишлаб чиқишди. «Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Концепцияси» 2007 йилда «Экология хабарномаси» журналининг 6-сонида эълон қилинди.

Шундан кейин, экотуризм йўналишида илмий-амалий конференция лар ўтказилди. 2010 йилга келиб экотуризм фани ДТС га киритилди. Дастлаб маърузалар матни [1] , экотуризм бўйича 2 та монография [2] ва услубий қўлланмалар тайёрланди[3].

3-Босқич-2016 йилдан бошланди. Бу босқич Ўзбекистонда миллий туризмни ривожлантириш тарихига зарҳал ҳарфлар билан ёзилди. Бу босқичгача Ўзбекистон давлати миллий туризмни ривожлантиришга ҳозиргидек жиддий эътибор қаратмаганди. Республикамиздаги туризм соҳасидаги жуда катта кўтаринкилик ва имкониятлар Ўзбекистон Республи касининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республика сининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги тарихий Фармони эълон қилингандан кейин яратилди. Бу фармон мамлакатимизда туризмни ривожлантиришда истиқболли йўналишларни, кучли тадбиркорликни янгидан-янги илмий тадқиқотларнинг мавзуларини, миллий туризмни ривожлантиришда қулай шароитларни яратди.. Президент Фармонида[4]:

-“Мамлакатда туризмни жадал ривожлантириш, мавжуд улкан туризм салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, анъанавий маданий-тарихий туризм билан биргаликда туризмнинг бошқа салоҳиятли турларини

–зиёрат қилиш, **экологик,** маърифий, этнографик, гастрономик, спорт,даволаш-соғломлаштириш, қишлоқ, саноат, ишбилармонлик туриз ми ва бошқа турларини жадал ривожлантириш, болалар, ўсмирлар ва ёшлар туризмини, оилавий туризмни, кексалар учун ижтимоий туризмни ривожлантириш,

-ички, кириш ва чиқиш туризмини комплекс ривожлантиришнинг миллий ва ҳудудий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш” белгиланган.

Бу фармонда мамлакатимизда биринчи маротаба туризмнинг соҳалари ва турларини жиддий ривожлантиришга эътибор берилди. Шунингдек, ҳар бир туризмнинг турларини ривожлантириш ҳам алоҳида қайд этилди. Бу қайдларда экотуризм олдинги ўринларда келтирилди. Мамлакатимизда миллий туризмни истиқболда ривожлантирилиши режалаштирилган туризм-нинг турлари ва соҳаларини янги ҳудудларда ва минтақаларда ташкил қилиш,

[1].Ҳайитбоев Р., Матяқубов У. Экологик туризм. СамИСИ, Самарқанд,2010.-60 б.
[2].Хошимов М.,Ўзбекистон экологик туризми”Самарқанд “Зарафшон”нашриёти, 2009.-220 б.
[3].Пардаев М.Қ., Экологик туризм асослари, «Наврўз» нашриёти, Тошкент,2015.-95 б.
4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг -«Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони 2016 йил 2-декабрдаги ПФ-4861

янги туризм йўналишларини, марказларини шакллантириш туризм соҳасидаги энг долзарб муаммолар ва масалалар қаторига киритилди, туризм соҳасини ривожлантиришдаги илмий-амалий тадқиқотлар ҳозиргидек алоҳида вилоят ёки вилоятлар, маъмурий бирликлар билан бирга, мамлакатимиздаги катта ҳудудларни, минтақа ларни қамраб олиши лозимлиги кўрсатилди.

Ўзбекистонда экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ҳуқуқий меъёрлари ва давлатимизнинг сиёсати ана шу фармонда акс эттирилган эди. Бу йўналишдаги иккинчи манба Ўзбекистон Республикаси нинг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ички туризмни жадал ривожлан тиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори Ватанимизда миллий туризмни ривожлантиришнинг истиқболли босқичини бошлади[1].

Қарорда «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» ички туризмни ривожлан тириш дастурини амалга ошириш бўйича амалий чора-тадбирлар режаси тасдиқланди. Туристларга хизмат кўрсатувчи ташкилотлар (давлат музейлари, галереялар, маданий мерос объектлари ва қўриқланадиган табиий ҳудудлар маъмуриятлари ва бошқалар) ўз фаолиятидан тушадиган тушумларнинг камида 5 фоизини ўз фаолияти ҳамда тақдим этаётган туризм хизматлари баён этилган реклама-тарқатиш материалларини ўзбек, рус ва инглиз тилларида тайёрлаш ва ададини кўпайтириш учун мажбурий тартибда йўналтирилиши белгиланди.

«Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» давлат дастурининг қабул қилини шининг ўзи ватанимизда экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантириш нинг ҳуқуқий меъёрлари яратилганлигини, давлатимизнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсатига киритилганлигини билдиради. Ички туризмни ривож лантириш тўғрисидаги қарорга қўриқланадиган табиий ҳудудларнинг киритилиши ички экотуризмни ривожлантиришнинг жуда катта имконият ларини яратади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Кириш туризмини ривожлантириш чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорини қабул қилди[2]. Бу қарор ҳам, ватанимизда халқаро экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлан тиришнинг ҳуқуқий меъёрлари яратилганлигини, халқаро экотуризмни ривожлантириш давлатимизнинг сиёсатига киритилганлигини билдиради.

Хулоса: 1.Халқаро турзмда истиқболли йўналишлардан бўлиб ташкил топган экотуризм ўзининг дунёвий шаклланиши жараёнларини ҳозиргача бўлган 3 босқичли даврни қамраб олган. Ўзбекистонда экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришда келгусида бажариладиган илмий тадқиқотлар мақолада қайд қилинган босқичларда амалга оширилган ютуқларни эътиборга олиши лозим.

2.Ҳозирда Ўзбекистоннинг экотуризмини ташкил қилиш ва ривожлантириш йўналишида илмий адабиётлар ва давлатимизнинг ҳуқуқий-меърий ҳужжатлари яратилган.

---

[1] .Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори: Ички туризмни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. Тошкент ш.,2018 йил 7 февраль,ПҚ-3514-сон

[2].Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори: Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. (2018 йил 6 февраль,ПҚ-3509-сон(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.02.2018 й., 07/18/3509/0658-сон)

VI ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ, АУДИТ ВА СТАТИСТИКА ФАНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

К.Б.Уразов – СамИСИ “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси профессори, и.ф.д.,
М.Ш.Мардонов – ТДИУ Самарқанд филиали ассистенти

ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ҲИСОБИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақола корхоналар инновацион фаолиятини молиялаштириш усулларини ҳисобга олиш таснифланган. Инновацион фаолиятнинг молиялаштиришни ҳисобга олиш бўйича ҳисоб-китоблар счётлар корреспонденцияси орқали очиб берилган.

Калит сўзлар: инновация, инновацион фаолият, молиялаштириш ҳисоби ва молиялаштириш манбалари.

Аннотация. В данной статье классифицируются способы, финансирующие инновационную деятельность предприятий. Счета учета финансирования инновационной деятельности раскрываются посредством корреспонденции счетов.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, счет финансирования и источники финансирования.

Abstract. This article classifies the ways in which enterprises finance innovative activities. Accounts for the accounting of financing of innovative activities are disclosed through the correspondence of accounts.

Keywords: innovation, innovation activity, funding account and funding sources.

Кириш. Рақамли иқтисодиёт шаротида корхоналар рақобатбардошликни ошириш ва бозорнинг янги эҳтиёжларига мослашиш учун инновацион фаолият билан шуғулланмоқдалар. Инновацион фаолият янги иқтисодий натижаларни белгилайдиган техник-технологик, ташкилий-иқтисодий ва ижтимоий-иқтисодий характердаги янгиликларни жорий этишнинг тизимли жараёни бўлиб, глобаллашув натижасида юзага келган шиддатли рақобат орқали ўз роли ва аҳамияти ортишига олиб келмоқда.

Бунда инновация деб тан олиш мумкин бўлган мезон - самарадорликнинг ўсиши, маҳсулотларнинг рақобатбардошлигини ва яшаш сифатини оширишдан иборат. Инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг асосий (ички) манбаи бу хўжалик юритувчи субъектнинг

фойдаси ҳисобланади. Хўжалик юритувчи субъектлар инновацион фаолиятни ташкил этишда ташқи манбалар хусусан инновацион лойиҳалар ҳисобидан, венчур ва краудфандинг усулидан молиялаштирилмоқда. Лекин инновацион фаолиятни ташқи манбалар ҳисобидан молиялаштириш ҳисоби Миллий бухгалтерия тизимида очиб берилмаган, 21-сон БҲМС да инновацион фаолиятни молиялаштиришга оид махсус счётлар тизими ҳам мавжуд эмас. Бу эса бухгалтерия ҳисобининг корхорхоналарда инновацион фаолиятни молиялаштириш билан боғлиқ пул оқимлари тўғрисида инвесторларга тезкор ахборот бериш имкониятларини чеклайди. Маблағлардан фойдаланиш самарадорлиги тўғрисида маълумот олишда молиялаштириш манбаларини ҳисобда тўғри акс эттириш ва тегишли ҳисоботларда чоп бериш долзарб ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Инновацион фаолиятни молиялаштириш манбалари бўйича дунё ва юртимиз олимлари томонидан кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Хусусан П.Байек томонидан ўз илмий ишларида муқобил инновацион молиялаштириш бозорининг ишлаш механизми жуда чуқур таҳлил қилиб чиқилган[2], Р. Коста краудфандинг феноменини кенг ўрганиб, краудфандинг барқарор ривожланиш даражасини, тадқиқотчилар ва жамиятнинг унга қизиқиши ортиб болаётганини ўз илмий ишларида таҳлил қилиб чиққан. Бунинг натижаси эса кўрсатадики, краудфандинг анъанавий молиявий тизимнинг ўзгартиришга олиб келади[3], З.Хурозов ўзининг илмий ишларида инновайион фаолиятни молиялаштириш шакллари, манбалари ва механизмларининг турли-туманлиги, ўзгариб туриши, ҳақиқий эҳтиёж, талаб ва таклиф, молиявий таҳлил, инвестицион қуйилмалар, иқтисодий баҳолашини [4], Ж.Қамбаров молиялаштириш масалаларида корхонада учрайдиган тўсиқлар[5], С.Бегматова венчур молиялаштиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштиришга қаратилган масалалар тизимли ёритиш масалалари [6] ўрганиб чиқилган.

Инновацион фаолиятни амалга ошириш учун маблағ зарур, молиявий ресурсларни жалб қиладиган инвесторлар эса инновация имкониятини белгилайдиган турли шакллардаги сармояларни қаерда ва қандай мақсадларда ишлатилиши тўғрисида маълумотга эга бўлишини хоҳлайдилар. Бу ўз навбатида, инвестиция фаолиятини бошқариш ҳамда инновацион фаолият самарадорлигини оширишда бухгалтерия ҳисоби учун фаолият маълумотларини тизимлаштирилган ҳолда ва тегишли ҳисоботда ёритилишини талаб қилади.

Рақамли иқтисодиёт шаротида инновацион фаолиятни молиялаштириш ҳисоби билан боғлиқ бир қатор муаммолар ҳал қилинмаган, шу жумладан:

- "инновация" ва "инновацион харажатлар" тушунчаларининг иқтисодий моҳиятини талқин қилишда ягона ёндашувнинг йўқлиги;
- бу харажатларни бухгалтерияда акс эттириш учун ягона

меъёрий-ҳуқуқий базанинг ва ягона ҳисоб тизимининг йўқлиги;

- инновацион фаолиятни молиялаштириш усуллари ҳисоби тизимлаштирилмаганлиги.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, инновацион фаолиятни молиялаштириш усулларини ва методик таъминланишнинг асосларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириб, барча даражадаги фойдаланувчилар эҳтиёжларини қондирадиган ҳамда илмий асосланган ҳисобга олиш тизимини ишлаб чиқиш.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақсадга эришиш учун статистик маълумотларни тўплаш ва қайта ишлашда монографик ва таққослаш усулларидан, олинган натижаларни умумлаштириш ва асослашда назарий таҳлил усулларидан фойдаланилди. Ушбу методлар мақоланинг таҳлил ва натижалар қисмида қўлланилиб, қуйида хулоса қилишимизга ёрдам берган.

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида" Қонунининг 31-моддасида инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг қуйидаги манбалари белгиланган:

- Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети;
- Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджети ҳамда вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари;
- Инновацион ривожланишни ва новаторлик ғояларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси;
- инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш жамғармалари;
- венчур жамғармалари;
- инновацион фаолият субъектларининг ўз маблағлари;
- халқаро грантлар, тижорат банкларининг, шу жумладан чет эл банкларининг ва халқаро молия институтларининг мақсадли кредитлари;
- хусусий инвесторларнинг, шу жумладан чет эллик хусусий инвесторлар ва бошқа ҳомийларнинг маблағлари;
- қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар[7].

Амалдаги счётлар режасида (21-сон БҲМС да) инновацион фаолият молиялаштириш манбаларини тизимли ҳисобга олиш учун мўлжалланган счёт мавжуд эмас. Бундай тизим ҳисобсиз саналиб, инновацион фаолиятни молиялаштириш манбалари ҳақида реал ахборотларни олиш ва улар тўғрисида инвесторлар учун зарур бўлган ҳисоботни тузиш қийинлиги сабабли баъзан имконсиз бўлиб қолади. Шунинг учун биз 8850 – "Инновацион фаолиятни мақсадли молиялашлатириш" ҳисобварағини очишни ва унинг таркибида давлат бюджетидан ва бошқа манбалардан инновацион фаолиятни молиялаштиришни ҳисобга олиш учун қуйидаги алоҳида счётларни назарда тутишни мақсадга мувофиқ деб биламиз:

8851 - "Инновацион лойиҳаларни бюджетдан мақсадли молиялаштириш" (давлат, минтақавий, маҳаллий);

8852 - "Инновацион лойиҳаларни юридик ва жисмоний шахслар ҳисобидан мақсадли молиялаштириш" ("бизнес фаришталари",

краудфандинг платформасида қатнашадиган жисмоний шахслар ва бошқалар). Ушбу счётларни инновацион фаол корхоналарда ҳамда инновацион корхонларда қуйидагича тартибларда юритишни тавсия этамиз (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал.

Корхонанинг инновацион лойиҳаларини мақсадли молиялаштиришни ҳисобга олиш[1]

Операция мазмуни	Инновацион фаол корхона		Инновацион корхона	
	Дт	Кт	Дт	Кт
Инновацион фаолият учун молиялаштириш маблағлари олинганда	5110	8851, 8852	5110	8851, 8852
Инновацион махсулот олиш жараёни	2010	1010, 6710, 6510, 6010	0800, 4410	6010
Инновацион маҳсулотга доир харажатлар қопланганда	6710, 6510, 6010	5110	6010	5110
Инновацион махсулот кирим қилинганда	1100, 2800	2010	0100, 0400	0800
Мақсадли молиялаштириш счётларини ёпилишига	8851, 8852	8530	8851, 8852	8530

Хулоса ва таклифлар. Инновацион фаолиятни молиялаштириш давлат (бюджет), банк кредитлари, инвесторлар маблағлари, инновацион маблағлар, инвестиция ва венчур фондлари, "бизнес фаришталари" маблағлари, краудфандинг ва корпоратив фойда каби манбалар ҳисобидан амалга оширилиши мумкин. Молиялаштириш шартларини ўрганиш инвестицияларнинг келиб чиқиши, иштирокчилар (инвесторлар) сони, мулк шакли каби йўналишларда ушбу манбаларнинг таснифини шакллантиришга имкон берди.

Амалдаги счётлар режаси инновацион фаолият учун алоҳида ҳисобини юритилишига имкон бермайди. Инновацион лойиҳаларни давлат бюджети ва бошқа манбалардан мақсадли молиялаштиришни тизимли ҳисобга олиш учун 8851-"Инновацион фаолиятни бюджетдан мақсадли молиялаштириш" (аналитик счётларда давлат, минтақавий, маҳаллий); 8852 "Юридик ва жисмоний шахслар маблағлари ҳисобидан инновацион фаолиятни мақсадли молиялаштириш" (аналитик счётларда "бизнес фаришталари", краудфандинг платформасида қатнашадиган жисмоний шахслар ва бошқалар) счётларини очиш мақсадга мувофиқдир.

[1] Муаллифлар ишланмаси

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. www.stat.uz – Статистика қўмитасининг расмий сайтининг 2015-2019 йиллардаги ҳисоботи
2. Peter Baeck, Liam Collins, Bryan Zhang «Understanding alternative finance. The UK Alternative Finance Industry Report 2014»; University of Cambridge; Nesta; 2014.
3. Carla Martínez-Climent, Ricardo Costa-Climent "Sustainable Financing through Crowdfunding" www.mdpi.com/journal/sustainability
4. Хурозов З.Қ. Инновацион молиялаштиришнинг назарий жиҳатлари. Иқтисод ва молия журнали. 2015, 11. 28-33 б.
5. Камбаров Ж.Х. ва бошқалар. Инқирозга қарши инновацион механизмни такомиллаштириш //Иқтисодиёт ва молия журнали. – 2016. – №. 4. 9-16 б.
6. С.Бегматова Инновацион фаолиятни молиялаштиришда венчур фондларнинг роли. Иқтисодиёт ва молия журнали 2019, 9(129) – Т. 1. – №. 4. 63-69 б.
7. "Инновацион фаолият тўғрисида" Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ЎРҚ-630-сон 24.07.2020й
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори "Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-4611. 24.02.2020й.
9. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари. Таржима. А. Ризақулов, Б.Хасанов, А.Усанов, З.Маматов. Т.: - 2004.
10. Shavkatovich M. M. Issues in Accounting Systems Design to Report Innovation in Organizations //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – Т. 24. – №. 2. – С. 68-72.

S R Egamberdiyeva - Qarshi muhandislik –iqtisodiyot instituti, Buxgalteriya hisobi va audit dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi**.**

T.M Rahmonova – QarMII, Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 1- kurs BH-504-21- guruh magistratura talabasi

S. I Xazratov – QarMII, Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 1- kurs A-519-21- guruh magistratura talabasi

XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Аннотация: Maqolada uzoq muddatli aktivlarni tan olish, tavsifi va hisobga olishdagi turli yondoshuvlarning mohiyati va ahamiyati hamda moliyaviy hisobotlarda uzoq muddatli aktivlarni aks ettirish tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar, gudvill gudvill, patent, tabiiy resurslar, ijaraga olingan mulk, franchayzes.

Аннотация: В статье описаны сущность и значение различных подходов к признанию, описанию и учету долгосрочных активов, а также принципы отражения долгосрочных активов в финансовой отчетности.

Ключевые слова: долгосрочные активы, материальные активы, нематериальные активы, финансовые активы, деловая репутация, патент, природные ресурсы, арендованное имущество, франшизы.

Abstract: The article describes the essence and significance of various approaches to the recognition, description and accounting of long-term assets, as well as the principles for reflecting long-term assets in financial statements.

Keywords: long-term assets, tangible assets, intangible assets, financial assets, goodwill, patent, natural resources, leased property, franchise.

Iqtisodiyotning toboro rivojlanib borishi barcha davlatlarida, shu jumladan, respublikamiz buxgalteriya hisobi metodologiyasida qo‘llanib kelinayotgan uzoq muddatli aktivlarni baholash mezonlari va tamoyillari tushunchalaridagi noaniqliklarni bartaraf etish taqozo etiladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi jarayonida turli yangi hisob obyektlari hisoblangan royalti, gudvill, yer uchastkasiga bo‘lgan mulkiy huquq, uzoq muddatli debitorlik qarzlari, kechiktirilgan xarajatlar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, lizing munosabatlari uzoq muddatli aktivlarni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida to‘g‘ri aks ettirish imkonini bermayapti. Bu esa, buxgalteriya hisobi va audit tizimida uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditini nazariy, huquqiy - tashkiliy va uslubiy muammolari yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi.

Xalqaro standartlar asosida uzoq muddatli aktivlarni hisobi va auditini takomillatirish uchun mamlakatimizning amaldagi buxgalteriya hisobi tizimining ayrim elementlarini metodologik jihatdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bozor sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan aktivlarni iqtisodiy naf keltiruvchi resurs sifatida e’tirof etish, zarur bo‘lgan holda, ular tomonidan aktivlarni sotib olishda yoki shakllantirishda iqtisodiy nafni o‘rganish va uning obyektivligini baholash asosiy maqsad sifatida qo‘yilmagan. Buning oqibatida aktivlardan foydalanish samaradorligi pasayib ketishi kuzatilmoqda. Bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida vujudga kelgan muammolar ichida yer uchastkalari buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va uzoq muddatli aktivlarda mulkiy huquqning hisobga olinishi masalalari muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tizimida yer uchastkalari hisobi metodologik jihatdan kam o‘rganilgan bo‘lib, ular hozirga qadar qiymatga ega bo‘lgan buxgalteriya hisobi obyekti sifatida hisobga olinmagan.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va audit tizimini bozor iqtisodiyotining zamonaviy shartlariga muvofiqlashtirish hamda buxgalteriya hisobini xalqaro darajadagi meyorlar bilan uyg‘unlashtirish zaruriyati mavjud, bu esa, uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobi va auditining nazariy va metodologik jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi hamda o‘rganilayotgan muammoningdolzarbligini belgilaydi.

Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobi va auditi muammolari Astaxov V.P., Balakireva N.M., Dj. K. Van Xorn, A. A.Dadonovning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Respublikamiz olimlaridan B.A.Hasanov, S.N.Tashnazarov, A.K.Ibragimov, A.X.Pardayev, K.B.Urazov, N.Y.Jo‘rayev, R.D.Dusmuratov, E.F.Gadoyevlar uzoq muddatli aktivlarning tarkibiga kirgan asosiy vositalar,

nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi, nazorati va tahlili, ularning amortizatsiyasiga taalluqli masalalarni tadqiq qilishgan.

Tadqiqotlarni koʻrsatishicha, mamlakatimizdagi buxgalteriya hisobi va audit fani iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, Oʻzbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobi uslubiyotini nazariy va metodologik jihatlari chuqur oʻrganilmagan, bu esa mazkur mavzuni dolzarbliligidan dalolat beradi.

Xoʻjalik yurituvchi subʼektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb eʼtirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital)

kabi guruhlarga ajaratiladi. Bunday guruhlarga ajratishning asosini "Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida qonun" tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy kontseptsiyasidir.

Aktivlarni uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bogʻliqligi kapital hisobining iqtisodiy kontseptsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi obʼekti sifatidagi kontseptsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim.

Respublikamizning meʼyoriy–xuquqiy xujjatlarida, chunonchi "Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida"gi qonunda, 1- son BXMS "Hisob siyosati va moliviy hisobot"da keltirilgan uzoq muddatli aktivlarning tavsifi bizning fikrimizcha ular mazmun mohiyatini yaqqol ochib bera olmaydi.

1- son BXMS "hisob siyosati va moliviy hisobot"da joriy aktivlarga quyidagicha taʼrif berilgan: " Aktivlar quyidagi hollarda joriy aktiv sifatida tasnif etilishi kerak, agar:

-Xoʻjalik yurituvchi subyekt operatsion faoliyatining bir qismi boʻlsa va subyektning bir normal oʻtayotgan operatsion siklida uni olish yoki isteʼmol qilish kutilayotgan boʻlsa;

-Asosan qayta sotish maqsadida yoki qisqa muddatda saqlab turilgan boʻlsa va undan hisobot sanasidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan boʻlsa. Boshqa barcha aktivlar joriy boʻlmagan aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) sifatida tasnif etilishi kerak".

1- son BXMS "Hisob siyosati va moliviy hisobot"da "Uzoq muddatli (joriy boʻlmagan) aktivlar:

- subyektning joriy boʻlmagan aktivlari quyidagi aktivlardan iborat boʻladi:

- Subyekt faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar, jumladan subyektning mulki, binolari va uskunalari, nomoddiy aktivlari, taraqqiyot xarajatlari va gudvill;

- Investitsiya maqsadida saqlab turilgan va hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin boʻlmagan aktivlar."-deb taʼrif berilgan.

1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "*Moliyaviy hisobotlarni*

taqdim etish" da Joriy va uzoq muddatli moddalarni farqlash punktida "Tadbirkorlik subyekti joriy va uzoq muddatli aktivlarni hamda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni o'zining moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotida alohida guruhlar sifatida taqdim etishi lozim " deyilgan .

Bundan tashqari mazkur standartda "Tadbirkorlik subyekti aktivni joriy sifatida tasniflashi lozim, qachonki:

-u o'zining odatiy operatsion sikli davomida aktivni pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa, yoki uni sotishni yoki iste'mol qilishni rejalashtirsa;

-u asosan savdo uchun aktivni o'zida saqlasa;

-u aktivni hisobot davridan so'ng o'n ikki oy ichida pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa; yoki

-aktiv (BHXS 7 da ta'riflanganidek) pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti bo'lsa, bunda hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy mobaynida aktiv almashtirilishi yoki majburiyatni so'ndirish uchun foydalanilishi taqiqlanmagan bo'lsa.Tadbirkorlik subekti boshqa barcha aktivlarni uzoq muddatli sifatida tasniflashi lozim"ligi qayd etilgan.

1-jadval

Xorijiy davlatlar olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi[1]

Uzoq muddatli aktivlar	R.N.EntoniJ.S.Rins	J.G.Siegel,D.Minars	Miller	B.Nidlz, X.Anderson	T.P.EdmontsF.M.Nair.	R.Libbi RA.Libbi6.	R.L. Dixon X.E.Arnett	R.X. Xermonson	Bizning taklifimiz
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1. **Moddiy aktivlar**:									
Yer-	+	+	+	+	+	+		+	+
Bino va inshootlar –			+			+	+	+	+
Bino va asbob-uskunalar	+			+					
Mashina va asbob-uskunalar		+	+			+	+	+	
Mashina, asbob-uskuna va ofis jihozlari			+			+			+
O'rnatiladigan asbob-uskunalar									+

[1] Ismanov, Ibroxim Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish monografiya; ilmiy nashr; "Classik", 2021. – 152 bet.

Mashina, zavod va asbob-uskunalar					+				
Erni obodonlashtirish			+						
Qazilma boyliklar		+							
Tabiiy resurslar	+		+	+	+	+	+	+	
Ijaraga olingan mulk									+
Ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish									+
II **Nomoddiy aktivlar:**									
Gudvill	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Patent	+		+	+	+	+	+	+	+
Mualliflik huquqi	+		+	+	+	+		+	+
Litsenziyalar		+		+		+			+
Savdo markalari		+	+	+	+	+	+	+	+
Franchayzes		+		+	+	+	+	+	+
Savdo nomi		+	+					+	
Maxfiy jarayonlar		+					+		
Tovar belgisi		+		+			+		+
Ijaraga olingan mulk		+	+	+		+	+		
Muddati uzaytirilgan xarajatlar	+								
Erdan foydalanish huquqi									+
Ilmiy tadqiqot va ilmiy konstruktorlik ishlanmalari	+	+		+		+	+	+	+
Uzoq muddatli oldindan to‘lovlar							+		
III. Moliyaviy aktivlar	+	+	+	+		+	+	+	+
IV.Muddati uzaytirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlari		+							+

Fikrimizcha, 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar” standartning 3 punktini “*Uzoq muddatli aktivlar – bu korxona tomonidan uzoq muddat mobayinida (12 oydan ko‘p) foydalanish uchun ulush, hadya ko‘rinishida hamda xarid qilib olinadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag‘lardir*” degan ta’rif bilan to‘ldirish zarur.

Chunki asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlarning bir turi bulganligi sbabli standartda ham birinchi uzoq muddatli aktivga ta’rif berilib, so‘ngra asosiy vositaga berilsa maqsada muvofiq bo‘lar edi. Uzoq muddatli aktivlarning tasnifi mamlakat iqtisodchi olimlari tomonidan yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Adabiyotlarda ularning tarkibiy qismlari alohida alohida holda tasniflangan, bunda asosiy vositalarga nisbatan ko‘proq urg‘u berilgan. [1]

[1] Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ B.A.Xasanov, K.T.Nurmanov,R.B.Hasanova.-T.: “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti, 2021. - 413 b.[1] С.Н. Ташназаров. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртларимагистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент:,2019. – 555 б.

Shuningdek, adabiyotlarda uzoq muddatli aktivlarga ta’rif berilmasdan, balki alohida asosiy vositalarga, nomoddiy aktivlarga, moliyaviy qo‘yilmalarga

ta’riflar berilgan. Chet ellik iqtisodchi olimlar tomonidan e’tirof etilgan uzoq

muddatli aktivlar tarkibiy qismlarining tasniflanish tartibi 1- jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik mualliflar uzoq muddatli aktivlarga alohida ta’rif bermagan. Bizning mamlakatimizda “Yer” va “Tabiiy resurslar” xususiy mulk ob’ekti hisoblanmaydi. Bugungi kunga kelib yer uchastkalarini xususiylashtirish ob’ekti deb qabul qilish masalasi ko‘tarilmoqda. Fikrimizcha, korxonalar yerga mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lganda ularni asosiy vositalar tarkibiga kiritish, doimiy va muddatli foydalanish uchun yerni ijaraga olish huquqiga ega bo‘lgan holda esa foydalanish huquqi qiymatini nomoddiy aktiv sifatida tan olish va aks ettirishni maqsadga muvofiq, deb oylaymiz. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirib, uzoq muddatli aktivlarga quyidagicha ta’rif berish mumkin: uzoq muddatli aktivlar – bu korxona tomonidan uzoq muddat mobayinida (12oydan ko‘p) foydalanish uchun ulush, hadya ko‘rinishida hamda xarid qilib olinadigan, qurib bitkazilgan, yaratilgan hamda parvarishlab va boshqa yo‘llar bilan kirim qilingan, kelgusida iqtisodiy naf keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag‘lardir. Chunki uzoq muddatli aktivlar hadya ko‘riniida, xarid qilinib olinishi, qo‘rib bitkazilib kirim qilinishi, yaratilishi(nomoddiy aktivlar), parvarishlab kirim qilinishi(ko‘p yillik daraxtlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar) va boshqa yo‘llar bilan kirim qilinishi mumkin

I.Sh. G‘anibayev– Farg‘ona politexnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi” katta o‘qituvchisi

AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Avtomobil transport korxonalari, avtomobil transport xizmati turlari, korxona xarajatlari va ularning turlari, bevosita va bilvosita xarajatlar, tannarx, ko‘rastilayotgan xizmatlar tannarxi va uni aniqlash usullari, boshqaruv hisobi, avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarning me’yorlari, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o‘tishning zaruriyati va afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Avtomobil transporti**,** avtomobil transport xizmatlari turlari, xarajatlar, xarajatlarning turlari, ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi, boshqaruv hisobi, milliy standartlar, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari.

Аннотация: Автотранспортные предприятия, виды автотранспорт-ных услуг, затраты предприятия и их виды, прямые и косвенные затраты,

[1] Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби.Дарслик.-Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020, 558 бет.

себестоимость, себестоимость услуг и методы ее определения, управленческий учет, нормы затрат в автотранспортных предприятиях, выделены необходимость и преимущества перехода на международные стандарты финансовой отчетности.
Ключевые слова: Автомобильный транспорт, виды автотранспорт-ных услуг, затраты, виды затрат, себестоимость оказанных услуг, управленческий учет, национальные стандарты, международные стандарты финансовой отчетности.
Abstract: Motor transport enterprises, types of road transport services, enterprise costs and their types, direct and indirect costs, cost, cost of services and methods of its determination, management accounting, cost norms in road transport enterprises, the need to transition to international financial reporting standards and the advantages are highlighted.
Keywords: Road transport, types of road transport services, costs, types of expenses, cost of services rendered, management accounting, national standards, international financial reporting standards.

Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Jumladan, so‘nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Uning natijasida 2021 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida mamlakat yalpi ichki mahsulotlari tarkibida xizmatlarning ulushi 38.7 foizni tashkil qildi[1]. Xizmat ko‘rsatish sohasida tashish xizmatlari, jumladan, transportda aholi va yuklarni tashish xizmatlari salmoqli o‘rinni egallaydi.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keladi. 2021 yilning yanvar-sentyabr oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 55,0 % ni, jumladan, yo‘lovchi avtotransporti xizmatlarining ulushi 62,5 % ni, yuk tashish xizmatlari umumiy hajmi tarkibida avtotransport xizmatlarining ulushi 37,5 % darajasida qayd etildi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 26 078,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar 13,4 % ga oshgan[2].

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi, jumladan, avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil transportida tashishlar xavfsizligini ta’minlash hamda avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish, avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish sohasida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi “Avtomobil transportini

[1] https://stat.uz/ma’lumotlaridan olindi.
[2] https://stat.uz/ma’lumotlaridan olindi.

boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ” PQ-3589-sonli, 2021 yil 7 maydagi “Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyatini tartibga solishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5108-sonli va 2021 yil 19 avgustdagi “Avtomobil transportida yuk tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5225-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Avtomobil transporti tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochtani avtomobilda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui tushuniladi. Aavtotransport vositalari — yo‘lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar kiradi.

Avtomobil transporti korxonalari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish jarayonida xizmat ko‘rsatish va korxonaning boshqarish bilan bog‘liq xarajatlar amalga oshiriladi.

Xarajatlar - hisobot davrida korxonaning iqtisodiy faoliyatida foydalaniladigan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarning qiymat ifodasidir. Xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish, ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan ish, xizmatlar tannarxini to‘g‘ri aniqlash korxonaning moliyaviy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Aynan ishlab chiqarilayotgan (ko‘rsatilayotgan xizmat yoki bajarilayotgan ish) mahsulot birligi tannarxi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, shu mahsulotning bahosini belgilash, baho bilan tannarxni solishtirib ko‘rib, foyda miqdorini aniqlash, rentabellik darajasini hisoblash va hokazo.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida korxonalar faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini to‘g‘ri aniqlashdir. Mahsulot tannarxi uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita xarajat-larning yig‘indisini ifodalaydi. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruv hisobining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Biroq bugungi iqtisodiyotni jadal rivojlanishi jarayonida avtomobil transporti korxonalarida xarajat turlarini ko‘pligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning turli-tumanligi xarajatlar hisobini yuritish, ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlash jarayoni murakkablashtiradi.

Mamlakatimizda yuridik shaxslarning, shuningdek yuridik shaxs bo‘lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom belgilaydi.

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishga, shuningdek xo‘jalik yurituvchi

subektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Korxonalarda xarajatlar hisobi, ko‘rsatilgan xizmatlarni tannarxini aniqlash va boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun ma’lumotlarni buxgalteriya hisobining bir qismi bo‘lgan boshqaruv hisobi tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Korxonalarda xarajatlar qiymati va hisobi, mahsulot tanarxini kalkulyatsiya qilish usullari milliy standartlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-sonli qarorida aktsiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar, 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydilar. Mazkur qaror talablari keyinchalik barcha xo‘jalik yurituvchi subektlarga, jumladan, avtomobil transporti korxonalariga ham tadbiq etilishi ehtimoldan holi emas. Bu o‘z navbatida korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzishi o‘z navbatida xarajatlar hisobini aniqlashtirish, xarajatlar bilan bog‘liq xo‘jalik jarayonlarini o‘z vaqtida, ishonchli qiymatda aks ettirish, ulardan keladigan iqtisodiy naf va zararlarni aniqlash imkonini beradi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko‘rsatilayotgan xizmatlarni bahosi ulaning tannarxiga bog‘liq holda shakllantiriladi, natijada korxonaning rentabelligi tannarxga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar tannarxini aniqlash jarayoni mavjud xom-ashyo va mehnat resurslaridan unumli foydalanish, ortiqcha xarajatlarni olidini olish uchun xizmat qiladi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar tannarxi, mazkur xizmatlarni ko‘rsatish uchun sarflangan yoqilg‘i, ish haqi, asosiy vositalarni amortizatsiyasi va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni puldagi ifodasidir.

Avtomobil transporti korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar (yo‘lovchilar va yuklarni tashish), boshqa tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan farq qiladi, ya’ni ko‘rsatilayotgan xizmatlar moddiy ko‘rinishga ega emas. Avtomobil transporti korxonalarida ko‘rsatilayotgan xizmatlarni bahosini belgilashda korxonaning boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni ham inobatga olinadi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi odatda quyidagi xarajat turlari bo‘yicha aniqlanadi:

1. Avtomobil xaydovchilarga hisoblangan ish haqi va unga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq.
2. Avtomobil uchun yoqilg‘i.
3. Moylash va boshqa foydalaniladigan materiallar.
4. Avtomobil shinalarini eskirishi va ta’mirlash.

5. Avtomobillarga texnik xizmat koʻrsatish va taʼmirlash.

6. Avtomobil transport vositalarining eskirishi.

7. Avtomobil xizmati koʻrsatish bilan bogʻliq boshqa xarajatlar.

8. Umumishlab chiqarish xarajatlari.

Avtomobil transporti korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlariga korxonaning xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq umumiy foydalanishdagi mashina va uskunalarini saqlash va ishlatish bilan bogʻliq xarajatlar, foydalanishdagi asosiy vositalarni amortizatsiyasi va taʼmirlash xarajatlari, mulkni sugʻurta qilish xarajatlari, xizmat kursatishga bogʻliq binolarni yoritish va isitish xarajatlari, texnik xizmat koʻrsatuvchi xodimlarning ish haqi, xizmat koʻrsatishda foydalaniladigan bino, mashina va uskunalarni ijara toʻlovlari va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boshqa xarajatlar kiritiladi.

Avtomobil transporti korxonalarida xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlmagan, yuqorida taʼkidlagan xarajatlardan tashqari avtomobillarni jihozlash (oʻrindiqlar uchun qoplamalar, tumanga qarshi chiroqlar oʻrnatish, avtomobilni old qismini himoya qilish uchun, xavsizlikni oshrish uchun, avtomobil va yukni yopish uchun moslamalarga va boshqa qulayliklar yaratish uchun) xarajatlari ham yuzaga keladi.

Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni turlarining koʻpligi buxgalteriya hisobining bir qismi boʻlgan boshqaruv hisobini tashkil etishni taqozo etadi. Xalqaro tajribada korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integrallashgan ikkita usuli mavjud.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash lozimki, avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil qilishda, koʻrsatilayotgan xizmatlarni tannarxini aniqlash jarayonida hamda ichki foydalanuvchilarga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun maʼlumotlar yetkazib berishda boshqaruv hisobining oʻrni kattadir.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobga olish va boshqaruv hisobini tashkil etish boʻyicha quyidagi taklif va xulosalarni berib oʻtamiz:

1. Avtomobil transporti korxonalarida boshqaruv hisobini avtonom usulini tashkil qilish, asosan ichki foydalanuvchilar uchun maʼlumotlarni yigʻish, qayta ishlash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun ularni yetkazish imkoniyatini yaratish;

2. Avtomobil transporti korxonalarida har bir xarajat va javobgarlik markazlari boʻyicha xarajatlar hisobi va hisob-kitoblar shakllarini ishlab chiqish;

3. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni meʼyordan koʻra koʻproq sarflanishi yoki samarasiz amalga oshirilgan xarajatlar tahlil qilish va ularni oldini olish choralari koʻrish;

4. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar va daromadlarni tan olishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qoʻllash tartibiga oʻtkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti toʻgʻrisida”gi qonuni. 1998 yil 29 avgust, 674-I-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. 2016 yil 13 aprel O‘RQ-404-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustda 475-son bilan ro‘yxatga olingan.
4. K.B.Urazov, M.E.Po‘latov. Buxgalteriya htsobi. Darslik. Toshkent “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi” – 2020 yil.
5. A.X.Pardaev, B.X.Pardaev. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. G‘afur G‘ulom nomidash nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Z.N.Qurbonov, K.M.Misirov. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik.Toshkent. “Iqtisod-moliya” -2019 yil.
7. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov. Boshqaruv hisobi. Darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2013 yil.
8. N.Toshmamatov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. Toshkent – 2019.

Maqola xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni “Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika fanlarini takomillashtirish masalalari” yo‘nalishiga mo‘ljallangan.

S. R Egamberdiyeva – Qarshi muhandislik –iqtisodiyot instituti, Buxalteriya hisobi va audit kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
F.Sh Boyqobilov – QarMII, Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi 2- kurs BH-504-20- guruh magistratura talabasi

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyot-raqamliiqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va bu sohada, xususan buxgalteriya va audit sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb jihatlari, raqamli iqtisodiyot kadrlari egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется специфика современной экономики - цифровая экономика, эффективное использование цифровых технологий в развитии экономики и современные аспекты подготовки кадров в этой области, особенно в области бухгалтерского учета и аудита, навыки, которые должны быть приобретены персонал цифровой экономики.

Abstract: This article analyzes the specifics of the modern economy - the digital economy, the effective use of digital technologies in the development of the economy and modern aspects of training in this area, especially in the field of accounting and auditing, the skills that must be acquired by the personnel of the digital economy.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda kadrlar salohiyati, katta hajmli ma’lumotlar, sun’iy intellekt, neyrotexnologiya, kvant texnologiyalar, buyumlar interneti, kadrlar, kasbiy ko‘nikmalar, malakali mehnat, biznes-modellar, birgalikdagi ta’lim dasturlari.

Ключевые слова: цифровая экономика, человеческие ресурсы в условиях развития цифровой экономики, большие объемы данных, искусственный интеллект, нейротехнологии, квантовые технологии, Интернет вещей, человеческие ресурсы, профессиональные навыки, квалифицированная рабочая сила, бизнес-модели, совместные образовательные программы.

Keywords: digital economy, human resources in the context of the development of the digital economy, big data, artificial intelligence, neurotechnologies, quantum technologies, Internet of things, human resources, professional skills, skilled workforce, business models, joint educational programs.

Innovatsion iqtisod eng avvalo bilimga, intellektual salohiyatga, inson kapitaliga asoslangan, fan va texnikani doimiy ravishda yangilanishini ko‘zda tutuvchi, yangi g‘oyalarni, innovatsiyalar oqimini to‘xtovsiz kirib kelishini rag‘batlantiruvchi, texnologiyalarni muntazam takomillashtirishni nazarda tutadigan iqtisoddir. Zamonaviy dunyoda aynan innovatsion iqtisodga asoslangan rivojlanish asosiy tendensiyaga aylandi. Biz ham shu yo‘ldan ketishni maqsad qilganimiz to‘g‘ri strategiyadir. Ammo qarorning to‘g‘ri qabul qilinganligi masalaning bir tomoni bo‘lsa, uning asosiy ikkinchi tarafi esa maqsadimizni qay tariqa amalga oshirishimizdir. Biz innovatsion rivojlanishning asosiy omillariga e’tiborimizni qaratishimiz zarur. Ushbu o‘rinda markaziy bo‘g‘inni kadrlar egallaydi. Har qaysi mamlakatda xoh mikrodarajada kichik korxonalar yoki yirik korporatsiyalar miqyosida bo‘lsin yoxud makrodarajada davlat darajasida bo‘lsin barcha ishlarning natijasi bevosita kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. Har qanday texnikaning, texnologiyaning, ilg‘or g‘oyalarning ixtirochisi, ijodkori bu turli sohalardagi kadrlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berildi va joriy yilda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tub burilish qilish hamda mazkur soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda muhim vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarni samarali hal etish, mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda talaba- yoshlarimizni chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash juda muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim xizmatlari va mehnat bozorlarini samarali rivojlanishi oliy ta’lim xizmatlari subyektlari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq. Har bir mamlakatni jahon bozorida raqobatdosh bo‘lishini ta’minlash maqsadida intellektual jarayonni rivojlantirish ularning asosiy muammolariga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini intellektual darajalarini

oshirishni ta’minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda oliy ma’lumotli malakali mutaxassislarni tayyorlashdolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun javob bera oladigan intellektual oliy malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida malakali professor va o‘qituvchilar tomonidan berilgan va talabalar, magistrlar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar respublika innovatsiya yangiliklari ijtimliy-iqtisodiy jihatdan jahon xo‘jaligi bozorida raqobatdoshligini ta’minlaydi. Demak, milliy iqtisodiyotni innovatsiyalashtirish asosida mamlakatimizni ilg‘or mamlakatlar qatoriga olib chiqish mumkin. Buni eng rivojlangan AQSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Yevropa ittifoqi davlatlari misolida ko‘rish mumkin.

S. Fisher inson kapitali tushunchasiga shunday ta’rif beradi, “insonga daromad olib kelishi mumkin bo‘lgan qobiliyat inson kapitalidir. Inson kapitali tug‘ma qobiliyat, talant va shu qatorda o‘rganilgan (orttirilgan) kabi klassifikatsiyalashuvga (tasnif) ega.” Mazkur berilgan ta’rifga hozirgi kunda inson kapitali tushunchasining tor ma’nodagi ta’rifi sifatida qarash mumkin.[1]

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.[2]

O‘zbekiston REspublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Raqamli iqtisodiyot”ni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va

[1] Fisher I.The Nature off Capital and Income. – L.,1927. – P.62

[2] O‘zbekiston REspublikasi Prezidentining ««Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni. *(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son).*

mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, “Raqamli iqtisodiyot”ga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Bunda 1 mln. zamonaviy dasturchi-kadrlarni respublikamizning oliy ta’lim muassasalari (xorijiy yetuk mutaxassislarni jalb etgan holda) tayyorlashlari zarur. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Mamlakatimizdagi raqamli iqtisodiyot sohasida ishlayotgan mutaxassislarga yaxshi ma’lumki, bunday turdagi zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy hal qiluvchi texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash texnologiyalari,Sun’iy intellekt, Kvant texnologiyalari, Buyumlar interneti, Bulutli texnologiyalar. Mobil texnologiyalar, Kriptovalyutalar va 3D-texnologiyalar.[1] Ammo mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun eng muhim shartlardan biri – unga mos keluvchi institusional muhitni shakllantirish hisoblanadi. Xuddi shuning uchun xam O‘zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturida kadrlar tayyorlash masalasi va ta’lim tizimi tashkilotlari asosiy omillar qatoriga kiritilishi va unga alohida bo‘lim bag‘ishlanishi kerak. Ushbu dasturda kadrlar, xususan, buxgalteriya va audit sohasidagi kadrlar va ta’lim bilan bog‘liq quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilab berilishi lozim deb hisoblaymiz:

- Yuqorida ko‘rsatilgan hal qiluvchi texnologiyalar yo‘nalishlari bo‘yicha buxgalteriya va audit sohasidagi kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- bu yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega buxgalteriya va audit sohasidagi kadrlar tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ta’lim tizimini yaratish;
- raqamli iqtisodiyot uchun kerakli bo‘lgan yukori malakali buxgalteriya va audit sohasidagi mutaxassislarni o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida ham tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- raqamli iqtisodiyotni har tomonlama o‘rganish uchun kerakli bo‘lgan o‘zbek tilidagi zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlar yaratish;
- zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni respublika iqtisodiyotiga tatbiq qilish.

Shubhasizki, raqamli texnologiyalarni joriy qilish barcha iqtisodiy jarayonlarni tezlatish imkonini beradi.

[1] M.Q.Абдуллаев . Raqamli iqtisodiёt - Kadrlar tayёrlashning dolzarb йўналишлари. “Иқтисодиёт ва инновасион технолоиялар” илмий электрон журнали.№1, январ-феврал, 2020 йил.

Shunday ekan raqamli iqtisodiyotga to‘laqonli ravishda o‘tish uchun mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida quyidagi ta’lim yo‘nalishlarda zamonaviy mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish zarur:

Yuqori darajadagi dasturlash tillarida ishlay oladigan dasturchilar; Moliyaviy texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar;Digital Banking mutaxassislari; Ijtimoiy tarmoqlarda ishlash bo‘yicha mutaxassislar; Turli xil sohalardagi raqamli transformatsiya bo‘yicha mutaxassislar; Bulutli texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar; Masofaviy ta’lim bo‘yicha mutaxassislar; Yuqoridagi sohalarni o‘zlashtirgan buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislarini.

Chunki korxonalar iqtisodiy faoliyatiga aniq va ishonchli baho berish uchun ma’lumotlarning aksariyat qismi buxgalteriya hisobi ma’lumotlari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarining ma’lumotlarini ishonchliligini va qonuniyligini nazorat qilish auditorlarning vazifasi hisoblanadi. Iqtisodiyot raqamlashtirilsa, buxgalter va auditorlar ham raqamlashtirilgan iqtisodiyotni mukammal bilishi vashu sohaning tom ma’nodagi mutaxassislari bo‘lishi kerak.

F.Sh Boyqobilov – QarMII, Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi 2- kurs BH-504-20- guruh magistratura talabasi

G‘. A Rajabov – QarMII, Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi 1- kurs BH-504-21- guruh magistratura talabalari

MHXS TALABLARI BO‘YICHA KONSOLIDATSIYALANGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy hisobot xalqaro standartlari talablari doirasida konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzishning nazariy va metodologik jihatlari va ahamiyati, kompaniyalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda moliyaviy natijalarini, aktivlari va majburiyatlarini va pul oqimlarini konsolidatsiya qilishda hamda moliyaviy hisobotni tuzish borasidagi muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar:: konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH), nazorat, birgalikdagi nazorat, ulush bo‘yicha ishtirok, ahamiyatli ta’sir, qo‘shma faoliyat, biznes birlashuv, segment bo‘yicha hisobot, alohida moliyaviy hisobotlar, aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy instrumentlar, sug‘urta shartnomalari, aktivlari va majburiyatlar, daromad va xarajatlar,kompaniyalar guruhining moliyaviy hisoboti.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические аспекты и значение консолидированной финансовой отчетности в соответствии с требованиями Международных стандартов финансовой отчетности, направления преодоления проблем консолидации финансовых результатов, активов и обязательств и движения денежных средств с учетом особенностей компаний.

Ключевые слова: консолидированная финансовая отчетность (консолидированная финансовая отчетность), финансовые инструменты,

договоры страхования, активы и обязательства, доходы и расходы, финансовая отчетность группы компаний.

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological aspects and the importance of consolidated financial statements in accordance with the requirements of International Financial Reporting Standards, ways to overcome the problems of consolidating financial results, assets and liabilities and cash flows, taking into account the characteristics of companies.

Keywords: consolidated financial statements (consolidated financial statements), financial instruments, insurance contracts, assets and liabilities, income and expenses, financial statements of a group of companies.

Biznes yuritish, xorijiy mamlakatlar va investorlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishda muhim omil hisoblanadigan moliyaviy hisobot axborotlarini to‘liq va shaffof, barcha tushunadigan holda tayyorlanishi va taqdim etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi va audit sohasiga alohida e’tibor berilib, so‘nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrda “O‘zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-sonli Farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli Qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda korxonalar moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyojlari paydo bo‘lmoqda. Uning asosida tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilish mumkin. MHXSga muvofiq hisobot tuzish zarurati nima bo‘lishidan qat’iy nazar, tashkilot rahbariyati ushbu muammoni hal qilishning eng yaxshi usulini tanlashi kerak. Avvalom bor, mamlakatimizda tashkilotlar buxgalteriya hisobini milliy standartlar asosida yuritadi va uning asosida moliyaviy hisobotlarni tuzadi. Ammo bu hisobotlar xalqaro biznes uchun ishonchli tasavvur bermaydi, haqiqiy moliyaviy holat va natijalarni ko‘rsatmaydi, uning asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish ishonchli bo‘lmaydi. Hisobotdagi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni qayta tiklash kerak. Aynan shu o‘zgartirishlar "transformatsiya" deb nomlanadi.

Turli mamlakatlarning buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlari mamlakatning rivojlanish darajasi va buxgalteriya hisobini tashkil etishning muayyan tamoyillarini shakllantirgan o‘ziga xos an’analariga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu qoida O‘zbekistonga ham tegishli. O‘zbekistondagi buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlari ma’lum xususiyatlarga va prinsiplarga ega bo‘lib, ular ko‘p jihatdan xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan farq qiladi.

Avvalo, milliy standartlar va MHXS standartlari o‘rtasidagi farq moliyaviy hisobotning oxirgi iste’molchilarida ifodalanadi. O‘zbekiston uchun fiskal hisobot qoidalari moliyaviy hisobotdan ko‘ra ko‘proqdir, ya’ni buxgalteriya

hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari mamlakat statistika va soliq muassasalari hisoblanadi. Holbuki, MHXSga muvofiq hisobot berish eng maqbul, optimal iqtisodiy qarorni qabul qilish uchun investorlar va menejerlarni tijorat korxonaning haqiqiy holati to‘g‘risida xabardor qilishga qaratilgan.

Shuningdek, Milliy standartlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan sezilarli farqlar muvofiqlik prinsipi hamda xalqaro standartlarda belgilangan mazmunning shakldan ustunligi prinsipidan kelib chiqadi. Ushbu tamoyillarga asoslanib, har qanday iqtisodiy operatsiya uni tuzish paytida korxonaning balansida, shuningdek uning mohiyatini eng aniq aks ettiradigan shaklda aks ettirilishi kerak.

Milliy standartlar va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo‘llaniladigan prinsiplar o‘rtasidagi farqlarning aksariyati, asosan, taomillardagi sezilarli farq tufayli emas, balki Milliy standartlarning barcha qoidalari amalda qo‘llanilmasligi sababli yuzaga keladi”[1]

Respublikamiz iqtisodiyotini moderinizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri, boshqaruvni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Mamlaka-timizda hisob-kitoblarni tizimli olib borish va to‘lov intizomini mustaxkamlashga doir huquqiy asoslar yaratilgan,yani “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun hamda “Buhgalteriya hisobini milliy standartlari” ishlab chiqilgan.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma’lumki, korxonalarni samarali boshqarishda ko‘proq ularni yirik guruhlarga birlashtirgan holda tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunda ikki yoki undan ortiq kompaniya moliyaviy-iqtisodiy jihatdan bir kompaniya yoki moliya g‘uruhlari ostida birlashadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar guruhining bosh korxona nazorati ostida birlashuvi yuz bersa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzishning asosiy maqsadi – korporatsiya faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini to‘lig‘icha ochib berishdan iboratdir. Afsuski, hozirda amal qilib turgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot tuzish uslubiyati MHXS talablari darajasida to‘liq javob bermaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning vujudga kelishiga asosiy sabablar:

- bu xolding biznesing rivojlanishi, turli xil bizneslarni yuridik bo‘laklarga bo‘lish va iqtisodiy birlashtirish jarayonidan moliyaviy naf olish maqsadida aktivlar hamda kapitalni singdirish yoki birlashtirish;

- inflatsiya sharoitida turli mamlakatlar valyuta kurslarining doimiy o‘zgarib turishi korporatsiya foydasining taqsimlanishi tortishuvli jarayon ekanligi;

- turli mamlakatlar va federal boshqvruv tizimi mavjud davlatlarda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzning yagona usullari hamda

[1] М.С. Тулаев. «Рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш масалалари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами., Т.: 2020 йил. 840 бет.

tartibi mavjud emasligi. [1]

Xalqaro hisob andozalariga koʻra, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot bosh korxona rahbarligidagi korxonalar guruhi uchun umumlashtirilgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish bilan shugʻullanadi. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot moddalari korxonalar guruhidagi moliyaviy ahvol, operatsiyalar natijalari va moliyaviy ahvoldagi oʻzgarishga oid axborotga boʻlgan ehtiyojni qondirish maqsadida shakllantiriladi. Iqtisodchi olimlar "Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot iqtisodiy va moliyaviy jihatdan bir-biriga bogʻliq boʻlgan bir nechta kompaniyalarning guruhi xususida umumiy ma'lumot olishni ta'minlab, ushbu kompaniyalar guruhining faoliyati natijalari va istiqbolini oʻzida aks ettiradi" deb tarif berganlar.[2]

S.N.Tashnazarov konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish jarayonida "... "5 ta paket standart" tarkibiga kiruvchi standart hisoblanadi va ularning birining qoʻllanilishi boshqasining ham qoʻllanilishini taqozo qiladi: "Konsolidatsiyalash gan moliyaviy hisobot" toʻgʻrisidagi 10-son MHXS, "Qoʻshma faoliyat" toʻgʻrisidagi 11-son MHXS, "Boshqa kompaniyalarga qatnashish hissasi toʻgʻrisidagi axborotlarni ochiqlash" toʻgʻrisidagi 12-son MHXS, "Alohida moliyaviy hisobot" toʻgʻrisidagi 27-son BHXS (IAS), "Assotsiatsiyalashgan kompaniyalarga investitsiyalar va qoʻshma korxonalar" toʻgʻrisidagi 28-son BHXS (IAS)..." deb oʻz munosabatlarini bildirganlar.[3]

Oʻzbekiston Respublikasining kompaniyalarida konsolidatsiyalangan hisobotni tuzish Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 28 dekabrda 580-son bilan roʻyxatga olingan "Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va investitsiyalarni shoʻba xoʻjalik jamiyatlarida hisobga olish" deb nomlangan 8-son Oʻzbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) bilan tartibga solinadi.

Kompaniyalarda konsolidatsiyalangan hisobotni tuzish jarayonida konsolidatsiyalangan balansda ham bosh korxona, ham shoʻba Xuddi shunday moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotda "Sotish hajmi" moddasi ham bosh korxona, ham shoʻba korxona tomonidan amalga oshirilgan sotish hajmini oʻz ichiga oladi.

Konsolidatsiyalashgan balansni tayyorlash vaqtida bosh va shoʻba korxonalarning ma'lum moddalari birlashtiriladi. Ayrim moddalar bosh va shoʻba korxonalar oʻrtasida yuz bergan muomalalar sifatida ayrilishi (hisobdan chiqarilishi) mumkin. Masalan, bosh kompaniya nazorati ostida boʻlgan bir korxonani ikkinchisiga boʻlgan qarzi, ular orasidagi oldi-sotdi muomalalari. Hisobot tuzish jarayonida bunday xoʻjalik muomalalari hisobvaraqlarning umumiy natijasida aks ettirilmasligi lozim. Chunki oldi-sotdi muomalalari,

[1] Пальгуева Т. В. Консолидированная финансовая отчетность страховых компаний. Автореф. дисс. на соискание канд. экон. наук. Москва, 2009.-22 б.

[2] Очилов И.К., Азларов Д.Х., Авлоқулов А.З. "Молиявий ҳисоб-2".Ўқув қўлланма. -Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2003. -326 б.

[3] Ташназаров С.. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Дарслик. – Тошкент:, 2019. – 555 б.

qarzni to‘lash va uni olish muomalalari kompaniya ichidagi pul mablag‘larining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Turli kompaniyalarning xususiyatlarini inobatga olib, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni yagona xalqaro hisob siyosatini qo‘llash uchun 1998 yil 28 dekabrda 580-son bilan ro‘yxatga olingan “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va investitsiyalarni sho‘ba xo‘jalik jamiyatlarida hisobga olish” deb nomlangan O‘zbekiston Respublikasining 8-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ni MHXS talablari doirasida korxonalar o‘z faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini kiritish, moliyaviy birlashtirish va o‘ziga xos moliyaviy tahlil qilish ko‘rsatkichlari meyori hujjatlar asosida ishlab chiqishni talab etadi.

Bundan tashqari quyidagi vazifalarrilishi kerak:

-O‘zbekiston amaliyotidagi kompaniyalarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini shakllanishidan oldin turli ixtisoslashgan kompaniyalar uchun buxgalteriya ma’lumotlarini xalqaro amaliyot talablari doirasida bir xilligini va unitahlil qilish mezonlarining yagona tizimini ta’minlash;

-kompaniyalarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini tuzishda iqtisodiy uyushma qatnashchilari o‘rtasida amalga oshirilgan operatsiyalarning aylanmasi va schyotlardagi qoldiqlarni chiqarib tashlash va unga tegishli buxgalteriya schetlariga tuzatishlar kiritish kerak;

-kompaniyalarining iqtisodiy birlashuv ishtirokchilari- ning -kompaniyalarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tartiblari va hisobot ma’lumotlari taqqoslanishini ta’minlash bo‘yicha yagona nizom va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish kerak;

-kompaniyalarini konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun yagona uslubiy ta’minot yetishmovchiligi sababli, guruh ichidagi operatsiyalarni hisobga olish hamda identifikatsiyalash masalalari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar va yuqoridagi ketma-ketligi va konsolidatsiyalash bosqichlarini amaliyotga qo‘lash zarur.

Xulosa qilib aytganda, kompaniyalar guruhida foydalaniladigan MHXS hisobvaraqlari, buxgalteriya hisob siyosati va ishchi jadvalining yaxlitligini ta’minlash, MHXSga muvofiq hisobotlarni yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning eng maqbul usulini tanlash orqali konsolidatsiya tartibini optimallashtirishga erishiladi.

Ш. Б.Очилов – доцент Бухарский инженерно-технологический институт, к.э.н.,
Ш.М. Авезова – докторант Бухарский инженерно-технологический институт, (PhD)
З.А.Пулатова – преп.школы №24 Бухара

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ МЕТОД ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ НА ОСНОВЕ КОРРЕЛЯЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ

Аннотация: В статье предлагается универсальный метод разработки корреляционной модели, которые можно применить при решении экономических задач в планировании и прогнозировании. На основе уравнения разработанной корреляционной модели спрогнозированы численность трудовых ресурсов Бухарской области на период 2021-2030 г.

Ключевые слова: моделирование, корреляционная модель, трудовые ресурсы, корреляционно-регрессионный анализ, прогнозирование, рынок труда.

Аннотация: Мақолада режалаштириш ва прогнозлашда иқтисодий муаммоларни ҳал қилишда қўлланилиши мумкин бўлган корреляция моделини ишлаб чиқиш учун универсал усул таклиф этилади. Ишлаб чиқилган корреляцион модел тенгламаси асосида 2021-2030 йиллар даврида Бухоро вилояти меҳнат ресурслари сони башорат қилинади

Калит сўзлар: моделлаштириш, корреляцион model, меҳнат ресурслари, корреляцион ва регрессион таҳлил, прогнозлаш, меҳнат бозори

Abstract: The article proposes an universal method for developing a correlation model that can be applied in solving economic problems in planning and forecasting. Based on the equation of the developed correlation model, the number of labor resources of the Bukhara region for the period 2021-2030 is predicted

Key words: modeling, correlation model, labor resources, correlation and regression analysis, forecasting, labor market.

Для научного познания любого экономического явления или процесса можно пользоваться в качестве инструментариев такими четырьмя методами: теоретическим анализом, наблюдением, научным экспериментом, моделированием. Если первые три подхода успешно используются, например, в технических науках, то на долю экономики и управления последнее (за исключением наблюдения, используемого в статистике). Объяснить это можно тем, что экономические процессы достаточно длительны. Корреляционная модель – это математическое выражение типа уравнения, в котором среднее значение результативного показателя формируется под влиянием одного или нескольких факторов. Она позволяет определить ожидаемое значение результативного показателя.

Пусть реальный процесс протекает на некоторому закону $y=f(x)$. И пусть функция $f(x)$ непрерывная и гладкая т.е. имеет производную n-го порядка. Как известно, все функции используемые при прогнозирования социально-экономических явления является такими. А данных x_i

имеющихся в нашем распоряжении является значением функции y=f(x) в точках x_i.

Так как в нашем условии функция f(x) имеет производную n-го порядка,

то $\lim_{x_{i+1}\to x_i}\frac{f(x_{i+1})-f(x_i)}{x_{i+1}-x_i}=f^n(x_i)$ (1)

Следовательно $\lim_{x_{i+1}\to x_i}\frac{f(x_{i+1})-f(x_i)}{x_{i+1}-x_i}=f^n(x_i)$ (2)

Таким образом $\lim_{x_{i+1}\to x_i}\frac{f^{n-1}(x_{i+1})-f^{n-1}(x_i)}{x_{i+1}-x_i}=f^n(x_i)$ (3)

На основе (1), (2), (3) можно написать следующее равенство:

$\lim_{x_{i+1}\to x_i}\frac{f^{n-1}(x_{i+1})-f^{n-1}(x_i)}{x_{i+1}-x_i}\approx f^n(x_i)$ (4)

Теперь рассмотрим на конкретном примере.

В следующей таблице 1 приведены реальные данные о численности населения Бухарской области Республики Узбекистан в период 2016-2020 гг. Требуется сделать прогноз по этим показателям в период например 2020-2025гг.

Пусть $\lim_{x_{i+1}\to x_i}\frac{f^{n-1}(x_{i+1})-f^{n-1}(x_i)}{x_{i+1}-x_i}\approx f^n(x_i)=\Delta^n Y_i$

На основе этого равенства заполняем другие графики таблицы. Здесь x_{i+1} = x+1и $x_i = t$ следовательно $x_{i+1}-x_i = t+1-t = 1$ при всех i=1, x_n и x=1, x_n

Таблица 1

t_i	y_i	Δ^1Y	Δ^2Y	Δ^3Y	Δ^4Y
1	1815	-	-	-	-
2	1843	28	-	-	-
3	1870	27	-1	-	-
4	1894	24	-3	-2	-
5	1923	29	5	8	10

И так по нашим данным: $y^{IV}=10$, при условии $y^{III}(1)=-2$. Поэтому $y^{III}=\int 10dx$ $y^{III}=10x+e$

$y^{III}=10*1+e=-2$, отсюда $e=-12$ и $y^{III}=10x-12$.

Таким образом:

$\frac{d^2y}{dx^2}=\int(10x-12)dx \Rightarrow y'=10\frac{x^2}{2}-12x+e$, при $y^{II}(1)=-1$ и

$y^{II}(1)$ = 5*1-12+e=-1→e=6.

Поэтому $y^{II}=\int(5x^2-12x+6dx)$

$y^{I}=5\frac{x^3}{3}-6x^2+6x+e \rightarrow y^{I}(1)=28$. Далее $\frac{5}{3}-6+6+e$=28 →e=28-1,67

e=26,33;

$y^{I}=\frac{5}{3}x^3-6x^2+6x+26{,}33$, при условии y (1)=1815;

$y = \int(\frac{5}{3}x^3 - 6x^2 + 6x + 26{,}33)\,dx = \frac{5}{12}x^4 - 2x^3 + 3x^2 + 26{,}33\,x + e$

$y(1) = \frac{5}{12} - 2 + 3 + 26{,}33 + e = 1815 \rightarrow e = 1787$

Искомая функция имеет следующий вид:

$У = \frac{5}{12}x^4 - 2x^3 + 3x^2 + 26{,}33x + 1787$

Проверив данную функцию, можно убедиться в пригодности построенной модели. При решении экономических задач можно успешно применить предложенный метод, ограничив вычислением $\Delta^2 y, \Delta^3 y$.

В таблице 2 приведены данные о трудовых ресурсов по Бухарской области Республики Узбекистан в период 2010-2020 гг. Необходимо сделать прогноз на основе этих показателей на период 2021-2030 годы. Используем вышеизложенную методику. При этом ограничимся только $\Delta^2 y$ или $\Delta^3 y$.

Таблица 2

T	$\boldsymbol{\gamma}$	$\boldsymbol{\Delta\gamma}$	$\boldsymbol{\Delta^2\gamma}$	$\boldsymbol{\Delta^3\gamma}$
1	971,9	-	-	-
2	1008,3	36,4	-	-
3	1025,7	17,4	-19	-
4	1035,1	9,4	-8	11
5	1045	9,9	0,5	8,5
6	1055,8	10,8	0,9	0,4
7	1065,4	9,6	-1,2	-2,1
8	1073,1	7,7	-1,9	-0,7
9	1081,6	4,7	-3	-1,1
10	1083,8	3,2	-1,5	1,5
11	1070,4	-10,6	-13,8	-12,3

В дальнейшем для определения функции $y=f(x)$ вычислим среднее значение $\Delta^2 Y_{ср} = \frac{-19-8+0{,}5+0{,}9-1{,}2-1{,}9-3-1{,}5-13{,}8}{9} = \frac{-47}{9} = -5{,}2$ y^{II} =-5,2 или

$\frac{d^2y}{dx^2} = -5{,}2$ при условии $y^I(1)=36{,}4$

$\frac{dy}{dx} = -5{,}2x + c$ и $36{,}4=5{,}2*1+e \rightarrow e=41{,}6$

$y^I = -5{,}2x + 41{,}6$ при начальном условии $y(1) = 971{,}9$

$$\frac{dy}{dx} = -5{,}2x + 41{,}6$$

$y=-1{,}73x^2 +41{,}6x+e$

$971{,}9=-1{,}73x^2 +41{,}6x+e \rightarrow e = 932{,}03$

В итоге данная функция имеет вид: **$y=-1{,}73x^2 +41{,}6x +932{,}03$**

Для проверки надёжности найденной функции сопоставляем фактические $y_ф$ и расчетные значения изучаемого процесса с помощью программы Excel.

Таблица 3

$y_ф$	971,9	1008,3	1028	1035	1048	1056	1065	1073	1077	1081	1070
$y_х$	971,9	1005,3	1034	1057	1076	1084	1098	1095	1099	1093	1082
$y_ф - y_х$	0	+3	-6	-22	-28	-28	-32	-22	-22	-12	-12

Если y^I = (-1,73x^2+41,6x+932,03) = 0 то мы получаем $x = \frac{41,6}{1,73}$ = 12,02.

Это означает, что максимальное значение трудовых ресурсов достигало в период $12 < x \leq 13$. И в дальнейшем происходит снижение количество трудовых ресурсов в этой области.

Используя предложенную методику и предположения относительно тенденции основных показателей численности трудовых ресурсов Бухарской области за 2010-2020г.г. проведем расчет прогнозных значений численности трудовых ресурсов в период 2021-2030г.г. Результаты расчетов представлены в табл. 4.

Таблица 4

Годы	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**	**2026**	**2027**	**2028**	**2029**	**2030**
Численность трудовых ресурсов	1182,11	1176,56	1174,6	1166,75	1154,72	1139,2	1120,31	1098,4	1072	1042,7

Таким образом, прогнозное значение численности трудовых ресурсов к 2030 году снизится на 28 тыс. чел. по сравнению с 2020 годом, это 3%, что объясняется в первую очередь со снижением прироста численности населения Бухарской области.

Также надо подчеркнуть, что нахождение и интегрирование среднего значения Δy и $\Delta^2 y$ не является единственным способом установления зависимости y=f(x).

Рассмотрим данные таблицы №1. Δ^2Y имеет значение $\Delta^2 y(1) = -1$ $\Delta^2 y(2) = -3$ и $\Delta^2 y(3) = 5$

Находим функцию y^{II} в виде $y^{II} = \alpha_o + \alpha_1(x - x_1) + \alpha_2(x - x_1)(x - x_2)$ или $\alpha_o + \alpha_1(x - 1) + \alpha_2(x - 1)(x - 2)$.

Подставим x=1 y^{II} (1)= -1 и найдем $\alpha_o = -1$ и при x=2 y^{II} (2)= -3 и найдем $\alpha_o = -2$ а потом при x=3 y^{II} (3)=5 найдем $\alpha_2 = 5$.

И так наша функция имеет вид $y^{II} = -1 - 2(x - 1) + 5(x - 1)(x - 2)$ или

$y^{II} = 5x^2 - 17x + 11$

Теперь интегрируя два раза последнюю функцию на основе начальных условий y^I (1) = 28 и y^I (1) = 1815 определим функцию. Она имеет вид y=$0{,}467x^4 - 2{,}83x^3 + 5{,}5x^2 + 23{,}8x + 1788$

Пригодность этой модели можно проверить, поставляя x в соответствующие значения.

Функционирование рынка труда в современных условиях экономики характеризуется высокой степенью нестабильности и неопределённости. Для того чтобы выжить, субъекты рынка труда должны быть способны своевременно реагировать на изменяющиеся условия функционирования, как можно более безболезненно приспосабливаться, извлекая максимум выгоды из рыночных возможностей, использую имеющейся трудовой потенциал региона. Это требует от государственных властей постоянного прогнозирования и контроля за изменениями на рынке труда, применения адекватного экономико-математического инструментария, а также создание методики, позволяющей эффективно анализировать динамику рыночных показателей труда. Важнейшим достоинством предложенной методики является построение корреляционной моделей опирающейся на определение производной функции.

Ш.Б. Бутунов–Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси

АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИДА ИЧКИ ХЎЖАЛИК РИСКИНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Мақолада аудиторлик таваккалчилигини аниқлаш ва уни баҳолаш бўйича келтирилган фикрлар аудиторлик текширувлари жараёнида ички хўжалик рисклари даражасини аниқлаш ва баҳолаш хусусиятлари келтирилган.

Калит сузлар. Аудит, таваккалчилик, ички назорат, ҳисоб, бухгалтерия счётлари, текшириш.

Аннотация. В статье представлены взгляды на выявление и оценку аудиторского риска, особенности определения и оценки уровня внутренних экономических рисков в процессе аудита.

Ключевые слова. Аудит, риск, внутренний контроль, учет, бухгалтерский учет, аудит.

Abstract. The article presents the views on the identification and assessment of audit risk, the features of determining and assessing the level of internal economic risks in the audit process.

Keywords. Audit, risk, internal control, accounting, bookkeeping, inspection.

Аудиторлик ташкилоти ўз вазифасини бажарар экан, таваккалчиликни ўз зиммасига олади. Таваккалчилик даражаси эса мижоз корхонанинг ички назорат тизими ва бухгалтерия ҳисоби тизими иқтисодиётда яратилаётган янги ахборот технологиялардан қай даражада фойдаланиш йўлга қўйилганлигига боғлиқ.

Республикамиз иқтисодиётида ислоҳ қилинаётган янги ахборот технологиялар натижаларида аудитор ички назорат тизимининг ишончлилигини ва текшириш ўтказишда унга таяниш мумкинлиги ҳақида

асосли қарор қабул қила олиши учун бу тизимни ўрганади. Агар аудиторнинг фикрича, ички назорат тизими ишончли бўлса, бунда у текширув объектларидан бирортаси бўйича счётлар ёки муомалаларни текширишни тўлиқ ёки қисман ички назорат тизимининг ишлашини текшириш натижаси билан алмаштириш мумкин. Агар ички назорат тизими ишончли ва сезиларли даражада издан чиқмасдан ишлаётганлигини аниқласа, у бухгалтерия маълумотларида катта хатолар йўқ деб тахмин қилишга ҳақлидир. Ички назорат тизими самарасиз бўлса, "Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида"ги Қонун, бухгалтерия ҳисобининг миллий ва халқаро стандартлари, "Аудиторлик фаолияти тўғрисида"ги Қонун ва аудиторлик фаолияти миллий ва халқаро стандартларидан фойдаланган ҳолда унинг камчиликларидан келиб чиқадиган хатарли вазиятларни бартараф қилиш учун тестлар сони ва уни танлаш ҳажмини кўпайтириши лозим.

Ички хўжалик риски – бу мазкур бухгалтерия счётида, бухгалтерия баланси моддасида, бир турдаги хўжалик муомалалари гуруҳида яхлитланганда, хўжалик юритувчи субъект ҳисоботда жиддий камчиликларнинг, бундай камчиликлар ички назорат тизими воситалари ёрдамида аниқлангунга қадар ёки ички хўжалик назорат умуман йўқ бўлганда, аудитор томонидан субъектив тарзда аниқланиш эҳтимоли тушунилади. Ички хўжалик рискини баҳолашда аудитор бир неча гуруҳ омилларини эътиборга олиши лозим.

Биринчи гуруҳга кирувчи омиллар ишлаб чиқаришни юритиш шарт-шароитлари ва услублари билан боғлиқ бўлиб, уларга қуйидагилар киради;

- Ишлаб чиқариш технологиясининг тез-тез ўзгариб туриши;
- Янги ахборот-коммуникация технологияларининг жорий этилиши;
- Тармоқнинг умумий аҳволи ва банкротликлар сони;
- Қонунчиликнинг тез-тез ўзгариб туриши;
- Қонунда белгиланган чеклашлар ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш билан ёки бошқа шарт-шароитлар билан боғлиқ чеклашлар.

Иккинчи гуруҳга кирувчи омиллар ишлаб чиқариш фаолиятининг жойлашган ўрни билан боғлиқ.

Учинчи гуруҳга кирувчи омиллар штат ва бизнесни ташкил этиш билан белгиланади. Бу ерда қуйидагилар муҳим аҳамият касб этиши мумкин: корхона раҳбарининг устунлиги, директорлар кенгашининг самарасиз фаолияти, корхона раҳбарининг молиявий муаммолари, акциядорлар ва раҳбарият ўртасидаги муносабатларда вужудга келадиган тортишув ва муаммолар натижасида раҳбарият мулкдорлар манфаатини ҳимоя қилгани ҳолда ўз мақсадларини кўзлайдилар. Булар замирида қаллоблик ва суиистеъмол қилишлар яшириниши мумкин.

Ички хўжалик рискига таъсир кўрсатувчи омилларга қуйидагиларни ҳам киритиш мумкин:

- Раҳбарият ва ходимлар малака даражасининг тастлиги;
- Келажакка ўта ишонч билан қараш;

- Раҳбарликнинг ҳаддан ташқари майдалаштирилиб юборилиши оқибатида бухгалтерия устидан ягона назорат йўқлиги.

Ходимларнинг етишмаслиги, аудитор ва юристларнинг тез-тез ўзгариб туриши, ҳисоб юритиш ва ишлаб чиқариш хусусиятлари билан яхши таниш бўлмаган янги ишчиларни ёллаш, қаллоблик ва суиистеъмол қилиш, хўжалик муомалаларига доир жиддий келишмовчиликлар, юристлар, маслаҳатчилар ва агентларнинг бир марталик хизматлари учун ҳаддан ташқари юқори ҳақ тўланиши кабилар ҳам ушбу гуруҳга кириши мумкин.

Кутилмаган ва изоҳлаб бўлмайдиган муомалалар, хужжатларнинг тўлиқсизлиги, уларни расмийлаштириш ва тузишга раҳбариятнинг норозилиги ҳамда текширувни тез якунлаш мақсадида мижознинг аудиторга тазйиқ ўтказиши, ноқулай шароитларда ишлаш, кутилмаганда текширув муддатини кечиктириш, аудитор сўровларига раҳбариятнинг нотўғри жавоб бериш каби сабаблар бўйича аудиторлик далил-исботларини олиш билан боғлиқ мураккабликларни ҳам таъкидлаш зарур.

Шундай қилиб, аудитор корхона ички назорат тизимини кўриб чиқишда, аввало, корхона маъмуриятининг ички назоратга муносабати, яъни корхона раҳбарининг фикрлаш хусусиятларини, уларнинг раҳбарлик қилиш услубини, аниқ молиявий ҳисоботга муносабатини ўрганиш ва корхона атрофидаги ишчанлик муҳитини ҳам инкор қилмаслиги зарур. Аудитор ички назорат тизимининг ишончлилигини ва текшириш ўтказишда унга таяниш мумкинлиги ҳақида асосли қарор қабул қила олиши учун бу тизимни ўрганади. Назорат тизимининг ишончлилиги, унинг ҳисоб юритишда муайян шахслар қасддан қилиши мумкин бўлган, шунингдек, тасодифий йўл қўйиладиган ҳатоларнинг олдини олиш ва аниқлаш лаёқатидан иборат. Агар аудиторнинг фикрича, ички назорат тизими ишончли бўлса, бунда у текширув объектларидан бирортаси бўйича счётлар ёки муомалаларни текширишни тўлиқ ёки қисман ички назорат тизимининг ишлашини текшириш натижаси билан алмаштириши мумкин. Агар ички назорат тизими ишончли ва сезиларли даражада издан чиқмасдан ишлаётганлигини аниқласа, у бундай тизимдаги бухгалтерлик маълумотларида ҳам катта ҳатолик йўқ деб тахмин қилишга ҳақлидир.

Ўрганишнинг ушбу босқичида аудитор мижоз билан тузган шартномадан келиб чиқадиган таҳликали вазиятларни баҳолашда тўплаган маълумотлардан фойдаланади. Режалаштириш пайтида ички назорат тизими фаолиятининг барча томонларини батафсил таҳлил қилиб чиқиш лозим. Аудитор олинган маълумотларни ягона тизимга келтириш учун қисқача ҳисобот тайёрлаб, унда қуйидагиларни баён қилади: корхонанинг фаолият қилиш соҳаси ва принциплари; раҳбариятнинг ишончли ҳисоб ва назорат тизимини яратишга оид мажбуриятлар; раҳбариятнинг корхона фаолиятини назорат қила олиш лаёқати.

Аудитор ички назорат тизимини ўрганиш ва баҳолаш жараёнини ўтказиш ва хужжатлаштиришда қуйидаги намунавий шакллардан фойдаланиши зарур:

- Махсус ишлаб чиқилган тестлар;
- Раҳбар ходимлар ва бухгалтерия ходимларининг фикрларини аниқлаш учун намунавий саволлар рўйхати;
- Махсус бланкалар ва текширув варақалари, блок схемалар ва графиклар;
- Камчиликлар рўйхати, баённомалар ёки далолатномалар.

Ўзбекистон Республикаси “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонунда ички назоратга тааллуқли қандайдир махсус талаблар йўқ. Шунинг учун аудитор ички назорат тизимини баҳолашда иккита омилга таянади:

- Ички назоратнинг мақсади корхона раҳбарияти учун ҳам, аудитор учун ҳам бир хил – бухгалтерия ҳисобининг ишончлилиги ва объективлигини таъминлаш;
- Аудиторлик ҳисоботининг таҳлилий қисмида ички назорат ҳолатини экспертиза қилиш натижаларини акс эттириши зарур.

Ички назорат тизимини баҳолашнинг асосий мақсади аудитни режалаштириш, шунингдек, аудиторлик амалларининг турларини, ўтказиш вақтини ва ҳажмини аниқлаш учун пухта замин яратиб, уларни аудиторлик текширувининг дастурида акс эттиришдан иборат. Фараз қилайлик, аудитор томонидан дастлабки аудиторлик текшируви дастури тайёрланган ва у олдинда турган ишларнинг бориши тўғрисида маълум тасаввурга эга. Дастлабки дастур сифатида ўтган йилги аудиторлик текширувининг дастури олиниб, мижоз корхонадаги ички назорат тизимини дастлабки таҳлил қилиш ва самарасизлик хавф-хатарини баҳолаш натижаларига мувофиқ тузатишлар киритилади.

S. R Egamberdiyeva– Qarshi muhandislik –iqtisodiyot instituti, Buxgalteriya hisobi va audit dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
Sh. O Shaymardanova– Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2- kurs BH-504-20- guruh magistratura talabasi

KAPITAL QO‘YILMALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada kapital qo‘yilmalar, ularning mazmuni va kapital qo‘yilmalar hisobini hozirgi holatini tahlili, kamchiliklari hamda takomillatirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлен анализ капитальных вложений, их содержание и современное состояние учета капитальных вложений, недостатки и рекомендации по совершенствованию.

Abstract: This article presents an analysis of capital investments, their content and the current state of accounting for capital investments, shortcomings and recommendations for improvement.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar,kapital qo‘yilmalar, kapital xarajatlar, yerni obodonlashtirish.

Ключевые слова: инвестиции, капитальные вложения, капитальные затраты, мелиорация.

Keywords: investments, capital investments, capital expenditures, land reclamation.

Mamlakatimiz iqtisodi**yot**ini barqaror rivojlanishini ta’minlash o‘z navbatida, korxonalar moliyaviy holatini mustahkamlash, iqtisodiy raqobatda ustunlikka erishish, istiqbolli taraqqi**yot**ining asosiy omillaridan biri ularning kapital qo‘yilmalarni samarali amalga oshirishlari bilan bevosita bo**g‘**liqdir.

Respublikamizda kapital qo‘yilmalar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va boshqa meyoriy hujjatlar talablari darajasida ilmiy jihatdan to‘liq hal etilmagan. Bundan tashqari, iqtisodchi olimlar tomonidan kapital qo‘yilmalar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha hozirgacha bajarilgan tadqiqotlar asosan buxgalteriya hisobining milliy standartlari tamoyillariga muvofiqlashtirilgan bo‘lib, bu boradagi muammolarning zamonaviy yechimlarini batafsil qamrab olmaydi.

Kapital qo‘yilmalar hisobi va auditini takomillashtirishga xorijlik olimlardan Aksenenko A.F., Sheremet A.D., Nidlz B., Ivashkevich V.V., Tkach V.I., Rishar J., Kondrakov N.P., Novichenko P.P. kabilar muhim hissa qo‘shishgan.

Ushbu masalalarning ayrim jihatlari respublikamiz olimlaridan Xasanov B.A, Jumanov A.M., Ibragimov A.K., Sotivoldiyev A.S., Kudbiyev D., Pardayev M.O‘., Pardayev A.X., To‘laxo‘jayeva M.M., Jo‘rayev N.Y., Sanayev N.S., Do‘smuratov R.D., Vohidov S.V., Akramov E.A., Musayev H.N., Usanov A., Karimov A.A., O‘razov K.B. Egamberdiyeva S.R. larning ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Biroq, tahlillarning ko‘rsatishicha, ayni paytgacha mamlakatimizda kapital qo‘yilmalar hisobi va auditining dolzarb muammolarini kompleks tadqiq etishga, sohada buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha yuzaga kelgan muammolarni hal etishga ba**g‘**ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Mazkur muammolar tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbligi va zamonaviyligidan dalolat beradi hamda tadqiqot ishining asosiy yo‘nalishlari mazmunini belgilaydi.

Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy zaruratini asoslashda ularni investitsiya faoliyatidagi o‘rnini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyati «Investitsiya faoliyati» to‘**g‘**risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 3-moddasiga muvofiq, **«investitsiyalar** — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalardir». [1]

Investitsiyalarning mohiyati to‘**g‘**risidagi zamonaviy qarashlarni

[1] «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.-Т.: Тошкент ш., 2019 йил 25 декабрь, ЎРҚ-598-сон.

sharhlash, taqqoslash va tanqidiy baholash mikro va makro iqtisodiy daraja uchun ular mazmunidagi sezilarli farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Olimlar o‘rtasida investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni turlicha talqin etiladi. G‘ozibekov D.G‘.ning fikricha, «odatda, makroiqtisodiy darajada investitsiyalar deyilganda ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, yangi uy-joy binolarini, tovar-moddiy zahiralarini ko‘paytirish va shu kabilarga yo‘nalitirilgan xarajatlarning bir qismi tushuniladi» . [1]

U.Sharp, Dj.Beylilarning ta’rificha, «investitsiyalar kelgusida qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir» .[2]

Mikrodarajada investitsiyalar deyilganda yangi kapital, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalari va intelluktual potensialni, takror ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayoni nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda korxonalar amali**yot**ida va iqtisodiy adabi**yot**larda «investitsiyalar», «kapital qo‘yilmalar» va «aylanmadan tashqari aktivlarga kapital qo‘yilmalar» kabi iqtisodiy atamalar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur atamalarning farqli jihatlarini ajratish bo‘yicha iqtisodchi olimlar o‘rtasida munozaralar mavjud. Umuman olganda, bu atamalar korxona mulkini qurish, sotib olish, yangilash, kengaytirish va qayta ta’mirlash kabi ma’nolarni anglatadi. Ammo, ularning o‘ziga xos qator farqli jihatlari mavjud.

K.Eklundning fikricha, «investitsiya - bu kelajakda ko‘proq iste’mol qilish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste’mol buyumlari bo‘lib, boshqa qismi esa ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan resurslardir»[3] Bu ta’rif ko‘proq kapital qo‘yilmalarga mos keladi.

«Investitsiya» va «kapital qo‘yilma» atamalarining bir-biridan farqli jihatlarini G‘ozibekov D.G‘. quyidagicha ajratadi: «investitsiyalar» atamasi «kapital qo‘yilma», «investitsiyalarning mulkiy shakli», «kapital», «kredit» va boshqa atamalarga ko‘ra kengroq tushuncha hisoblanadi.[4]

Biz ham ushbu fikrga qo‘shilamiz, investitsiyalarning qamrovi kengroq bo‘lib, ular nafaqat qimmatli qo**g‘**ozlarni moliyalashtirish, balki asosiy vositalar, aylanma mabla**g‘**larga sarflangan mabla**g‘**larni ham o‘z ichiga oladi.

Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, ta’mirlash, kengaytirish bilan bo**g‘**liq xarajatlar kapital xarajatlar yoki kapital qo‘yilmalar deb ataladi.

Asosiy vositalarni ta’mirlash, asbob-uskunalarga xizmat ko‘rsatish, yoqil**g‘**i sotib olish xarajatlari esa nokapital xarajatlar yoki hisobot yilida daromad olish maqsadida sarflangan xarajatlar hisoblanadi.

Kapital qo‘yilmalar bilan nokapital xarajatlarni farqlash zarur. Nokapital

[1] Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари.-Т.: Молия. 2003.-332 б.
[2] Шарп У. и др. Инвестиция.-М.: Инфра. 2000.-979 б.
[3] Эклунд К. Эффективная экономика: шведская модель.-М.: Экономика. 1991.-260 с.
[4] Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари.-Т.: Молия. 2003.-332 б.

xarajatlar hisobot davrida daromad keltiradi. Kapital qo‘yilmalar esa bir necha yillardan keyin daromad keltira boshlaydi.

Kapital qo‘yilmalar tarkibiga asosiy vositalar, tabiiy resurslar va nomoddiy aktivlarni sotib olishdan tashqari asosiy vositalarni o‘stirish va parvarishlashga sarflanadigan xarajatlar ham kiradi.

Asosiy vositalarni kengaytirish deganda ularning ishlab chiqarish quvvatini fizik jihatdan oshirish tushuniladi.

Bozor iqtisodi**yot**i sharoitida korxonalar amali**yot**ida kapital qo‘yilmalar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standarti (BHMS)ga muvofiq, kapital qo‘yilmalarga quyidagicha ta’rif beriladi: «kapital qo‘yilmalar bu korxonaning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlariga qo‘yilgan investitsiyalari, shuningdek mahsuldor va ish hayvonlari podasini tashkil etish xarajatlaridir (qiymatidan qat’iy nazar aylanma mablag‘larga kiruvchi parranda, mo‘ynali hayvonlar, quyonlar, asalari, chanaga qo‘shiladigan va soqchi itlar, tajriba hayvonlaridan tashqari).[1]

Bozor munosabatlarining rivojlanishi ishlab chiqarish hisobining tashkiliy darajasiga yanada yuqoriroq talablar qo‘yadi, chunki u korxona va uning bo‘linmalarini ish faoliyati to‘g‘risida haqiqiy ma’lumotlarni olishning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar asosida korxonaning moliyaviy natijalari aniqlanadi.

Kapital qo‘yilmalar hisobini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish faqatgina hisob ma’lumotlari doirasining mazmunini, maqsadga muvofiqligini, muddatini, buxgalteriya hisobini yuritish kapital qo‘yilmalarni boshqaruv hisobining obektlarini aks ettirish usullarini kengaytirish asosida bo‘lmasligi kerak, chunki ushbu holat hisob ishlarining hajmi ortishiga olib kelishi mumkin. Kapital qo‘yilmalar buxgalteriya hisobi ishlab chiqarishning boshqaruv tizimida faqatgina boshqaruv obektlari haqida ma’lumot berish manbai bo‘lib qolmasdan, balki uning holati ustidan tezkor ravishda nazorat qilish vositasi ham hisoblanadi. Xullas, korxona bo‘linmalari faoliyatida kapital qo‘yilmalar haqidagi zaruriy, tezkor va aniq ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi berishi lozim.

Kapital qo‘yilmalar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra xarajatlar guruhida kirganligi tufayli uni boshqaruv hisobi obektiga kiritish mantiqan to‘g‘ri bo‘lar edi.

Navbatdagi muammo, kapital qo‘yilmalar buxgalteriya hisobini tashkil etishda ichki foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisob schetlar rejasini ishlab chiqish, buxgalteriya hisobini tashkiliy asoslari va uslubi**yot**ini, xarajatlarining kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo‘yicha tahlil va nazorat qilinishi resurslardan foydalanishda meyorlarda chetga chiqishlar kabi vaziyatlar etiborga olinishi kerak.

[1] Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БҲМС) "Хўжалик юритувчи субъектлар молиявий-хўжалик фаолиятининг бухгалтерия ҳисоби счётлари режаси ва уни қўллаш бўйича Йўриқнома"Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигида 9 сентябр 2002 йилдаги 103-сонли буйруғи.

Kapital qo‘yilmalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun ularning tarkibi va guruhlari bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Sotivoldiyev A.S.ning fikricha, «korxona tomonidan yangi qurilishga, asosiy vositalarni sotib olishga, rekonstruksiyaga, harakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish va quvvatini texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflangan pul mablag‘lar kapital qo‘yilmalar hisoblanadi».[1] Bu ta’rifda kapital qo‘yilmalar mazmunini yoritishda ko‘proq asosiy vositalarni yaratish va kengaytirishga sarflangan xarajatlarga e’tibor qaratilgan. Ammo, bunda kapital qo‘yilmalar tarkibi to‘liq o‘z ifodasini topmagan. Shuningdek, mazkur ta’rifda kapital qo‘yilmalar sifatida asosan sarflangan pul mablag‘lari ta’kidlangan. Kapital qo‘yilmalar nafaqat pul mablag‘lari, balki moddiy mablag‘lar (materiallar, nomoddiy aktivlar, uskunalar va boshqalar) ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin.

Nidlz B., Anderson X. va Kolduell D.larning ta’rificha, «kapital sarflar yoki kapital qo‘yilmalar bu asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlarni sotib olish va yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflardir». [2]

Mazkur fikrlarni Bobojonov O. va Jumaniyozov K.lar ham qo‘llab-quvvatlashadi. Ularning yozishicha, «uskunalarni ta’mirlash, ularga xizmat ko‘rsatish, yoqilg‘i sotib olish xarajatlari ya’ni subektlarning faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlar nokapital xarajatlarga yoki chiqimlarga kiritiladi, chunki ular ushbu hisobot davrida daromad olish uchun sarflangan xarajatlarni ifodalaydi». [3]

S.Vohidovning fikricha, «kapital qo‘yilmalar bu - xo‘jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuidir».[4]

Karimov A.A.ning yozishicha, «kapital qo‘yilmalar asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish, kengaytirish hamda ularning sifart tarkibini yaxshilash xarajatlarining majmuidir».[5]

Mazkur ta’rifda ham kapital qo‘yilmalar tavsifi to‘liq ochib berilmagan.

G‘ulomova F.G‘.ning ta’kidlashicha, «kapital qo‘yilmalarga asosiy vositalar foydalanishga topshirilgunga qadar ularni sotib olish uchun korxonaning sarflagan xarajatlari kiradi». Bu ta’rif kapital qo‘yilmalar mohiyatini to‘liq ifodalamaydi. Chunki, kapital xarajatlar faqatgina asosiy vositalarga nisbatan emas, balki nomoddiy aktivlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin».[6]

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish kapital qo‘yilmalarni quyidagicha ta’riflashga imkon beradi: «kapital qo‘yilmalar - asosiy vositalar va boshqa uzoq

---

[1] Сотиволдиев А.С., Иткин Ю.М. Замонавий бухгалтерия ҳисоби.- Т.: Ўзбекистон БАМА нашр. I-II-том. 2002.-122 б.

[2] Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета.-М.: Финансы и статистика. 1994.-496 с.

[3] Бобожонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб.-Т.: Молия. 2002.-672 б.

[4] Вохидов С.В. ва бошқ. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.-Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2004.-237 б.

[5] Каримов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби.-Т.: Шарқ, 2004.-592 б.

[6] Ғуломова Ф.Ғ. Бухгалтерия ҳисоби бўйича амалий ўўлланма. 4-чиқариш.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 1999.-144 б.

muddat davomida foydalaniladigan aktivlarni sotib olish, kengaytirish va yaratish bilan bog‘liq investitsiyalardir».

Xulosa qilganimizda, kapital qo‘yilmalar mohiyatini to‘liq ochib berish, ularni tegishli belgilariga muvofiq aniq tasniflash korxonalarda kapital qo‘yilmalarni hisobini oqilona yuritishga xizmat qiladi.

Kapital qo‘yilmalar hisobi va auditini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi xulosalar qilishga imkon beradi:

Respublikamiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning fikrlari asosida kapital qo‘yilmalarning korxonalar iqtisodiy faoliyatidagi o‘rni aniqlagan holda va ularning quyidagi mukammallashgan ta’rifi berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: «k*apital qo‘yilmalar* - asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, qurish, kapital ta’mirlash, kengaytirish, yaratish, obodonlashtirish va parvarishlash bilan bog‘liq xarajatlar yig‘indisidir».

Mazkur ta’rifda “yaratish” “parvarishlash” so‘zlarini ta’rifga kiritishdan maqsad amaldagi ta’rifda nomoddiy aktivlarning yaratilishi bilan bog‘liq xarajatlar, ko‘p yillik daraxtlarni va ishchi va mahsuldorhayvonlarni parvarishlash bilan bog‘liq xarajatlar hamda yerni obodonlatirish bilan bog‘liq xarajatlar o‘z ifodasini topmagan.Shuning uchun kapital qo‘yilmalarning ta’rifiga yuqoridagi so‘zlarni kiritgan holda standartlarga va boshqa meyoriy hujjatlarga kiritilsa, ularning ta’rifi kapital qo‘yilmalar to‘g‘risidagi axborotlarning tahliliy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi

M. T Yaxshiqulova–QarMII “BHvaA” kafedrasi magistri
M.O Sultonova – QarMII “BHvaA” kafedrasi magistri

MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy natijalar tahlilining ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan. Moliyaviy natijalar tahlilini xalqaro moliyaviy tahlil yordamida amalga oshirish va unda foydalaniladigan ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasniflash yuzasidan taklif, tavsiyalar berilgan.

Аннотация.В данной статье описаны научно-теоретические основы анализа финансовых результатов. Даны рекомендации по анализу финансовых результатов с использованием международного финансового анализа и классификации используемых в нем показателей по экономическому содержанию.

Annotation. This article describes the scientific and theoretical basis of financial results analysis. Recommendations are made for the analysis of financial results using international financial analysis and the classification of indicators used in it by economic content.

Kalit so‘zlar. Moliya, natija, foyda, zarar, daromad, xarajat, hisobot, ko‘rsatkich, xalqaro, standart, tahlil, o‘qish, gorizantal, vertical, trend, koeffitsent

Ключевые слова. Финансы, результат, прибыль, убыток, доход, себестоимость, отчет, показатель, международный, стандарт, анализ, чтение,

горизонталь, вертикаль, тренд, коэффициент

Keywords. Finance, result, profit, loss, income, cost, report, indicator, international, standard, analysis, reading, horizontal, vertical, trend, coefficient.

Hozirgi davrda oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo‘lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir.

Xususan, **“Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish”**[1] 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot srategiyasida asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtai-nazardan ham bugungi kunda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha iqtisodiyot subektlari faoliyatining moliyaviy natijalarini tog‘ri aniqlash, baho berish va uni ko‘paytirish yo‘llarini axtarib topish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda iqtisodiy tahlil va auditning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, korporativ boshqaruv tizimidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijasi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Ularning shakllanishi va taqsimlanishi bo‘yicha to‘liq va har tomonlama asoslangan xulosa chiqarish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Ko‘rsatkichlar haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, iqtisodiy tahlilda ko‘rsatkichlar bir qator belgilar bilan tasniflanadi. Xususan, ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni, foydalanish darajasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo‘jalik faoliyatining bo‘g‘inlari va shakllanish holati kabi belgilar bo‘yicha tasniflash[2] qabul qilingan.

Bizning taqdidotlarimiz ko‘rsatadiki, moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasniflash xalqaro moliyaviy tahlil talablariga mos keladi. Chunki, xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotni tuzishning o‘zigina yetarli emas, asosiy muammo, moliyaviy natijalar to‘grisidagi ko‘rsatkichlarni shakllanishi va ozgarishlariga izohlar, sharhlar va tushuntirishlar, yoxud ochib berishlarni yozma bayonini tayyorlashtor uchun hisobotdagi raqamlarning sharxi, tahlili muhimroq hisoblanadi. Aynan, moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasniflash, barcha foydalanuvchilar, xususan, investorlar tegishli xulosa chiqarishi uchun yetarli bo‘ladi. Chunki, bunday tasniflash o‘zining soddaligi, barcha foydalanuvchilar guruhi uchun tushunishga qulayligi bilan ajralib turadi.

Biz quyidagi 1-rasmda moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni boyicha tasnifini keltirdik. 1-rasmdan

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot srategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 1-ilovasi.www.lex.uz

[2] Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazatriyasi. Darslik. Samarqand, Zarafshon. 2001.

ko‘rinadiki, moliyaviy natijalarning mazmuni bo‘yicha shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar anchagina. Ularning har biri ma’lum miqdorga ega bo‘lishi va tahlil qilinayotgan sohaning u yoki bu jihatini ifodalashi kerak. Bu holat aniq axborotlardan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan I.T. Abdukarimov, E.A. Akramov, M.I. Bakanov, M.Q. Pardayev, A.D.Sheremet va boshqalar moliyaviy natijalarni ifodalovchi har bir ko‘rsatkichni aniqlashning nazariy jihatdan asoslangan uslublarini ko‘rsatib berganlar. Endigi asosiy vazifa moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni xalqaro standartlar asosida tahlil qilish va ularning natijalari yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qaroriga asosan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Aynan ushbu yo‘nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni o‘qish va tahlil qilishda xalqaro moliyaviy tahlil talablariga rioya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasnifi.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi koʻrsatkichlarni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni sof foyda va rentabelligini ifodalovchi koʻrsatkichlar oʻrganiladi. Ammo ushbu koʻrsatkichlar bir qancha omillar ta'sirida, koʻpgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi koʻrsatkichlar tahlilining koʻlami ancha kengaygan.

Moliyaviy natija foyda yoki zarar orqali ifodalanadi. Foyda iqtisodiy manfaatlarni uygʻunlashtirish hamda xoʻjalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo ʻjalik faoliyatini ifodalovchi eng muhim mezon hisoblanadi.

Jahon amaliyotida foyda deyilganda, koʻpincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Iqtisodchi olimlar A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlar foyda koʻrsatkichiga quyidagicha ta'rif beradilar:[1] "Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori oʻzgaruvchanlikdir. Ular oʻrtasidagi quyi oʻzgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi".

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani oʻlchashga daxldor boʻlgan elementlar hisoblanadi. Daromadlarni va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va oʻlchash - korxona oʻz moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bogʻliq boʻladi. Foyda yoki zarar – bu boshqa umumlashgan daromadning tarkibiy qismlaridan tashqari jami daromaddan xarajatlar chegirilganidan keyingi qolgan natijasidir[2].

Jami daromad – bu davr mobaynidagi operatsiyalar va boshqa hodisalar natijasida kapitalda yuzaga keladigan o'zgarishlardir. Jami umumlashgan daromad "foyda yoki zarar"ning hamda "boshqa umumlashgan daromad"ning barcha qismlarini qamrab oladi[3].

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki koʻpayishi shaklida oʻsishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitalidagi omonatlardan farq etuvchi oʻsishiga olib keluvchi kamayishdir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklini kamayishi, shuningdek, qatnashchilar oʻrtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Shuningdek, foyda xoʻjalik sub'yektlarining mahsulot sotishdan, asosiy va umumxoʻjalik faoliyatlari natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan soʻng barcha xarajatlarini qoplab, qoʻshimcha qolgan daromadlar yigʻindisidan iborat, deb tushunish ham mumkin. Demak, olingan foydani tahlil qilishda, daromadning koʻpaygan yoki kamayganligi, buning oʻzgarish sabablari hamda unga ta'sir etuvchi omillar oʻrganilishi zarur.

Chunki, moliyaviy natijalar tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi va uni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni

[1] Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 240 б.
[2] BHXS 1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.
[3] BHXS 1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.

foyda va rentabelligini ifodalovchi koʻrsatkichlar oʻrganiladi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning oʻzaro farqlanishidagi holatga ham baho beriladi. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda foyda va zararning shakllanish qatorlari boʻyicha oʻzgarishlari oʻrganiladi. Foyda va zararning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yoʻlga qoʻyishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik koʻrsatkichi va uning omilli tahlili oʻtkaziladi.

Iqtisodiy tahlil moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotni oʻqish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trend tahlil va moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotni oʻqishda uning satrlar boʻyicha koʻrsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va oʻtgan yilning shu davri boʻyicha maʼlumotlariga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va koʻp qatorli usullarda oʻzaro farqlanishlariga va nisbiy oʻzgarishlariga baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natijalarning boʻylamasiga tarkiblanishi, dinamikasi va ularning oʻzgarishlari oʻrganiladi.

Trend tahlilda moliyaviy natijalar va ularning yillar boʻyicha oʻzgarish dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan oʻzgarishlariga baho beriladi.

Tadqiqotlarimiz koʻrsatadiki, moliyaviy natijaga daxldor boʻlgan elementlarning bogʻliqligi yuzasidan analitik tahlilchilar quyidagi qoidaning saqlanishiga muhim ahamiyat qaratishi talab etiladi.

1-jadval

Moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi

F1/F0		ST1/ST0		XK1/XK0		A1/A0		1
Sof foydaning oʼsishi	>	Sotishdan tushumning oʼsishi	>	Xususiy kapitalning oʼsishi	>	Aktivlarning oʼsishi	>	100
1.Aktivlar oʼsishining sharti								
2.Moliyaviy salohiyatning oʼsishi sharti								
3.Iqtisodiy salohiyatning oʼsish sharti								
4.Faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti								

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, analitik tahlilchilar yuqoridagi bogʻlanishlarda albatta “oltin qoida”ning saqlanishiga eʼtibor qaratishlari lozim. Negaki, ushbu qoidaga amal etmasdan biznesning xayotiyligini, faoliyatning davomiyligini, iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligini taʼminlab boʼlmaydi.

VII ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ”

А.М.Касимахунова – Фарғона политехника институти, т.ф.д., проф.,
Т.Бўтаев – Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш сектори бошлиғи, т.ф.н., доцент.,

МУҲАНДИСЛИК ТАЪЛИМ СОҲАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ТАДБИРКОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация. Мақолада муҳандислик таълим соҳалари олий ўқув юртлари талабаларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш ҳозирги замон мураккаб бозор иқтисодиётида қанчалик аҳамиятга эгалиги, дунёнинг етакчи олий ўқув муассасаларида таълимнинг тадбиркорликка йўналтирилган шаклларидан фойдаланиб келаётганлиги таъкидлаб ўтилган. Олий таълим муассасаларининг муҳандислик таълим йўналишларида талабаларда тадбиркорликни шакллантириб бориш ва уни ривожлантириш бўйича қўлланиши зарур бўлган усуллар кўрсатилган.

Калит сўзлар: Техника, муҳандис, тадбиркорлик, компетенция, кичик бизнес, бозор, дастур, таълим.

Аннотация. В статье подчеркивается важность формирования и развития предпринимательских компетенций у студентов инженерного образования в условиях современной сложной рыночной экономики, а также отмечено, что ведущие высшие учебные заведения мира используют предпринимательские формы обучения. В сфере инженерного образования высших учебных заведений указаны методы, которые необходимо использовать студентам для формирования и развития предпринимательства.

Ключевые слова: Техника, инженерия, предпринимательство, компетенция, малый бизнес, рынок, программное обеспечение, образование.

Abstract. The article emphasizes the importance of the formation and development of entrepreneurial competencies in engineering education students in today's complex market economy, the use of entrepreneurship-oriented forms of education in the world's leading universities. In the field of engineering education of higher education institutions, the methods that students need to use to form and develop entrepreneurship are indicated.

Keywords: Technology, engineering, entrepreneurship, competence, small business, market, software, education.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, қўллаб-қувватлаш, имкониятлар бериш борасидаги давлатимизнинг оқилона иқтисодий сиёсати туфайли мамлакатимизда қулай макроиқтисодий муҳит

яратилиб келинмоқда. Ўзбекистон учун хусусий тадбиркорлик ўзини ўзи банд қилиши ва меҳнатга лаёқатли аҳолини иш билан таъминлаши, унинг даромадини ошиши билан ниҳоятда аҳамиятлидир.

Йилдан йилга кенгайиб бораётган замонавий ва мураккаб бозорларнинг юқори талабларига жавоб бера оладиган, инновацион ва креатив фикрлайдиган тадбиркорлар синфини шакллантиришда ва кенгайтиришда, ҳамда тадбиркорликни ривожлантиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва роли биқиёсдир. Айтиш жоизки, юқорида таъкидланиб ўтилган замонавий меҳнат бозорларида ўз ўрнини топиб ва сақлаб қола оладиган кадрларни қисқа ўқув курсларида тайёрлаб бўлмайди.

Дунёнинг етакчи олий таълим тизими ташкилий тузилмасида туб ўзгаришлар рўй бериб, учинчи авлод университетлари шаклланмоқда, уларда замонавий меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган тадбиркорлик компетенциялари шаклланган, лойиҳага йўналтирилган ва инновацион кадрлар тайёрлашга аҳамият қаратилмоқда.

Ривожланган давлатлар олий таълим муассасаларининг тажрибаларидан маълум бўлдики, бозор иқтисодиёти шароитида етук мутахассислар тайёрлаш учун таълимнинг тадбиркорликка йўналтирилган шаклларидан фойдаланиш зарурият бўлиб қолди [1, 2]. Тадбиркорлик миллий иқтисодиётни барқарор суръатлар билан ривожлантиришни таъминлашда, техник ҳамда технологик қайта жиҳозлаш, янги турдаги маҳсулотларни ўзлаштиришда ўта муҳим рол ўйнашидан, ички бозорни зарур товар ва хизматлар билан тўлдиришнинг асосий манбайи эканлигидан яққол далолат беради.

Муҳандислик таълим соҳалари талабалари техник жиҳозларни фақатгина конструктив тузилишларини, ишлаш принципларини ва лойиҳалашни ўрганиш билан чегараланиб қолиши, уларни жамиятда мустаҳкам ўрин эгаллаб, фойда келтиришини ва оилавий эҳтиёжи учун доимо иқтисодий имкониятларини яхши даражада ушлаб туришини кафолатлай олмайди. Охирги вазиятни таъминлаш учун олий таълим юртларида таҳсил олаётган талабаларга тадбиркорликни ҳам сингдириб бориш, мақсадга мувофиқдир. Бу ҳаракат ҳар бир мамлакатнинг иқтисодиётини ривожлантиришнинг энг муҳим омилларидан биридир [3, 4]. Шунинг учун, талаба ёшларни тадбиркорлик ва бизнес ишлари билан ҳам эркин шуғуллантира олишга ўргатиш методларини ишлаб чиқиш ва услубиётларини яратиш устида олиб борилаётган илмий изланишлар ва уларни тажрибада синаб кўриб, амалий хулосалар қилиш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

Республикамиз олий таълим муассасаларининг муҳандислик таълим йўналишларида таълим самарадорлигини ошириш борасида кўплаб тадбирлар амалга оширилиб келинмоқда. Бироқ, мазкур таълим соҳалари талабаларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш масалаларида оқсоқланишлар ва кечикишлар мавжуд. Шу нуқтаи назардан муҳандислик таълим соҳалари талабаларида

тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш технологиялари бўйича илмий изланишлар олиб бориш долзарб масаладир.

Ҳозирда олий таълим муассасасини техника йўналиши бўйича томомлаган мутахассис меҳнат бозорида ўз иш ўрнига эга бўлишида қуйидаги факторлар муҳим ўрин тутади:

a) иш жойининг яшаш худудига яқин бўлиши;
b) иш ҳақини қониқтириши;
c) иш шароитидан қониқиш;
d) иш фаолиятининг истиқболи;
e) иш фаолиятида эркинлик.

Аксарият ҳолларда а), б) ва е) шартлар бўйича қониқмаслик ҳолати муҳандисларни бошқа (олий маълумот талаб қилинмайдиган) соҳаларда вақтинча ёки бутунлай қўним топишига мажбур қилади. Бу таҳсил олиш учун кетган вақт ва сарфланган маблағлар беҳуда кетди дегани эмасми?

Ана шундай салбий ҳолатларни олдини олиш учун муҳандислик таълим соҳалари талабаларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган хориж тажрибаларидан фойдаланилган ҳолда миллий педагогик таълим технологияларини ишлаб чиқиш ва босқичма –босқич татбиқ этиб бориш ҳозирги замон мураккаб бозор иқтисодиёти талабидир.

Албатта, битираётганларнинг ҳаммаси ҳам тадбиркорлик фаолияти билан шуғуллана олмайди ва шарт ҳам эмасдир, қолаверса муҳандислик таълим соҳаси олий таълим муассасаларини вазифаси тадбиркорлар тайёрлаш эмас, аммо муҳандисларнинг тадбиркорлик компетенцияларига эга бўлиши ўз мутахассислиги бўйича фаол ва ижодкор бўлиш, мураккаб муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қила олиш, ўзи фаолият олиб бораётган соҳа ривожига инновацион ғоялар билан ҳисса қўша олиш имкониятларини бериб, иш фаолиятида юксалиш истиқболини белгилайди.

Таъкидлаш жоизки, техника йўналишини тамомлаган кадрни, яъни муҳандисни тадбиркорлик фаолияти билан шуғуллана бошлаши меҳнат бозорида нафақат ўзини иш билан таъминлайди, балки қўшимча иш ўринлари яратади.

Олий таълим муассасаларининг муҳандислик таълим йўналишларида талабаларда тадбиркорликни шакллантириб бориш ва уни ривожлантириш учун икки усулларни тавсия қилиш мумкин:

1.Ўз мутахасислиги бўйича келгусида (ўқишни тамомлагач) тадбиркорлик фаолиятини амалга оширмоқчи бўлган талабалар учун:

- Дарс машғулотларидан сўнг тадбиркорлик тўгараклари ташкил этиш;
- Таниқли тадбиркорлар билан учрашувлар ва суҳбатлар уюштириш;
- Вилоят ва Республика миқиёсида бўладиган инновацион-бизнес ғоялар танловларида фаол қатнашишига шароитлар яратиш;
- Талабаларнинг бизнес ғоялари бўйича стартап лойиҳалар тайёрлашга ва танловда иштирок этиш учун кўмаклашиш.

2.Муҳандислик соҳаси таълим дастурларини тадбиркорликка йўнал-

тирилган тарзда шакллантириш мақсадида қуйидагиларни тавсия қилиш мумкин:

- ✓ Тадбиркорликка лаёқати бор талабаларга амалий ва семинар машғулотларида мавзудан 5-10 фоиз четлашмаган ҳолда бизнесга йўналтирилган топшириқлар бериш;
- ✓ Тадбиркорликка лаёқати бор талабаларни малакавий амалиётларини 5-10 фоиз дастурдан четлашмаган тарзда топшириқлар бериб, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналари объектларида амалга ошириш;
- ✓ Тадбиркорликка лаёқатли талабаларга мутахассислик фанлари бўйича курс иши ва курс лойиҳаси топшириқларини 5-10 фоиз дастурдан четлашмаган ҳолда тадбиркорликка йўналтирилган ҳолда расмийлаштириш;
- ✓ Тадбиркорликка лаёқатли талабаларга битирув малакавий иши мавзуларини тадбиркорликка йўналтирилган тарзда шакллантириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. M.P.Castro, M.G.Gomez Sermeno. Identifying entrepreneurial interest and skills among university students. Sustainable Development 2021, 13, 6995.https: // doi.org/10.3390/su13136995
2. O.Y.Keat, CH.Selvarajah, D.Meyer**.** Inclination towards entrepreneurship among university students: An empirical study of Malaysian university students. International Journal of Business and Social Science Vol. 2 No. 4; March 2011. 206-220. Centre for Promoting Ideas, USA.

3.L.Ubaydullaev, F.Ergasheva. Development of enterprise products in students - as a factor of production problems for young enterprises._Society and innovations Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index. Special Issue –2 (2021)/ISSN 2181-1415.

4.Kuratko D. The Emergence of Entrepreneurship Education: Development? Trends and Challenges. Entrepreneurship Theory and Practice.– 2005. – P.577-591.

Б.Б.Рахматов– СамИСИ, “Менежмент” кафедраси,и.ф.н., доценти
Н.У.Сайидов– СамИСИ, ММН-120 гуруҳ магистранти
Б.Т.Тошқулов– СамИСИ, ММН-121 гуруҳ магистранти

УЧИНЧИ РЕНЕССАНСГА ЎТИШ ШАРОИТИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: Ушбу мақолада ОТМларда таълим хизматларини такомиллаштириш истиқболлари, таълимга йўнтирилувчи инвестицияларни диверцификациялаш,таълим хизматларининг янги замонавий турларини қуллаш асослаб берилган.

Калит сўзлар: таълим, инвестиция, диверцификация экстернал, офлайн,онлайн ва инклюзив.

Аннотация: В основу статьи положены перспективы совершенствования образовательных услуг в высшей школе, диверсификация инвестиций в образование, использование новых современных видов образовательных услуг.

Ключевые слова: образование, инвестиции, диверсификация внешняя, офлайн, онлайн и инклюзивно.

Abstract: This article is based on the prospects for improving educational services in higher education, diversification of investments in education, the use of new modern types of educational services.

Keywords: education, investment, diversification external, offline, online and inclusive.

Ўзбекистон ижтимоий иқтисодий ривожланишнинг маҳсули сифатидаги янги Учинчи Ренессанс даврига миллий ғоямизнинг асосий устунлари ҳисобланмиш, таълим ва тарбия сифатини, соғлом турмуш тарзини, илм-фан ва инновацияларни такомиллаштириш орқали қадам қўяди.

Мамлакат бў борада табора ўсиб ва улғайиб бораётган ишчи кучи ресурсларига, айниқса ёш авлод салоҳиятига таянади. Шунинг учун ҳам давлатимиз раҳбари томонидан 2021 йилга мамлакатимизда **“Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”**, (1)деб ном берилиб қуйдаги вазифалар белгиланган

Ёшларимизни олий таълим билан қамраб олиш даражаси 9 фоиздан 25 фоизга етди. Бу борада эҳтиёжманд оилаларнинг мингга яқин қизлари илк бор олий ўқув юртларига давлат грантлари асосида қабул қилинганлиги алоҳида эътиборга моликдир.

Ўзбекистонда ёшларни олий таълим билан қамров ва эҳтиёжманд оилаларига грантлар



Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантиришнинг устувор йўналишларда, замонавий билим ва юксак маънавий –ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш кўзда тутилган.(2)

Меҳнат бозорида талабгир бўлган касб ва ихтисосликлар тайёрлаш мақсадида, талабалар контенгентини ҳам халқ хўжалиги соҳалари бўйича тайёрлаш ишлари амалга оширилмоқда.



Таълимни замонавий ислоҳ қилишнинг моҳияти, узлуксиз модернизациялашга шарт шароит яратиш, таълимни бутун жаҳон ва мамлакатларда амал қилаётган ўзгаришларга мослашдан иборатдир.

Мазкур масалаларни самарали ҳал этиш учун қуйдаги талифларни берамиз

- таълим хизматларини такомиллаштиришнинг молия оқимларини реструктуризациялаш, манбаларини диверцификаяциялаш;
- ОТМни, давлат,нодавлат, ва тадбиркорлик тизими билан ўзаро боғлиқ. ўқув-илмий-ишлаб чиқариш ва тадбиркорлик мажмуига айлантириш;
- Таълим бериш турларини(экстернал,офлайн,онлайн ва иксклюзив) кенгайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси, 30 декабр 2020 йил

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 8 октябр №ПФ-5847 Фармони

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори № ПП-2909 2017 йил 20 апрел.

УДК:65.22.013.2
Миржаҳон Аликулов – ҚарДУ магистранти

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА САНОАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Мақолада саноат тармоқларида инсон капиталидан самарали фойдаланиш йўллари ва инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигини оширишга таъсир қилувчи иқтисодий омиллари ўз навбатида иқтисодий омиллар саноат корхоналарининг хўжалик ишлаб чиқариш фаолияти натижаларининг бир бўлаги сифатида намоён бўлаши ёритилган.

Калит сўзлар. инсон капитали, инсон ресурси, самарадорлик, саноат тармоқлари.

Аннотация. В статье рассматриваются пути эффективного использования человеческого капитала в промышленных отраслях и экономические факторы, влияющие на эффективность управления человеческими ресурсами, в свою очередь, экономические факторы отражаются в составе результатов хозяйственной деятельности промышленных предприятий.

Ключевые слова. человеческий капитал, человеческие ресурсы, эффективность, отрасли.

Abstract. The article discusses the ways of efficient use of human capital in industrial sectors and the economic factors that affect the effectiveness of human resource management, in turn; economic factors are reflected as part of the results of economic activity of industrial enterprises.

Keywords. Human capital, human resources, efficiency, industries.

Мамлакатнинг саноат тармоқларини ривожлантириш учун ва уни барқарорлаштириш ҳамда модернизация қилиш шартларидан бири ишлаб чиқаришни зарурий малака, кўникма ва фазилатларга эга бўлган инсон ресурслари билан таъминлаш, яъни «инсон капитали»дир.

Саноат тармоқларида инсон капиталининг даражасини аниқлаш усули инсон капиталининг ҳаётийлиги интеграл ёндашув, шу жумладан базавий инвестицияларни баҳолаш сифатида инсон капитали ва инсон капитали ривожланишида ва ходимларнинг ишлаш кўрсаткичлари ҳисобланади.

Ҳозирги шароитда саноат тармоқларида инсон капиталининг қийматини ҳисоблаш асосида иинсон капиталига сарфланадиган харажат-лар миқдори ва инсон капитали самарадорлиги ошириш йўлларини аниқлаш энг долзарб муоммалардан бири ҳисобланади. Шу сабабли саноат тармоқларидаги "инсон капитали" тушунчаси маданий, ижтимоий, жисмоний, маънавий, махсус ходимнинг интеллектуал ва касбий фазилатларининг фойдаланиш учун зарур бўлган махсус билим, кўникма, амалий кўникмалар машғулотлари жуда катта аҳамият касб этади.

Саноат тармоқларида иқтисодий ўсиш, соҳадаги даромадлар тақсимоти, ишлаб чиқариш даражаси ва сифати, ижтимоий соҳа каби қатор иқтисодий кўрсаткичлар бевосита инсон капитали билан боғликлик

муоммаларини ҳал қилишни тақоза этмоқда. Бундан ташқари, ҳозирда жаҳондаги коронавирус (COVID-19) пандемияси шароитида саноат тармоқларидаги инсон ресурсларига бўлган талаб ва таклифга, озиқ-овқат хавфсизлигига сезиларли даражада таъсир кўрсатмоқда. Шу сабабли иқтисодиётнинг инновацион ривожланиш шароитида инсон ресурсларининг ҳал қилувчи роли,иш берувчи билан ходим ўртасидаги янги муносабатлар, иш билан бандликнинг замонавий шаклларини ўрганиш катта аҳамиятга эга. Бу каби муҳим масалаларни ҳал қилишда саноат тармоқларида олиб борилаётган ислоҳотлар йўналишларини қайта кўриб чиқиш ва инсон ресурсларидан унумли фойдаланиш катта аҳамият касб этади.

Инсон ресурсларининг компетенциялари ва қобилиятларини, саноат тармоқларининг интеллектуал капиталини энг муҳим омиллар сифатида ишлаб чиқаришни ривожлантириш масалаларни ўрганишни тақозо этди.

Корхоналарда инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаш ва таъсир даражасини тадқиқ қилиш асосида самарадорликни ошириш бугунги иқтисодиёт фанининг олдида турган муҳим вазифа ҳисобланади. Шу боисдан, инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигига таъсир этувчи ижтимоий-иқтисодий омилларни тадқиқ қиламиз. Инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигининг ошишига таъсир этувчи ижтимоий-иқтисодий омилларни кўриб чиқишдан олдин, омил тушунчасига аниқлик киритиш мақсадга мувофиқдир.

Қашқадарё вилоятида йирик саноат корхоналари сони 31 тани ташкил этиб, ушбу корхоналарда қўшимча қийматга эга бўлган: ёқилғи, енгил, электрэнергетика, кимё ва нефт-кимё, металлургия, машинасозлик ва метални қайта ишлаш, озиқ-овқат ва бошқа саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш билан фаолият кўрсатади (1-жадвал).

1-жадвал

Қашқадарё вилоят саноат тармоқларида фаолият кўрсатаётган йирик саноат корхоналари сони[1]

№	Тармоқ мансублиги	Йиллар				
		2016	2017	2018	2019	2020
1.	Электрэнергетика	3	3	3	3	3
2.	Ёқилғи саноати	6	6	6	6	6
3.	Металлургия	1	1	1	1	1
4.	Кимё ва нефт кимё саноати	1	1	1	1	1
5.	Машинасозлик ва метални қайта ишлаш саноати	1	1	1	1	1
6.	Ўрмон, ёғочни қайта ишлаш ва қоғоз саноати	-	-	-	-	-
7.	Қурилиш материаллари саноати	2	2	2	-	-
8.	Енгил саноат	13	12	12	12	12

[1] Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг 2010-2015 йиллардаги бюллетен тўпламларидан муаллиф ҳисоб-китоби.

9.	Озиқ-овқат саноати	4	3	3	3	3
10.	Бошқалар	7	6	6	4	4
	Жами	**38**	**35**	**35**	**31**	**31**

Тадқиқот жараёнида Қашқадарё вилоятида (1-жадвал) мавжуд йирик саноат корхоналарининг тармоқ мансублиги ифода этилиб, унга мувофиқ, электрэнергетика саноатида 3 та саноат корхонаси (“Қашқадарё ҳудудий электр тармоқлари” акциядорлик жамияти, “Талимаржон ГЭС”, “Қаршиэнерготаъмир” масъулияти чекланган жамияти), ёқилғи саноатида 6 та (“Шўртаннефтгаз” МЧЖ, “Гиссарнефтгаз” ҚК, “Нефтгазминерал” МЧЖ, “Муборакнефтгаз” МЧЖ, “Муборак ГПЗ” МЧЖ ва УК “Деҳқонобод калий ўғитлари заводи”), металлургия саноатида 1 та (“Қарши иккиламчи қора металл” МЧЖ), кимё ва нефт кимё саноатида 1 та (Шўртангазкимё мажмуаси” МЧЖ), машинасозлик ва металнии қайта ишлаш саноатида 1 та (“Муборак иссиқлик электр маркази” АЖ), енгил саноатда 12 та (“Cotton road” ҚК, Қамаши пахта тозалаш” АЖ, “Бешкент пахта тозалаш” АЖ, “Косон пахта тозалаш” АЖ, “Жейнов пахта тозалаш” АЖ, “Муборак пахта тозалаш” АЖ, “Нишон пахта тозалаш” АЖ, “Касби пахта тозалаш” АЖ, “Чироқчи пахта тозалаш” АЖ, “Шаҳрисабз пахта тозалаш” АЖ, “Оқ сарой текстиль” МЧЖ ва “Яккабоғ оқ олтин” АЖ), озиқ-овқат саноатида 3 та (“Қашқадарё дон маҳсулотлари” АЖ, “Дунё-М” АЖ ва “Дон ҳалқ рисқи” АЖ) ва бошқа саноат тармоқларида 4 та (“Қарши ёғ экстракция” АЖ, “Косон ёғ-экстракция” АЖ, “Косон дон маҳсулотлари” АЖ, “Шаҳрисабз вино ароқ” АЖ) саноат корхоналари фаолият кўрсатади.

Инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигини оширишга таъсир қилувчи иқтисодий омиллар сифатидаги инсон ресурсларини бошқариш ҳақи ***бир томондан*** иқтисодий-ишлаб чиқариш инсон ресурсларини бошқариш самарадорлиги кўрсаткичининг кўтарилишига таъсир кўрсатса, ***иккинчи томондан*** эса, иқтисодий-ишлаб чиқариш натижалари юқори ижтимоий натижаларни яратиши билан, ўз навбатида иқтисодий омиллар корхонанинг хўжалик ишлаб чиқариш фаолияти натижаларининг бир бўлаги сифатида намоён бўлади. Шунинг учун иқтисодий-ишлаб чиқариш ва ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар ўртасида ўзаро бир-бирини тўлдирувчи ҳамда боғлиқлик мавжуддир.

Инсон ресурсларини бошқариш самарадорлиги ўзгаришига таъсир кўрсатувчи персоналнинг сифат даражаси бевосита ишчи-хизматчилар-нинг малака даражаси ошишига боғлиқ бўлади. Ишчи-хизматчилар малака даражасининг ошиши ишчиларнинг инсон ресурсларини бошқариш сифати ошишида намоён бўлади. Инсон ресурсларини бошқариш сифати ишчининг инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигига асосланади ва инсон ресурсларини бошқариш интенсивлиги ҳамда ресурслардан унумли фойдаланиш имкониятларини намоён этади.

Ҳ.Н.Очилова – СамИСИ стажёр-тадқиқотчиси

ОЛИЙ МАЪЛУМОТЛИ МУТАХАССИСЛАРГА БЎЛГАН ТАЛАБНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ АСОСЛАРИ

Аннотация. Мақолада олий маълумотли мутахассислардан фойдаланиш самарасини ошириш йўллари, олий маълумотли мутахассисларга бўлган талабнинг истиқболли асослари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: кадрлар, мутахассис кадрлар, касбий маҳорат, кадрлар тайёрлаш, юқори малакали мутахассис.

Аннотация. В статье описаны пути повышения эффективности использования специалистов с высшим образованием, перспективная основа востребованности специалистов с высшим образованием.

Ключевые слова: персонал, кадры специалистов, профессиональные навыки, подготовка кадров, высококвалифицированный специалист.

Abstract. The article describes ways to increase the efficiency of the use of specialists with higher education, the prospective basis of the demand for specialists with higher education.

Keywords: personnel, specialist personnel, professional skills, staff training, highly qualified specialist.

Ислоҳотлар ўтказиши муваффақиятини кўрсатувчи омиллардан бири бўлиб, аҳоли бандлиги ҳисобланади. Бандлик-фуқароларнинг ижтимоий-фойдали фаолияти. Мамлакатда туб ижтимоий иқтисодий ўзгаришлар, меҳнат ва таълим хизматлари шаклланаётганда бу жамиятни ривожлантириш муаммолари, билан жипс боғлиқ жаҳон хўжалигига уйғунлашаётган, юқори рақобатбардошликка эга бозор иқтисодини кадрлар билан таъминлаш давлатнинг стратегик мақсади бўлиб қолмоқда. Мустақил давлатимизнинг сиёсати, жамият ривожланишининг хозирги даражаси, унинг маданияти, фан ва техникаси, бозор иқтисодиётига ўтиш, олий мактаб олдида турган янги вазифалар фақат сифат жиҳатдан янги бўлган таышм мазмуни ва технологиясини, балки, республика иқтисодий ривожланиш динамикасини, тарихан шаклланган вазиятни хўжалик юритишнинг замонавий шароитларида ҳисобга оладиган бозор иқтисодий қонунларига риоя этадиган мутахассислар тайёрлаш ва бунга бўлган талаб йўналишини белгилашга янгича ёндашишни ҳам талаб этади. Давлат миқёсида мутахассислар тайёрлаш, ишга жойлаштириш ва бандлиги жараёнини давлат бошқаруви механизмини ярзтиш айниқса муҳим бўлиб турибди. Бу олий таълимда олий таълим муассасасига талаба қабул қилиш режаси тўла равишда халқ хўжалигининг амалдаги талабларига мос келиши керак деганидир. Бугунги кунда олий таълим йўналишлари миқёсида мутаносиблик 23-25%ни ташкил этади, кўпгина йўналишларда ортиқча мутахассис тайёрлаш (педогогика, мухандислик ва тиббиёт ихтисосликлари бўйича) кузатилмоқда.

Кейинги йилларда мутахассис ходимларга бўлган талаб кескин

ошди, лавозим сифат ва миқдор кўрсаткичлари ўзгарди, уларни олий маълумотли мутахассислар билан алмаштириш зарурияти юзага келди, ишга қабул қилувчилар кўп ҳолларда тегишли тарзда дипломга эмас, балки ходимнинг ишни қай даражада билишлиги, касбий маҳоратига эътибор бермоқдалар. Бу халқ хўжалигининг барча соҳалари бўйича халқаро даражадагига мос келадиган билимга эҳтиёж пайдо бўлди деганидир. Ваҳоланки, кўпгина олий таълим муассасалари меҳнат бозори эҳтиёжи ва бозор талабларига жавоб бера олмайди. Натижада мутахасисларнинг бир қисмига қўшма, хусусий, чет эл ва мамлакатимиздаги бошқа корхоналарда мутлақо талаб йўқ. Олий таьлим муассасаларида мутахассисларни параллел тайёрлаш кузатилмоқда (айни бир ихтисослик бўйича турли олий таълим муассасаларида мутахассислар тайёрланмоқда, воҳоланки вилоятларда уларга талаб йўқ). Булар барчаси олий таълим обрўйини туширмоқда мутахассислар тайёрлаш сифатига салбий таъсир этмоқда. Бу вазиятни ўзгартириш учун яъни олий маълумотли мутахассислардан фойдаланиш самарасини ошириш ва таълимда давлат маблағидан мақсадга мувофиқ, фойдаланиш учун қуйидагилар алоҳида аҳамият касб этади:

- олий таълимни янгича ихтисослаштиришнинг (магистратура ва бакалавриат таълим йўналишини ихтисослари рўйхаmu олий маълумотли мутахассислар билан алмаштирилиши лозим бўлган лавозимдорликка мос келиш даражасини, яъни мамлакат халқ хўжалиги тармоқларидаги лавозимлар билан мутахассислар етиштириш мутаносиблигини белгилаш;
- умумий талабларга мувофиқ олий маълумотли мутахассислар билан таъминланганлик тармоқ, меъёрларини ишлаб чиқариш янги тавсифловчисида қабул қилинган таълим йўналишлари бўйича умумий ва қўшимча талабаларни аниқлаш;
- тармоқ кенгайиши ва меҳнат мураккаблигини сифат жиҳатидан такомиллаштириш билан боғлиқ мутахассисларга талабни аниқлаш. Бунда, албатта қуйидагилар эътиборга олиниши керак;
- уларнинг турли сабабларга кўра ишдан кетиши-авлодлар алмашуvu, табиий кепшш, миграция, ходимлар қўнимсизлиги ва бошқалар;
- олий таълим муассасалари, минтақалар йўналишлар (олий таълим ихтисосликлари бўйича бакалавриат ва магистратура) бўйича талабалар қабул қилишнинг талаб билан мос келиши, яъни олий таълим ҳар бир йўналиши бўйича талабнинг таснифловчи, тавсифловчи ва давлат стандартига мос келиши;
- олий маълумотли мутахассисларга истиқболдаги талабни белгилаш бўйича тармоқ методикасини яратиш.

Мутахассисларга талабнинг ривожланиши иқтисоднинг икки асосий шуъбасида-моддий ишлаб чиқариш ва ижтимоий муҳитда турлича қонуниятга эга.

Моддий ишлаб чиқаришда мутахассисларга талаб вектори интелектуал меҳнат умумий жараёни билан белгиланаади, бунинг сабаби

ишлаб чиқариладиган товарлар рақобатбардошлигини доимо сақлаб туриш, шу жумладан, бунга фан, техника ва юқори техналогиянинг илғор ютуқлари асосида эришиш ҳисобланади. Чунки, янги техналогия мутахассисларнинг бевосита ишлаб чиқариши соҳасидан уни ташкил этиш, тайёрлаш, қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш соҳасига кўчишига олиб келади.

Ижтимоий соҳада, умуман сервисда мутахассислар миқдори давлат ижтимоий сиёсати, сервис хизматига аҳолининг тўловга қобил талаби ошиши асосидаги сервис соҳали фаолияти қалами ошишига мутаносиб ўсмоқда.

Бакалавр ва магистр даражасига эга олий маълумотли мутахассисларга иқтисодиёт тармоқлари талабини ҳисоблаш учун бошланғич информация асосий материаллар бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

- иқтисод тармоқларида улар динамикасида банд таълим соҳаси бўйича мутахассислар миқдори ва тузилиши;
- айрим тармоқ ва минтақалар иқтисодидаги силжишлар ривожи ва стратегиясининг истиқболи, ходимлар, шу жумладан олий маълумотли мутахассислар бандлиги;
- иқтисод, ишлаб чиқариш тармоқлари бўйича бакалавр ва магистр даражасидаги мутахассислар билан лавозим алмашишига бўлган меъёрий талаблар.

Истиқбол методологик асосини ташкил этувчи ёндашиш негизига қуйидагилар асосидаги истиқбол тааллуқли:

- меъёр ва меъёрийлаш;
- иқтисод ва бандликдаги тузилмавий силжишлар;
- техникавий-иқтисодий кўрсаткичлар йўлининг ўзгариши (кўп омилли моделлаш);
- айнийлик асосида.

Мутахассисларга бўлган талабни меъёр ва меъёрийлик асосида истиқбол уларнинг турли хилларидан фойдаланишга асосланади. Тармоқ, мутахассислар меҳнати сарфланадиган соҳага ўзига хослигига боғлиқ ҳоллар қиймат ёки натура ҳолида ифодаланадиган ишлаб чиқариш меъёри ёки самарадорликдан фойдаланиш мумкин.

Замонавий иқтисод ва ижтимоий тараққиёт ўзига хослиги шундаки, кенг хусусийлаштириш фаол тадбиркорлик, чет эл инвестицияси, акциядорлик жамиятлари, ассоциациялар, корпорациялар вужудга келмоқда, турли жамоат бирлашма ва ташкилотлари шаклланмоқда, бошқа тузилмавий силжишлар юз бермоқда, булар мутахассисларга, уларнинг тайёргарлигига, ишга жойлашувига, самарали фойдаланилишига алоҳида талаб қўймоқда ҳамда касбий таълимнинг молиявий шаклланишига ва моддий-технологик таъминланишига таъсир этмоқда.

Тузилмавий силжишлар асосида мутахассисларга бўлган талабни истиқбол мулк айрим турлари ва хўжалик юритиш ривожидаги

устуворликларни ҳисобга олиб, тармоқ ва минтақалар иқтисодини тузилмавий қайта кўриш асосий йўналишларини аниқлаш негизида амалга оширилади. Истиқболланаётган 10-15 йиллик давр жиддий йўналишлари бўлиб, қуйидагилар ҳисобланади:

- иқтисоднинг энг муҳим йўналишларида, айниқса саноатда ишлаб чиқариш ҳажми ўсиш суръатини ошириш;
- бандлик тузилмасида юз бераётган ва кутилаётган йирик ўзгаришлар (моддий ишлаб чиқариш анъанавий тармоқларидаги ходимларни бозор инфратузилмаси тармоқларига ва хизмат соҳасига кўчириш);
- хусусийлаштириш ва кичик бизнесни ривожлантириш ҳисобига хўжалик юритувчи субъектлар сонини ошириш (бу бизнес, маркетинг, молия, ҳисоб-китоб соҳасида мутахассисларга бўлган талабни оширади);
- мудофаа ишлаб чиқаришини алмаштириш ва улар негизида фуқаро ишлаб чиқаришини юзага келиши (бу мудофаа соҳасида мутахассисларга талабни пасайтиради, шу билан бирга, янги техника ҳамда такомиллашган технология соҳасидаги мутахассисларга бўлган талабни қондиради);
- ишлаб чиқаришни техникавий қайта жиҳозлаш (янги технологиялар бўйича мутахассисларга талаб ошади).

Бозор ривожланиши шароитларида иқтисоднинг ишлаб чиқариши интенсивлаш, автоматлаштириш, замонавий алоқа воситаларидан, микропроцессорлар, компьютерлар, робот техникасидан фойдаланиб бошқариш билан боғлиқ барча соҳаларда тегишли мутахассисларга талаб ошмоқда.

Техникавий-иқтисодий кўрсаткичлар ўзгариши тенденцияси асосида истиқбол (кўп омилли моделлаш) кутилаётган тузилмавий силжишлар, демографик омил, ижтимоий тараққиёт иқтисодиётнинг аҳволи ва ривожланиш истиқболини ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида амалга оширилади.

Бундай ҳолда истиқбол модели ўз ичига бир неча блокни олади:

1. Иқтисодиёт аҳволини баҳолаш (бунда бошланғич макроиқтисодий кўрсаткичлардан фойдаланилади). Минтақаларда, умуман, республикада иқтисодиёт ривожини тавсифловчи техникавий-иқтисодий кўрсаткичларнинг шакллантириш бу блокда ҳал этиладиган асосий вазифа ҳисобланади.
2. Иқтисодни ривожлантиришнинг кутилаётган дастурлари. Бу тузилмавий қайта кўриш асосий йўналишларига асосланади. Энг ҳақиқий программани топиш асосий вазифа ҳисобланади.
3. Инвестициянинг кутилаётган миқдори. Бу блокда давлат, минтақа бюджетлари ва бошқа манбалардан инвестициялаш ҳамда молиялаш имкони белгиланади.

4. Ходимлар турли тоифасининг бандлик динамикаси (ишсизликни ва ишчи кучини қайта тақсимлаш механизмини ҳисобга олиб аҳоли бандлиги ҳақидаги маълумотлар асосида шаклланади).
5. Ходимларнинг кутилаётган миқдори ва кетиш тузилмаси (масала ишдан кетаётган ходимлар миқдори ва таркиби мониторинги асосида ҳал этилади).
6. Кутилаётган демографик ўзгаришлар. Бу блокда масала демографик тузилма, меҳнат ресурслари таркиби ва иқтисоднинг қайта кўрилишида юз бераётган ўзгаришлар таҳлилига асосланади.

Умуман, моделлаштириш техникавий-иқтисодий, ижтимоий, демографик ва меъёрий-маълумотномавий кўрсаткичлар бўйича информациявий-меъёрий маълумотлар жамланмаси асосида амалга оширилади.

Аналогия усули билан ҳам мутахассисларга бўлган талабни баҳолашни амалга ошириш мумкин. Бунда бошқа давлатлар шундай фаолияти соҳасида юзага келган сўров кўрсаткичларини қабул қилиш мумкин. Чет мамлакатлардаги аналоглар бўйича иқдисоддаги тузилмавий силжишларнинг боришини, кўп омиллик моделлашда айрим техникавий-иқтисодий кўрсаткичларни, шунингдек, айрим корхоналар бўйича ходимларга талабни баҳолаш мумкин. Асосийси-мамлакатнинг тўғри танланиши.

Мутахассисларга бўлган талабни истиқболига бўлган, юқорида баён этилган ёндашишларни турли комбинацияларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ, муҳими, иқтисод тармоғи (вилоят, минтақа ёки корхона)нинг мавжуд аҳволи ва самарали талқинлари оқилона эътиборга олинишидадир.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида кўзда тутилган таълим хизмати мониторинги ва талаб истиқболи моддий ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳада юқори малакали ходимлар етиштириш ҳамда қайта етиштириш-мутахассисларга бўлган талабни ўрганишни тақазо этувчи мужассама вазифа, яъни:

- республика, вилоят, иқтисод тармоғи ва ижтимоий инфратузилма, олий таълим йўналиши (ихтисослиги)да;
- малака даражаси (бакалавр, магистр) ва таълим (олий, ОТМни тугатгандан сўнгги) бўйича тадқиқотнинг қуйидаги методикаларидан фойдаланиб;
- ижтимоий тадқиқотлар;
- Ўзбекистон республикаси ва чет эллардаги таълим хизматини таққосий, қиёсий таҳлили, кадрлар тайёрлаш бўйича олий таълим муассасалари имконини ўрганиш (мавжуд меъёрларга мосланган таълим миқдорий ва спектр йўналишлари);
- техникавий-иқтисодий кўрсаткичлар ва бозор коньюнктураси билан мос ҳолда ходимларга бўлган талабни моделлаштириш;
- меъёр ва меъёрийлик асосида ходимларга бўлган талабни истиқбол;
- олий таълимнинг аҳволи ва ривожи мониторинги тизимини ишлаб чиқиш;

- аҳоли бандлигини истиқбол асосида ходимларга бўлган талабни ўрганиш;
- тегишли олий маълумот олишга бўлган аҳоли талабини қондириш имкониятларини белгилаш;
- моддий ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳада ходимларга бўлган талабни алоҳида-алоҳида конуниятларини ўрганиш.

Бу республика иқтисодини юқори малакали мутахассисга бўлган талабини қондириш имконини беради.

А.Э.Тангиров – СамИСИ доценти, и.ф.н.
Н.У.Сайидов – СамИСИ, ММН-120 гуруҳ магистранти

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақолада олий таълим муассаларида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда таълим хизматлари сифатини ошириш масалалари ёритиб берилган. Таълим тизими ривожланган хорижий мамлакатлар таълим хизматлари соҳаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: таълим, таълим хизматлари, таълим хизматлари сифати, кадрларни касбий тайёрлаш.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы совершенствования системы подготовки кадров в высших учебных заведениях. Проанализирована сфера образовательных услуг зарубежных стран с развитой системой образования.

Ключевые слова: Образование, Образовательные услуги, качество образовательных услуг, профессиональная подготовка кадров.

Abstract. This article highlights the issues of improving the system of personnel training in higher educational institutions. The sphere of educational services of foreign countries with a developed education system is analyzed.

Keywords: Education, Educational services, quality of educational services, professional training of personnel.

Олий таълим муассаларида таълим хизматлари соҳасининг барқарор ривожланиши инсон капиталининг такомиллашувига, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан жадал тараққиётини таъминлашга олиб келади. Шу туфайли мазкур соҳага катта аҳамият берилиб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини эркинлаштиришни янада чуқурлаштириш, модернизация ва диверсификация қилиш, ишлаб чиқариш омилларидан оқилона фойдаланишни таъминлаш, юқори иқтисодий ўсиш суръатларига эришиш каби ижобий ўзгаришлар ҳам бевосита таълим хизматларининг сифати ва самарадорлигига боғлиқ.

Таълим-бу инсон фаолиятининг барча соҳаларига янги технологияларни жорий этиш, рақобатбардошлиликни ошириш, турмуш даражасини кўтаришнинг муҳим шартига айланиб бормоқда. Олий таълимнинг ижтимоий масъулияти кўп жиҳатдан ҳар бир инсоннинг тез ўзгарувчан меҳнат бозорида харидоргир бўлиб қолиши, ривожланиб бораётган инновацион иқтисодиётда тўлақонли иштирок этиши ва шу йўл билан ўз фаровонлигини ҳамда умуман жамият фаровонлигини таъминлаш имконини берадиган малакавий ва ижтимоий кўникмалар олишидан иборатдир[1].

Президентимиз ёшлар билимига, таълим хизматлари сифатига эътибор берар экан: “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”[2],-дея таъкидлайди**.** Республикамизда олий ва ўрта махсус касб-ҳунар таълим тизимини замонавий талаблар даражасига олиб чиқиш йўналишида амалга оширилаётган кенг кўламли ишлардан бири таълим хизматларини жадал суръатлар билан ривожлантириш ва жаҳон олий таълим тизимига, шу жумладан, мамлакатимиз таълим тизимига ҳам янгидан-янги, талаб даражасидаги рақобатбардош мутахассислар тайёрлашга қаратишдан иборатдир.

Мамлакатимизнинг келажаги, тақдири, аввало, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг қуйидаги сўзлари билан чамбарчас боғликдир: Илм-фан, замонавий ва узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш зарурати туғилмоқда. Халқимизда “Таълим ва тарбия бешикдан бошланади” деган ҳикматли бир сўз бор. Фақат маърифат инсонни камолга, жамиятни тараққиётга етаклайди. Ривожланган мамалакатларда таълимнинг тўлиқ циклига инвестиция киритишга, яъни, бола 3 ёшдан 22 ёшгача бўлган даврда унинг тарбиясига сармоя сарфлашга катта эътибор берилади. Чунки ана шу сармоя жамиятга 15-17 баробар миқдорда фойда келтиради. Бизда эса бу кўрсаткич атиги 4 баробарни ташкил этади. Бинобарин инсон капиталига эътиборни кучайтиришимиз, бунинг учун барча имкониятларни сафарбар этишимиз шарт. Хусусий мактаблар ташкил этиш, давлат-хусусий шерикчилик имкониятларидан кенг фойдаланиш керак деб таъкидлади[3].

Таъкидлаш жоизки, таълим хизматлари сифатини тубдан ошириш, интеллектуал, эстетик ва жисмоний баркамол авлодни шакллантиришни

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

[2] Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. 14- б.

[3] 2018 йил 29 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожатномаси

ҳамда ёшларга таълим беришни янги сифат даражасига кўтариш 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг асосий мақсадларидан бири сифатида белгиланган[1].

Ривожланган мамлакатларни таълим хизматлари тизими турлича ташкил этилган бўлсада, улардаги ўқув, ўқув услубий ишлари ташкил этилиши ҳам ўзларини турлича ижобий томонлари билан ажиралиб туради. Олий таълим тизмида асосий эътибор ўқитишни қандай ташкил этилишига эмас балки унинг натижасига қаратилиши лозим. Олий таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда асосий ролни таълим муассасалари ўйнайди. Осиё мамлакатларидан Хитой, Сингапур, Жанубий Корея, Япония каби мамлакатларда ҳам таълим тизими аниқ ривожланиш йўлига қўйилган. Ҳар бир мамлакат таълим тизими ўзига хос бўлсада, уларда якуний натижаси юқори поғоналарда кўринмоқда.

Ривожланган Европа мамлакатлари олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш жараёнида асосан талабаларни ўқитиш икки йўналишга йўналтирилганлигини кўришимиз мумкин.

Биринчи йўналиш-битирувчи талабаларнинг ўз билим ва малакаларини иш берувчилар талабига мос келтирилиши бўлса,

Иккинчи йўналиш-талабаларни кейинчалик илмий тадқиқот ишлари билан шуғулланишга йўналтирилганлиги бўлмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, таълим хизматлари сифатини ошириш:

- таълим сифати ва самарадорлигини тубдан ошириш, интеллектуал қобилиятларини руёбга чиқариш, улар салоҳиятини янада ривожлантириш;

- таълим муассасаларида мақсадли чуқур тайёрлаш, талабаларнинг ижодий салоҳияти намоён бўлиши ва фаоллашишига кўмаклашиш, индивидуал истеъдодларни ва ҳар бир талабанинг қобилиятини намоён этишига замин яратади.

Зеро, олий таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда таълим сифатини янада такомиллаштириш бутун мамлакатнинг ривожланишига хизмат қилади. Бу эса, пировард натижада жонажон юртимизни янада гуллаб-яшнаши, аҳоли турмуши обод ва фаровон бўлишига хизмат қилади.

[1] www.uzlidep.uz/news-of-party/128

VIII ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА УМУМИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАР”

S.N.Xamrayeva – QarMII, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.d.
M. Amanqulova– QarMII, Lostika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ELEKTRON TIJORATDA MA’LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA KRIPTOGRAFIYADAN FOYDALANISH

Аннотация. Мазкур мақолада globallashuv sharoitida axborot havfsizlik muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishда криптографиядан фойдаланишнинг объектив зарурияти асослаб берилган
Kalit so‘zlar: axborot havfsizligi, internet firibgarlik, spam, blokcheyn
Аннотация. В данной статье обосновывается объективная необходимость использования криптографии при выявлении и преодолении проблем информационной безопасности в условиях глобализации.
Ключевые слова: информационная безопасность, интернет-мошенничество, спам, блокчейн.
Abstract. This article substantiates the objective necessity of using cryptography in identifying and overcoming information security problems in the context of globalization.
Key words: information security, Internet fraud, spam, blockchain.

Xavfsizlik tadbirlari tarmoqqa shunday joriy qilinganki, umumiy inkor etish nuqtasi bo‘lmaydi, nafaqat maxfiylik, balki har qanday harakat bekor qilinmasligi va autentifikasiya ham ta’minlanadi. Tizimda ishtirok etishni istagan har bir shaxs shifrlashdan foydalanishi lozim – bu muhokama qilinmaydi, – va o‘ylamasdan qilingan harakatlar oqibatlarini faqat shu harakatlarni amalga oshirgan shaxsgina his qiladi.

Xakerlik hujumlari, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, firibgarlik, kiberqo‘rqitish, fishing, spam, ziyon keltiruvchi dasturlar, virus-tovlamachilar – bularning barchasi insonning jamiyatdagi xavfsizligiga tahdid soladi. Internetning ilk davri, ko‘plab jarayonlarni shaffof qilish va inson huquqlari buzilishini qiyinlashtirish o‘rniga, xususiy shaxslar, institutlar va iqtisodiy faollik xavfsizligini oshirmasdi. O‘rtacha internetdan foydalanuvchi ko‘pincha elektron pochta va hisob qaydlarini oddiy parollar himoya qiladi deb umid qilardi, chunki provayderlar yoki ish beruvchilar ishonchliroq parollarni talab qilmasdi.

Raqamli valyuta oddiy faylda saqlanmaydi. U kriptografik *xesh* bilan belgilangan tranzasiyalarda aks ettiriladi. Foydalanuvchilar o‘z pullariga kriptokalitlarga ega bo‘ladi va tranzaksiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir-biri bilan amalga oshiradi. Bunday xavfsizlik uchun ularning har biri mas’uliyatli bo‘lishi – shaxsiy kalitlarni ishonchli himoya qilishi zarur. Bu yerda xavfsizlik standartlari muhim. Bitkoin blokcheyni AQSH Standartlar va texnologiyalar

milliy instituti tomonidan chiqarilgan va axborotni qayta ishlash federal standarti sifatida qabul qilingan mashhur va puxta ishlab chiqilgan SHA-256 standartida ishlaydi. Blok yechimini topish uchun zarur bo‘lgan ko‘p martalik matematik hisob-kitoblarni takrorlash murakkabligi hisoblash qurilmasidan masalani yechish va yangi Bitkoinlar ishlab topish uchun ko‘p elektr energyasi sarflashni talab qiladi. Boshqa algoritmlar ancha kamroq energiya sarflaydi.

Bir-biriga kiritilganlik. Iqtisodiyot hamma uchun ishlaganda eng yaxshi ishlaydi. Bu unda ishtirok etish uchun to‘siqlarni pasaytirish lozimligini anglatadi. Bu kapitalni qayta taqsimlash emas, balki *qayta taqsimlangan kapitalizm* uchun platforma yaratish kerakligini anglatadi.

Ilk internet davri ko‘plab odamlar uchun ko‘plab mo‘jizalar yaratdi. Biroq, yuqorida aytib o‘tilganidek, dunyo aholisining katta qismi na texnologiyalarga, na moliya tizimiga va na iqtisodiy imkoniyatlarga ulanish imkoniga ega bo‘lmagan holda avvalgidek, tizimga ulanmasdan qolib ketmoqda. Boz ustiga, yangi kommunikasiya vositasi hamma uchun farovonlik keltirishiga umid oqlanmadi. Ha, Internet rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarga rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda millionlab odamlarga ish taqdim etishga imkon berdi. U ko‘plab tadbirkorlar uchun bozorga kirish uchun to‘siqlarni pasaytirdi va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga yangi imkoniyatlar va bazaviy axborotga ulanish imkoniyatini taqdim etdi.

O‘ylaymizki, blokcheyn texnologiyasi har bir kishining huquqlari va insoniylikni saqlash va himoya qilish vositasiga aylanishga qodir. Haqiqatni tarqatadigan, farovonlikni taqsimlaydigan va – tarmoq qalbaki tranzaksiyalarni rad qilgani kabi – jamiyatdagi dahshatli bir narsaga aylanib ketishi mumkin bo‘lgan ilk saraton hujayralarini yo‘q qilishga qodir bo‘lgan vositagadir. Moliya xizmatlari butunjahon tarmog‘i hozirgi kunda muammolarga to‘lib yotibdi. U eskirib qolgan, chunki yuqori dinamikali raqamli dunyodan ortda qolib ketayotgan va shu sababli sekin va ishonchsiz ishlaydigan, o‘tgan asrdan qolgan texnologiyalarga asoslanadi. U monopol bo‘lib, milliardlab odamlarga bazaviy moliyaviy vositalarga ulanish imkonini bermaydi. U markazlashtirilgan bo‘lib, shu sababli axborot sizib chiqishi va boshqa hujumlar va inkor qilishlarga uchraydi. U monopollashtirilgan bo‘lib, shu sababli status-kvoni qo‘llab-quvvatlashga intiladi va innovasiyalarga to‘sqinlik qiladi. Blokcheyn novatorlar va tadbirkorlarga ushbu kuchli platformada qiymat yaratishning yangi usullarini topgan holda shu va boshqa ko‘plab muammolarni hal qilishga imkon beradi.

KRIPTOGRAFIYA (kripto va grafiya) , maxfiy yozuv— 1) matnni begona, bexabar kishilar tushunmasligi uchun yozuvni o‘zgartirish tizimi, bunda oldindan kelishilgan vositalardan — belgilardan foydalaniladi. Kriptografiya diplomatik, harbiy, savdo-sotiq va moliyaga oid hamda diniy va b. matnlarni shifrlash uchun ishlatiladi. Bu yozuvning ko‘p turlari mavjud: matn xarflarini rakamlar bilan almashtirish, harflar o‘rniga har xil shartli belgilar ishlatish, matnda qo‘llanishi). lozim bo‘lgan harflar o‘rniga boshqa alifbo harflarini qo‘yib yozish va b. Kriptografik yozuv maxsus shifr yordamida o‘qiladi;

2) paleografiyaning maxfiy yozuv tizimi grafikasini o‘rganuvchi tarmog‘i.

Kriptografik himoya shuni bildiradiki, ma’lumotni fakat tegishli insongina ukiy oladi. Ma’lumotni kriptografik usullar bilan ximoyalash kriptologiya deyiladi. Kriptologiya asosi – ma’lumotlarni shifrlash. Shifrlash - Kalit yordamida ochik tekstni shifrotekstga aylantirish jarayoni. Shifrdan chiqarish — kalit yordamida shifrotekstni ochik tekstga aylantirish jarayoni. Kalit – kriptografiya o‘zgartirishlar algoritmining ba’zi-bir parametrlarining maxfiy holati bo‘lib, barcha algoritmlardan yagona variantini tanlaydi. Kalitlarga nisbatan ishlatiladigan asosiy ko‘rsatkich bo‘lib kriptomustahkamlik hisoblanadi. Simmetrik kriptosistemalarda. shifrlash va shifrdan chikarish uchun bitta, asimmetrik kriptosistemalarga. ikkita kalit ishlatiladi.

Kriptografiya axborotni ruxsatsiz kirishdan himoyalab, uning maxfiyligini ta’minlaydi. Masalan, to‘lov varaqlarini elektron pochta orqali uzatishda uning o‘zgartirilishi yoki soxta yozuvlarning qo‘shilishi mumkin. Bunday hollarda axborotning yaxlitligini ta’minlash zaruriyati paydo bo‘ladi. Umuman olganda kompyuter tarmog‘iga ruxsatsiz kirishning mutlaqo oldini olish mumkin emas, lekin ularni aniqlash mumkin. Axborotning yaxlitligini tekshirishning bunday jarayoni, ko‘p hollarda, axborotning haqiqiyligini ta’minlash deyiladi. Kriptografiyada qo‘llaniladigan usullar ko‘p bo‘lmagan o‘zgartirishlar bilan axborotlarning haqiqiyligini ta’minlashi mumkin. Uzatiladigan axborotning ma’nosini yashirish uchun ikki xil o‘zgartirishlar qo‘llaniladi: kodlashtirish va shifrlash. Kodlashtirish uchun tez-tez ishlatiladigan iboralar to‘plamini o‘z ichiga oluvchi kitob yoki jadvallardan foydalaniladi. Bu iboralardan har biriga, ko‘p hollarda, raqamlar to‘plami bilan beriladigan ixtiyoriy tanlangan kodli so‘z to‘g‘ri keladi. Axborotni kodlash uchun xuddi shunday kitob yoki jadval talab qilinadi. Kodlashtiruvchi kitob yoki jadval ixtiyoriy kriptografik o‘zgartirishga misol bo‘ladi. Kodlashtirishning axborot texnologiyasiga mos talablar — qatorli ma’lumotlarni sonli ma’lumotlarga aylantirish va aksincha o‘zgartirishlarni bajara bilish. Kodlashtirish kitobini tezkor hamda tashqi xotira qurilmalarida amalga oshirish mumkin, lekin bunday tez va ishonchli kriptografik tizimni muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi. Agar bu kitobdan biror marta ruxsatsiz foydalanilsa, kodlarning yangi kitobini yaratish va uni hamma foydalanuvchilarga tarqatish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Kriptografik o‘zgartirishning ikkinchi turi shifrlash o‘z ichiga — boshlang‘ich matn belgilarini anglab olish mumkin bo‘lmagan shaklga o‘zgartirish algoritmlarini qamrab oladi. O‘zgartirishlarning bu turi axborot-kommunikasiyalar texnologayalariga mos keladi. Bu yerda algoritmni himoyalash muxim ahamiyat kasb etadi. Kriptografik kalitni qo‘llab, shifrlash algoritmining o‘zida himoyalashga bo‘lgan talablarni kamaytirish mumkin. Endi ximoyalash obyekti sifatida faqat kalit xizmat qiladi. Agar kalitdan nusxa olingan bo‘lsa, uni almashtirish mumkin va bu kodlashtiruvchi kitob yoki jadvalni almashtirishdan yengildir. Shuning uchun ham kodlashtirish emas, balki shifrlash axborot-kommunikasiyalar texnologiyalarida keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda.

Р.М. Мусаев– доцент СамИЭС, к.э.н.,
Э.Ш. Жайнаров– магистр группа МДМ 121, СамИЭС

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА И ЗАЩИТЫ КАЧЕСТВА РЕАЛИЗАЦИИ СЕЛЬХОЗПРОДУКЦИИ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы прогнозирования развития деятельности сельхозпредприятий и защита интересов, как производителей сельхозпродукции и потребителей через использование страховых механизмов при возникновении риска, обусловленного потерями сельхозпродуктов.

Ключевые слова: прогнозирование развития производства, цен, налоги, регулирование, страховая защита, оплата труда.

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarining rivojlanishini prognozlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan xavf yuzaga kelgan taqdirda sug'urta mexanizmlarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish rivojlanishini prognozlash, narxlar, soliqlar, tartibga solish, sug'urta himoyasi, ish haqi.

Abstract. The article deals with the issues of forecasting the development of agricultural enterprises and protecting the interests of both producers of agricultural products and consumers through the use of insurance mechanisms in the event of a risk caused by the loss of agricultural products.

Key words: forecasting the development of production, prices, taxes, regulation, insurance coverage, wages.

В области прогнозирования развития деятельность Министерства сельского и водного хозяйства [1] должна быть направлена на сведение отдельных разрозненных производственных систем в целостное хозяйственное формирование. Межотраслевые пропорции должны регулироваться в сторону интеграции сельского хозяйства, фондообразующих и перерабатывающих отраслей промышленности, торговли и туризма, создающих единую технологическую цепь. Регулирование должно проводиться с помощью финансово-кредитных механизмов [2], налогов, инвестиций и других финансово-экономических методов, а также разработки и принятия законодательных актов и программ. Министерство должно участвовать в политике образования агропромышленных объединений, комбинатов, фирм, кооперативов и других формирований. Интеграция в рамках кластера позволит организовать малоотходное и безотходное производство, сократить потери при перевозках и хранении продукции.

При этом сельхозпредприятия должны выступать выразителем интересов потребителя. Они участвуют в подготовке проектов законодательных актов по защите интересов потребителя, осуществляют

контроль за качеством сельхозпродукции, организовывают информационное обеспечение покупателей о потребительских свойствах продовольственных товаров, проводят их сертификацию.

Решение проблемы качества невозможно без потребителя. Поэтому министерство должно содействовать образованию потребительских союзов и других негосударственных организаций, а также осуществляет ветеринарный и технический надзор.

Регулирование и защита продовольственного рынка требует прежде всего разработки программы приоритетного развития сельского хозяйства и механизма ее реализации, в системе которого ведущая роль принадлежит цене. С помощью цен должны согласовываться интересы всех субъектов товарного производства. Главный недостаток нынешних цен не в том, что они системно растущие в рамках свободной цены, а в том, что они формируются вне рынка. В развитых странах государство также устанавливает потолки и лимиты цен, производит дотации и компенсации, но цены от этого не перестают быть важным рыночным инструментом. Происходит это потому, что они предварительно отрегулированы на рынке путем спроса и предложения. В нынешних условиях в странах с переходной экономикой государство должно проводить не политику ценообразования, а политику регулирования продовольственного рынка, создавая экономические предпосылки развития сельскохозяйственного производства в нужных объемах и пропорциях. Цена должна выступать средством, а не объектом государственного регулирования. Государство должно компенсировать сельскохозяйственным производителям отклонение от рыночной цены в размерах, необходимых для их деятельности в заданном режиме. К другим рычагам регулирования должны относиться налоги, финансы, кредит, инвестиции, субсидии, квоты.

В условиях рынка по-новому следует подходить к взаимоотношениям товаропроизводителей и государства, которые должны строиться с учетом интересов перерабатывающих сельхозпродукты предприятий и их страховой защиты. Если на первом этапе необходим договор о поставке сельхозпродукции, его выполнение нужно поощрять не только экономически и ресурсно, но и через механизмы страхования. Перерабатывающие предприятия должны иметь право отказываться от договора в случае ущемления их интересов.

В связи с этим появляется необходимость пересмотреть механизм регулирования зарплаты и страховых выплат, в которой наиболее полно должны отражаться реальные затраты. Если оплата труда должна рассматриваться как минимальная гарантия платы сельхозработнику за его труд, то страхование должно рассматриваться как механизм, способствующий движению сельхозпродуктов от производителя к потребителю. Предприятия могут по своему усмотрению устанавливать размеры оплаты, исходя из имеющихся у них средств, но не ниже минимальной зарплаты, установленной по Республике, и решается это без

вмешательства государства.

Поэтому в нынешних условиях развитие сельхозпредприятий в рамках выполнения обязательных условий должно предусматривать не только распределение земель, организацию бирж, ярмарок, выставок, аукционов и пр., но и степень страхования в целях обеспечения безопасности хранения и реализации сельхозпродуктов.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по организации деятельности Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан» от №ПП-3671 17.04.2018.

2. Зайналов Дж.Р., Алиева С.С., Расулов Ш.Ж. Методы финансового и денежно-кредитного регулирования деятельности агроформирования в условиях реализации стратегии действий по приоритетным направлениям развития сельского хозяйства. Направления повышения стратегической конкурентоспособности аграрного сектора экономики: материалы Международной научно-практической конференции; М-во обр. и науки РФ; ФГБОУ ВО «Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина»; [отв. ред. А.А. Бурмистрова, И.А. Кузнецов]. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2017. – С.86-92.

Z.S. Shoxo‘jaeva – i.f.n. dotsent, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi doktoranti

M.Z.Eshboboev – QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi 2-kurs magistranti

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUVNI TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING OBЪEKTIV ZARURLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi va undan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga oid taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *suv resurslari, suv muammosi, suv taqchilligi, suvtejamkor texnologiyalar, aqlli suv, suv resurslarini boshqarish, suvdan foydalanishning intensiv va ekstensiv usuli*

Аннотация: *В данной статье приведены предложения и рекомендации по использованию водосберегающих технологий в сельском хозяйстве как актуальной на сегодняшний день проблеме и экономической эффективности ее применения.*

Ключевые слова: *водные ресурсы, водные проблемы, дефицит воды, водосберегающие технологии, умная вода, управление водными ресурсами, интенсивный и экстенсивный способы водопользования*

Abstract: *This article provides suggestions and recommendations on the use of water-saving technologies in agriculture as an actual problem today and the economic efficiency of its application.*

Keywords: *water resources, water problems, water scarcity, water-saving technologies, smart water, water resources management, intensive and extensive water use.*

Dunyoning ko‘plab mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi vujudga kelishida asosan, suv resurslari bilan bog‘liq kamchiliklar, ocharchilik, iqlimni global o‘zgarishi va boshqa ko‘plab omillar sabab qilib ko‘rsatiladi. Xalqaro suv menejmenti instituti tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, biz yashayotgan Yer kurrasida 1,2 mlrd. kishi suv taqchil bo‘lgan hududlarda istiqomat qiladi. Suv yetishmaydigan havzalarda tahminan 1,6 mlrd. kishi hayot kechirmoqda.

Oziq-ovqat xavsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish borasidagi yondashuvlar asosida shuni aytish mumkinki, suv yetarli bo‘lgan mintaqalarda (hududlarda) qishloq xo‘jaligi maxsulotlari yetishtirishni maksimallashtirish talab etiladi. Lekin, Eszerni fikricha, tabiiy resurslar yetarli bo‘lgan sharoitda, moliyaviy resurslar yetishmasligi kuzatiladi-deb ta’kidlagan. Haqiqatan ham resurslar turli hududlarda turlicha, notekis taqsimlangan. Yer yuzasini suv bilan ta’minlanganligi 1400 mln km3 artofida ekanligi hisoblangan. Shuningdek, yomg‘ir suvlari kam miqdor (10 000 km3)ni tashkil etadi. Global sug‘oriladigan maydonlar kartasida (GIAM) keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, butun dunyoda yer usti chuchuk suvlarining 61 foizidan va yer osti suvlarining 39 foizidan sug‘orish maqsadlarida foydalanilishi qayd etilgan.

Suvning shakllanishi oziq-ovqat xavfsizligiga ko‘maklashadi hamda qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz tabiiy sharoitining xilma-xilligi yerlarni melioratsiyalashning turli xillarini qo‘llash zarurligidan dalolat beradi. Namgarchilik past va qurg‘oqchil mintaqalarda qishloq xo‘jaligidan kafolatlangan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun sug‘orish tadbirlarini amalga oshirish lozim. Biroq, mamlakatimiz hududidan oqib o‘tuvchi yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryolarning havzalarida shakllanadigan suvlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslangan holda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratish lozim.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuqari samara beradi. Suvdan foydalanish samaradorligini aniqlashda turli xil usullardan foydalaniladi. Jumladan, chiziqli bog‘liqlik usulidan keng foydalaniladi. Lekin fan va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida, suvning samaradorligini hisoblashga bo‘lgan yondoshuvlar takomillashib bormoqda. Chunki, ilm-fan asrlar davomida doimiy rivojlanib, insonlar ehtiyojiga va turmush farovonligini yaxshilanishiga sabab bo‘lmoqda. Vaholanki, «XXI asr – bilim va intellektual tafakkur asri» degan fikr bejizga aytilmagan.

Sh.Xamraevning ta’kidlashicha “...Suv resurslari taqchilligi O‘zbekistonning izchil rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan asosiy omillardan” biri hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirishda, tarmoqlarni suvga bo‘lgan talabini qondirish hamda suv resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona foydalanish muammosini hal etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ushbu mintaqada suv taqchilligi kuchayish havfi yuqori bo‘lgan hudud

sanaladi. Yevrosiyo rivojlanish banki (EABR)ning hisobotida “1957 – 1980 yillar mobaynida Orol degizi havzasidagi muzliklar hajmi 115,5 km3 ga kamaygan” [1] ligi haqida ma’lumot bergan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida Amudaryo havzasida suv hajmining o‘zgarishi belgilangan me’yorga nisbatan 5-8 foiz (2030 yil)gacha, 2050 yilgacha bo‘lgan davrda esa 10-15 foizga kamayishi bashorat qilingan.

Allanning ta’kidlashicha suv resurslariga bo‘lgan talabni aniqlashda iqtisodiyot tarmoqlari uchun talab etiladigan suvlar bilan birga ekologik holatni barqarorligini ta’minlash uchun ham zarur bo‘lgan suvlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda suv resurslarini boshqarish tizimi ikki bosqichda amalga oshiriladi, ya’ni davlat boshqaruvi orqali (yuqori) va quyi bo‘g‘inda SIUlar yordamida suv resurslari ist’emolchilarga yetkaziladi. Birinchi bosqichda davlat suv xo‘jaligi korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi va barcha xarajatlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– suv resurslarini boshqarish gidrografik chegaralar doirasida, ma’lum bir havza tarkibida tashkil etiladi;

– boshqaruv mintaqalar klimitining hususiyatlarini e’tiborga olib, barcha suv manbalari (er osti, yer usti, kaytuvchi suvlar)ni hisobga olish va foydalanishga ko‘maklashadi;

– barcha turdagi suvdan foydalanuvchilar va suv resurslarini boshqarishda ishtirok etuvchi tashkilotlarning o‘rtasida (gorizontal va vertikal) bog‘liq holda faoliyatini amalga oshiradi;

– suv xo‘jaligi tashkilotlarini moliyalashtirish, qo‘llab-quvvatlash, rejalashtirish va suv xo‘jaligi infratuzilmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

– suv resurslariga bo‘lgan talabni aniqlash va mavjud suv resurslarini boshqarish;

– suv resurslarini boshqarish tizimida ochiqlikni, ma’lumot almashishni ta’minlash va boshqalar.

Quyi tizim xususiy sektorga tegishli bo‘lib, fermer xo‘jaliklariga suv yetkazib berishda suvdan foydalanuvchi tashkilotlar faoliyat olib boradi. Respublikamizda bu shaklda faoliyat yurituvchi tashkilotlar – suv ist’emolchilari uyushmasi deb yuritiladi. SIUlar nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, o‘z a’zolarining badallari hisobidan shakllangan mablag‘lar evaziga faoliyat yuritadi. Asosiy faoliyati fermer xo‘jaliklariga suv yetkazib berish, ichki xo‘jalik kanallarini tozalash va ishchi holatda saqlashdan iborat.

Z.Xudayberganovning fikricha «Suv resurslaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari, odatda, boshqa ko‘rsatkichlar bilan birgalikda, ya’ni sug‘oriladigan yerlar samardorligi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilinadi

[1] С.Р. Ибатуллин, В.А. Ясинский, А.П. Мироненков (2009). Влияние изменения климата на водные ресурсыв Центральной Азии. Отраслевой обзор. © Евразийский банк развития. стр. 21

va baholanadi»[1] deya ta’kidlagan. A.Sultonovning fikricha esa sarflangan suv hisobiga yaratilgan mahsulot hajmi bilan aniqlanishini ta’kidlagan.

Bizning fikrimizcha suv resurslaridan iqtisodiyotni barcha tarmoqlari foydalanilgani bois samaradorlik koʻrsatkichlarini sanoat korxonalarida, xizmat koʻrsatish sohasida, uy xoʻjaliklarida va qishloq xoʻjaligi sohalarida turli xil birliklarda hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu koʻrsatkichlarni har bir soha va tarmoqlar boʻyicha koʻrsatkichlarini keltiramiz:

Sanoatda suvdan foydalanish. Suvdan foydalanish samaradorligi sanoat tarmoqlarida bir xillik va umumiylik kasb etadi. Chunki, sanoat tarmoqlari: qurilish materiallari ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoati, ximiya sanoati. Ushbu tarmoqlarning suvdan foydalanishda samaradorlik koʻrsatkichlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan suv miqdori, m3;
- ishlab chiqarish xarajatlarining 1 soʻmlik miqdoriga mos suv sarfi, m3;
- - oʻrtacha bir mahsulotga sarflangan suv uchun xarajatlar, soʻm;
- 1000 soʻmlik mahsulot tarkibidagi bevosita suv uchun ajratilgan xarajatlar, soʻm;
- suvdan yopiq tsiklda foydalanishda suvni tozalash xarajatlari, m3/soʻm;
- tozalangan 1 m3 suvga toʻgʻri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, kg (tonna) yoki dona.

Agrar sohada suvdan foydalanishda samaradorlik koʻrsatkichlari. Koʻplab adabiyotlarda darslik va oʻquv qoʻllanmalarda samaradorlik koʻrsatkichlari umumiy holda keltiriladi. Bu koʻrsatkichlarni ikki guruhga ajratib oʻrganish muhim deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga suv xoʻjaligi sohasida suvdan foydalanish samaradorligi aniqlansa, ikkinchi guruhda esa qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida suvdan samarali foydalanish boʻyicha koʻrsatkichlar aniqlanadi.

Suv xoʻjaligi sohasida suvdan foydalanishнинг иқтисодий самарадорлик koʻrsatkichlari:

- 1 m3 yetkazib berilgan suvga toʻgʻri keladigan ekpluatatsiya xarajatlari, soʻm;
- manbadan olingan suvni isteʼmolchilargacha boʻlgan oraliqda yoʻqotilgan (shimilishga va bugʻlanishga) suvga toʻgʻri keladigan ekspluatatsiya xarajatlari, m3/soʻm;
- isteʼmolchilarni manbadan olgan 1 m3 suvga toʻgʻri keladigan xarajatlar, soʻm;
- sarflangan 1 m3 suvga toʻgʻri keladigan yetishtirilgan mahsulot qiymati, soʻm;
- 1000 soʻmga toʻgʻri keladigan yetishtirilgan mahsulotga sarflangan suv miqdori, m3;
- 1 gektar maydonga toʻgʻri keladigan ekspluatatsiya xarajatlari,

[1] Худайберганов З.Я. Сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий асослари (Монография).-Т.: 2009. -141 б.

m3/so‘m;

- 1000 m3 suvni ekspluatatsiya xarajatlariga to‘g‘ri keladigan mehnat resurslari xarajatlari, kishi/so‘m;
- 1000 m3 suvni ekspluatatsiya xarajatlariga to‘g‘ri keladigan elektr energiya xarajatlari, kVt/so‘m;

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarida hisobga olinadigan ko‘rsatkichlar:

- 1 tonna mahsulot yetishtirishga sarflangan suv miqdori, m3;
- 1000 m3 suv hisobiga yetishtirilgan ekinlar hosildorligi, ts/ga;
- 1000 so‘mlik mahsulot yetishtirish uchun hisobga olingan maydon, ga yoki m2;
- 1 gektar sug‘oriladigan yerdan olingan hosilga sarflangan xarajat,
- so‘m;
- 1 gektar yerni sug‘orish uchun olingan suv miqdori, m3;
- 1000 so‘mlik mahsulot yetishtirish uchun manbadan olingan suv, m3.

Qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanishga erishishning ikki xil usuli muvjud bo‘lib, ular intensiv va ekstensiv yo‘llarga ajratiladi. Intensiv qishloq xo‘jaligi – mahsulot yetishtirish, almashlab ekish imkoniyati past bo‘lgan ekinlarda resurslardan (kapital, mehnat, yer va suv resurslaridan) foydalanishda yuqori samaraga erishish, mineral o‘g‘it va pestitsidlardan intensiv foydalanish tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligida intensiv o‘sishga erishishda mahsulot etishtirishni kengaytirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini sifat jihatidan takomillashtirish, ilg‘or ishlab chiqarish vositalarini va innovatsion texnika va texnologiyalarini qo‘llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potentsialidan optimal foydalanish yo‘li bilan erishiladi. Intensiv yo‘l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o‘sishida o‘z ifodasini topadi.

Ekstensiv qishloq xo‘jaligi mahsulot yetishtirishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot yetishtirishni ikki hissa ko‘paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ham ikki barobar ko‘paytirilishi lozim. Misol qilib aytganda, mavjud xo‘jalikda ekin ekilgan maydon, texnika miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo‘yicha xuddi shunday yana bir xo‘jalik tashkil etish va ekin yetishtirish tushuniladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o‘zgarmay qoladi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida- alohida mavjud bo‘lmaydi, balki muayyan mutanosiblikda, bir-biri bilan uyg‘un tarzda bo‘ladi. Shu sababli ko‘proq ekstensiv va intensiv qishloq xo‘jaligi resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil tadbirlar majmuiy sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoxujaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021
2. Zebo Safoyevna Shoxo‘jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T, 2012
3. Зебо Сафоевна Шохужаева. Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. Economics, 2020
4. ZS Shoxo‘jaeva, A.B Kurbonov.. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 2019.

А.Б. Қурбонов– ҚарМИИ “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси доценти.

АГРАТАДБИРКОРЛИКДА ХИЗМАТЛАРНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада қишлоқ хўжалигининг ўзига хос ҳусусиятлари ва унда тадбиркорликнинг ўрни асосланган. Шунингдек, қишлоқ хўжалиги тадбиркорлиги соҳасида илмий тадқиқот олиб борган олимларнинг фикрлари урганилган ва таҳлил этилган. Ўзбекистон республикасида қишлоқ хўжалигида мавжуд муаммолари ва истиқболлари келтирилган. Қишлоқ хўжалиги соҳасида мутахассисларининг етишмовчилиги ва тадбиркорликдаги мавжуд муаммоларнининг ечими бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Қишлоқ хўжалиги, тадбиркорлик, агротадбиркорлик, технология, смарадорлик, маҳсулот сифати.

Аннотация: Статья основана на специфике сельского хозяйства и роли в нем предпринимательства. Также были изучены и проанализированы мнения ученых, проводящих исследования в области аграрного предпринимательства. Представлены современные проблемы и перспективы сельского хозяйства Республики Узбекистан. Высказаны предложения и рекомендации по нехватке специалистов в области сельского хозяйства и решению существующих проблем в сфере предпринимательства.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, предпринимательство, агробизнес, технология, эффективность, качество продукции.

Abstract: The article is based on the specifics of agriculture and the role of entrepreneurship in it. The opinions of scientists conducting research in the field of agricultural entrepreneurship were also studied and analyzed. Modern problems and prospects of agriculture of the Republic of Uzbekistan are presented. Suggestions and recommendations were made on the lack of specialists in the field of agriculture and the solution of existing problems in the field of entrepreneurship.

Key words: Agriculture, entrepreneurship, agribusiness, technology, efficiency, product quality.

Қишлоқ хўжалиги дунёдаги энг муҳим соҳалардан биридир. Айтиш мумкинки, қишлоқ хўжалиги барча кишиларни озиқ-овқат билан

таъминлаш билан бирга, уларни иш билан банд қилади. Буни амалга ошириш тадбиркорлик ва қишлоқ хўжалиги соҳаси билан биргаликдаги фаолиятига боғлиқ. Ушбу ҳамкорлик иқтисодиётнинг барқарорлашуви ҳамда глобал иқтисодий ривожланишига хизмат қилади. Глобал иқтисодий ривожланишда тадбиркорлик қишлоқ хўжалигининг ўзига хос хусусиятлари ва бу билан боғлиқ хавфлар туфайли бир қатор муаммолар, қийинчиликлар ва тўсиқларга дуч келади. Шу боис қишлоқ хўжалигида юқори самарали, рақобатбардош тадбиркорликни шакллантириш зарур.

Ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг сони ва сифатига таъсир этмайдиган машиналар ва жиҳозлардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш учун операцион харажатларни камайтириш ставкаси ҳисоблаб чиқилади.[1]

А.Н.Асаул [1] фикрича, тадбиркорлик- бу иқтисодий фаолиятнинг ўзига хос тури бўлиб, унинг моҳияти бозор алмашинуви орқали ўз аъзоларининг ўзига хос эҳтиёжларига бўлган жамият талабини рағбатлантириш ва қондир ишдан иборат бўлиб, бозор мувозанати бузилиши орқали рақобатдош устунликларга эга бўлишга қаратилган. Қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик маълум бир субъэктлар ва тадбиркорлик фаолиятининг объэктлари иштирокини ўз ичига олади. ИВ Украинтсеванинг сўзларига кўра[2], хўжалик юритувчи субъэктлар –бу хўжалик фаолиятини олиб борадиган ва тўлиқ жавобгарликни ўз зиммаларига оладиган тадбиркорларнинг ўзлари.

"Бош директор" журнали [3] иккита асосий глобал муаммо йўналишини аниқлайди:

- озиқ-овқатга муҳтож кишиларнинг даражаси ва аграр муносабатларнинг қолоқлиги. Кўпгина ривожланаётган мамлакатларда ўз қишлоқ хўжалиги аҳолини озиқ-овқат билан таъминлай олмайди ва озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжини қондира олмайди. Шу боис кўпчилик очликдан азият чекмоқда. Зеро, ишлаб чиқариш ҳажми ўсиб борса-да, оч одамлар сони ҳали ҳам кўпчиликни ташкил қиладди. Шундай қилиб, реал вақт режимида жаҳон статистикаси веб-сайтига кўра [4], ҳозирги пайтда дунёдаги ночорлар сони тахминан 730 миллион кишини ташкил этади, бу умумий аҳолининг тахминан 10 фоизини ташкил қилади. Шу нуқтаи назардан, бу муаммо биринчи ва энг муҳим ҳисобланади.
- Иккинчи дунё муаммоси аграр муносабатлар билан боғлиқ. У турли мамлакатларда қишлоқ хўжалиги ривожланишидаги фарқ туфайли пайдо бўлган. Баъзи мамлакатларда янги юқори самарали технологиялар ва ўсиш усулларини қўллаш орқали қишлоқ хўжалиги соҳаси юқори даражада. Аммо айрим мамлакатларда ўтмиш қолдиқларидан келиб чиққан ҳолда мулкчилик муносабатлари нотекис тақсимланган. Ушбу бўшлиқ мамлакатлар ўртасидаги қишлоқ хўжалиги муносабатларида қийинчиликларни келтириб чиқармоқда.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги соҳасида тадбиркорликнинг ўзига хос

[1] https://spravochnick.ru/ekonomika/ekonomicheskie_pokazateli/ekonomicheskie_pokazateli_selskohozyaystvennogo_predpriyatiya/

муаммолари мавжуд. Жумладан, кадрлар етишмаслигида ҳам, уларнинг касбий тайёргарлигида ҳам асосий муаммо кадрлар дейиш мумкин. Қишлоқ хўжалигининг замонавий ривожланиши илм-фан ва янги технологияларнинг энг сўнгги ютуқларига асосланади, бу эса кадрларнинг маълум бир таснифини талаб қилади. Ҳозирги вақтда мамлакатда қишлоқ хўжалигидан олинаётган даромад малакали кадрларга бўлган талабни камайтирган. Шу боис қишлоқ хўжалиги университетларида оз сонли талабалар таҳсил олмоқда. Меҳнат ресурсларининг йирик шаҳарларга ва ривожланган мамлакатларга чиқиб кетиши туфайли вазият янада оғирлашади.

Иккинчи муаммо қишлоқ хўжалиги соҳасидаги кичик бизнесга тегишли. Уларда ишлаб чиқаришни яхшилаш учун капитал етишмайди. Бундан ташқари, узоқ муддатли инвестициялар етишмаслиги муаммоси мавжуд. Буларнинг барчаси яна бир муаммога маҳсулот сифатининг пасайишига олиб келади.

Ривожланишнинг навбатдаги йўналиши халқаро ҳамкорликдир. Ўша ривожланаётган мамлакатлар ривожланган мамлакатлар томонидан моддий ва молиявий қўллаб-қувватлаш шаклида ҳам, уларнинг тажрибаларини ва бизнес юритиш усулларини ўзлаштиришда ҳам ёрдам олишади. Бу айрим мамлакатлар ва қишлоқ хўжалиги тузилмаларининг қолоқлигини енгишга ҳамда уларнинг салоҳиятини аниқлашга ёрдам беради.

Бундан ташқари, Ўзбекистон республикаси учун ривожланишнинг бир неча истиқболли йўналишлари аниқланиши мумкин. Бугунги кунда долзарб ва муҳим йўналишлардан бири бу импорт ўрнини босишдир. Баъзи бир маҳсулотларни олиб киришни тақиқлашдан кейин у алоҳида аҳамиятга эга бўлди. Шу билан бирга, маҳаллий ишлаб чиқарувчини ривожлантириш, уни ишлаб чиқариш ва таъминотини кенгайтиришга эътибор қаратилди.

Ўзбекистон учун қишлоқ хўжалигидаги иккинчи истиқбол – бу давлат ролининг ошиши. Бунга амалдаги кўмак дастурларини кенгайтириш, қишлоқ хўжалигини хатарлардан янги, мажбурий давлат суғуртаси яратиш, молиялаштириш даражасини ошириш ва янада арзон кредитлар яратиш орқали эришиш мумкин.

Айни пайтда қишлоқ хўжалигининг деярли барча сегментларига сармоя киритиш жуда хавфли ишдир. Аммо сифатли ривожланиш учун маҳаллий қишлоқ хўжалиги саноати янги даражага чиқишга ёрдам берадиган муҳим инвестициялар оқимига муҳтож.

Яна бир истиқболли йўналиш – бу технологияларни ривожлантириш ва ўзимизнинг илмий базамиз. Деҳқончилик шаклларини такомиллаштириш ва зараркунандаларга ва иқлим шароитидаги ўзгаришларга нисбатан анча чидамли тирик организмларни аниқлаш учун тадқиқотлар ва ҳар хил тажрибаларни қўллаб-қувватлаш керак. Мамлакатнинг қишлоқ хўжалиги университетлари зиммасига тушадиган малакали мутахассисларни тайёрлаш ҳам бирдек муҳимдир.

Қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш

даражаси кўрсаткичларини ҳамда иш билан бандликни ошириш учун вилоят ва унинг туманларида ташкилий ва иқтисодий чора-тадбирлар оширилиши зарур. Шунингдек, тадбиркорлик субъектлари ва мавжуд меҳнат ресурсларининг ҳаракатчанлигини таъминлаш, касб-малакасини ошириш, кишилардаги мавжуд тажрибасини сақлаб қолиш муҳимдир. Бунинг учун бизнинг фикримизча, меҳнат ресурсларини икки йўналишда малака ошириш тизимини шакллантириш тадбиркорлар ўртасида ҳамда қишлоқ меҳнат бозорида меҳнат ресурслари ўртасидаги рақобат, шунингдек меҳнат ресурслари ва тадбиркорлар ўртасида ҳам рақобат муҳитини яратиш имконини беради. Ушбу ҳолатни шакллантириш учун кадрларни босқичма-босқич малака ошириш ва қайта тайёрлаш механизмини жорий қилиш лозим.

Қуйида биз томонимиздан қишлоқ хўжалиги кичик тадбиркорликнинг соҳалар бўйича малакали кадрлар тайёрлаш тизими тавсия этилади,(1-жадвал).

1-жадвал

Қишлоқ хўжалигида кичик тадбиркорликнинг соҳалар бўйича малакали кадрлар тайёрлаш тизими[1]

Таълим олувчилар	Тадбиркорлар	Маълумотга эга бўлмаган ишсизлар	Маълумотга эга бўлган ишсизлар
Таълим бериш йўналиши	Малака ошириш Тажриба алмашиш	Касб –ҳунар ўргатиш	Янги касб бўйича йўналтириш
Таълим беришнинг мақсади:	-Бозор иқтисодиёти-га мослаштириш учун янги ахборотлар билан таништириш -Республика ва хорижда эришилган илғор тажрибаларни оммалаштириш	Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ аҳолисининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш соҳасидан бошқа соҳаларига жалб қилиш ва улар тўғрисида тушунча бериш. Ушбу йўналишда касб - ҳунарга ўргатиш ва йўналиш бериш	
Талимни ташкиллаштирувчи ташкилот ва муассалар:	Вилоят ва туман ҳокимликлари, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги	Вилоят ва туман ҳокимликлари, меҳнат биржалари, олий ўқув юртлари, касб-ҳунар колежлари, бизнес инкубаторлар.	
Тинглов ва таълим берувчи ўртасидаги алоқани ташкил этиш ва унинг муддати:	-Бевосита аудито-рияларда ҳар икки йилда бир ой -Интернет, факс, поч-та орқали ўзлуксиз	-Бевосита аудиторияларда йилнинг ҳар ойида янги тингловчиларни қабул қилиш - Интернет, факс, почта орқали узлуксиз	
Таълим олиш босқичлари ватингловчиларни рағбатлантириш:	Биринчи босқич - бир ойлик таълим, мамлакат бўйича тажриба алмашиш Иккинчи босқич-бир ойлик таълим олиш	Биринчи босқич , бир ойлик таълимда касб ҳунар ўрганиш. Иккинчи босқич таълим олган	Биринчи босқич- , бир ойлик таълимда ўзи қизиққан соҳани ўрганиш. Иккинчи босқич

[1] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

	ва тажриба алмашиш натижасида тадбир-корликда янгилик яратиш соҳаларни кенгайтирган тадбир-корлар хорижда тажриба алмашишига жўнатиш	йўналиши бўйича янги иш очганда тадбиркорларни ўқитиш тизимига йўлланма бериш.	таълим олган йўналиши бўйича янги иш очганда тадбиркрорларни ўқитиш тизимига йўлланма бериш.
Таълимни қўллаб – қувватлаш:	Вилоят ва туманларнинг маҳаллий бюджети, агросаноат мажмуидаги йирик корхоналарининг махсус фондлари, молиявий барқарор тадбиркорлик субъектлари ҳисобидан молиялаштириш,		

Ривожланишнинг навбатдаги йўналиши халқаро ҳамкорликдир. Ўша. Ривожланаётган мамлакатлар ривожланган мамлакатлар томонидан моддий ва молиявий қўллаб-қувватлаш шаклида ҳам, уларнинг тажрибаларини ва бизнес юритиш усулларини ўзлаштиришда ҳам ёрдам олишади. Бу айрим мамлакатлар ва қишлоқ хўжалиги тузилмаларининг қолоқлигини енгишга ҳамда уларнинг салоҳиятини аниқлашга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳозирги пайтда иқтисодиётнинг ҳар қандай соҳаси сингари қишлоқ хўжалигида ҳам унинг жадал ривожланиши ва яхшиланишига тўсқинлик қиладиган ўзига хос муаммолар мавжуд. Аммо уларни ўрганаётганда позицияларни мустаҳкамлаш ва келгуси ўсиш учун жуда кўп истиқболли йўналишлар пайдо бўлади. Қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик бутун дунёда кенг тарқалганлиги сабабли, халқаро ҳамкорлик учун кўплаб имкониятлар яратмоқда. Бу алоҳида давлатларда ҳам, уларнинг ривожланишини жадаллаштириш ва уларнинг салоҳиятини очишда, умуман олганда, глобал иқтисодиётда янги босқичга кўтаришда фойдали бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Асаул А. Н. / Организация предпринимательской деятельности: учебник для вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд.– СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6
2,Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве[Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – УРЛ: ҳттп://е-консепт.ру/2017/770442.ҳтм
3 Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2020. – УРЛ: ҳттпс://www.гд.ру/артислес/9254-қққ-17-м6-02-06-2020- перспективй-селского-ҳозяйства
4. Мировая статистика онлайн [Электронный ресурс]//Worлдометерс.– URL:http//www.worldmeters.инфо (Дата обращения: 06.11.2017)
5. Турсунов Имамназар Эгамбердиевич, Курбанов Алишер Бобокулович Инновационные подходы развития предпринимательства // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-podhody-razvitiya- predprinimatelstva
6. Курбанов А.Б., Джалилова Н.М. Роль кооперации в формировании аграрной собственности Economics № 4 (47), 2020

А.М.Абиткариев – Андижон давлат университети “Иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси, и.ф.н.

БОЖХОНА ХИЗМАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ЎРНИ

Аннотация. Мақолада рақамли божхона тизимини такомиллаштириш ҳисобига импорт ва экспорт операцияларини амалга оширишда кўриклар сонини ва вақт сарфини камайтириш ҳамда божхона хизматлари самарадорлигини божхона объектларини электрон тарзда замонавий талаблар асосида жиҳозлаш орқали янада ошириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Импорт, экспорт, божхона, рақамли божхона, қонунчилик, мониторинг, божхона аудити.

Аннотация. В статье освещены вопросы снижения количества контрольных просмотров и времени на эти процедуры путем усовершенствования цифровой налоговой системы отрасли, а также повышения эффективности таможенных услуг за счёт оборудования таможенных объектов современными электронными средствами.

Ключевые слова: Импорт, экспорт, таможня, цифровая таможня, законодательство, мониторинг, таможенный аудит.

Abstract. The article highlights the issues of reducing the number of inspections and time spent on these procedures in carrying out export and import operations through improving the digital customs system, as well as the issues of increasing the efficiency of customs services by equipping customs houses with modern electronic equipment.

Keywords: Import, export, customs, digital customs, legislation, monitoring, customs audit.

Ташқи иқтисодий-ижтимоий алоқаларни амалга оширишда давлат божхона органларининг ўрни беқиёсдир. 2020 йил 5 июнда қабул қилинган ПФ-6005 сонли „Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида“ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони соҳада ислоҳатларни амалга оширишда муҳим асос бўлди. Унга кўра 2020-2023 йилларда божхона маъмуриятчилигини ислоҳ қилиш ва божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш концепцияси тасдиқланди [1].

Концепцияда асосий эътибор ташқи савдони самарали мониторинг қилиш натижасида бюджетга тушумни кўпайтириш, соҳага рақамли технологияларни тадбиқ этиш, яширин иқтисодиётга қарши курашиш, халқаро ҳамкорликни ривожлантириш, рақобатбардош ходимларни тайёрлаш ва ижтимоий ҳимояни мустаҳкамлашга қаратилган.

Божхона тизимида ўтказилаётган ислоҳатлар натижасида сўнгги йилларда мамлакатга импорт қилинган товарларнинг 76.6 фоизи темир йўл, 22,3 фоизи автотранспорт, 1,1 фоизи эса ҳаво йўллари орқали

ташилиб, уларни „Хавфни бошқариш“ тизими орқали назорат қилиниши йўлга қўйилди.

Шунингдек, экспортда 84%, импортда 73% юкларни расмийлаштириш соддалаштирилиб, божхона кўриклари сони 1,1 марта камайтирилгани натижасида вақт сарфи - экспорт соҳасида 1,3 марта, импорт соҳасида эса - 1,4 мартага қисқартирилишига эришилди, самарадорлик эса 1.8 баробарга ўсди.

Юк автотранспорт воситаларини божхонада расмийлаштиришга кетадиган 2-3 соатли сарф ўрнига, автоматлаштириш туфайли бор-йўғи 5-10 минут вақт сарфланмоқда холос. Бу эса ўз навбатида иш самарасини юқори юқори даражада таъминлаб, вақт сарфини 24 дан 56 мартагача қисқарганлигини кўрсатади.

Хавфни бошқариш тизими 2020 йил 1-июндан бошлаб автомобиллар, 2021-йил 30 июндан бошлаб эса темирйўл чегара постларида ишга туширилиб, унга кўра ҳалол юк ташиш хизматини олиб бораётган корхоналар ҳамда тадбиркорлар юклари ортиқча текширувларсиз чегарадан ўтказилмоқда. Бу дастур орқали яшил йўлакдан 26,7%, сариқ йўлакдан 67,6%, қизил йўлакдан 5,7% товарлар расмийлаштирилиб, Республика бўйича 532 ҳолатда 32,9 млрд.сўмлик товар-моддий қийматликларини қонунга хилоф равишда олиб ўтиш ҳоллари аниқланган.

Ҳозирда рақамли божхона тизимида ахборот йўналишлари 45 тага етиб, интерфаол хизматлар сони эса 30 тани ташкил этди. Божхона постлари тегишли равишда керакли замонавий асбоб-ускуналар билан таъминланди. Чегара ўтказиш пунктларида фитосанитария ва ветеринария назорат органлари сертификати ва рухсатнома ҳужжатлари „Ягона дарча божхона ахборот тизими“ орқали амалга оширилмоқда, автоматлаштирилган тарзда чиқариб юбориш тизими жорий этилиб, статистик қиймати 50 млн.доллардан ортиқ хавф даражаси паст бўлган товарлар инсон омили аралашувисиз автоматик равишда расмийлаштирилмоқда [2].

Бугунга келиб мамлакатимиз божхона тизимида аниқ вақт даври давомида товарларни божхона ҳудудига кириб келишидан то эркин муомалага киритгунга қадар мониторинг қилиш имкониятини берувчи платформа – „ягона дарча божхона ахборот тизими“ни ишга тушириш режалаштирилмоқда. Божхона кўриги далолатномаларини расмийлаштиришни мобиль илова орқали амалга оширилган ҳолда Россия, Беларусь, Озарбайжон, Қозоғистон, Тожикистон, Қирғизистон ва Афғонистон давлатларининг божхона ва бошқа хизматлари билан реал вақт режимида ўзаро электрон ахборот алмашинувини амалга оширилиши йўлга қўйилди. Натижада экспорт товарларининг ҳақиқийлиги тўғрисидаги маълумотларни текшириш имконияти бўлди.

Божхона органларининг маълумотини қабул қилиш, узатиш ва қайта ишлаш сифати ва тезлигини ошириш мақсадида мамлакатимизнинг 124 та божхона объектларига янги замонавий маршрутизатор қурилмалари

ўрнатилди. Натижада божхона объектлари ўртасида маълумот алмашинув тезлиги ва сифати 2 – 3 баробарга ошиб, божхона бошқарув органлари ўртасида маълумотларни назорат қилиш осонлашди. Божхона органлари ахборот тизилмалари 21 та бошқа ахборот назорат тизимларига интеграция қилиниб, улар экспорт ва импорт қилинаётган товарлар ва олиб кирилаётган нақд чет эл валюталарини курьерлик жўнатмалари ва божхона органларида мавжуд бўлган бошқа маълумотлар билан таъминланмоқда.

Божхона назорати остидаги вагон ва контейнерларнинг ҳаракати тўғрисидаги маълумотларни реал вақт режимида тақдим этиш бўйича темирйўл ташкилотлари ахборот тизимлари божхона ахборот тизимларига интеграция қилинди. Божхона органлари ва ташқи иқтисодий фаолият иштирокчилари ўртасида электрон ҳужжат ва маълумотлар алмашинуви бўйича „ТИФ (ташқи иқтисодий фаолият) қатнашчисининг шахсий кабинети“ ахборот платформаси жорий этилди. Давлат божхона қўмитаси расмий веб-сайтида импорт ва экспорт товарлар бўйича божхона статистикаси маълумотларини олиш имконини берувчи интерфаол хизмат амалиётга киритилди.

2021 йилнинг 1-апрелидан амалиётга жорий этилган „Божхона аудити“ автоматлаштирилган ахборот тизими ёрдамида ТИФ иштирокчилари фаолиятини баҳолаш орқали уларни инсон омилисиз автоматлаштирилган ҳолда танлаб олиш, божхона аудитига оид барча ҳужжатларни электрон шаклда расмийлаштириш, уларни ТИФ иштирокчиларининг шахсий кабинетига юбориш имкониятлари яратилди. Шунингдек, интрфаол хизматлар ёрдамида жисмоний шахслар томонидан белгиланган меъёрдан ортиқча олиб кирилаётган товарлар тўғрисидаги дастлабки маълумотлар асосида божхона тўловларини ҳисоблаб чиқиш ва онлайн тарзда тўлов қилиш имкониятлари яратилди. Бу ҳол тўланган пул маблағлари давлат бюджетига реал вақт режимида келиб тушишида ҳамда чегара божхона постларида тирбандликлар юзага келиш ҳолатларининг олдини олишда муҳим омил бўлди[3].

Хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришда божхона хизмати ўз мавқеига эга бўлган ҳолда, кириб келаётган товар қийматликларининг қонуний эканлигини текшируви, қонун асосида расмийлашганлиги, божхона божи ва декларацияни тўғри ва тўлиқ расмийлаштирилганлиги ва бошқа объектив ва субъектив ҳолатларга эътибор бериб келмоқдалар. Уларга давлатимиз томонидан доимий равишда ғамхўрлик ва эътибор нафақат шахсий таркибга, балки тадбиркорлик субъектлари ҳам амалда ҳис этган ҳолда ходимларнинг меҳнати енгилланиб, самарадорлик ошмоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, божхона хизмати органлари самарадорлигини ошириш концепциясини соҳага рақамли иқтисодиёт тамойиллари билан биргаликда амалий жиҳатдан босқичма-босқич жорий этилиши ўз ижобий натижасини бера бошлади ва бу ҳолат бардавом бўлиши зарур.

Шу билан бирга халқаро индексларда мамлакатимиз юқори ўринларни эгаллаши учун янада кўпроқ изланишимиз лозим бўлади. Жумладан, фикримизча, биринчи навбатда чегара постларида „Электрон навбат“ тизимини жорий этиш, „Экспорт“ режимидаги расмийлаштирувни чегарада амалга ошириш, бир хил расмийлаштирув ҳужжатларини қисқартириш ва ходимлар иш фаолиятини баҳолаш тизимини такомиллаштириш каби омилларни инобатга олиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2920 йил 5 июндаги ПФ-6005 сонли “Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони. Lex.uz.-docs/484461.
2. Солиқ ва божхона хабарлари. Молиявий-иқтисодий газета. 2021й., 35-45 сонлар, gazeta.norma.uz.
3. Bojxona.uz.O‘zbekiston Reshublikasi Davlat Bojxona Qomitasiningg rasmiy veb-sayti.

M.Yu. Alimova– QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
X.X. Ravshanov– QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi magistranti

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH SOHASIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz meva-sabzavotchilik sohasini takomillashtirish, shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari ekiladigan maydonlarni, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini oshirish, tarmoqni rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy institutlarning mablag‘larini faol jalb etishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: agrosanoat majmuasi, bozor, globallashuv, kooperatsiya, innovatsion faoliyat, iqtisodiy samaradorlik, marketing, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье анализируются комплексные меры, направленные на оздоровление плодоовощного комплекса страны, в том числе увеличение посевных площадей, мощностей по хранению и переработке, активное привлечение средств международных финансовых институтов для развития отрасли.

Ключевые слова: Агропромышленный комплекс, рынок, глобализация, кооперация, инновации, экономическая эффективность, маркетинг, конкурентоспособность.

Abstract. This article analyzes comprehensive measures aimed at improving the country's fruit and vegetable complex, including an increase in acreage, storage and processing capacities, and the active attraction of funds from international financial institutions for the development of the industry.

Key words: Agro-industrial complex, market, globalization, cooperation, innovations, economic efficiency, marketing, competitiveness.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish bevosita agrosanoat tarmog‘i iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish masalasi bilan bevosita bog‘liqligi o‘z navbatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etishi sababli respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar agrar tarmoqda ustuvorlik asosida amalga oshirilmoqda.

Mamlakat agrar tarmog‘ida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni eksportga chiqarish borasida juda katta to‘liq foydalanilmay yotgan imkoniyatlar mavjud. Tahlillar ko‘rsatishicha, respublikada yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari ichki talabdan ortiqcha bo‘lgan yillarda mahsulotning ichki bozordagi o‘rtacha baholari juda pasayib ketib mahsulot yetishtiruvchi dehqon zarar ko‘rishi kuzatiladi. Shuningdek, shakllangan past bozor bahosi mahsulotlarni bozorga chiqarishga to‘siq bo‘lib, mahsulotning aksariyat ko‘p qismi iste’molchiga yetmasdan nobud bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘plab omillar bilan bir qatorda mahsulotlarning o‘rtacha bozor baholari pasayishi yoki nobudgarchiliklar miqdori ortishida mahsulotni sotish tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi katta to‘siq bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi korxonalarini iqtisodiy ahvoli yomonlashuvi orqali mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muammolar paydo bo‘ladi.

Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari aholi iste’mol talablarini qondirishda asosiy o‘rinni egallagan holda qayta ishlash sanoati uchun ham asosiy xomashyo bo‘lib, ushbu tarmoqda band bo‘lganlarning daromad manbai hisoblanadi. Shu bois, meva-sabzavotchilik tarmoqlarini rivojlantirishga so‘nggi yillarda mamlakat miqyosida katta e’tibor berilmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi mavjud texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish va xo‘jalik yuritish shakllari faoliyati, mahsulot yetishtiruvchi xo‘jaliklarning moddiy-texnik ta’minoti darajasi, mahsulot yetishtiruvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlarining rivojlanish darajasi bozor talablariga qanchalik javob berishi mahsulot yetishtirishning raqbotbardoshlik xususiyatlarini aniqlab beruvchi muhim omillar qatoriga kiradi. Shu bilan birgalikda yetishtirilgan mahsulotlarning sifati, miqdori va mahsulot yetishtirishga sarflangan moddiy hamda mehnat resurslari hajmini optimallashtirish, savdoga chiqariladigan tovar mahsulotlari tannarxini kamaytirish borasida olib boriladigan tadbirlar ishlab chiqarishning iqtisodiy barqarorligini ta’min etadi va mahsulot yetishtiruvchi dehqonni qo‘shimcha foyda bilan ta’minlaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish sohasini rivojlantirish iqtisodiy muammolari va qishloq xo‘jaligida kooperatsiya va integratsiya jarayonini rivojlantirish masalalarida agroiqtisodchi olimlardan A.V.Chayanov kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatini mustaqil ravishda o‘z faoliyatini birlashtiruvchi turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari mushtarakligini ta’min etuvchi munosabat sifatida tariflaydi. Muallif bu yerda asosiy e’tiborni mol-mulk emas balki kooperatsiya munosabatlariga kirishgan mustaqil subyektlar manfaatlariga xizmat qilishga qaratish lozimligini alohida uqtiradi.

Bozor sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yetishtirgan mahsulotlarini bozor orqali iste’molchilarga taklif etish va sotish natijasida, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplashi va ma’lum miqdordagi foydaga ega bo‘lishi lozim. Ushbu foyda miqdorigina ishlab chiqarishning kelajakdagi “taqdirini” (istiqbolli rivojlanishi yoki inqirozga yuz tutishini) hal etuvchi omil hisoblanadi.

Kooperatsiya dehqonga nafaqat foyda olishni ta’min etishda yordam berishi lozim, balki uning bilimlarini, malakasini oshirishga ham xizmat ko‘rsatishi kerak» ekanligi ta’kidlanadi [1] . O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlari o‘ziga xos ta’mi va mazasi bilan xorij bozorlarida azaldan nom qozongan va o‘z xaridorlariga ega. Ammo, mahsulot eksporti uchun zarur infratuzilma unchalik ham yuqori darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Hozirda O‘zbekiston eksport salohiyatida qishloq xo‘jaligining, ayniqsa, meva-sabzavot va uzum mahsulotlarining ahamiyati juda yuqori. Oxirgi paytlarda bu mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha Hukumat tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilindi va imtiyozlar yaratildi.

Agrar tarmoqda eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yangi va qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan «O‘zbekoziq-ovqatxolding» kompaniyasi tarkibidagi «O‘zagroeksport» tashqi savdo kompaniyasi mazkur maqolaning obyekti bo‘lib xizmat qiladi, predmeti meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksportini rivojlantirish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish maqsadida maqolada:

- meva-sabzavot va uzum mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha Hukumat tomonidan chiqarilgan bir qancha qarorlar o‘rganildi;
- O‘zbekistonda meva-sabzavot va uzumni qayta ishlash bo‘yicha yangi korxonalar qurish va mavjudlarini rekonstrusiya qilish hamda qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan quvvatlar tahlil qilindi;
- yangi va qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilishning zarurligini asoslash va ularning moliyaviy holatini mustahkamlashda «O‘zagroeksport» tashqi savdo kompaniyasining ahamiyati ko‘rsatildi.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo‘jaligi respublikamizning iste’mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo‘lib ham hisoblanadi.[2]

[1] Чаянов.А.В. Основные идеи и формы организации сельскохозяйственной кооперации. –Москва. -1927. -357 б.

[2] https://www.lex.uz

Agrar soha rivojlanishining hozirgi holati, tarmoq investitsion jozibadorligining nisbatan pastligi, kapitalning sekin aylanishi, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishning o‘ta tavakkalchilikka moyilligi Hukumat tomonidan agrar siyosatni olib borishda har tomonlama puxta o‘ylangan va tizimli yondoshuvni talab etadi. Bunday siyosat yuritish agrar sohasida bozorning salbiy ta’sirlarini yumshatish, tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, uzoq muddatli iqtisodiy sur’atlarini va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi.

Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko‘zda tutilayotgan 2016-2020 yilga mo‘ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo‘yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, eksportchi korxo-nalarni marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘z aksini topadi.

Jahon bozorida raqobat kurashi kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimizning mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularga qo‘shimcha imtiyoz va prefrensiyalar berish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurdir. Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, iste’molchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi to‘g‘risida axborot ko‘magini berish, davlatlararo kelishuvlarga ko‘ra mamlakat korxonalari uchun xorijiy davlatlarda eng ko‘p qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, trasport tizimi va h.k) rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko‘maklashish kabi chora-tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatdoshligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, jahon bozorlarini marketing jihatdan chuqur tadqiq qilish asosida tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan raqobatdosh yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yetkazib berish hajmlari va turlarini ko‘paytirishdan iborat.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda har yili eksport shartnomalari imzolanadigan Xalqaro meva va sabzavot yarmarkasi tashkil etish rejalashtirilgan. Xususan, meva-sabzavot va uzum mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar sohadagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish sohasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, kooperasiya munosabatlarini keng joriy etilishi hozirgi kun talabidir. Kooperasiyaning asosiy faoliyat yuritish mazmuni meva-sabzavot mahsulotlari miqdori, turi, yetkazib berish muddatlari bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish, belgilangan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, bozordagi talab va taklif holatiga ko‘ra sotish hajmlarini aniqlash, shartnomalarni rasmiylashtirish va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish hamda kooperasiya a‘zolari o‘rtasida olingan foyda va daromadni adolatli taqsimlab borishdan iborat bo‘lishi lozim.

З.С. Шохўжаева– и.ф.н. доцент, Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази докторанти

СУВ РЕСУРСЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, сувга нарх белгилаш, сувни тежаш ва мухофаза қилиш борасида илмий-тадқиқот ишларини олиб борган олимларнинг фикрлари ўрганилган ва муаллиф томонидан хулосалар қилиниб, таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: сув ресурслари, сув муаммоси, сув ресурслари билан таъминланганлик, сув тақчиллиги, сувтежамкор технологиялар, ақлли сув.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды ученых, проводивших исследования по вопросам повышения эффективности водопользования, ценообразования на воду, водосбережения и охраны, и делаются выводы, рекомендации и рекомендации автора.

Ключевые слова: водные ресурсы, водная проблема, обеспеченность водными ресурсами, дефицит воды, водосберегающие технологии, умная вода.

Abstract: This article discusses the views of scientists who conducted research on improving the efficiency of water use, water pricing, water conservation and protection, and draws conclusions, recommendations and recommendations of the author.

Keywords: water resources, water problem, availability of water resources, water scarcity, water-saving technologies, smart water.

Сув – ер юзасида ҳаёт мавжудлигининг асосий шартларидан биридир. Лекин, ҳозирги кунда, табиатдаги барча сувлардан бевосита фойдаланиб бўлмайди. Сув ресурслари нафақат барча чучук ва ўртача минераллашган сувлардан иборат бўлмай, фикримизча, *сув ресурслари бу* – иқтисодий босқичларда ўзгариб турадиган барча чучук ва ўртача минераллашган ер ости ва ер усти сувларидан иборат бўлиб, иқтисодиётнинг барча тармоқларида, шу жумладан, қишлоқ хўжалигида ишлатилаётган ва ишлатилиши мумкин бўлган сув манбаларининг йиғиндисидан иборатдир.

Ўлкамиздаги сув ресурсларининг асосий манбалари дарёлар, сойлар, булоқлар, сув омборлари, кўллардаги табиий тоза сувлардан ҳамда ер остида жойлашган чучук ва ўртача минераллашган сувлардан иборат.

Сув ресурсларидан катта миқдорда ва кенг миқёсда фойдаланиш табиатдаги, қолаверса иқтисоиёт тармоқларидаги мавжуд боғланишларнинг ўзгаришига олиб келди. Бу ўзгаришлар эса иқтисодиётнинг кўплаб тармоқларининг манфаатларига дахлдор ва натижада ижобий самарадорлик билан бирга салбий оқибатларни вужудга келтирди. Агарда бутун сув хўжалиги тизимини ягона мажмуа деб қаралса ва мавжуд табиий шароитларнинг ўзгаришларини ҳисобга оладиган

бўлсак, иқтисодиётнинг турли тармоқларини сувнинг миқдорига ва сифатига бўлган талабларни узоқ муддатли башоратлаш асосида бўладиган салбий оқибатларни сезиларсиз даражада бўлишини таъминлаш мумкин.

Ҳисоб-китобларга қараганда, келажакда сайёрамиз аҳолисининг ўсишига тескари равишда табиий бойликлар – нефть, тошкўмир, торф, сув, унумдор тупроқ секин-аста камая боради. Шунингдек, бугунги кунда деҳқончилик тармоғида сув ресурсларига бўлган талабнинг ошиши, сувнинг эса кескин камайиши ҳамда суғориш тармоқларида сувнинг самарасиз йўқолиб кетиши сувга бўлган таклифнинг ошиб кетишига олиб келмоқда.

Демак, сув муаммоси бу – инсоният тарихида иқтисодий ўсиш билан боғлиқ бўлган қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишидаги муҳим муаммолардан биридир. Мамлакатимизда иқтисодий ислоҳотлар чуқурлашуви шароитида аҳолини қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлиқ таъминлаш учун сув ресурсларидан самарали ва максимал даражада фойдаланиш талаб этилади. Мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида маҳсулотларнинг 97 фоизи суғориладиган майдонларга тўғри келади, йил давомида аграр соҳанинг суғориш сувига бўлган талаби 55-56 млрд. $м^3$ ни ташкил қилади. Бу эса Марказий Осиё давлатлари эҳтиёжининг деярли ярмига тенгдир. Агар сув ресурсларининг 20 фоизи мамлакатимизда ҳосил бўлишини, қолгани эса Қирғизистон ва Тожикистон республикалари чегараларидан оқиб келишини ҳисобга олсак, сув биз учун қанчалик қадрли эканлигидан далолат беради.

Сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, сувни тежаш ва муҳофаза қилиш бу муаммоларнинг энг асосийлари сифатида олимларимизнинг олиб борган илмий-тадқиқот ишларидан кўриш мумкин.

Масалан, жаҳон банки мутахассисларининг фикрича, «Сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, унга нарх ўрнатишни яхшилаш орқали амалга оширилиши керак...»[1] ёки С.Перрининг таъкидлашича «Биз сувни ижтимоий товар эканлиги билан бирга, унинг иқтисодий товар эканлигини тан оламиз. Бу тан олиш, қарор қабул қилишда асосий ўрин тутиши лозим ва сувга албатта нарх ўрнатилиши лозим»[2]. Суғорма деҳқончилик қилишда сувга нарх белгилаш унга бўлган талабни қисқартиришнинг самарали воситаси ҳисобланади. Лекин сув ва уни етказиб бериш хизматлари учун белгиланадиган нарх жуда паст бўлиб, у талабга аниқ таъсир кўрсата олмайди, ҳамда талаб ва таклиф ўртасида мувозанат ўрнатишдан анча паст даражада бўлади. Яъни, сувнинг нархи муҳим техник инновациялар ва инвестицияларни яратиш имкониятини бермайди. Бу эса сув тақсимотини оддий бошқаришни, ундан самарали фойдаланишни ва сув ресурслари билан таъминлашни қийинлаштиради.

---

[1] Word Bank. Drafi water sector policy –Washington DC. – 2000 – 12-13 б.

[13] Перри С. Water at any price? Issues and options in charging for irrigation water. Irrigation and drainage. 2001. – № 3, – P. 24-27.

М.М.Маткаримов [1] сув ва уни етказиб бериш хизматлари учун тўловни ҳисоблашнинг тўрт усули орқали амалга ошириш лозимлигини таъкидлайди. Яъни, биринчи усулда қишлоқ хўжалиги корхоналарининг олган даромадларига қараб, иккинчи усулда суғориладиган ер майдонларига қараб, учинчи усулда эса экилган экин турига қараб ва тўртинчи усулда эса фойдаланилган сув миқдорига қараб тўловни амалга ошириш кераклигини айтади. Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги корхоналарига, фермер ва деҳқон хўжалигиларига сув экин турига қараб, лимит ва график асосида етказиб берилаётганлиги ҳамда сув учун тўловлар қилинаётган харажатларни ҳисобга олган ҳолда аниқланаётгани сир эмас.

Бироқ, М.М.Маткаримов сув ва уни етказиб бериш хизматлари учун тўловларни тўртинчи усулидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайди. Яъни фойдаланилган сув миқдорига қараб сув учун тўловни амалга ошириш, албатта бу тўғри фикр. Бироқ бугунги кунда барча сувдан фойдаланувчиларда сув ўлчаш воситаларининг йўқлиги фойдаланилган сувнинг миқдорини ўлчаш имконини бермайди. Шу нуқтаи назардан бизнинг фикримизча сув учун тўловларни ҳам экин майдонига қараб, ҳам фойдаланилган сув миқдорига қараб тўланса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки, ҳар бир экин турини юқорида айтганимиздек, суғориш меъёрлари асосида, белгиланган муддатларда, график асосида фойдаланилган сув миқдорига қараб, сув ва уни етказиб бериш харажатларини ҳисоблаш орқали амалга ошириш мақсадга мувофиқ, деб ўйлаймиз.

Бугунги кунда иқлим ўзгариши, аҳоли сони ва иқтисодиёт тармоқларининг ўсиши, уларнинг сувга бўлган талабини йил сайин ошиб бориши туфайли сув ресурсларининг тақчиллиги йилдан-йилга кучайиб бормоқда. Бу эса, бизни ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, сув ресурсларини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш, сув хўжалиги объектларини модернизация қилиш ва ривожлантириш бўйича устувор ислоҳотларни амалга оширишимизда муҳим омил саналади. Қашқадарё вилоятида фойдаланилган ўртача йиллик сув миқдори 5 млрд 430 млн метр куб бўлиб, шундан:

- Амударё ҳавзасидан 68 фоиз, 3 млрд 700 млн метр куб;
- Зарафшон ҳавзасидан 7 фоиз, 400 млн метр куб;
- Қашқадарё ҳавзасидан 25 фоиз, 1 млрд 330 млн метр куб. Шундан, дарёлардан 1 млрд 129 млн метр куб; - 89 млн метр куб сув ер остидан; - 112 млн метр куб сув коллектор тармоқларидан олиниб келинган.

Олинган 5 млрд 430 млн метр куб сув миқдорининг 5 млрд 87 млн метр куби суғориш ишларига, 343 млн метр куби саноат, коммунал ва бошқа эҳтиёжларга йўналтирилди.

Вилоятда 514 минг гектар суғориладиган майдонларнинг 65 фоизи,

[14] Маткаримов М.М. Сув тежовчи ва муҳофаза қилувчи технологияларни қўллаш жараёнларини бошқариш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Самарқанд, 2006. – 22 б.

яъни, 336 минг 267 гектари Амударё ҳавзасидан, 7 фоизи, 48 минг 815 гектари Зарафшон ҳавзасидан, қолган 28 фоизи 129 минг 32 гектари Қашқадарё ва унинг ирмоқларидан сув ичади. Вилоятнинг пахта майдони – 135 минг 900 гектар, ғалла майдони – 141 минг гектар, бошқа экин майдони – 237 минг 200 гектарни ташкил этади.

2020-2030 йилларда аҳолини ва иқтисодиётнинг барча тармоқларини сув билан барқарор таъминлаш, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, сув хўжалигига бозор тамойиллари ва механизмларини ҳамда рақамли технологияларни кенг жорий этиш, сув хўжалиги объектларининг ишончли ишлашини таъминлаш ҳамда ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида вилоятда сув ресурсларини “онлайн” инсон аралашувисиз, шаффоф бошқариш мақсадида йирик сув омборларда 5 дона, магистрал ва туманлараро каналларда 68 дона “SMART WATER” қурилмаларини ҳамда сув хўжалиги ташкилотлари тасарруфидаги 50 та насос станцияларида 50 дона “Ақлли ҳисоблагич” қурилмалари ўрнатилди.

Сув хўжалигининг мелиоратив тармоғи учун мониторинг ва ахборот алмашиш тизимини яратиш мақсадида, ер ости сувларини жойлашуви, шўрланиш даражаси, тупроқ шўрланиши ва сўғориладиган ерларни мелиоратив холатини онлайн режимда аниқлаб бориш бўйича тизимли ишлар амалга ошириб борилмоқда. Жумладан, вилоятда суғориладиган ерларни мелиоратив холатини онлайн режимда аниқлаб бориш мақсадида мелиоратив кузатув қудуқларига 2021 йилда 256 дона “Дайвер” қурулмаларини ўрнатиш белгиланган.

Шунингдек, Геоахборот тизими (“АРК ГИС”) асосида суғориладиган ерларни мелиоратив ҳолатини аниқлаб бориш, тупроқ шўрланиши даражаси, ер ости сувларининг жойлашуви, уларнинг шўрланиши тўғрисидаги ахборотларни электрон тарзда алмашиб бориш ҳамда рақамли хариталарни яратиш бўйича ишлар босқичма-босқич амалга оширилиб борилмоқда.

Ҳозирда, сув хўжалиги тасарруфидаги 80-85 фоиз йирик сув хўжалиги объектлари, магистрал ва хўжаликлараро каналлар, насос станциялари ва бошқа сув хўжалиги объектлари геоахборот тизими “ArcGIS” дастурига киритилди.

2020 йилда қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда 17 минг 170 гектар майдонда сув тежовчи суғориш технологиялари жорий қилинди. Шундан, 3 минг 393 гектарга томчилатиб суғориш ишлари, 10 минг 15 гектар майдонда кўчма эгилувчи қувурлар билан суғориш ишлари ва 3 минг 762 гектар майдонда плёнка тўшаб суғориш ишлари амалга оширилди. Ушбу технологияларни амалга ошириш натижасида 5 млн 500 минг куб метр сув иқтисод қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 декабридаги “Қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган технологияларни жорий этишни янада жадал ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги

қарори” билан 2021 йилда Қашқадарё вилоятида 50 минг 406 гектар майдонда сув тежовчи технологияларни жорий этиш режалаштирилган. Жумладан, 27 минг 601 гектар майдонда томчилатиб суғориш, 14 минг 105 гектар майдонда ёмғирлатиб суғориш технологияларини ўрнатиш, 8 минг 700 гектар майдонни лазер ускунаси ёрдамида текислаш мўлжалланган.

Бугунги кунга қадар 1 268 та қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчиларнинг 30 410 гектар майдонда сув тежовчи технологияларни жорий қилиш учун қурувчи пудрат корхоналар билан шартномалар расмийлаштирилган. Шундан 26 671 гектар майдонда томчилатиб суғориш, 3 739 гектар майдонда ёмғирлатиб суғориш технологияси орқали суғориш ишлари амалга оширилди.

Сув хўжалигида давлат-хусусий шерикликни жорий этиш, алоҳида сув хўжалиги объектларини фермер, кластер ва бошқа ташкилотларга фойдаланиш учун бериш ҳамда тежалган маблағларни сув хўжалиги объектларини модернизация қилиш ва ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш ва рағбатлантиришга йўналтириш бўйича ҳам ишлар бошлаб юборилди.

Тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики, 2010 йилда Амударё ҳавзасидан олинган сув 335,9 минг га ерга сарфланган бўлса, 2020 йилда 336,3 минг гага, яъни 0,1 фоизга кўп, 2019 йилда 336,8 минг гага, 2018 йилда эса 336,8 минг гага сарфланган. Лекин Зарафшон сув манбаларидан олинаётган сув 2020 йилда 2010 йилга нисбатан 97,8 фоизга, яъни 2,8 фоизга камайган. Қашқадарё дарёсидан олинган сув ҳисобига 2020 йилда 129 минг га ер суғорилган бўлса, бу кўрсаткич 2010 йилда ҳам 129,0 минг гани ташкил этган. Демак 2010-2020 йилларда Қашқадарё дарёси орқали суғориладиган майдон ўзгаришсиз қолган.

2020 йилда Қашқадарё вилоятининг сув хўжалигини ривожлантиришнинг келгуси 10 йилга мўлжалланган концепцияси ишлаб чиқилди. Ва бунда 2021-2023 йилларда сув хўжалиги объектларида “SMART WATER” (“Ақлли сув”) ва шу каби рақамли технологияларни 1 503 тага жорий қилиш режалаштирилди. Бундан ташқари, йирик аҳамият касб этадиган сув хўжалиги объекти Яккабоғ туманидаги “Яккабоғ” гидроузелини автоматлаштириш ва рақамли бошқариш режалаштирилди.

Шунингдек, 2021 йилда Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш Давлат дастурига киритилган - жами 9 та лойиҳа асосида 95,1 км. узунликдаги очиқ коллекторлар ва ёпиқ-ётиқ дренажлар тармоқларини қуриш ва реконструкция қилиш ишлари режалаштирилган бўлиб, шундан:

- йилдан-йилга ўтувчи 4 та объект бўйича – 22,13 км. очиқ коллекторлар, 10,42 км. ёпиқ-ётиқ дренаж тармоқларини қуриш ишлари;
- янгидан бошланувчи 5 та объектлар бўйича – 44,725 км. очиқ коллекторлар (шундан, 22,662 км. янги коллектор қуриш, 22,063 км. реконструкция қилиш), 10,537 км. ёпиқ-ётиқ дренаж тармоқларини қуриш, 51 та ГТИ қуриш, 10 дона кузатув қудуқларини реконструкция қилиш ишларини амалга ошириш режалаштирилган.

Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 2 декабрдаги 03/1-4100 сонли баёни ижроси юзасидан мелиорация объектларини тизимли таъмирлаш-тиклаш ишлари бўйича 2021 йилда жами 20 та лойиҳа асосида 1 392,4 км. узунликдаги очиқ коллекторларни тозалаш, 124,7 км. узунликдаги ёпиқ-ётиқ дренаж тармоқларини ювиш ишларини амалга ошириш режалаштирилди.

Қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган маҳсулотларнинг кўламини таҳлил қилар эканмиз, албатта бунда сув ресурсларининг кейинги йилларда катта муаммо бўлаётган тақчиллигини эътибордан четда қолдирмаслик керак. Чунки республикамизнинг суғориладиган майдони бугунги кунда 4,3 млн. гектардан ошганлигини, аҳоли сонининг ҳам 35 млн. кишидан ошганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, бу кўрсаткичлар 1990 йилларга нисбатан 4,5 баробарга ошганлигини ва аҳолининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларга бўлган талаби ҳам йил сайин ошиб бораётганлигини кўриш мумкин. Бошқа давлатлар, масалан, Россия ҳудудида кейинги 100 йил ичида аҳоли сони атиги 2 маротабага ошганда, бу кўрсаткич Орол ҳавзаси ҳудудидаги давлатларда 13 мартага кўпайган. Демак қишлоқ хўжалигида 1 гектар майдонга сарфланаётган сув миқдоридан самарали, оқилона фойдаланиш эвазига кўпроқ маҳсулот етиштириш, даромад ва фойда олиш бугунги куннинг талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Shoxujaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021
2. Shokhojaeva Zebo Safoevna. Important Aspects of Saving Water in Agricultural Products in the Territories of Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021
3. Zebo Safoyevna Shoxo‘jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T, 2012
4. Зебо Сафоевна Шохужаева. Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. Economics, 2020
5. ZS Shoxo‘jaeva, A.B Kurbonov.. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 2019.

Б.О. Дусматов– СамИСИ, “Реал иқтисодиёт” кафедраси доцент в.б.

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА АГРОСАНОАТ МАЖМУСИДА ИННОВАЦИОН ХИЗМАТЛАР ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УЛАРНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: Мақолада агросаноат соҳасида инновацион хизматлар инфратузилмасининг иқтисодиётга таъсири кўрсатиб ўтилган бўлиб, уларнинг фойдаланиши кенг ёритилган.Инновацион хизматлар бозорида асосий товар ҳисобланадиган инновацион ишланмаларни сотиш ва харид килиш, такдим этиш жараёнлари анъанавий товарлар ва хизматлар бозорида бир қатор қўшимча шартларнинг бажарилишини кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: инновация, инфратузилма, хизматлар бозори, агросаноат мажмуаси, технологик қайта қуриш.

Аннотация: В статье приведена влияние на экономику инфраструктуры инновационнқх услуг в агропромышленном комплексе, использование которой широко распространено. Процесс купли продажи инновационнқх разработок, являющихся основными товарами на рынке инновационнқх услуг,выполнение ряда дополнительных условий на рынке традиционных товаров и услуг.

Ключевые слова: инновация, инфраструктура, рынок услуг, агропромышленный комплекс, технологическая реконструкция

Abstract: The article shows the impact on the economy of the infrastructure of innovative services in the agro-industrial complex, the use of which is widespread. The process of buying and selling innovative developments, which are the main goods on the market of innovative services, the fulfillment of a number of additional conditions on the market of traditional goods and services.

Keywords: innovation, infrastructure, service market, agro-industrial complex, technological reconstruction

Ҳозирги иқтисодий шароитларда инновацион ривожланиш салоҳияти мавжудлиги ҳар қандай ҳудуд иқтисодий рақобатбардошлигининг асосий шартларидан бирига айланиб бормоқда. Ўз навбатида инновацион ривожланиш салоҳияти зарур даражада шаклланиши кўп жиҳатдан агросаноат мажмуасида инновацион хизматлар бозорининг тўлақонли фаолият юритишига боғлиқ. Шу нуқтаи назардан агросаноат мажмуасида инновацион хизматлар бозорини тадқиқ этиш ва уни ривожлантириш бўйича ишлаб чиқилган таклифлар муҳим аҳамият касб этади.

Илмий манбаларни тизимлаштириш асосида олиб борилган таҳлил натижаларига кўра, замонавий жаҳон тенденциялари ва хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланиш моделлари иқтисодий хусусиятга эга узоқ муддатли асосий омилларни белгилайди:

– меҳнатни ижтимоий тақсимлаш тизимида инновацион хизматларни ишлаб чиқаришга ихтисослашган мустақил таркибий қисмларни яратиш;

– бу соҳани қамраб олувчи инновацион жараёнлар ва хизматлар, авваламбор, ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ)нинг сўнгги ютуқларидан фойдаланишни жадаллаштирди;

– хизмат кўрсатиш соҳасига 70-80-йилларда ривожланган мамлакатларда моддий ишлаб чиқаришни кенг миқёсли таркибий ва технологик қайта қуриш кўп қиррали таъсир кўрсатди (саноат моделидан инновационга ўтиш);

– хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга таъсирни кучайтириш ижтимоий омилларга таъсир кўрсатди (давлат харажатларини фан, таълим, соғлиқни сақлаш, ижтимоий хизматлар ва бошқаларга сарфлаш)[1].

Замонавий шароитларда инновацион хизматлар бозори деярли барча ҳудудларда мавжуд бўлиши кўзда тутилади, шу билан бирга одатда инновацион хизматлар илғор технологиялар, техника ва ускуналар, ёндошувларни ўзида мужассамлаштиргани сабабли улар инновацияларга тўлов қобилиятига эга талаб юқори бўлган тармоқларда кенгроқ таркиб топади. Шу нуқтаи назардан турли ҳудудларда инновацион хизматлар бозорининг ривожланганлик даражаси кўп ҳолларда мазкур ҳудуд иқтисодиёти, хусусан унинг агросаноат мажмуасининг ривожланганлик даражасига мутаносиб эканлиги кузатилади.

Барча бозорлар каби инновацион хизматлар бозори талаб ва таклиф, рақобат асосида шакллансада, таъкидлаш жоизки, мазкур бозор анъанавий товарлар ва хизматлар бозоридан ўзининг бир қатор хусусиятлари билан кескин фарқланади. Агросаноатда инновацион хизматлар инфратузилмасининг ривожланиши бозордаги тўлов қувватига эга бўлган талаб, айрим ҳолларда бозорга киритилган маҳсулот ва хизматнинг амалиётга татбиқ этиш амалдаги қонунчиликка мувофиқлиги билан боғлиқ бўлиб қолади. Шу тариқа, инновацион хизматлар бозорида асосий товар ҳисобланадиган инновацион ишланмаларни сотиш ва харид килиш, тақдим этиш жараёнлари анъанавий товарлар ва хизматлар бозори билан таққослаганда мураккаб ҳамда бир қатор қўшимча шартларнинг бажарилишини талаб этади.

Инновацион хизматлар инфратузилмаси агросаноат мажмуаси иқтисодиёти ривожланишига таъсири қуйидаги жиҳатлар ва натижаларда намоён бўлади:

– яратилаётган ишланмалар, инновацион таклифлар ва янгиликларнинг товарга айланиши ва истеъмолчига етиб боришини ва пировардида амалиётга татбиқ этилишини таъминлаш орқали агросаноат мажмуаси иқтисодиётининг модернизациялашувини жадаллаштириш;

– агросаноат мажмуасидаги ўз инновацион ишланмаларини сотишга эришган фермер ҳўжаликлари, қайта ишлаш корхоналари ва муассасаларнинг моддий-техник базаси ривожланиши эвазига уларнинг янги ишланмалар ва инновацион маҳсулотлар яратишга бўлган имкониятлари ошиб бориши;

– инновацион маҳсулотлар, ишланмалар, технологияларни бозорга олиб чикиш ва харидорларга етказиш билан боғлиқ харажатларни камай-

[1]The World Bank, UNCTAD Handbook of Statistics 2017, Сельское хозяйство на службе развития. Доклад о мировом развитии. Всемирный банк. 2008, 396 с.

тириш оркали уларнинг амалиётга татбиқ этиш эҳтимоллигини ошириш;

– инновацион ишланмалар яратиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш соҳасидаги мутахассисларнинг малакасини ошириш, тижоратлаштириш ва инновацион менежмент соҳасида кадрларни тайёрлаш;

– агросаноат мажмуасига янги хорижий технологияларни, уруғчилик ва наслчилик ишларида тажриба алмашиш, техник воситаларни жалб этиш имкониятлари кенгайиши.

Агросаноат мажмуаси инновацион хизматлар инфратузилмасининг фаолиятида кучлар ва билимларни қўллаш учун янги талаблар, шартлар ва имкониятлар доимо мавжуддир. Мисол учун, диверсификациялаш ташкилотларга даврий равишда талаб қилинадиган ўзгаришларни, қабул қилинган қарорлардаги ўзгаришларни ва фавқулодда ҳолатларнинг содир бўлиши билан боғлиқ ҳолатларни ҳисобга олиш имконини беради. Хизматларни диверсификация қилишнинг замонавий шаклларидан бири аутсорсинг хизматлари бозор инфратузилмаси ташкилотлари томонидан ишлаб чиқиш ва кенгайтириш ҳисобланади. Буларнинг барчаси агросаноат мажмуасида инновацион хизматлар инфратузилмаси ташкилотлари ходимларининг билим ва малакаларини мунтазам янгилашни талаб қилади.

Шундай қилиб, ҳудудлар агросаноат мажмусида инновацион хизматлар инфратузилмасини ривожлантириш уларнинг рақобатбардош-лигини ҳамда барқарор ривожланиб боришини таъминлашнинг асосий шартларидан бири бўлибгина қолмай, балки мамлакат ҳудудларининг рақобатбардошлигини таъминлашга ҳам хизмат қилади.

B.T. Hasanov– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali 2-kurs tayanch doktoranti

URUG’LIK KARTOSHKA YETISHTIRISHDA ZAMONAVIY TIZIMLARNI JORIY ETISH HOLATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada kartoshkachilikda qiymat zanjirining ayrim masalalari, umuman kartoshkachilik tarmog‘i holati, muammolar davlat statistika ma’lumotlari misolida tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Respublikada qishloq xo‘jaligida etishtirilgan kartoshka hom ashyosini etishtirish yildan yilga o‘sib borayotganini ko‘rish mumkin, lekin bu kartoshka hom ashyosi ko‘rsatkich aholi iste’moli uchun yetarli emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: qiymat zanjiri, kartoshka ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligi, tadbirkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются некоторые вопросы цепочки добавленной стоимости в картофелеводстве, состояние картофельной отрасли в целом, проблемы на примере государственной статистики. Анализ показал, что производство сырого картофеля, выращенного в сельском хозяйстве республики, растет из года в год, но мы видим, что этого показателя недостаточно для потребления населением.

Ключевые слова: производственно-сбытовая цепочка, производство картофеля, продовольственная безопасность, предпринимательство.

Abstract: This article analyzes some issues of the value chain in potato growing, the state of the potato industry in general, the problems on the example of government statistics. The analysis showed that the production of raw potatoes grown in agriculture in the Republic is growing from year to year, but we can see that this figure is not enough for the consumption of the population.

Keywords: value chain, potato production, food security, entrepreneurship.

Kartoshkachilikda qiymat zanjirining muhim bo‘g‘inlaridan biri bu bevosita kartoshka ishlab chiqarishni xom ashyo bilan ta’minlash bo‘g‘ini hisoblanadi. Sohani sifatli xom ashyo bilan ta‘minlash maqsadida kartoshka urug‘chiligini rivojlantirishga keying vaqtlarda mamlakatimizda keng e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-mayda “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq kartoshka yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi kartoshkachilik klasterlari va kooperatsiyalariga bir qancha yo‘nalishlar, xususan kartoshka urug‘chiligi bilan bog‘liq yo‘nalishlar asosiy faoliyat sifatida belgilab berilgan. Jumladan[1];

- “innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalar asosida yaxlit maydonlarda iste’mol va urug‘lik kartoshka yetishtirish hamda sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish”;
- “urug‘lik kartoshkaning super elita va elita avlodlarini yetishtirishni kengaytirish, urug‘liklar tayyorlash hamda zamonaviy kartoshka plantatsiyalarini barpo etish”;
- “iste’mol va urug‘lik kartoshkaga bo‘lgan ichki bozor talabini qondirish, shuningdek, uning eksportini kengaytirish”;
- “kartoshka ekish uchun mo‘ljallangan ekin maydonining kamida 50 foizida urug‘lik kartoshkaning super elita va (yoki) elita avlodlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish”;
- “urug‘lik kartoshkani saqlash, saralash, yetkazib berish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish;
- kartoshkachilik sohasiga ilg‘or texnologiyalar, innovatsion yechimlar (nou-xau) va ilm-fan yutuqlarini joriy etish”.

Shuningdek, mazkur qarorda Respublikada “iste’mol va urug‘lik kartoshka, jumladan, uning super elita, elita avlodlarini yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan tumanlar” keltirib o‘tilgan. Biz tadqiqot olib borgan Samarqand viloyatida iste’mol kartoshkasi ishlab chiqarishga Bulung‘ur, Jomboy, Toyloq, Samarqand va Urgut tumanlari, urug‘lik kartoshka, jumladan, uning super elita, elita avlodlarini yetishtirishga esa Bulung‘ur, Jomboy, Toyloq va Urgut tumanlari ixtisoslashtirilishi ta’kidlab o‘tilgan. Shu bilan birgalikda,

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4704-son, 2020 yil 6-may.

hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda urug‘lik kartoshkaning super elita avlodini yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan hududlar sifatida Samarqand viloyatidan Bulung‘ur timaniga qarashli “F. Yo‘ldosh”, “X. Olimjon”, “Kildon”, “Navoiy” va “A. Maxsumov” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi belgilab berilgan. Demak, hukumatimiz tomonidan urug‘lik kartoshka yetishtirishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Yaxshi sifatli urug‘lik deyarli hamma kartoshka ishlab chiqarish tizimlarida yuqori mahsuldorlik talabi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kam daromadli mamlakatlarda hosildorlikni cheklab qo‘yayotgan hosildorlikning katta qismi urug‘ning sifatsizligi bilan bog‘liq. Shunday qilib, kartoshka urug‘i sektorini rivojlantirish hukumatlar, tadqiqotchilar, rivojlanish agentliklari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining asosiy tashvishidir. Kartoshka urug‘i tizimlari ko‘pincha rasmiy yoki norasmiy deb tavsiflanadi, ammo norasmiy urug‘lik tizimi murakkab va ayniqsa, kam daromadli mamlakatlarda norasmiy urug‘lik tizmini ko‘plab uchratish mumkin.

Kam daromadli mamlakatlarda norasmiy tizimlar o‘zgaruvchan va ko‘pincha sifatsiz urug‘larni ishlab chiqaradi. Kartoshka hosildorligi yuqori bo‘lgan hududlarda (masalan, AQSh va Evropada) garchi ba'zi ishlab chiqarish subsektorlari (masalan, organik ishlab chiqaruvchilar) ko‘pincha sertifikatlanmagan urug‘lardan foydalansalarda, yuqori sifatli sertifikatlangan urug‘lar bilan rasmiy tizimlarning o‘rni yuqori hisoblanadi. Kam daromadli mamlakatlarda rasmiy urug‘chilik tizimini joriy etish bo‘yicha urinishlar asosan muvaffaqiyatsizlikka uchradi; shuning uchun kam resursga ega bo‘lgan kartoshka fermerlarining aksariyati norasmiy tizim orqali o‘z urug‘ini oladi. Rivojlanish hamjamiyatining tarmoqlari muqobil yechimlarni talab qilmoqda, ular odatda rasmiy va norasmiy urug‘lik tizimlarini yoki sifatli e'lon qilingan urug‘lik kabi yarim rasmiy tizimlarni va fermerlarning urug‘larni saqlash va sotish huquqlarini himoya qiluvchi siyosat tuzilmasini o‘z ichiga oladi. Urug‘lik sifati hozirgi vaqtda past daromadli mamlakatlarda kartoshkaning past hosildorligiga ta’sir qilishini hisobga olib, birinchi navbatda, resurslari kam bo‘lgan hududlarda urug‘chilik sektorini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Shu o‘rinda rasmiy, norasmiy urug‘chilik tizimi haqida turli adabiyotlarda ta’riflar berilgan. Jumladan, *kartoshkaning norasmiy urug‘lik tizimi* - bu ekish uchun ishlatiladigan ildiz mevalari fermerlar tomonidan hech qanday tartibga solinmasdan ishlab chiqariladigan va tarqatiladigan urug‘lik kartoshka tizimidir. Kartoshkaning *rasmiy urug‘lik tizimi*da urug‘lik ildizlari litsenziyaga ega xususiy sektor mutaxassislari va kooperativlar tomonidan ishlab chiqariladi. Rasmiy urug‘lik tizimining konseptsiyasi nisbatan aniq bo‘lib, davlat sektori tomonidan tartibga solinadigan komponentlar, odatda "sertifikatlash" deb nomlanuvchi tekshirish jarayoni va mavjud urug‘larning tan olingan nav bo‘lishini, kasallikning past darajasi bo‘lishini ta'minlash uchun nav chiqarilishini nazorat qilish bilan tavsiflanadi. Norasmiy tizim murakkab va kontseptual jihatdan unchalik aniq emas, chunki u asosan rasmiy bo‘lmagan barcha narsalarni, jumladan, o‘z-o‘zidan tejalgan urug‘larni, fermerlar o‘rtasida

sotiladigan va mahalliy bozorlarda sotib olingan urug‘larni o‘z ichiga oladi[1].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Respublikamizda kartoshka urug‘chiligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu albatta kartoshkachilikda yuqori hosildorlikni maqsad qilgan. Keltirib o‘tilgan kartoshkachilikda urug‘lik tizimi ta’riflaridan aytish mumkinki, hozirda bizda ikkala ya’ni rasmiy va norasmiy urug‘lik tizimidan ham qishloq xo‘jaligida kartoshka yetishtiruvchi sub’ektlar amalda foydalanmoqda.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan kartoshka xom ashyosi haqida gapiradigan bo‘lsak, quyidagi 1-jadvalda so‘nggi besh yilda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida kartoshka xom-ashyosi yetishtirish holati keltirilgan.

1-jadval

Respublika qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan kartoshka xom ashyosi dinamikasi (ming tonna)[2]

Hududlar nomi	**2017 yil**	**2018 yil**	**2019 yil**	**2020 yil**	**2021 yil**	**2021 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi**	
						(+,-)	**%**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	61390	70305	83690	85700	123000	61610	2.0 marta
Andijon	303399	343904	369141	376108	287932	-15467	94.9%
Buxoro	200989	209352	215598	222724	160995	-39994	80.1%
Jizzax	67275	62221	79267	82378	144334	77059	2.2 marta
Qashqadaryo	183485	172632	173638	176752	226694	43209	123.5%
Navoiy	76170	77011	79281	80349	56495	-19675	74.2%
Namangan	260977	264341	282924	289019	348131	87154	133.4%
Samarqand	**590706**	**579627**	**622594**	**626414**	**643903**	**53197**	**109.0%**
Surxondaryo	274251	306128	324157	331456	280805	6554	102.4%
Sirdaryo	52002	56795	59876	61278	79582	27580	153.0%
Toshkent	351636	363511	366692	367142	369839	18203	105.2%
Farg‘ona	255751	290273	310283	318239	389466	133715	152.3%
Xorazm	115658	115833	122517	126235	124395	8737	107.6%
Respublika bo‘yicha jami	**2793689**	**2911933**	**3089658**	**3143794**	**3235572**	**441883**	**115.8%**

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi besh yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Jizzax viloyatida kartoshka ishlab chiqarish 2 barobarga oshgan bo‘lsa, Andijon, Buxoro va Nazoiy viloyatlarida 2021 yilda 2017 yilga nisbatan kartoshka ishlab chiqarish nisbatan kamaygan. Ushbu kamayishga kartoshka urug‘chiligi tarmog‘i ya’ni xo‘jaliklarni sifatli nav bilan ta’minlash faoliyati ham ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot ob’ekti bo‘lgan Samarqand viloyatida kartoshka ishlab chiqarish holati haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, 1-jadvalga ko‘ra kartoshka xom-ashyosi Respublikamida eng ko‘p hududlardan bo‘lib, boshqa hududlarga qaraganda yetakchi hisoblanadi.

[1] Forbes, G. A., Charkowski, A., Andrade-Piedra, J., Parker, M. L., & Schulte-Geldermann, E. (2020). Potato seed systems. In *The Potato Crop* (pp. 431-447). Springer, Cham.

[2] Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif

Kartoshkachilikda qiymat zanjiridagi har bir sub’ekt faoliyatini takomillashtirish iste’molchilarga arzon va sifatli kartoshkachilik mahsulotlarini o‘z vaqtida yetkazib berish garovi hisoblanadi. Xususan biz tahlil qilib o‘tgan kartoshka ishlab chiqaruvchilarning ham aksariyati hosildorlikni oshirish imkoniyatlaridan, xususan organik o‘g‘itlar berish, almashlab ekish amaliyotlaridan barqaror foydalanmayapti. Bu kabi amaliyotlarni kartoshkachilikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- va sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral' 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4704-son qarori. “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2020 yil 6 may.
3. Murtazayev O., Ahrorov F. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti.–T.: ILM-ZIYO, 2017.
4. Janssen, W., Hall, A., Pehu, E., & Rajalathi, R. Linking market and knowledge based development: The why and how of agricultural innovation systems. *markets, marketing and developing countries: where we stand and where we are heading*, 44-53. 2010.
5. Webber, M. C. & Labaste, P. Building competitiveness in Africa's agriculture: a guide to value chain concepts and applications. Washington DC: World Bank Publications. 2010.
6. Davlat statistika qo‘mitasi 2017-2021 yig‘ma ma’lumotlari.

Б.О. Дусматов– СамИСИ, “Реал иқтисодиёт” кафедраси доцент в.б.

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ ВА ПОТЕНЦИАЛИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: Мазкур мақолада хизматлар соҳасида меҳнат ресурсларини шаклланиши иқтисодий аҳамияти назарий жиҳатлари ёритилган. Хизматлар соҳасида меҳнат ресурсларидан самарали йўллари кенгроқ ёритилишига оид инновацион ёндашувлар атрофлича кўриб чиқилган.

Калит сўзлар:Меҳнат ресурси, меҳнат бозори, инновация, бандлик, иқтисодий фаол аҳоли, меҳнат потенциали.

Аннотация: В данной статье раскрыто теоретические аспекти экономической роли формирования трудових ресурсов в сфере услуг. Всесторонне рассмотрены экономические подходы касаюшиеся широкого раскрытия эффективные пути использования трудовых ресурсов в сфере услуг.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, рынок труда, инновация, занятость, экономически активное население, трудовой потенциал.

Abstract: This article reveals the theoretical aspects of the economic role of the formation of labor resources in the service sector. Comprehensively considered economic approaches concerning a wide range of effective ways of using labor resources in the service sector.

Keywords: labor resources, labor market, innovation, employment, economically active population, labor potential.

Иқтисодиётда амалга оширилаётган ислоҳий ўзгаришлар даврида ҳамма нарсаларни инсон эҳтиёжлари ва тақдири билан мувофиқлаштириш муҳимдир.

Меҳнат ресурслари мамалакат аҳолисининг ўз психофизиологик ва ақлий сифатлари билан моддий неъматлар ишлаб чиқаришга ёки хизматлар кўрсатишга қодир бўлган қисмидан иборатдир.

Меҳнат ресурслари деб, ўзининг ақлий ва жисмоний меҳнати билан ижтимоий ишлаб чиқаришда иштирок этадиган меҳнатга қобилиятли кишилар тўпламига айтилади.

Бу таърифдан шу нарса келиб чиқадики, меҳнат ресурслари ўзига иқтисодиётда меҳнат билан банд бўлган кишиларни ҳам, меҳнат билан банд бўлмаса ҳам меҳнат қилишлари мумкин бўлган кишиларни хам қамраб олади. Бошқача айтганда, меҳнат ресурслари ҳақиқий (реал) ва потенциал ходимлардир.

Маънавий ривожланиш даражаси деганда умумтаълим ва касбий билимлар ҳамда кўникмалар, шахсий ҳусусиятлар тушунилади. Бу хусусиятлар инсоннинг танлаган фаолият соҳасида муваффақиятли ишлаши учун зарур шарт ҳисобланади.

Инсоннинг ҳар иккала сифати бўлган жисмоний ва маънавий ривожи тасвирларининг аҳамияти иқтисодиётнинг ривожланиб боришига қараб доимий ҳолда ўзгариб боради. Бу ҳол, ўз навбатда меҳнат соҳасидаги мавжуд жаҳон тамойилини тўлиқ акс эттиради, иқтисодиётда ва умуман, жамиятда тез ва чуқур ўзгаришлар бўлиб турган даврларда кишиларнинг жисмоний ва маънавий фазилатлари роли айниқса ортади.

Мамлакатимизда ёш чэгараси эркаклар 59 ёшга, аёллар 54 ёшга этгандан сўнг пенсия олиш ҳуқиқи билан бэлгиланади. Бироқ бу қоидадан истисно ҳам бор. Организмга юксак руҳий физиологик босимлар билан боғлиқ касб фаолиятининг айрим турлари учун пенсия чизиғи сезиларли равишда 5-10 йилга пастроқ, баъзан ундан ҳам кўпроқ. Бу эрда имтиёзли шартларда қарилик пенсияси тизими амал қилади. Аёллар учун пенсия ёши одатдаги халқаро тажриба даражасида бўлсада, ҳамма жойда эркакларнинг ўртача умир кўриши аёлларга нисбатан сезиларли равишда камроқдир.

Кузатишлар шуни кўрсатадики, реал ҳаётда кўпгина "имтиёзли пенсионерлар" аввалги касбларида ёки бошқа ишларда ўз ишларини давом эттирмоқдалар, шунинг учун ҳам улар меҳнат ресурслари таркибида қоладилар. Ишламаётган пенсионерлар эса меҳнат ресурсларининг таркибидан чиқарилади.

Ривожланган мамлакатларда аллақачон "иқтисодий жиҳатдан фаол аҳоли" тушунчаси қарор топган. Ҳалқаро стандартларга мувофиқ уларга меҳнат билан банд аҳоли ва иш қидираётган ишсизлар киради. Шунингдэк, "фуқаролик жиҳатидан иқтисодий фаол аҳоли" тушунчаси ҳам тарқалган бўлиб, йнга ҳарбий хизматчилар киритилмайди.

Шундай қилиб, "меҳнат ресурслари" хизматлар соҳасида ўзининг мазмунига кўра, "иқтисодий фаол аҳоли" тушунчасидан кенгроқдир.

Иқтисодий фаол аҳолидан ташқари меҳнат ресурслари яна меҳнатга лаёқатли ёшдаги ўқувчиларни ҳам, шунингдэк, ана шу ёшдаги уй бэкалари ва мамлакатнинг қолган барча аҳолисини, яъни ишсиз бўлмаса ҳам, қандайдир сабабларга кўра, мамлакат хўжалигида иш билан банд бўлмаган аҳолини ҳам ўз ичига олади.

Меҳнат ресурсларини хизматлар соҳасида шакллантириш дэганда меҳнат ресурсларининг доимий равишда янгиланиб туриши тушунилади, дэб ҳисоблаймиз.

Меҳнат ресурслари қандай шаклланишини аниқлаш учун биз биринчидан, меҳнат ресурсларини учта йирик ёш гуруҳлари бўйича -меҳнатга лаёқатли кишилар, меҳнатга лаёқатли кишилардан ёшроқ ва меҳнатга лаёқатли ёшдан каттароқ кишиларни, иккинчидан, ҳар бир гуруҳ аҳоли сонига, унинг ўзгаришига таъсир қилувчи омилларни, учинчидан, меҳнат ресурслари ва аҳолининг табиий ва механик ўзгаришдаги умумий ва ўзига хос томонларни кўриб чиқишимиз лозим.

Меҳнат ресурсларининг хизматлар соҳасида аксарият кўпчилик қисмини меҳнатга лаёқатли ёшдаги меҳнатга қобилиятли аҳоли ташкил этади. Меҳнат қилишга лаёқатли ёшдан катта кишилар, ишловчи пенсионерлар ва амалда "нол" вазифасини бажарувчи шахслар, мехнатга лаёқатли ёшдан кичик кишилар, ишловчи ўсмирлар меҳнат ресурсларининг салмоғида у даражада сезиларли рол ўйнамайди.

Меҳнатга лаёқатли ёшдаги меҳнатга қобилиятли аҳоли. Меҳнат ресурслари таркибига 1 ва 2 гуруҳдаги ишламайдиган ногиронлар кирмаслигини эсда тутган ҳолда, дастлаб биз меҳнат қилишга лаёқатли ёшдаги аҳолини, сўнгра унинг меҳнат қилишга қобилиятли қисмини қараб чиқамиз.

Меҳнатга лаёқатли ёшдаги фуқоролар бутун аҳолининг бир қисми бўлиб, уларнинг сони демографик омил таъсирида ўзгариб туради. Уларнинг қанча бўлиши тегишли ёшлардаги ўлим даражасига боғлиқ. Бу шунингдэк, меҳнат қилиш ёшига этган ёшлар билан пенсия ёшига этган фуқоролар билан сони ўртасидаги нисбатга ҳам боғлиқ. лим қанчалик кам бўлса ва меҳнат қилиш ёшига этган фуқоролар бу ёшдан чиққан кишилар ўртасидаги фарқ қанчалик юқори бўлса, меҳнат қилиш қобилиятига этган кишилар сони шунчалик кўп бўлади ёки аксинча.

Шундай қилиб, биз хизматлар соҳасида меҳнат ресурслари бутун аҳолига тааллуқли жараёнлар билан бевосита боғлиқлигини эътироф этган ҳолда, меҳнат ресурслари динамикасининг маълум даражада нисбий «мустақиллиги»га эътиборни қаратамиз. У мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан боғлиқ бўлган демографик асосни яхшироқ тушунишга ёрдам бэради. Шу маънода «меҳнат ресурслари» ижтимоий ва демографик ривожланишни таҳлил қилиш ва асослаб беришнинг ўзига хос методологик воситаси бўлиб майдонга чиқади.

Ў.Т.Муқимова – СамИСИ таянч докторанти

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СИФАТИ: УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ДАРАЖАСИГА ЕТКАЗИШ УЧУН ҚАНДАЙ ТАЛАБЛАРНИ БАЖАРИШ ЛОЗИМ?

Аннотация. Ушбу мақолада кишилик жамиятининг бугунги ижтимоий ҳаётида хизмат кўрсатиш жараёнини кенг тадбиқ этиш орқали унинг қулайлиги ва самарадорлигини ошириш билан биргаликда соҳада ўз ечими кутиб турган долзарб масалалар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: хизматлар соҳаси, хизмат кўрсатиш, рақамли иқтисодиёт, инновацион ғоялар, инфратузилмавий шароит

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы в сфере человеческого общества, а также повышения его удобства и эффективности за счет широкого использования процесса служения в современной общественной жизни.

Ключевые слова: сфера услуг, оказание услуг, цифровая экономика, инновационные идеи, инфраструктурные условия.

Abstract. This article discusses topical issues in the sphere of human society, as well as improving its convenience and efficiency through the widespread use of the service process in modern public life.

Keywords: service sector, service provision, digital economy, innovative ideas, infrastructure conditions.

Мамлакатимизда инсон қадрини улуғлаш, ҳар бир юртдошимизнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш, бу борада ижтимоий ҳаётимизда муҳим ўрин тутувчи маҳаллаларнинг аҳамиятини ошириш – Янги Ўзбекистонни барпо этишда эътиборни қаратиш лозим бўлган мустаҳкам пойдеворлардан биридир. Ана шу пойдеворнинг устида қад кўтарадиган икки муҳим бош устунлар, яъни бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умумбашарий ғояларга асосланган кучли маънавият – бугунги жамиятимизда юз берадиган барча сиёсий-ижтимоий муносабатларнинг мазмуни ва сифатини белгилаб беради. Бу пойдеворнинг мустаҳкамлиги ўз навбатида, халқимизнинг бирдамлигида, қолаверса жаҳон саҳнасида юртимизнинг ҳар томонлама куч-қудратининг ошиб боришида яққол намоён бўлади. Мазкур ҳолат Учинчи Ренессанс асосларини барпо этишнинг ўзига хос ва ўзгармас шартларидан бири ҳисобланади.

Юртбошимиз таъбири билан айтганда, “Янги Ўзбекистонни барпо этиш – бу шунчаки хоҳиш-истак, субъектив ҳодиса эмас, балки туб тарихий асосларга эга бўлган, мамлакатимиздаги мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазиятнинг ўзи тақозо этаётган, халқимизнинг асрий интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруратдир”.

Бизга маълумки, ренессанс атама сифатида анча кенг мазмунга эга

бўлиб, маданиятда, илм-фанда, санъатда, таълим-тарбияда, умуман, жамият ҳаётида узоқ муддатли турғунликдан кейин қайта жонланиб, тез ривожланишни, ижтимоий онг ва қадриятлар тизими янги сифат босқичига чиқишини билдиради. Бу ҳолатни англаш ҳамда такомиллаштириш учун жамиятимиз ҳаёти учун зарур ислоҳотларни тўғри ва ўз вақтида амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади. Ана шундай ислоҳотлардан бири хизматлар соҳасини тубдан такомиллаштириш, трансформациялаштириш ва рақамли иқтисодиётнинг муҳим, ажралмас бўлагига айлантириш сифатида юзага келади.

Мазкур сабабдан ушбу тушунча ва у билан боғлиқ жараённинг мазмунини аниқ очиб бериш, аҳолининг барча қатламлари, аввало, ёшлар онгига етказиш, бу ўринда таъсирчан механизмлардан фойдаланиш анча-йин самарали ҳисобланади. Лекин ахборот ва ахборотлаштириш асрида бу механизмларни танлашда ортиқча бўрттиришларга йўл қўймаслик, танланган чора-тадбирларнинг мазмун-моҳиятини аниқ ва лўнда, мавжуд меъёрлардан оғишмаган ҳолда амалга ошириш, белгиланган марраларга эришиш учун комил ишонч билан дадил қадам ташлаш зарур бўлади.

Ҳозирги рақамли, смарт иқтисодиётга ўтиш шароитида илм-фанни иқтисодиётнинг асосий драйверига айлантириш, илмий тадқиқотлар ҳажмини кенгайтириш, иқтидорли ёш олимларнинг инновацион фаолиятини ривожлантириш, амалда мавжуд бўлган илмий ташкилотларнинг салоҳиятини янада мустаҳкамлаш ва ривожлантириш зарурати юзага келмоқда. Бу таълим-тарбия тизими, шунингдек илмий тадқиқотларнинг самарадорлигини янада ошириш ва унда ёшларнинг инновацион ғоялари ҳажмини кенгайтиришни талаб қилади. Бунда асосий мақсад, албатта, Учинчи Ренессанс ҳисобланади, келгуси даврлар учун белгиланган чора-тадбирлар, кўрсатиладиган хизматларнинг мазмун-моҳияти ана шу жараёнга қаратилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига биноан, 2021-2023 йилларда мамлакатимизда соҳани ривожлантиришнинг бир қатор йўналишлари белгилаб олинди. Мазкур ҳужжат асосида мамлакатнинг иқтисодий ўсишини таъминлашда хизматлар соҳасини муҳим драйверга айлантириш, “комплекс хизматлар” кўрсатишни ташкил этиш, хизматлар соҳасининг ривожланганлигини баҳолаш тизимини жорий этиш, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб хизматлар турларини кенгайтириш, мавжуд таълим ва соғлиқни сақлаш хизматлари салоҳиятини ошириш, уларнинг сифатини яхшилашда хусусий секторни жалб қилиш учун қулай иқтисодий ва инфратузилмавий шароитларни яратиш каби муҳим ва дастуруламал вазифалар белгилаб берилган.

Юқорида белгиланган чора-тадбирларни ўз вақтида, сифатли амалга ошириш учун пухта режалаштирилган, илмий асосланган лойиҳалар ишлаб чиқилиши талаб этилади. Бу борада ҳукуматимиз томонидан

тегишли тартибда “йўл хариталари” ишлаб чиқилган бўлиб, унинг ижросини таъминлашда соҳага масъул ташкилотлар билан биргаликда, жараёнда иштирок этишни истаган истеъдодли, шижоатли ёшлар ҳам жалб қилинмоқда.

Мамлакатимиз ҳудудларининг ўзига хослигидан келиб чиқиб, ўша ҳудуд ижтимоий инфратузилмасига мос келадиган хизматларни яратиш ва кенгайтириш, бу борада самарали натижаларга эга илғор тажрибаларни қўллаш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада аҳолининг иқтисодий саводхонлигини ошириш, уларни туризм, транспорт, тиббиёт, таълим хизматлари ҳамда йирик савдо комплекслари фаолияти соҳалари учун керакли мутахассислар қилиб етиштириш бўйича лойиҳалар ишлаб чиқилиши ва қўллаб қувватланиши эътиборга моликдир. Шунингдек, хавфсизлик талабларини қўйган ҳолда, аэропорт, темир йўл ва автовокзаллар ҳудудларида, магистрал йўллар ёқасида савдо ва хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш тадбиркорларни даромад, аҳолини иш билан таъминлашини ҳисобга олиб етишиб келаётган ёш авлодни касбга йўналтирган ҳолда мутахассис қилиб тарбиялаш ҳам долзарб аҳамиятга эгадир.

Ҳозирги кунда дунёнинг замонавий қиёфа акс этган мегаполисларда савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари фаолиятини тарқоқ ҳолда эмас, балки марказлашган ҳолда, аниқ бир комплекс манзилда бирлашган ҳолда ташкил этиш ривожланмоқда. Бу борада асосий масала мазкур “мажмуа” типидаги хизмат кўрсатиш объектлари фаолиятини кучайтирилган хавфсизлик чораларини кўрган ҳолда ташкил этиш орқали уларнинг кун-у тун ишлашини таъминлашга қаратилган. Бу эса жойлардаги ижтимоий жамиятнинг салоҳиятни юзага чиқариш, ташаббускорларни қўллаб-қувватлаб ва асосийси, кўрсатиладиган хизматлар ҳажмини ошириш бўйича ўзининг юқори самарадорлик кўрсаткичларига эга ҳисобланади.

Мазкур ҳолат бир вақтнинг ўзида бир қанча ўзининг ечимини кутиб турган масалаларнинг ҳам ечимини топишга кўмаклашиши мумкин. Мисол учун, хизматларни рақамли форматга ўтказиш орқали, қўшимча иш ўринларини яратиш ва бу бўйича ижтимоий инфратузилмани шакллантириш, ҳукумат томонидан ишлаб чиқилган ва таклиф этилаётган турли ижтимоий лойиҳалар, жумладан “Электрон ҳукумат” тизими хизматларидан фойдаланиш даражаси ошишига олиб келади. Бу эса соҳада хизмат қилаётган турли тадбиркорлик суъектлари фаолиятининг кенгайиши ва улар томонидан қўшимча таклифларнинг ортишига имконият яратади. Бундан ташқари, қўшимча хизматларни яратишда ижтимоий соҳа ташкилотлари фаолияти эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда интеграциялаш ҳам кутилган самарани беради.

Хизматлар кўрсатиш соҳаларининг хизмат кўрсатиш сифатини биз истаган, бизнинг келажакдаги орзу қилган мукаммал даражага эришишини ҳоҳлар эканмиз, олдимизда турган бир қатор тизимли вазифаларни ўз навбатида амалга ошириш талаб этилади:

- соҳани ривожлантиришга қаратилган инновацион лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш орқали ташаббускор ёшларнинг дахлдорлигини ошириш, қўшимча иш ўринлари ташкил этиш орқали ўз ҳудудининг ривожига ҳисса қўшиш ҳамда бунёдкорлик, яратувчанлик қобилиятларини ривожлантириш учун ҳар доим ўқиш ва изланишга шарт-шароит яратиш;

- "билим-амалиёт-тажриба-натижа" ғояси остида тизимлаштирилган ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини яратиш, бунда жамият ижтимоий ҳаёти учун зарур ва тез қабул қилинадиган қулай хизматларни ишлаб чиқиш ва таклиф қилиш;

- самарали натижага эришган хизматлар кўрсатиш соҳасини янада ривожлантириш ва унинг фаолият доирасини ўз ҳудудидан ташқарида ҳам ишончли фаолият юритишини таъминлаш мақсадида ҳудудларда иқтисодий тренинглар, танқидий мониторингга асосланган тажриба алмашиш ишларини йўлга қўйиш.

Асосийси, соҳага кириб келаётган мутахассислар ва уларни ўз жамоасида кўришни истаётган тадбиркорлик субъектлари фаолиятида хизмат кўрсатиш сифати – бу муҳим ва асосий индикатор сифатида доимий эътибор ва меъёрни талаб қилувчи омил эканлиги тушунчасини шакллантириш муҳим вазифа бўлиб қолаверади.

N.J. Mamanazarova– QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi tayanch doktoranti

SUG'ORILADIGAN YERLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISHNI RAG'BATLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirishning jahon tajribasidan O'zbekistonga qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'oriladigan yerlar, agrar islohotlar, jahon tajribasi, yerlar unumdorligi, erroziyaga uchragan yerlar, haydaladigan yerlar, yer va suv resurslarini muhofaza qilish

Аннотация: В данной статье разработаны рекомендации по применению мирового опыта в Узбекистане для стимулирования повышения продуктивности орошаемых сельскохозяйственных угодий.

Ключевые слова: орошаемые земли, аграрные реформы, мировой опыт, плодородие почв, эродированные земли, пашня, охрана земель и водных ресурсов

Abstract: In this article, recommendations are developed on the application of world experience in Uzbekistan to stimulate an increase in the productivity of irrigated agricultural land.

Keywords: irrigated lands, agrarian reforms, world experience, soil fertility, eroded lands, arable land, protection of lands and water resources

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan jahon tajribasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni o‘rganish va umumlashtirish asosida ularni O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etishga bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash joizki, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish bo‘yicha jahon amaliyotida boy tajribaga ega. Bu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribasi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida yer xususiy mulk ekanligi va shu jihatdan respublikamizdan farq qilishini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

AQShda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakli fermalar hisoblanadi. Barcha fermalar ikki guruhga ajratilgan: kichik va yirik. Kichik fermalarga yillik daromadi 250 ming dollargacha bo‘lgan fermalar kiritiladi. Yirik fermalarning yillik daromadlari 250 ming va undan ko‘p miqdorni tashkil qiladi[1]. AQSh qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimida davlat tovar dasturlari alohida o‘rin tutib, unda yerlarning unumdorligini saqlash va oshirib borishga alohida e’tibor qaratiladi. Yerlar unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat tovar dasturlari doirasida bajariladigan ishlarning 26 %i kichik fermalar, qolgan qismi yirik fermalar tomonidan amalga oshiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, yirik fermalar irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini asosan o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalashtirsalar, kichik fermalarda bu tadbirlarning 95 %i davlat tomonidan moliyalashtiriladi[2].

AQShda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari xarid-garov operatsiyalari, kafolatlangan narxlar va ekin maydonini qisqartirgani uchun bevosita to‘lovlardan iborat. Davlat tomonidan tartibga solishda ayniqsa, kafolatlangan narxlar muhim o‘rin tutib, bugungi kunda faqat muayyan shartlarga amal qilayotgan, xususan, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, yerlarning unumdorligini oshirish tadbirlarini amalga oshirayotgan fermalarga kafolatlangan narxlar taqdim etiladi[3].

AQSh Qishloq xo‘jaligi vazirligida Davlat tuproq xizmati faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifasi tuproq unumdorligi monitoringini yuritishdan iborat. Bu tashkilot tomonidan aniq yer uchastkalari uchun muayyan texnologiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu texnologiyalar tuproq unumdorligining pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, shu sababli fermer tuproq unumdorligi to‘g‘risida qayg‘urmaydi. Taqdim etilgan aniq texnologiyalar va tavsiyalar asosida u kredit oladi va sug‘urta qilinadi. Agar Davlat tuproq xizmati tomonidan tavsiyalar berilgan bo‘lsa, ko‘zda tutilmagan (fors-major holati) zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan to‘lanadi[4]. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki,

[1] Экономика США /Под ред. В.Б. Супяна. – СПб.: Питер, 2009. – С.321
[2] O’sha joyda
[3] Андреева Н. Сельское хозяйство США: факторы, определяющие высокую эффективность отрасли /Человек и труд. 2008. - №8. – С.35
[4] Куст Г. Земля, погубленная за наш счет / http://www.forbes.ru

AQShda yer unumdorligini oshirib borishning aniq mexanizmi ishlab chiqilgan.

Xitoyning umumiy foydalanadigan yerlari 138 million gektar bo‘lib, jon boshiga 0,11 gektardan to‘g‘ri keladi. Haydaladigan yer maydoni - 100 million gektar bo‘lib, shundan 50 million gektari sug‘oriladigan yerlar.

Xitoydagi yerlarning sifati to‘g‘risida so‘z yuritganda shuni ta’kidlash lozimki, jami haydaladigan yerlarning 41 %ini 1-toifali yerlar tashkil etadi. Bu yerlar o‘zining yuqori unumdorligi bilan ajralib turadi. 2-toifali yerlar o‘rtacha sifatga ega bo‘lgan yerlar bo‘lib, jami haydaladigan yerlarning 35 %i mazkur yer toifasiga to‘g‘ri keladi. 3-toifali yerlar sifati yomon yerlar hisoblanadi va jami haydaladigan yerlarning 20 %ini egallaydi. Jami haydaladigan yerlarning 4 %i qishloq xo‘jaligiga yaroqsiz yerlar hisoblanadi[1].

Umuman olganda, Xitoyda yerning sifatini o‘rtacha baholash mumkin. Jami haydaladigan yerlarning 60 %ga yaqinini unumdorligi turli omillar ta’sirida past bo‘lgan yerlar tashkil etadi. Xususan, jami haydaladigan yerlarning 8,5 %i eroziyaga uchragan, 11,4 %i eroziya xavfini oshishiga olib keladigan tekis bo‘lmagan maydonda joylashgan, 9,2 %i suv bosgan maydonlar, 6,6 %i kuchli sho‘rlangan, 10 %dan ko‘prog‘ida qum tarkibi haddan ziyod yuqori, 3,5 %i yetarli darajada chuqur bo‘lmagan unumdor qatlamga ega, 0,4 %i toshloq yerlar, 9,3 %i suv bilan yetarli darajada ta’minlanmagan, 1,1 %i yetarli haroratga ega emas.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning cheklanganligi, aholi soni ko‘pligi va zichlik darajasi yuqoriligi, urbanizatsiya darajasi oshishi, mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda rivojlanishi va buning natijasida qishloq xo‘jaligi oborotidan yer maydonlari chiqib ketishi hamda ekologik muammolar keskinlashuvi yer unumdorligi va yerdan foydalanish samaradorligini oshirishni eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Shu munosabat bilan yer unumdorligini oshirish, yer maydonlari, ayniqsa, haydaladigan yerlar maydonining qisqarishini oldini olish bo‘yicha keskin chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda Xitoyda yer unumdorligini oshirish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida so‘z yuritganda, shuni alohida qayd etish lozimki, yerlarning sifati davlat tomonidan qat’iy nazoratga olingan. Uni nazorat qilish, monitoringini yuritish 1986 yilda qabul qilingan “Erlarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bevosita XXR Davlat Kengashiga bo‘ysunuvchi Yerlarni boshqarish Davlat byurosi qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar, ayniqsa, haydaladigan yerlarning muomaladan chiqib ketmasligi, yer unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish va yer sifatini yomonlashgani uchun huquqiy javobgarlik masalalari bilan shug‘ullanadi. Shu jumladan, meliorativ dasturlarni moliyalashtirish asosan davlat va davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi qonun hujjatlari asosida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning unumdorligini oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga

[1]Линь Фэй Х. Рынок земли Китая в новых экономических условиях // Пробл. теории и практики упр. - 2009. - N 6. - С.67.

oshirildi:

1. Haydaladigan yerlar sifatiga shaxsan rahbarlar mas'ul etib tayinlandilar. Rahbarlar faoliyatiga baho berishda haydaladigan yerlar unumdorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar asosiy omillardan biri hisoblana boshladi.

2. Barcha ma'muriy birliklar darajasida yerlardan foydalanish bo‘yicha Bosh rejalar tuzildi. Mazkur rejalarda haydaladigan yerlar maydonlari qisqarishi va unumdorligi pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qat'iy me'yorlar belgilab berildi.

3. Qo‘riq va tashlandiq yerlarni haydash bo‘yicha ishlar faollashtirildi.

4. Yer resurslari inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Davlat yer boshqarmasi bir necha yil davomida katta mablag‘lar evaziga yer resurslarini inventarizatsiyadan o‘tkazishga erishdi. Bu jarayonda yerlar sifat va miqdor jihatdan baholandi. To‘plangan ma'lumotlar yer resurslaridan foydalanish Bosh rejalarini tuzishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Keyinchalik qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar unumdorligini oshirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari yanada takomillashtirildi. Xususan, 1998 yilda "Erlarni boshqarish to‘g‘risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi, 2004 yilda unga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritildi. Bu qonunda yer unumdorligining pasayishi uchun javobgarlik darajasi oshirildi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni umumlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xitoyda yerlar unumdorligini oshirishda bozor mexanizmlari va ma'muriy usullardan birgalikda foydalanish ustuvor o‘ringa ega. Bu esa o‘z samarasini namoyon qilmoqda va so‘nggi yillarda Xitoy agrar mahsulotlar ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Turkiya hududining hajmi bo‘yicha dunyodagi yirik mamlakatlardan biri sanaladi. Mamlakat hududining 44,3 %ini o‘rmonlar va 55,7 %ini qishloq xo‘jalik yerlari tashkil qiladi. Unumdor yerlarning 81,6 %i lalmi yerlar, 18,4 %i irrigatsiya usulida sug‘oriladi. Sug‘oriladagan yerlar hajmi bo‘yicha mamlakat Yevropada 3-o‘rinni egallaydi. Turkiya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo‘lishi bilan unumdor yerlar hajmini 41 mln. gektarga yetkazishni rejalashtirgan va bu maydon Yevropa Ittifoqi yerlarining 22 %iga teng bo‘ladi[1].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Turkiya so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Xususan, turli yillardagi tafovutlarga qaramasdan, Turkiya anjir, o‘rik va mayiz ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda, sabzavot va uzum ishlab chiqarish bo‘yicha 4-o‘rinda, tamaki ishlab chiqarish bo‘yicha 6-o‘rinda, paxta ishlab chiqarish bo‘yicha 7-o‘rinda va bug‘doy ishlab chiqarish bo‘yicha 8-o‘rinda turadi[2]. Bu muvaffaqiyatlar ko‘p jihatdan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-

[1] www.reach4turkey.com

[2] İSTATİSTİK GÖSTERGELER Statistical Indicators 1923-2008 / TÜRKİYE İSTATİSTİK KURUMU Turkish Statistical Institute. Istanbul. 2010. – P.195

tadbirlar bilan bog‘liq, ya’ni meliorativ tadbirlarni moliyalashtirishda xususiy yer egalarining ishtiroki ham kuzatiladi.

Turkiyada qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar unumdorligini oshirishda davlat tomonidan Janubi-Sharqiy Anatoliya loyihasining o‘rni beqiyos bo‘ldi. Ushbu irrigatsiya tizimining ishga tushirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirishga erishildi. Yerdan foydalanuvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun 2,65 mlrd. turk lirasi ajratildi.

Rossiya Federatsiyasida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar 220,7 mln. gektarni yoki mamlakat yer fondining 12,9 %ini tashkil etadi. Uning 122,1 mln gektari haydaladigan yerlar, 1,8 mln gektari ko‘p yillik o‘simliklar, 24 mln gektari o‘tloqlar, 68,0 mln. gektari yaylovlardan iborat[1].

Yerlarning davlat monitoringi ma’lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rossiya Federatsiyasining barcha sub’ektlarida yerlarning sifat ko‘rsatkichlari intensiv sur’atlarda yomonlashmoqda. Jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 17,8 %i suv eroziyasiga, 8,4 %i shamol eroziyasiga, 2,4 %i shamol va suv eroziyasining birgalikdagi ta’siriga uchragan. Haddan tashqari namligi ortib ketgan va botqoqlashgan yerlar jami qishloq xo‘jaligi yerlarining 12,3 %ini tashkil etadi. Sho‘rlangan yerlarning ulushi esa 20,1 %ga teng.

Ko‘rinib turibdiki, yerlar unumdorligini oshirish bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Shu munosabat bilan Rossiya hukumati yerlar unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bunday tadbirlar orasida Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2006 yil 20 fevralda qabul qilingan “Rossiyaning milliy boyligi sifatida 2006-2010 yillar va 2013 yillargacha mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuproqlari va agrolandshaftlarning unumdorligini saqlash va qayta tiklash maqsadli federal dasturi haqida”gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha yuqorida ko‘rib chiqilgan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, yerlar unumdorligini oshirish bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish eng avvalo, davlat tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga yerdan foydalanuvchilarning yer unumdorligini oshirishdan manfaatdorligini ta’minlash mexnizmini ishlab chiqish yer unumdorligini saqlab qolish va oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish bo‘yicha mazkur davlatlar tajribasidan O‘zbekistonda quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda:

AQSh tajribasigi ko‘ra, sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish uchun muayyan shartlarga amal qilayotgan, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, yer unumdorligini oshirish tadbirlarini amalga oshirayotgan fermerlar ishlab chiqargan mahsulotlargagina

[1] Земельные ресурсы /www.priroda.ru/regions/earth

ularni davlat tomonidan sotib olish uchun kafolatlangan narxlar taqdim etish;

AQSh tajribasiga koʻra, aniq yer uchastkalari uchun tuproq unumdorligini aniqlash boʻyicha zarur boʻlgan texnologiyalar va tavsiyalar ishlab chiqish asosida fermer xoʻjaliklariga maslahat xizmatlarini koʻrsatish, ushbu texnologiyalar va tavsiyalar asosida fermer xoʻjaliklariga sugʻoriladigan yer unumdorligini oshirish maqsadida kreditlar taqdim etish va sugʻurta xizmatini koʻrsatish;

Xitoy va Turkiya tajribasiga koʻra, sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari unumdorligini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlarni moliyalashtirishning davlat-xususiy sherikchilik asosidagi aniq mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Shoxujaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021
2. Shokhojaeva Zebo Safoevna. Important Aspects of Saving Water in Agricultural Products in the Territories of Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021
3. Zebo Safoyevna Shoxoʻjayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T, 2012
4. Зебо Сафоевна Шохужаева. Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. Economics, 2020
5. ZS Shoxoʻjaeva, A.B Kurbonov.. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 2019.

Д.Б. Тайлакова– ҚарМИИ ассистенти

ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Аннатация. Ушбу мақолада қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасини яхшилаш орқали аҳоли бандлигини ошириш йўллари таҳлил қилинган бўлиб, инсонларнинг муносиб турмуш шароити ва ҳаётини яхшилашга, турмуш сифатини оширишга, уларнинг турли хилдаги талабларини қондиришга бағишланган.

Калит сўзлар: Қишлоқ аҳолиси, хизмат кўрсатиш соҳаси, моддий хизматлар, савдо ва умумий овқатланиш, транспорт, алоқа, маиший хизмат ва уй-жой комунал хўжалиги, маиший хизмат кўрсатиш.

Аннотация. В данной статье анализируются пути увеличения занятости за счет совершенствования сферы обслуживания в сельской местности, и она посвящена улучшению достойных условий жизни и качества жизни, улучшению качества жизни, удовлетворению их разнообразных потребностей.

Ключевые слова: Сельское население, сфера обслуживания, материальное обслуживание, торговля и общественное питание, транспорт, связь, бытовое обслуживание и жилищно-коммунальное хозяйство, бытовые услуги.

Abstract. This article analyzes ways to increase employment by improving the service sector in rural areas, and is dedicated to improving decent living conditions and quality of life, improving the quality of life, meeting their diverse needs.

Keywords: Rural population, service sector, material services, trade and catering, transport, communication, household services and housing and communal services, household services.

Мамлакатимизда амалга оширилиб келиниётган ислоҳотлар иқтисодиётнинг барча соҳаларини шу жумладан қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга катта таъсир қилмоқда. Хизмат кўрсатиш соҳасини мамлакатимиз ички имкониятларидан келиб чиқиб, қишлоқ жойларда хизматлар соҳасини ривожлантириш, аҳоли бандлигини амалга оширишда бир қанча муаммолар мавжуд.

Шу билан бирга, қишлоқ жойларни ривожлантиришдаги жиддий камчиликлардан бири қишлоқ аҳолисини ва ёшларни иш билан бандлигини ошириш ва аҳоли даромадларини кўпайтириш ҳамда маҳаллий буджетларни тўлдиришнинг истиқболли манбаи сифатида хизмат кўрсатиш ва сервис имкониятларидан кам фойдаланилмоқда. Хизмат кўрсатиш соҳаси, айниқса, қишлоқ жойларида суст ривожланмоқда, бу ерда катта капитал маблағ талаб қилмайдиган ва хусусий тадбиркорлик учун жозибадор бўлган кўпгина анъанавий хизмат турлари етарли даражада эмас. Қишлоқ аҳолисининг хизмат кўрсатиш соҳасидан фойдаланиш имкониятлари юқлиги сабаб қишлоқ аҳолисида иқтисодий жиҳатдан анча қийинчилик кузатилмоқда. Бунинг натижасида хизмат кўрсатиш соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши ҳозирча жуда паст кўрсаткични кўрсатиб келмоқда.

Қишлоқ жойларда аҳолини зарур хизматлар билан узлуксиз таъминлаб бориш, қишлоқ аҳолисини кундалик эҳтиёжларини қондиришнинг оқибатида, хизматларни ривожлантиришга ундовчи механизмни харакатга келтирмоқда. Бу эса, хизматлар соҳасини кенг қамровли ривожланиши, аҳоли турмуш даражасини ошириш ва самарали иш билан иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Кейинчалик янги иш ўринларини яратиш орқали кичик иқтисодиётни барқарор ўсишини таъминлаш, инвестиция, солиқ пул-кредит, банк-молия, суғурта, ахборот-коммуникация, маиший хизматлар ва бошқаларни ривожлантириш ҳисобига такомиллашиб бормоқда. Аммо, кўплаб аҳолига кўрсатиладиган хизмат турларига қишлоқ жойлардаги эҳтиёж юқорилигича қолмоқда. Уларнинг ривожланиш даражаси шаҳар-ларда кўрсатилаётган хизматлар кўлами ва сифатидан кескин фарқ қилади.

Тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики, қишлоқ жойларда банк хизматларининг юқлиги банкомад ва терменалларнинг йўқлиги учун қишлоқ аҳолиси хориждан юборилган пул жўнатмаларини олиш учун шаҳар ҳудудида жойлашган банк хизматларига мурожаат қилишга мажбур бўлмоқда. Бу эса ўз навбатида аҳолидан шаҳарга келиб-кетиш ҳаражатларини, ортиқча вақт юқотилишини ва шунингдек бир қанча ноқулайликларни келтириб чиқаришига олиб келмоқда. Бугунги кунда оилаларни мураккаб маиший техника, компютерлар ва шахсий автотранспорт билан таъминлашнинг кескин ошиши уларга кўрсатилаётган хизматларнинг кенгайишига олиб келди. Аммо, бу хизматлар соҳасида ҳам қишлоқ жойларда ривожланиши кўнгилдагидек деб бўлмайди. Чунки электр тармоқлари талаб даражасида эмас. Ҳар бир

оилаларнинг маиший техника билан таъминланиш даражаси юқорилигини инобатга оладиган бўлсак ушбу приборларда носозликлар келиб чиққан тақдирда ёки носоз маиший техникани созлаш учун таъмирлаш устахоналари етишмайди. Истеъмолчилар томонидан ҳозирги кунда ҳарид қилинаётган маиший техниканинг замонавий брендлар Артел, Самсунг, Роисон ва ҳоказо каби фирмаларнинг товарларини сотиб олганда, товарларга сервис хизмати кўрсатиш 3-5 йил муддатга бепуллиги кафолатланган. Аммо, уларнинг ҳам, сервис марказлари фақатгина шаҳар ҳудудида жойлашган, бу эса қишлоқ жойларда истеъқомат қилувчи фуқаролар ҳарид қилган ва носозликка учраган маиший техника приборларини юклаб олиб келишда юқорида айтганимиздек ҳаражат ва вақт билан боғлиқ бўлган талабни юзага келтирмоқда. Шу сабабли қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш бўйича олиб борилаётган ишларни янада жадаллаштириш қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантирувчи асосий унсур бу – тадбиркорликдир.

Қишлоқ жойларда хизматларни ривожлантириш ва сифатини оширишда фуқаролар ва корхоналар чекка ҳудудларда жойлашган деб билиши керак баъзи харажатларни (масалан, масофавий хизматларга транспорт, етказиб бериш) ёки шунга ўхшаш харажатларни ўз зиммаларига олишни қабул қилиши керак. Қишлоқ жойларида хизмат кўрсатишнинг инновацияга асосланган воситаларни баъзи ечим сифатида таклиф қилиши мумкин. Давлат ўзининг инвестициялари бўйича қарорлар қабул қилган тенглик ва самарадорлик ўртасидаги ўзаро муносабатларга мураккаб ва сиёсий жиҳатдан нозик масала сифатида қишлоқ жойларда хизматларни ривожлантирувчи локомотивларни аниқлаши талаб этилади. Хизматларни етказиб бериш учун замонавий стратегияларни ўз ичига олиши қишлоқ ва шаҳар тафовутини аниқлаб тармоқлар бўйича мувофиқлаштириш, мобил хизмат кўрсатиш шахобчалари ва хизмат кўрсатиш сифатини оширишга ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш орқали шахар ва қишлоқ тафовутини қисқартириш керак.

Қишлоқ жойларида кенг тармоқли катта имкониятларга эга бўлган янги, керакли давлат фарқи сифатида олдинга сурилади, чунки қишлоқ жойларда тарихий жиҳатдан иқтисодий асосланган далиллар шуни кўрсатадики, шаҳарлар, қишлоқлар, ўқув ва инновацион жараёнларни қўллаб-қувватлаш учун рақобатбардош устунликнинг асосий манбаи ҳисобланади. Қишлоқ жойларидаги инновациялар анъанавий фаолиятни янги усулда жорий қилиш, янги иш жойларини яратиш ҳукумат ва фуқаролар қандай муносабатда бўлиши ҳақидаги қарашини ўзгартиришни тақозо этади.

Шу сабабли у миллий иқтисодиётнинг бошқа тармоқларидан, айтайлик, саноат, қурилиш кабилардан ўзига хос жиҳатлари билан кескин фарқ қилади, ва шу билан бир қаторда аҳоли эҳтиёжларини қондиришда ўзининг алоҳида ўрни бор. Ушбу тафовутлар қишлоқ жойларда хизматлар кўрсатиш ва ишлаб чиқариш сифатидаги даромадларнинг шаклланиши

ҳамда тақсимланиши механизмларида мазмуни ва хусусиятларида ўзининг ифодасини топади.

Қишлоқ жойларда аҳоли турмуш даражасини оширишга доир муаммоларни ҳал этишда айнан эҳтиёжманд ҳолатда ҳаёт кечираётган аҳоли қатламларини аниқлаб, уларнинг сонини узлуксиз камайтириб боришга жиддий эътибор қаратилиши лозим. Хар бир қишлоқ жойларда аҳоли қатламлари ва унинг ижтимоий гурухлари ўртасида катта даражада фарқ қилишидан келиб чиқиб, аҳоли даромадлари ва унинг баъзи хизматларга бўлган талаби қондирилиши таҳлил қилиб борилиши лозим.

К.О.Боймиров – ҚарМИИ магистранти

МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА УЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақолада мева-сабзавотчилик кластерларини ташкил этиш тамойиллари ва ташаббускорлигини танлаш мезонлари ҳамда тармоқ ихтисослиги бўйича йўналишлари қай тарзда ташкил этилиши мумкинлиги асосланган.

Калит сўзлар. Мева-сабзавот, кластер, тамойил, мезон, ихтиссослик, маҳсулот.

Аннотация. В основу данной статьи положены принципы организации плодоовощных кластеров и критерии выбора инициативы, а также способы организации направлений специализации отрасли.

Ключевые слова. Фрукты и овощи, кластер, принцип, критерий, специализации, продукт.

Abstract. This article is based on the principles of organizing fruit and vegetable clusters and the criteria for selecting the initiative, as well as how to organize the areas of specialization of the industry.

Keywords. Fruits and vegetables, cluster, principle, criterion, specialty, product.

Ҳозирги кунда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш, уларнинг эҳтиёжлари учун зарур бўлган резавор ва норезавор мева-сабзавот маҳсулотларини кўпроқ ишлаб чиқариш масаласи бош омил бўлиб хизмат қилмоқда. Шу сабабдан Ўзбекистон Республикасининг барча ҳудудларида мева-сабзавотчилик соҳасида янги кластерларни ташкил қилиш долзарб масала қилиб белгилаб олинган. Ушбу масалани ривожлантириш мақсадида қуйидагиларни ҳисобга олиш зарур.

Мева-сабзавотчилик кластерини шакллантириш ва фаолиятини ташкил этиш учун қуйидаги асосий тамойилларга риоя қилган ҳолда амалга ошириш лозим:

- мева-сабзавотчилик кластери хорижий инвесторлар ёки маҳаллий тадбиркорлар томонидан ихтиёрийлик асосида ташкил этилади, бунда муассислар таркибига, барқарор хўжалик алоқаларига ва илғор ишлаб чиқариш технологияларига эга бўлган, шунингдек яқин атрофдаги ҳудудда жойлашган мева-сабзавот ва узум маҳсулотларини қайта ишлаш,

тайёрлаш, сақлаш, қадоқлаш, ташиш, сотиш корхоналари, илмий марказлар кириши мумкин;

- қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларининг мева-сабзавотчилик кластери билан ўзаро муносабатлари, улар ўртасида тузилган шартномалар асосида амалга оширилади ва шартномада томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тартибга солинади;
- шу жумладан, етказиб бериладиган маҳсулотнинг камида 40 фоизи аванс билан таъминланиши ҳамда кейинчалик маҳсулотларнинг кафолатли равишда харид қилиниши белгилаб қўйилади;
- шартномадан ортиқча етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари товар ишлаб чиқарувчилар томонидан эркин тасарруф этилади, шу жумладан қўшимча келишувга кўра мева-сабзавотчилик кластерига сотилиши мумкин.

Мева-сабзавотчилик кластери ташаббускорини танлаш мезонлари қўйидагилардан иборат:

- мева-сабзавот ва узум маҳсулотлари етиштириш бўйича ер ижара шартномасининг мавжудлиги;
- мева-сабзавот ва узум маҳсулотлари етиштириш, қайта ишлаш, сақлаш ва транспортировка қилиш ҳамда тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш имконини берувчи мева-сабзавот кластери инфратузилмаси ва замонавий қишлоқ хўжалиги техникаларининг ёки тармоқ ва ҳудудий дастурлар доирасида тегишли қарорлар билан тасдиқланган ҳамда қисқа муддатда (1 йилгача) ишга тушиладиган мева-сабзавот кластери инфратузилмасини ташкил этиш бўйича инвеститсия лойиҳасининг мавжудлиги;
- ташаббускорнинг банк ҳисобварағида мева-сабзавот кластери фаолиятини ва инфратузилмасини ташкил этиш бўйича бизнес режани амалга ошириш учун етарли ва мажбуриятлардан озод бўлган пул маблағларининг ёки тўғридан-тўғри инвеститсияларни жалб этиш бўйича инвеститсия шартномасини ёхуд хизмат кўрсатувчи банкдан кредит олиш бўйича шартномасининг мавжудлиги;
- янги узилган ва қайта ишланган мева-сабзавот ва узум маҳсулотларини 3 млн АҚШ доллари эквивалентидан кам бўлмаган миқдорда сотилганлигини ёки сўнгги 3 йилда ўртача 2 млн АҚШ доллари миқдорида экспортни амалга оширганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар, ёки жорий календар йил учун 3 млн АҚШ доллари эквивалентидан кам бўлмаган миқдорда маҳсулотларни сотиш бўйича тасдиқланган шартномаларининг мавжудлиги.

Мева-сабзавотчилик кластери тармоқ ихтисослиги бўйича қуйидаги йўналишларда ташкил этилиши мумкин:

боғдорчилик – интенсив боғдорчилик ва томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш асосида ва мевачилик, ёнғоқчилик, цитрус ва кўп йиллик маҳсулот етиштиришга ихтисослашган;

узумчилик – томчилатиб суғориш технологиясини қўллаган ҳолда интенсив асосда хўраки ва/ёки саноатбоп узум маҳсулотлари етиштиришга

ихтисослашган;

сабзавотчилик – бир йиллик сабзавот, дуккакли экинлар, кўкат ва республика ҳудудида таъқиқланмаган бошқа қишлоқ хўжалик экинларини етиштиришга ихтисослашган;

иссиқхона – қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришда иссиқхона комплексларидан фойдаланишга ихтисослашган;

кўп тармоқли – юқорида санаб ўтилганлар бўйича биттадан ортиқ йўналишга ихтисослашган.

Мева-сабзавотчилик кластерлари мавжуд ер майдонлари ва маҳсулот ишлаб чиқариши турлари бўйича қуйидаги шаклларда ташкил этилади:

мустақил – тўлиқ циклда (мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш, сотиш бўйича) фаолият олиб бориш учун белгиланган тартибда ўзига ажратилган йирик ер майдонларига (плантатсия) эга мева-сабзавотчилик кластери;

тайёрлов-қайта ишлаш – ҳўл ёки қайта ишланган холда экспорт қилиш мақсадида мева-сабзавот маҳсулотларини бошқа ишлаб чиқарувчилар (фермер, деҳқон, агрофирма, кооператсия ва бошқалар)дан фақат шартнома асосида сотиб олувчи мева-сабзавотчилик кластери;

аралаш – маҳсулот етиштириш учун белгиланган тартибда ўзига ажратилган ер майдонларига (плантатсия) эга ва бир вақтда шартнома асосида маҳсулот етиштирувчилардан (фермер, деҳқон, агрофирма, кооператсия ва бошқалар) мева-сабзавотларни сотиб олувчи кластер.

К.Ғ. Мухаммадиев– СамИСИ Банк иши кафедраси ассистенти

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИЖАДАЛ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакат иқтисодиётида хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш истиқболларининг илмий асослариёритилган,хизматлар соҳасидан фойдаланишни услубиёти келтирилган,Хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар таҳлил қилинган ва хизматлар соҳасидан самарали фойдаланиш бўйича таклифларберилган.

Калит сўзлар: хизматлар соҳаси, консалтинг, транспорт,хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар, интернет, савдо кўнгилочар марказлар.

Аннотация: В данной статье описывается научное обоснование перспектив стремительного развития сферы услуг в экономике, приводится методология использования сферы услуг, проводится анализ предприятий и организаций, работающих в сфере услуг, и даются рекомендации по эффективному использованию услуг.

Ключевые слова: услуги, консалтинг, транспорт, предприятия и организации, работающие в сфере услуг, Интернет, торгово-развлекательные центры.

Abstract: This article describes the scientific rationale for the prospects for the rapid development of the service sector in the economy, provides a methodology for using the service sector, analyzes enterprises and organizations operating in the service sector,

and provides recommendations for the effective use of services.

Key words: services, consulting, transport, enterprises and organizations working in the service sector, Internet, shopping and entertainment centers.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда барча соҳа ва тармоқлар билан бир қаторда хизматлар соҳаси ҳам алоҳида ўрин тутади. Бугунги кунда хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг бошқа соҳа ва тармоқлари ичида жадал ривожланиши билан ажралиб турибди. Ҳар биримиз ҳар куни хизмат кўрсатиш таъсирида бўламиз. Биз уяли алоқа, интернет, савдокўнгилочар марказлар, умумовқатланиш, гўзаллик салонлари, консалтинг, тиббий ва ўқув марказлари хизматларидан, турли транспорт воситаларидан фойдаланамиз. Бу барча хизмат турлари хизматлар соҳаси тушунчасини ташкил этади.

Хизматлар соҳаси – корхоналар, ташкилотлар ҳамда жисмоний шахслар томонидан кўрсатиладиган турли хизмат турларини такрор ишлаб чиқаришни ўз ичига олган жамланма соҳа ҳисобланади. Бошқача айтганда, хизматлар соҳаси тижорат, касбий ва маиший хизматлар кўрсатишга ихтисослашган мамлакат иқтисодиётининг тармоғи ҳисобланади. Хизматлар соҳаси инсоният тараққиётининг илк босқичларида пайдо бўлиб, жамиятнинг давлат ташкилотлари маъмурий аппарати, руҳонийлар томонидан ижтимоий хизматлар кўрсатилиши, мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича хизматлар (профиссионал армия, судьялар) каби хизмат турларини ўз ичига олган.

Хизматлар соҳасининг ривожланиш даражаси жуда паст бўлганлигининг асосий сабаблари давлат мулкининг устуворлиги ва хизматлар соҳасини молиялаштириш қолдиқ принципи асосида амалга оширилганлиги бўлди. Хизматлар соҳасида барқарор ривожланиш XX асрнинг иккинчи ярмида нафақат ривожланган, балки ривожланаётган мамлакатларда ҳам кузатилди. Натижада хизматлар соҳасининг кўлами кенгайди ва мамлакат ЯИМнинг катта қисмини эгаллади. 2020 йил ҳолатига кўра, хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотларнинг улуши – 66,2 фоиз, саноат - 17,2 фоиз, қурилиш - 9,0 фоизга етди ва атиги 7,6 фоизи қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги соҳаси ҳиссасига тўғри келди. Хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар таркибида, савдо фаолияти билан шуғулланувчи корхона ва ташкилотлар юқори улушни (40,1 фоиз) эгаллайди. Яшаш ва овқатланиш бўйича хизмат кўрсатувчи корхона ва ташкилотларнинг улуши 9,7 фоизни ташкил этди. Хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар таркибида ташиш ва сақлаш фаолияти билан шуғулланувчи корхона ва ташкилотларнинг улуши 5,7 фоизга етди. Ахборот ва алоқа фаолияти билан шуғулланувчи корхона ва ташкилотларнинг жами хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар таркибидаги улуши 3,0 фоизга тенг бўлди. Соғлиқни сақлаш, шунингдек, ижтимоий хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотларнинг улуши 3,0 фоизни ташкил этди.

Хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар умумий сонида кичик тадбиркорлик субъектларининг ҳиссаси 77,6 фоизга тўғри келади. 2020 йил 1 май ҳолатига кўра, йирик ташкилотлар улуши 22,4 фоизни ташкил этди.

2020 йил 1 май ҳолатига кўра, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан хизматлар соҳасида фаолият кўрсатаётган кичик тадбиркорлик субъектлари сони 37 449 тага кўпайди.

Дастлабки маълумотларга кўра, 2020 йил январь-апрель ойларида кўрсатилган бозор хизматлари ҳажми 60,01 трлн сўмга етди. Унинг номинал ҳажми бор йўғи 4,4 трлн сўмга ошди. Шундан келиб чиққан ҳолда, қуйидаги таклифларни келтиришимиз мумкин:

- хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш, ялпи ички маҳсулотни шакллантиришда хизматларнинг ўрни ва улушини ошириш, кўрсатилаётган хизматлар таркибини, энг аввало, уларнинг замонавий юқори технологик турлари ҳисобига тубдан ўзгартириш;
- саноат ва хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш ҳисобига субвенцияга қарам туман ва шаҳарларни камайтириш ва маҳаллий бюджетларнинг даромад базасини кенгайтириш;
- аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатишни яхшилаш, аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатишда давлат-хусусий шериклигини камайтириш;
- аҳолига тиббий ва ижтимоий-тиббий хизмат кўрсатиш қулайлиги ҳамда сифатини ошириш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш;
- аҳолини коммунал-маиший хизматлар билан таъминлаш даражасини ошириш ва замонавий технологияларни босқичма-босқич жорий этиш орқали қишлоқ жойларда аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш;
- аҳолига транспорт хизмати кўрсатишини тубдан яхшилаш, йўловчи ташиш хавфсизлигини ошириш;
- театр ва томоша масканлари, маданий-маърифий ташкилотлар ва музейлар фаолиятини ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш.

Миллий иқтисодиётнинг мутаносиблиги ва барқарорлигини таъминлашда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантириш натижасида, мамлакатда янгидан – янги қўшимча иш ўринлари яратилади ва бу ўз навбатида, аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшилашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.М. Мирзиёев “2019 йил – Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”. 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь, № 271-272
2. 2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиринг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” ни амалга ошириш бўйича чоратадбирлар.
3. Абдуллаев Ё. “Статистика назарияси”. –Т.: Ўқитувчи, 2002 йил
4. М.Пардаев, Қ.Мирзаев , О.Пардаев. “Хизматлар сохаси иқтисодиёти ” –Т.: “Иқтисод-молия” 2014 йил.
4. www.stat.uz
5. www.lex.uz

М У Н Д А Р И Ж А :

I ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ”		
Пардаев М.Қ., Холбоев У.Х.	Рақобат назарияси: таърифи ва эволюцияси	4
Пардаев М.Қ., Холбоев У.Х., Эгамов А.Р.	Рақобатбардошлик тушунчасининг назарий масалалари	8
Аббасов А.А., Ишбекова Л.	Иқтисодиётга чет эл капиталини жалб қилиш самарадорлиги	13
Shoxo‘jaeva Z.S. Mirjamilova H.N.	Hududlarda agroklasterlarini rivojlantirish siyosati va institutsional asoslarini takomillashtirish	17
Rashidov R. I	Qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda agroklas-terlarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari	21
Elchiyev J.	Korxonalarda mehnat samaradorligini oshirishda mehnatga haq to‘lash tizimining o‘rni	24
II ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА АҲОЛИ БАНДЛИГИ, ФАРОВОНЛИГИ, ЯШАШ СИФАТИ ВА ДАРАЖАСИНИ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Тангиров А.Э.	Сервис хизмати кўрсатиш тизимини такомиллаштириш	28
Mamasoliev G‘.M.	Aholi ro‘yxati ma’lumotlaridan foydalanishning aholi bandligini ta’minlashdagi roli	32
Qiyomov Yu.T.	Hududiy uy–joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish	37
Davronov P.B.	Aholi turmush darajasi va uning daromadlari ko‘rsatkichlari	41
Samiyeva G.T., Primova S.A.	Kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor vazifalari	44
Турдимуратов М.М.	Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш – тур-муш даражасини оширишнинг асоси сифатида	48
Ўроқов Ф.О.	Ўзбекистонда аҳоли бандлигини таъминлашдаги ислоҳотлар самараси	51
Самиева Г.Т. Рамазонов Ш.У.	Аҳолининг турмуш даражасини ўрганишнинг энг муҳим жиҳатлари	53
Samiyeva G.T Xaydarov B.	Uchinchi renessans sharoitida aholi bandligi masalasini hal etish va bunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish	56

Rimboyeva Nafosat	Qishloq xo‘jaligini samarador va raqobatbardosh qilish - islohotlarning bosh mezoni	60
Азизкулов А. Алимов А.	Сервис соҳасида рақобатбардош кадрларни тайёрлашда маънавий мероснинг ўрни	64
III ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ, РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”		
Рахимова Н.А. Рахимова З.А.	Спрос на устойчивый туризм	67
Jabborova Zuhra	Turizm sohasida zamonaviy innovatsion texnalogiyalar, virtual tizimning ahamiyati	71
Xamroyev M. Saidqulov J.	Sayyohlik biznesini sug‘urtalash amaliyoti	74
Холбаев Ш.	Туризм соҳасини ривожлантиришда иқтисодий салоҳиятдан фойдаланиш масаласи	77
IV ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГНИ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Дусматов Б.О.	Саноат корхоналари ривожланишини бошқаришга инновацион ёндашувлар	82
Шарипов С.Б.	Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш механизмини такомиллаштириш	85
V ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
E.N.Xodjayev E.Sh.Jaynarov	Ta’lim tizimini moliyalashtirishni samarali tashkil etish yo‘llari	88
Имомов Х.Х.	Мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш	91
Nosirov B.N.	Xizmat ko‘rsatish sohalarida, investitsiya loyihalarida iqtisodiy–matematik usullar va ekonometrik modellashtirishning ahamiyati	95
Nurmuxamedov A Karimov A.I .	Innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va shart-sharoitlari	100
Jumayeva G.J., Raxmanov U.B.	Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishning obyektiv zarurligi	105
Samiyeva G.T. Otabekova G.O.	Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va samaradorligining ilmiy-uslubiy asoslari	109

Muxammadiev K. G‘ulomiddinov J.	Tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari	112
Хамроев М., Тулқинов Ш.	Жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси ривожлантириш масалалари	115
Nosirov B.N.	Investitsiya mablag‘larining samaradorligini aniqlash va rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishnng ahamiyati	118
Malikova D.	Risks in consulting activities and managing the risks of consulting projects	121
Абиев Д.	Банк хизматларини такомиллаштиришда инновацияларни афзалликлари	124
Рузибаева Н.Х.	“Яшил” банк хизматлари – рақамли иқтисодиётни ривожлантириш драйвери	128
Ниёзов Ш. Усмонов П.	Инвестиция фаолиятини молиялаштириш манбалари жалб этиш кўлламини ошириш йўллари	132
Аблаизов А.А.	Экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ҳуқуқий меъёрлари ва давлатимизнинг сиёсати	134
VI ШЎЪБА. “УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ, АУДИТ ВА СТАТИСТИКА ФАНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Уразов К.Б., Мардонов М.Ш.	Инновацион фаолиятни молиялаштириш ҳисобининг ўзига хос жиҳатлари	138
Egamberdiyeva S. Rahmonova T.M. Xazratov S. I.	Xalqaro standartlari asosida uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish muammolari	142
G‘anibayev I.Sh.	Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari	147
Egamberdiyeva S. Boyqobilov F.Sh.	Buxgalteriya hisobi va auditning samaradorligini oshirishda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolari	152
Boyqobilov F.Sh. Rajabov G‘.A.	MHXS talablari bo‘yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzishni takomillashtirish	156
Очилов Ш. Б., Авезова Ш.М., Пулатова З.А.	Дифференциальный метод прогнозирования трудовых ресурсов на основе корреляционных моделей	161
Бутунов Ш.Б.	Аудиторлик текширувида ички хўжалик рискини аниқлаш ва баҳолаш хусусиятлари	165
Egamberdiyeva S. Shaymardanova Sh	Kapital qo‘yilmalar hisobini takomillashtirish	168
Yaxshiqulova M. Sultonova M.O.	Moliyaviy natijalar tahlilining ilmiy-nazariy asoslari	173

VII ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ”		
Касимахунова А.М. Бўтаев Т.	Муҳандислик таълим соҳалари талабаларида тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантиришнинг аҳамияти	178
Рахматов Б.Б. Сайидов Н.У. Тошқулов Б.Т.	Учинчи ренессансга ўтиш шароитида таълим хизматларини такомиллаштириш	181
Аликулов М.	Қашқадарё вилоятида саноатни ривожлантиришда инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари	184
Очилова Ҳ.Н.	Олий маълумотли мутахассисларга бўлган талабнинг истиқболли асослари	187
Тангиров А.Э., Сайидов Н.У.	Олий таълим муассаларида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда таълим хизматлари сифатини ошириш масалалари	192
VIII ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА УМУМИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАР”		
Xamrayeva S.N., Amanqulova M.	Elektron tijoratda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda kriptografiyadan foydalanish	195
Мусаев Р.М. Жайнаров Э.Ш.	Прогнозирование развития производства и защиты качества реализации сельхозпродукции	198
Shoxo‘jaeva Z.S., Eshboboev M.Z.	Qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanishning obъektiv zarurligi va iqtisodiy samaradorligi	200
Қурбонов А.Б.	Агратадбиркорликда хизматларнинг ўрни	205
Абиткариев А.М.	Божхона хизматини такомиллаштиришда рақамли иқтисодиётнинг ўрни	210
Alimova M.Yu. Ravshanov X.X.	Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish	213
Шохўжаева З.С.	Сув ресурслари билан таъминланганлик даражасининг назарий асослари	217
Дусматов Б.О.	Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида агросаноат мажмусида инновацион хизматлар инфратузилмасини ривожлантириш уларнинг рақобатбардошлигини ошириш йўллари	223
Hasanov B.T.	Urug’lik kartoshka yetishtirishda zamonaviy tizimlarni joriy etish holati	225

Дусматов Б.О.	Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида хизматлар соҳасида меҳнат ресурслари ва потенциалини ошириш йўллари	229
Муқимова Ў.Т.	Хизмат кўрсатиш сифати: учинчи ренессанс даражасига етказиш учун қандай талабларни бажариш лозим?	232
Mamanazarova N.J.	Sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirishni rag‘batlantirishning jahon tajribasi	235
Тайлакова Д.Б.	Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиш босқичлари	240
Боймиров К.О.	Мева-сабзавотчилик кластерларини ташкил этиш ва уларни ривожлантириш йўллари	243
Мухаммадиев К.	Мамлакат иқтисодиётида хизматлар соҳасинижадал ривожлантириш истиқболлари	245